Среди многих возможностей юмор считается самым сложным и идиосинкразическим аспектом по природе. Юмор – один из самых сложных объектов перевода в силу внутри лингвистических и культурно обусловленных особенностей того или иного языка. Та или иная ситуация, фраза или предложение может вызвать совершенно разную реакцию у представителей разных культур. Всякое высказывание обладает способностью оказывать на читателя или слушателя определенное pragmaticальное воздействие, а значит, имеет pragmaticальный потенциал, который по-разному реализуется в конкретных коммуникативных актах. Отсюда следует вывод, что и в тексте перевода важную роль играет pragmaticальная адаптация юмора. По мнению В.Н. Комиссарова, “переводчику необходимо заботиться о достижении желаемого воздействия на получателя в зависимости от цели перевода, либо воспроизводя pragmaticальный потенциал оригинала, либо видоизменяя его. Именно поэтому изучение pragmaticальных аспектов составляет одну из центральных задач теории перевода”.

**Ключевые слова:** Юмор, перевод, аудивизуал, субтитр и дубляж.

## AUDIOVIZUAL TARJIMADAGI YUMORNING TARJIMA YO'LLARI

### Annotatsiya

Yumor inson qobiliyatlarining tuzilishi jihatidan eng murakabi hisoblanadi. Chunki yumorning ishlatalishining ko'lami kengdir. Yillar davomida turli sohadagi olimlar yumor haqida turli xil qarashlarini oldinga surishdi. XX asrga kelib esa, uning qo'llanilishi audiovisual multimedia maxsulotlarida ko'rinish, uning subtitr va dublyajdagi tarjimasiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Shuning uchun ham kinoning rivojlanishi bilan bir qatorda audiovisual tarjimagadagi yumorga bo'lgan e'tibor Kundan kunga oshib bormoqda. Ushbu maqolada subtitr va dublyajdagi yumor bo'limiga to'xtalib uning tarjima yo'naliishlari va yo'llari yoritilib beriladi.

**Kalit so 'zlar:** Yumor, tarjima, audiovisual, subtitr va dublyaj.

The considerations regarding the theoretical debate on the AVT of humor derive from both the theory and practice. The two can be considered equally useful because, they are “simply two sides of the same coin: theory informs practice, which in turn contributes towards a theoretical framework”. This view falls into the framework of Descriptive Translation Studies, which investigate translations “as they manifest themselves in the world of our experience”. Translations are analyzed according to the socio-historical context within which they are embedded and the translation norms such a context has established. As a consequence, researchers can offer insight into the translation process they analyze and possibly detect procedural patterns. According to Venuti and his famous distinction between source-oriented and target-oriented approaches come readily to mind. In the former case, translators attempt to retain in the TT the linguistic and cultural differences the ST contains, thus making it evident that the former is a translated version of the latter. In a domesticating or target-culture approach, the TT is made

fluent, “intelligible and even familiar to the target-language reader”. These concepts can be and are applied to the analysis of TV and film comedy, along with other considerations stemming from the Poly system Theory that can help us to understand “the role translation plays in canon formation, and the establishment, development and maintenance of an academic discipline”. For instance, in the case of Italian AVT, which is the poly system under scrutiny here, Italy's cinema and audiovisual tradition matches the definition of “weak literature” as suggested by Even-Zohar when talking about literary translation.

He describes weak literature as being on the margins of a larger literary hierarchy that prevents the former from developing like other larger literatures, which may be therefore felt to be indispensable. This description it's the context because, like “weak literature”, the audiovisual production of Italy is limited compared to that of the United States, the reason being that after the initial Introduction boom, between 1906 and 1913, the European film industry

halted due to the outbreak of World Wars I and II, and it was consequently outdone by Hollywood. Despite its recovery, the European market is still overshadowed by US productions. Like other European countries, Italy largely depends on the importation and translation of American series and movies. It is therefore unsurprising that a large amount of scholarly research in AVT often deals with American audiovisual works and their translation into French, Spanish, Italian, German and so on [1].

And this study is indeed no exception; in its attempt to offer an account of the treatment of humor in Italian AVT, this work considers instances taken from comedy productions for the television and the cinema. In order to investigate revoicing and captioning, this book concentrates on the first two seasons of the TV comedy program *Modern Family* and its Italian dubbed and captioned (subtitled and dubbed) versions. This family sitcom revolves around the lives of Jay Pritchett and his family, all of whom live in suburban Los Angeles. Jay's family includes his Colombian second wife Gloria, their son Joe and Manny, Gloria's son and Jay's stepson. Jay also has two adult children: Mitchell, who is gay and in a long-term relationship with Cameron; and Claire, who is married to Phil. Cameron and Mitchell have adopted a Vietnamese baby girl (Lily), while Claire and Phil have three children: Haley, Alexandra and Luke. *Modern Family* is a telling example of the way comedy has been evolving to depict a multilingual and multicultural society such as that of North America. Most of the series' success and humor derives from its characters' playful use of language, cultural references and the clash between the North and South American societies, languages and cultures. It is a fascinating and humorous sitcom that poses several challenges and is therefore well worth exploring. Hence, the contrastive analysis carried out in this volume seeks to shed light on precisely those language- and culture-specific features that pose significant problems in humor translation, meaning wordplay, culture-specific references and multilingualism. As mentioned above, this investigation aims to bring together insights from the scholarly research on AVT and Humor Studies, most notably, Raksin's Semantic Script Theory of Humor and Attardo's General Theory of Verbal Humor. However, the inner complexities of humor, its development a translation within a Mult semiotic system such as the audiovisual setting call for an eclectic approach that extends beyond these fields. Therefore, this study also integrates observations by scholars in Film Studies, Corpus Linguistics, Conversation Analysis and so on. From a statistical point of view, the corpus under scrutiny is sufficiently large to allow for detecting patterns of translational behavior within different AVT modes. The complexity inherent in the rendering of wordplay has led scholars to address the issue of whether it is possible to successfully adapt wordplay in audiovisuals. Chiaro offers a thorough description of the debate surrounding translatability and equivalence, two closely connected concepts that have been the subject of much debate in Translation Studies. However, in order to contextualize the debate as far as audiovisual humor is concerned, it should be stressed that when talking about the translation of verbal humor on screen

we most often think in terms of the possibility to achieve, dynamic equivalence [2].

As opposed to formal equivalence (or word-for-word translation), dynamic equivalence privileges target language solutions that are able to facilitate a more thorough understanding of the source text and not just convey its literal meaning. In this view, an efficient adaptation of audiovisual humor cannot be expected to necessarily reflect the formal structure of the source language joke, but, instead, to successfully render its intention, which is, presumably, to amuse the audience in the context of what they are watching. Therefore, according to the notes of Chiaro, in the context of puns, when an example of wordplay is labeled as "untranslatable," what is questioned is not the actual feasibility of its being somehow rendered in a target language - which indeed happens on an everyday basis - but rather the impossibility of achieving formal equivalence. Socio-cultural and diastatic variation, and the use of multilingual dialogue are also frequently adopted as humor-creating devices on screen, and they are often considered some of the major causes of "loss" of meaning in the process of lingua-cultural transfer. As Chiaro notes, both strategies are potentially problematic, because in the first case important characterizing linguistic features are omitted and in the second almost certainly incongruous associations are created with regional varieties from a completely different linguacultural context. However, according to Heiss, "certain genres, such as comedies, for example, are in a certain sense perceived as being detached from reality and therefore offer more room. Particularly, the animated comedy genre where suspension of disbelief seems to be easier for viewers has been a productive genre for the use of local regional varieties [3]."

The most emblematic and long-lasting example of this in Italian dubbing is probably *The Simpsons*, in which groundskeeper Willie speaks with a Sardinian accent, Chief Wiggum has a Neapolitan inflection, and Homer's friend Carl an accent from the Veneto region. As alienating as this choice might sound,

*The Simpsons* has been very successful in Italy over the years, which brings us to considerations concerning what constitutes a successful adaptation of audiovisual humor. While a certain strand of the scholarship on audiovisual translation and humor is currently still investigating the more traditional aspects outlined in this chapter, new directions have also recently emerged that reflect changes and evolutions in the production and distribution of audiovisual products containing humor. One of the most impactful aspects of audiovisual humor today is the increased use of taboo language and references, especially as far as Anglo-American fictional products are concerned. While the use of controversial and sometimes politically incorrect humor has always been a staple of more specific genres such as stand-up comedy specials and roasts, recent years have seen a proliferation of this kind of humor also in more mainstream TV series and film comedies, which seemingly adopt controversial language and themes in an attempt to remain relevant and topical in an increasingly fragmented and competitive audiovisual market. Whether or not this is a successful strategy in the pursuit of quality content.

## LITERATURE

1. Newmark, P. (1988). *Textbook of Translation*. London: Prentice Hall
2. Lawrence Venuti. (1995). *The Translator's Invisibility -- A History of Translation*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press.
3. Nida, Eugene A. (2001). *Language and Culture*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press.



Iroda ALMARDANOVA,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti nodavlat ta'lif muassasasi o'qituvchisi

E-mail:irodaalmardonova1404@gmail.com

Termiz davlat universiteti dots.v.b. f.f.f. doktori G.Begmatova taqrizi asosida

## GENETIK DESCRIPTION OF ECONOMIC TERMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE UZBEK LANGUAGE

### Annotation

In this article, the genetic description of languages in the genealogical analysis of terms related to a field, the aspects that should be paid attention to, the origin of economic terms, their variants in other languages of the language family to which they belong, similarities and differences between them different aspects are highlighted. Recommendations are given about adding news to the explanations of economic terms in explanatory dictionaries of the Uzbek language.

**Key words:** Genetics, genealogy, language family, language group, language origin, related languages, phonetics of related languages, grammar of related languages.

## ГЕНЕТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

### Аннотация

В данной статье генетическое описание языков при генеологическом анализе терминов, относящихся к определенной области, аспекты, на которые следует обратить внимание, происхождение экономических терминов, их варианты в других языках языковой семьи, к которым они принадлежат, выделяются сходства и различия между ними в разных аспектах. Даны рекомендации по добавлению новостей в пояснения экономических терминов в толковых словарях узбекского языка.

**Ключевые слова:** Генетика, генеология, языковая семья, языковая группа, языковая сеть, родственные языки, фонетика родственных языков, грамматика родственных языков.

## O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARIDAGI IQTISODIY TERMINLARNING GENETIK TAVSIFI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada biror sohaga oid terminlarni geneologik tahlil qilishda tillarning genetik tavsifi, ularda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, iqtisodiy terminlarning qaysi tildan kelib chiqqanligi, o'zi mansub bo'lgan til oilasidagi boshqa tillardagi variantlari, ular orasidagi o'xshash hamda farqli jihatlari yoritib o'tilgan. Iqtisodiy terminlarning o'zbek tilining izohli lug'atlaridagi izohlariga yangiliklar kiritish haqida tavsiyaviy fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Genetika, geneologiya, til oilasi, til guruhi, til tarmog'i, qardosh tillar, qardosh tillar fonetikasi, qardosh tillar grammatikasi.

**Kirish.** Tillarning genetik tasnifi yoki genetik xususiyati haqida fikr yuritishdan avval genetika atamasi va uning kelib chiqishiga nazar tashlamog'imiz maqsadga muvofiq.

Genetika – yunoncha «geneticos» so'zidan olingan bo'lib, tug'ilish, kelib chiqish degan ma'noni ifodalaydi. Genetika tirik organizmlaming irlisiyati va o'zgaruvchanligi to'g'risidagi fan bo'lib, biologiyaning alohida shoxobchasi hisoblanadi. Genetikani mustaqil fan sifatida rasmiy tan olinishida 1900-yil gollandiyalik Hugo de Friz, germaniyalik Karl Korrens va avstriyalik Erix Chermaklarning duragaylash bo'yicha olib borgan ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi[1]. Keyinchalik bu tushuncha barcha sohalarda o'zining ma'lum bir vazifikasi bilan kirib kela boshladidi. Xususan, tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va boshqa ko'plab fanlarda genetika va unga oid bo'lgan birlıklar paydo bo'la boshladidi. Tilshunoslikda bizga ma'lumki, tillarni bir nechta jihatlariga ko'ra tasnitlab o'rganilgan. Jumladan, morfologik, geneologik va tipologik jihatdan tasniflar shular jumlasidandir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dastlab tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganish dunyo tilshunosligida nemis tilshunoslari F.Bopp (1791-1867) va J.Grimm (1785-1863), daniyalik tilshunos R.Rusk (1787-1832) va rus filolog A.X.Vostokov (1781-1864)[2] larning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Tillarning qiyosiy-tarixiy metod asosida

o'rganish natijasida tilshunos olimlar tillarni qarindoshlik jihatiga ko'ra til oilalariga tasniplashgan. Bundan tashqari xronologik metod asosida ham tillarni geneologik tasnif qilishda foydalilanadi. Tilshunos olim A.Abduaizizovning ta'kidlachicha, "...tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganish natijasida, tillarning qarindoshligi, ularning bobo til(protil)dagi fonetik tizimlarini tiklash ishlari amalga oshiriladi[3]". Tillar kelib chiqishiga ko'ra bir-biri bilan qarindosh bo'lib, bir bobo tilga borib taqaladi. Ular fonetik jihatdan bir-biriga o'xshash bo'lib, ba'zi jihatlaridan farqlanadi. Ammo grammatik shakkllari jihatidan bir-biriga ancha yaqin turadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi kunda tilshunoslik rivojlanishi natijasida bir qator yangi yo'naliishlar, yangi nazariyalar, faktlar asosidagi qarashlar boyib bormoqda. Xuddi shunday leksikonimizda ham davr o'tishi bilan bir qator yangi sohaviy terminlar paydo bo'lmoidaki, ularning tadqiqi va lingvistik tahlili hali to'liq o'rganilgan emas. Shu bois maqolamizda ushbu yo'naliishda, ya'ni O'zbek tilining izohli lug'atlaridagi sohaviy terminlarni genetik jihatdan tahlil qilib, ularning geneologiyasiga oid xusuiatlarni, sintez, qiyoslash va component tahlil metodlari asosida tadqiq etdik.

**Tahlil va natijalar.** Tillarni geneologik tasnifi sifatida tilshunos olimlar turli xil birlıklarni mezon sifatida olishadi.

Chunonchi, N.Uluqovning tasnifiga ko'ra quyidagilar geneologik tasnif birligi sifatida qaraladi:

Tillar makrooilasi  
Til oilasi  
Til tarmoqlari (shaxobchalar)  
Til guruhi  
Til guruhchasi  
Til  
Lahja  
Sheva[4]

Olimning ta'kidlashiga ko'ra yuqoridagi birliliklar tillarni geneologik tasniflash uchun muhim omillar hisoblanadi. Birma-bir ko'rib o'tadigan bo'lsak, dastab til makrooilasi birligiga e'tibor qaratishimiz joiz.

Til oilasi – bir-biriga fonetik, grammatic jihatdan yaqin bo'lgan tillar guruhi. Til oilalari yirik guruhi makrooilasi

1-jadval. Til oilalari guruhchalari va tarmoqlari

OLTORYILLAROLASI	TURK TILLARI	1) turk tili – o'tm ishda Usmonii tili deb atalgan; yozuvni 1929-yildan e'tiboran lotin alifbosiga asoslangan, ungacha bir necha asrlar davomida arab alifbosida ish ko'rgan;
		2) ozarbayjon tili;
		3) turkman tili;
MUGULILLARI	MUGUL TILLARI	4) gagauz tili;
		5) qrim -tatar tili;
		6) qorag'oy-balqar tili — Kavkazda yashovchi qoraqoy va balqar eiatl an so'zlashdigan til;
TURGUS-MANGUT TILLARI	TURGUS-MANGUT TILLARI	7) qo'miq tili — Dog'istonda yashovchi qo'miqlar tili;
		8) n o eg'oy tili;
		9) qaray tili;
TURK TILLARI	TURK TILLARI	10) ta tar tili;
		11) boshqird tili;
		12) shor tili;
MO'G'UL TILLARI	MO'G'UL TILLARI	13) xakas tili;
		14) tuva tili;
		15) yoqut tili;
BURYAT TILLARI	BURYAT TILLARI	16) dolgan tili;
		17) qozoq tili;
		18) qirg'iz tili;
QALMOQ TILLARI	QALMOQ TILLARI	19) o'zbek tili;
		20) qoraqalpoq tili;
		21) uyg'u r tili;
CHUVASH TILLARI	CHUVASH TILLARI	22) chuvash tili.
		1) mo'g'ul tili — yozuvni 1945-yildan e'tiboran rus alifbosiga asoslangan. Ungacha qadimgi uyg'ur yozuvni asosidagi mo'g'ul alifbosidan iborat bo'lgan;
		2) buryat tili;
		3) qalmoq tili.
SIBIR TILLARI	SIBIR TILLARI	A. Sibir tillari guruhi
		1) evenk (tungus) tili;
		2) even (damut) tili.
MANJUR TILLARI	MANJUR TILLARI	B. Manjur tillari guruhi
		1) manjur tili;
		C. Amur tillari guruhi
AMUR TILLARI	AMUR TILLARI	1) nanay tili;
		2) udey tili;
		3) orog tili.
SHARQ TILLARI	SHARQ TILLARI	4. Hech bir til guruhiiga kirmagan uzoq Sharqning ayrim tillari
		1) yapon tili;
		2) ryukyu tili ~ yapon tili bilan qarindosh til;
KOREY TILLARI	KOREY TILLARI	3) coreys tili[5].

Bu qarashdan biroz farqli o'laroq, I.Yo'ldoshev hamda O.Shripovalar tillarni geneologik tasniflashda "...guruhlarga ajratilgan tillarning kelib chiqishi, so'zlarining paydo bo'lishi va manbai ularning ma'no jihatdan yaqinligi, shu bilan birga, ulardag'i tovushlar va affikslar o'xshashligi hisobga olinadi[6]", - deb hisoblashadi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu masala bo'yicha tilshunos olimlarning qarashlari turlicha. Bir guruhi olimlar geneologik tasnif uchun faqatgina tillarning fonetik jihatini asos qilib olishgan bo'lsa, boshqa guruhi esa tillar geneologik tasniflashda fonetik jihatlardan tashqari, kelib chiqishi, grammatic jihatlari kabi bir qator faktorlarga ham ahamiyat berishadi. Bizningcha ham, grammatic jihatlar geneologik tasniflashda muhim rol o'ynaydi.

Sohaviy terminlarni tahlil qilishimizda o'zbek tilining izohli lug'atlaridan faqat so'zlik, maqolat va illustrativ misollar shaklida izohlangan. Ba'zi birlarininggina qaysi tildan kirib kelganligi haqida qisqacha ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, ribo, natura, kapital, bazis, balans, musodara kabi birliklarning geneologiyasiga e'tibor berib o'tamiz.

Iqtisodiyotga oid quyidagi terminlar o'zbek tilining izohli lug'atlaridan faqat so'zlik, maqolat va illustrativ misollar shaklida izohlangan. Ba'zi birlarininggina qaysi tildan kirib kelganligi haqida qisqacha ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, ribo, natura, kapital, bazis, balans, musodara kabi birliklarning geneologiyasiga e'tibor berib o'tamiz.

Ribo – (arabcha – sudxo'rlik; poraxo'rlik). Qarzga beriladigan puldan olinadigan foya (foiz); sud[7]. Ushbu atama Xom-som tillar oilasining som tillari tarmog'iga kiruvchi arab tiliga mansub birlik hisoblanadi.

Arab tilida ribo so'zi bilan "alriba" – الربا, ya'ni "sudxo'rli, sudxo'rlik qilish fe'lidan kelib chiqqan. So'zlik

atamasi bilan nomlanadi. Makrooilal o'z navbatida, guruhlarga bo'linadi va bu guruhlardan ham bir nechta tillarni o'z ichiga olish orqali tarmoqlanadi. Til oilalarining bunday munosabatini tur va jins munosabati, ya'ni giponimik munosabatga misol qilib olishimiz mumkin. Tilning eng yirik makrooilasi giperonim, qolgan kichik guruhchalar giponim hisoblanadi. Bu jarayon, o'z navbatida, tillarning ichki bo'linishlari natijasida o'zgarib boradi. Demak, turni ifodalagan birlik giperonim, jinsni ifodalovchi birlik giponim deb ataladi. Til oilalarining tur jins munosabati bo'yicha tarmoqlanishiga quyidagi jadvalda misol sifatida ko'rib o'tishimiz mumkin. Til oilalarini tashkil etuvchi guruhlardan, guruhchalar, tillar, shaxobchalar, lahja va eng so'nggida shevlar ham ushbu lingvistik munosabatga misol bo'la oladi.(1 jadval)

1-jadval. Til oilalari guruhchalari va tarmoqlari

1) turk tili – o'tm ishda Usmonii tili deb atalgan; yozuvni 1929-yildan e'tiboran lotin alifbosiga asoslangan, ungacha bir necha asrlar davomida arab alifbosida ish ko'rgan;

2) ozarbayjon tili;  
3) turkman tili;  
4) gagauz tili;  
5) qrim -tatar tili;  
6) qorag'oy-balqar tili — Kavkazda yashovchi qoraqoy va balqar eiatl an so'zlashdigan til;  
7) qo'miq tili — Dog'istonda yashovchi qo'miqlar tili;  
8) n o eg'oy tili;  
9) qaray tili;  
10) ta tar tili;  
11) boshqird tili;  
12) shor tili;  
13) xakas tili;  
14) tuva tili;  
15) yoqut tili;  
16) dolgan tili;  
17) qozoq tili;  
18) qirg'iz tili;  
19) o'zbek tili;  
20) qoraqalpoq tili;  
21) uyg'u r tili;  
22) chuvash tili.

1) mo'g'ul tili — yozuvni 1945-yildan e'tiboran rus alifbosiga asoslangan. Ungacha qadimgi uyg'ur yozuvni asosidagi mo'g'ul alifbosidan iborat bo'lgan;

2) buryat tili;

3) qalmoq tili.

A. Sibir tillari guruhi  
1) evenk (tungus) tili;  
2) even (damut) tili.  
B. Manjur tillari guruhi  
1) manjur tili;  
C. Amur tillari guruhi  
1) nanay tili;  
2) udey tili;  
3) orog tili.  
4. Hech bir til guruhiiga kirmagan uzoq Sharqning ayrim tillari  
1) yapon tili;  
2) ryukyu tili ~ yapon tili bilan qarindosh til;  
3) coreys tili[5].

Xom-som tillar oilasining Som tillar guruhidagi amxar tilida quyidagicha ifodalananadi.

Arab tilida – "alriba" – الربا;

Amxar tilida – "arat'a" – اراتا;

E'tibor beradigan bo'lsak, so'z har ikki tilda ham deyarli bir xil tovushlardan tashkil topgan, har ikki tilda a tovushi bilan boshlanib, xuddi shu tovush bilan tugagan. Fonetik jihatdan bir-biriga juda yaqin hisoblanadi.

Endi ko'rib o'tishimiz joiz bo'lgan so'zlarning kelib chiqish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu atama asli, dimiy istiloh sifatida islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda mayjud bo'lib, uning islomdagi to'liq tavsifi quyidagicha: "Ulamolar oldi-sotdi bilan riboning o'rtasidagi farqni bayon qilib bunday deyishgan: Masalan, bir kishi o'n dirhamlik kiyimni yigirma dirhamga oldi. Bu farq o'zaro muqobil bo'la oladi. Chunki bunda ikki taraflama rozhichilik bor. Kiyim bilan pul bir-biri uchun moliyatda tenglashdi. Hech bir taraf o'rinsiz biror narsa oltin bo'lmadi, balki ikki taraf roziligidan foyda ko'rishdi. Ribo esa o'n dirhamni yigirma dirhamga sotishga o'xshaydi, chunki bunda o'n dirham ortiqcha pul beo'rin olingan hisoblanadi. Kimdir: "O'rtadagi muhlat-chi, o'sha o'rin bo'ladi", deyishi mumkin. Yo'q, muhlat berish hech qanday mol emas, biror bir narsa ham emaski, u ortiqcha o'n dirhamga pullansa. Farq mana shunda. Riboning harom qilinishi haqida bir necha fikrlar bor. Avvalo, ribo birovning molini evazsiz, o'rniga biror narsa bermasdan olishdir. Ikkinchisi, ribo muomalasi insonlarni halol oldi-sotdi bilan shug'ullanishdan man qilib qo'yadi. Boisi moli ko'p odam o'zini qiyinchilik va mehnatga urmasdan, molining ko'payishini xohlaydigina emas, balki insofsizlarcha xohlaydi.

Bu esa insonlar orasida tijorat manfaatlarining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Uchinchisi, ribo insonlar o'tasidagi qarz olish va berish muomalasining yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi. Ribo agar harom bo'lsa, insonlar ko'ngillari to'q holda birlari bilan pul oldi-berdisini, qarz berish va olishni xotirjam yo'lda qo'yadigan bo'ladilar. To'rtinchisi, riboning harom ekanini Qur'onning oyatlari ochiq-oydin bayon qilib qo'ydi. Bu harom qilinishda ko'pdan-ko'p hikmatlar bordir'[8]. Ko'rinish turibdiki, ushbu atamaning asli mohiyati Qur'oni Karim, hadisi shariflar va islom fiqhiga oid turli ilmiy asarlarda o'z tasdig'ini topgan. Atama vaqt o'tishi bilan ma'nosini kengaytirib, iqtisodiyotga oid termin sifatida ishlatila boshlangan. Hozirgi muomaladagi o'zbek adabiy tilida esa atamaning iqtisodiyot tarmog'ida qo'llanilish darajasi anchayin nofaol holatga kelib qolgan. Atama faqtgina diniy matnlarda faol tarzda uchrashi kuzatiladi.

Natura – (lotincha, xossa, xususiyat; kishining xulq-atvori; tabiiy mayl; tabiat) Pul o'rniga to'lanadigan mol, mahsulot.

Kolxozchilar mehnatiga haq to'lash, ularning mehnatini natura va pul bilan rag'batlantirish sistemasi takomillashtirildi. (Gazetadan)[9]

Atama geneologik jihatidan Hind - Yevropa tillari oilasining Roman tillari guruhchasi O'lik tillar tarmog'iga kiradi. Ushbu guruhchaga kiruvchi boshqa tillarda quyidagicha ifodalanadi:

Lotin tilida – natura;  
Rumin tilida – naturā;  
Fransuz tilida – nature;  
Italian tilida – natura;  
Ispan tilida – naturaleza;  
Portugal tilida – natureza.

Lotin va fransuz tilida bir xil grafika asosida yozilsada talaffuzda sezilarli farq qiladi. Ammo fonetik tarkibi jihatidan bir-biriga juda yaqin yoki ba'zilari umuman bir-biridan farq qilmasligiga guvoh bo'lamiz.

Ushbu so'zlik asli o'zagidan anglashilganidek, xulq-atvor, tabiat, borliqqa oидликни bildiradi. So'z asosidan keyinchalik vaqt o'tishi natijasida ko'plab, yangi atamalar paydo bo'lganki, bu atamalar, adabiyot, san'at, rassomchilikda yangi oqim – naturalizmning vujudga kelishini ta'minlagan. Xuddi shunday natura atamasi iqtisodiyotda ham biron kishining mehnati uchun pul o'rniga oziq-ovqat, kiyim-kechak yoxud insonning kundalik turmush tarzi uchun kerak bo'ladigan birlamchi mahsulotlar bilan to'langan. Natura shaklida haq to'lash dastlab, o'rta asrlar Yevropa feodal jamiyatida vujudga keladi. Katta yer egalari o'zlarining qo'l ostidagi ishchilariga yetishtirilgan hosildan, fabrika egalari esa ishlab chiqarilgan mahsulotdan ishchilarga haq sifatida berishgan. Aksariyat hollarda mahsulotning sifatsiz turi ularga shu ko'rinishda taqdirm etilgan. Chor Rossiysi vatanimizni mustamlakaga aylantirgandan so'ng, bizning iqtisosimizda ham natura atamasi keng foydalanila boshlandi. Buning yaqqol misoli sifatida akademik G.G'ulomning "Shum bola" qissasida Sariboy bo'lisning Qoravoy uchun ikki pud o'n yeti qadoq olma berishga, cho'ponning Omonga bir yilga ikki to'xli-yu bir echki berishga kelishganlari yaqqol misol bo'la oladi. Demak, natura ko'p hollarda xo'jayinning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlardan haq sifatida to'lanadi.

Kapital – (nemischa – kapital/lotincha – capitalis – bosh, asosiy) O'zini-o'zi ko'paytirish uchun foydalaniladigan, o'z egasiga foya, daromad keltiradigan boylik (qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari, moddiy mol-mulk va sh.k. )[10]

Ushbu birlikning lotin tilidagi shakli ham geneologik jihatidan Hind - Yevropa tillari oilasining Roman tillari guruhchasi O'lik tillar tarmog'iga kiradi. Roman tillar guruhiga kiruvchi boshqa tillarda quyidagicha ifodalanadi:

Lotin tilida – capitalis;  
Fransuz tilida – capital;

Italian tilida – capitale;  
Ispan tilida – capital;  
Portugal tilida – capital;  
Rumin tilida – capital;  
Makedon tilida – капитал.

Ushbu birlik tillarda fonetik va grafik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, talaffuz jihatidan sezilarli farq qiladi.

Nemis tilidagi varianti Hind-Yevropa tillari oilasining German tillar guruhi G'arbiy german tillari tarmog'iga mansub. Atama nemis tiliga qardosh bo'lgan ingliz tilida quyidagicha ifodalanadi:

Nemis tilida – kapital;  
Ingliz tilida – capital.

Ushbu atama XVIII asr boshlarida nemis va fransuz tillarida vujudga kela boshlagan[11]. O'rta asrlar dehqonlarda bosh ma'nosini anglatish uchun qo'llangan so'z hisoblanadi. ya'ni lotin tilida caput - bosh degan ma'noni ifodalaydi. Ammo kapital so'zini talaffuz qilish ularga birmuncha qiyinchilik tug'dirgani sababli, uni avvaliga katel, ya'ni qoramol shaklida qo'llashgan. Bizga ma'lumki, chorvani hisobini aniqlashtirishda bosh yoki tuyoq so'zlaridan foydalananamiz. O'sha davrda ham chorvador dehqonlar qoramollarini katel shaklida atashgan. Negaki, dehqonning bor kapitali, ya'ni moddiy boyligi, zaxiras, asosan, qoramollardan tashkil topgan va bu asosiy mablag' manbayi hisoblangan. Atama keyinchalik fransuz va ingliz tillariga o'zlashgan, davrlar o'tishi natijasida ma'nosi kengayib, jamlangan, foydalanshiga tayyor holdagi ko'chadigan mol-mulklar yig'indisi ma'nosini o'zida mujassamlashtirgan.

Bazis – (yunoncha. basis – asos) Jamiyat taraqqiyotining ma'lum tarixiy bosqichida yuzaga keladigan ishlab chiqarish munosabatlari yig'indisi.

Bazis jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi iqtisodiy tuzumdir[12]. Atama Hind-Yevropa tillar oilasining Grek tili guruhiga mansub yunon tilidan kelib chiqqan. Ayitib o'tishimiz joizki, hozirgi kunda ushbu til oilasining Grek tili guruhiga kiruvchi boshqa til mavjud emas.

Bu atamaning e'tiborimizni tortgan jihat shundan iboratki, atama turli xildagi iqtisodiyotga oid lug'atlarda turlicha izohlangan.

Chunonchi, 1999- yilda Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh., Starodubseva E.B. Rossiya va boshqa bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning iqtisodiy sektorida qo'llaniladigan 10 mingdan ortiq atamalarni o'zida jamlagan "Zamonaviy iqtisodiy lug'at"(Современный экономический словарь) nomli elektron lug'atda bazis atamasi haqida quyidagicha ta'rif berilgan:

Bazis – savdolashish predmeti bo'lgan birja kortirovkasi uchun mukofot yoki undan chegirma. Bu tovarlarning turi va sifatiga, yetkazib berish shartlariha, to'lov larga va boshqa omillarga bog'liq[13].

Rus iqtisodchilari tomonidan yaratilgan "Bank va moliya atamalarining terminologik lug'ati" (Терминологический словарь банковских и финансовых терминов) nomi ostidagi elektron resursda esa: "Bazis - haqiqiy mahsulot narxi va birja kortirovkasi orasidagi farq"[14], - deya izohlangan.

Demak, atamaning ma'nosini har bir olim o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, talqin qilgan. Shunday bo'lsa-da, dunyo iqtisodiyotida faol qo'llanayotgan bu kabi terminlar mohiyatini mukammallashtirgan holda o'zbek tilining izohli lug'atining keyingi nashrlariga kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning uchun mukammal izohni o'zimiz uchun tanlab olishga harakat qilamiz. Buning uchun bir qancha iqtisodiy adabiyotlardagi matnlarni tahlilga tortgan holda, eng maqbul variant sifatida 2000-yilda Yefremov T.F. tomonidan tuzilgan "Rus tilining yangi izohli lug'ati" ("Новый словарь русского языка") [15]dagagi izohni olishimiz mumkin:

Bazis - Jamiyatning iqtisodiy tuzilishini tashkil etuvchi va ustki tuzilmaning mohiyatini belgilovchi tarixiy jihatdan aniqlangan ishlab chiqarish munosabatlari majmui.

**Xulosa va takliflar.** Fikrimizcha, terminlarni, umuman barcha lug'aviy birliklarni geneologik jihatdan tahlil qilganda, avvalo, quyidagilarga e'tibor qaratish joiz:

birlikning qaysi til oilasiga mansubligi;

til oilasidagi boshqa tillar bilan o'zaro fonetik va grammatic jihatdan o'xshash va farqli jihat;

birlikning hozirgi anglatgan ma'nosiga yaqin prototipning mayjudligi yoki mavjud emasligi.

Boshqa tildan o'tgan iqtisodiy terminlarni izohli lug'atlarimizga yoki muomalaga olib kirar ekanmiz, ularning eng maqbul va tushunilishi oson, shu bilan birga u anglatadigan mazmunga to'liq mos tushuvchi jarayonlarga mutanosib bo'lishiga e'tibor qaratishimiz lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. G'ofurov A.T., Fayzullayev S.S. Genetika. Toshkent. "Tafakkur" nashriyoti, 2010. 4-5 B.
2. <https://elib.bspu.by/bitstream/doc/B2.pdf>
3. Abduaizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. "Sharq" nashriyot matbaa aksiadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati. Toshkent, 2010. 116 B.
4. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: "Barkamol fayz media", 2016. –44 B.
5. Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: "Iqtisod moliya", 2007. – 169 B.
6. Shu manba. 155 B.
7. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006. 3 жилд. 382 Б.
8. Usmon ibn Hasan ibn Ahmad Shokir Xubariy. Durratun nosihiyin. Tarjimon: Abdurahim Mirzo. "Movarounnarh"nashriyoti. Toshkent 2004. 20 B.
9. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006. 3 жилд. 23 Б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006. 2 жилд. 316 Б.
11. <https://ecanet.ru/word/%D0%9A%D0%B0%D0%BF%D0%B8%D1%82%D0%B0%D0%BB>
12. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006. 1 жилд. 140 Б.
13. <http://economics.niv.ru/doc/dictionary/economical/index-193.htm#193>
14. <https://finuslugi.ru/glossariy#symbol=%D0%91>
15. <https://www.efremova.info/letter/+ba.html>



**Abduxakim ARIPOV,**

Andijon davlat chet tillar instituti erkin tadqiqotchisi

E-mail: aabdulhakim78@gmail.com

F.f.n. M.Abdullayev taqrizi asosida

## ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORIGIN AND DEFINITION OF THE TERM "LUGHAT"

### Annotation

The term "Lughat" (dictionary) is found in Uzbek, Persian, Ottoman Turkish, Urdu and other Eastern languages. The issue of the origin of this term has been of interest to many. The use of the term "Lughat" (dictionary) in the sense of a collection that includes lexical units of the Uzbek language also shows the experience of the Uzbek (Turkish) language in terms of lexicography. Therefore, in this article, a look at the history of Uzbek lexicology is given by studying the history of the origin of this term.

**Key words:** Lughat, term, language, dialect, vocabulary, mu'jam, qamus.

## АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ НА ВОЗНИКНОВЕНИЕ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТЕРМИНА «ЛУГАТ»

### Аннотация

Термин «лугат» (словарь) встречается в узбекском, персидском, османском, турецком,урду и других восточных языках. Вопрос возникновения этого термина интересовал многих. Использование термина «лугат» в смысле сборника, содержащего лексические единицы узбекского языка, также показывает опыт узбекского (турецкого) языка с точки зрения лексикографии. Поэтому в данной статье дан взгляд на историю узбекской лексикологии путем изучения истории возникновения этого термина.

**Ключевые слова:** Лугат, термин, язык, диалект, лексика, мульджам, камус.

## “LUG‘AT” ATAMASINING VUJUDGA KELISHI VA TA’RIFI HAQIDAGI QARASHLAR TAHLILI

### Annotatsiya

“Lug‘at” atamasi o‘zbek, fors, usmonli turk, urdu va boshqa sharq tillarida mayjud. Ushbu atamaning vujudga kelishi masalasi ko‘philikni qiziqtirib kelgan. “Lug‘at” atamasi o‘zbek tilining leksik birliklarini o‘zida mujassam etgan to‘plam ma’nosida qo‘llanishi o‘zbek (turkiy) tilning lug‘atshunoslik borasidagi tajribasini ham ko‘rsatadi. Shu bois ushbu maqolada mazkur atamaning paydo bo‘lishi tarixini o‘rganish orqali o‘zbek lug‘atshunosligi tarixiga bir nazar tashlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Lug‘at, atama, til, sheva, so‘z boyligi, mu’jam, qomus.

Bevosita mavzuga kirishishdan oldin bir necha tushuncha va atamalarga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq. Dastlab so‘zlik ma’nosida qo‘llanuvchi “lug‘at” atamasiga to‘xtalsak. “Lug‘at” so‘zi arab tilidagi ilk shaklida “ma’nosiz so‘zlamoq, aljiramoq” ma’nosidagi لغة o‘zakli “til, sheva” ma’nosini bildiruvchi لغة so‘zidan olingen. Bu so‘z dastlab faqatgina til, sheva ma’nosida qo‘llangan. Sheva, ya’ni bir so‘zning xalq orasida qo‘llanadigan boshqa shakli ma’nosida qo‘llanishimi ko‘plab mo‘tabar arab tili lug‘atlarida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, أَجَاءَ أَشَاءَ اسْنَاءَ لُغَةً فِي أَجَاءَ so‘zi lug‘atda “so‘zining shevadagi shaklidir”[1].

Keyinchalik لغة so‘zining ma’no doirasi kengayib borib, “til birliklari” yoki “tildagi so‘zlar” ma’nosini ham anglatadigan bo‘lgan.“Al-Qomus: arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘atda لغة so‘zining 1. til, lajja; 2. til, vosita; 3. so‘z-ifoda ma’nolari berilgan[2].

Ilk arabcha so‘zliklardan Ibn Durayd al-Azdiyning (vaf. 933 y.) “Jamharat al-lug‘a” (“Tilni(ng so‘zlarini) to‘plash”), Ahmad ibn Forisning (vaf. 1005 y.) “Mu’jam maqoyis al-lug‘a” (“Til o‘lchamlari lug‘ati”), “Mujmal al-lug‘a” (“Til so‘zlarining qisqacha majmuasi”), Abu Nasr ibn Hammad al-Javhariyning (vaf. 1010 y.) “Toj al-lug‘a” (“Til so‘zlar toji”) kabi asarlarining nomlarida لغة so‘zi umuman til, til birlklari (so‘zlar) ma’nosida ishlataligan[3].

Biroq, so‘zlar majmuasi – so‘zlik uchun atama o‘laroq qo‘llanishi bir muncha keyinroq yuz bergan.

Muhammad G‘iyosuddin ibn Jaloluddin ibn Sharafuddin ar-Rompuriyning (vaf. 1845 y.) “G‘iyos al-

lug‘ot” nomli arabcha-forscha-turkcha lug‘atida kitobning nomida لغة so‘zi ko‘plikda qo‘llangan.

Bunday holatni boshqa lug‘atlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, Abu Yusuf Ya’qub ibn Ahmad al-Kurdij al-Adib an-Nisoburiy (vaf. 1081 y.) o‘zining lug‘atini “al-Bulg‘a fil-lug‘a” deb nomlagan[4].

Shu bilan birga, G‘iyos al-lug‘otda muallif tarjima qilinayotgan (bu o‘rinda arabchadan forsiy va turkiyga) so‘zni “lug‘at” deb bergen. Kitob muqaddimasida muallif shunday deydi: “حَرْفُ اول لغَتْرَا بَابٌ وَحْرَفٌ ثَانِي رَأْفَصْلٌ سَاخْتَ” (Muallif) lug‘at (tarjimasi berilayotgan so‘z)ning birinchi harfini bob, ikkinchi harfini esa fasl qildi”[5].

Shunday qilib, arabchada “til, lajja” ma’nosini anglatgan لغة so‘zi semantik o‘zgarishga uchrab, “tarjima qilinayotgan so‘z” ma’nosini kasb etgan. O‘zbek tilining izohli tug‘atida “lug‘at” so‘zi haqida quyidagicha ma’lumot berilgan: “So‘z. Tildagi barcha so‘zlar boyligi”[6].

Va niyoyat shunday so‘zlar to‘plami bo‘lgan kitob ham “lug‘at” deb ataladigan bo‘lgan. Bunga boshqa tillardan o‘zbek tiliga yoki aksincha bo‘lgan tarjima so‘zliklarining “lug‘at” deb nomlangani yorqin dalil bo‘ladi. Misol tariqasida arabcha-turkcha Lug‘ati Nojiy[7], Lug‘ati Ramziy[8], Ruscha-o‘zbekcha lug‘at, Forscha-o‘zbekcha lug‘at, O‘zbek tilining izohli lug‘ati kabi ko‘plab lug‘atlarni tilga olish mumkin.

Arab tilida lug‘at ma’nosida qo‘llangan ilk so‘z مُخْجَمٌ so‘zidir. Mu’jam atamasining tildagi so‘zlarini jamlagan kitobga nisbatan ishlatalila boshlashi haqida turli qarashlar mavjud. Husayn Nassor o‘zining ”المعجم العربي: نشأته وتطوره“ (Arabcha lug‘at: paydo bo‘lishi va rivojlanishi) kitobida bu

so‘zning “lug‘at” ma’nosida qachondan ishlatalgani haqida aniq ma’lumot mavjud emasligiga e’tibor qaratadi[9]. Ibn Jinniy (vaf. 1002 y.) سر صناعة الإعراب (E’rob san’atining siri) kitobida mu’jam so‘zining kelib chiqishi xususida ko‘plab qarama-qarshi fikrlarni keltirib o’tarkan, bu borada Abu-l-Abbos Muhammad ibn Yazid al-Mubarrad (vaf. 899 y.)ning fikrini ma’qullaydi. Al-Mubarradga ko‘ra, “mu’jam” so‘zi fe’lining mimli masdari bo‘lib, “noaniqlikni ketkazish, sharlab tushunarli qilish” ma’nosini bildiradi[10].

Ayrim olimlarga ko‘ra, nuqtalari qo‘yilib bir-biridan farqlangan alifbo harflari حروف المعجم (mu’jam harflari) deb nomlangan.

Jazoirlilik tadqiqotchilar Shuayb Habila va Mas’uda Xalloflar arab tilidagi “معجم” atamasining paydo bo‘lishi masalasiga bag‘ishlangan maqolalarida ushbu so‘z ma’nosining ilk lug‘at manbalaridagi shakli hamda keyingi davr tilshunoslari talqinida o‘ziga xos istiloh – atamaga aylanish jarayonlarini tahlil qilganlar[11]. Mualliflar bu boradagi turli qarash va talqinlardan xulosa qilib, “mu’jam” so‘zi hali arabcha harflarga nuqta qo‘yilmagan davrda ham alifbo harflarini ifodalaganini ta’kidlaydilar. Bunga Abu Muso al-Ash’ariy r.z.ning Rasululloh s.a.v. vafotlaridan keyin alifbo harflarini yozishni o‘rgangani, xuddi chayonlar singari beo‘xshov yozgani haqidagi rivoyati[12] hamda tobi‘iyldardan Ato ibn Abi Raboh r.z.ning bir odamga must shushirib, tili uzilishiga sabab bo‘lgan kishiga nisbatan qilgan hukmi misol keltiriladi. Bunda Ato ibn Abi Raboh jabrlanuvchiga “mu’jam”ni birma-bir ayтиб ko‘rishni buyuradi. Nechta harfni aytva olmasa, ayblanuvchiga shuncha harfga yarasha diya beriladi, deb hukm qiladi[13].

Imom Buxoriyning “al-Jomi‘ as-sahih” asarida bir bob باب تسمية من سمي من أهل بدر في الجامع الذي وضعه أبو عبد الله “Abu Abdulloh tuzgan al-Jomi‘ kitobida Badr ahlidan nomlari keltirilgan zotlar ismlarining alifbo tartibida zikr etilishi bob” deb atalgan. Bu ham mu’jam so‘zining ilk davrda, lug‘at ma’nosini uchun qo‘llanishdan oldin alifbo harflari ma’nosida ishlatalgani dalil bo‘ladi[14].

Demak, mu’jam so‘zi ko‘pchilik tilshunoslarning harflarni bir-biridan ajratish uchun ba’zilariga nuqta qo‘yish, ma’nosida “aniqlash, aniqlashtirish, chalkashlikni ketkazish” ma’nosidan olingan va ilk bor shu maqsadda qo‘llangan, degan fikrlarining u qadar to‘g‘ri emasligini ko‘rsatmoqda.

Keyinchalik, “mu’jam” atamasi alifbo tartibida (xoh alifdan, xoh boshqa harfdan boshlangan bo‘lsin) berilgan har qanday kitobga nisbatan qo‘llangan. Abu Ya’lo Ahmad ibn Aliy ibn al-Musanno (vaf. 919 y.) sahabolar nomlariga bag‘ishlangan bir kitob bitib, uni “معجم الصحابة” nomladi. Shuningdek, Abu-l-Qosim Abdulloh ibn Muhammad al-Bag‘aviy (vaf. 929 y.) ham sahabolar nomlariga bag‘ishlangan ikki mu’jam tuzdi va ularni “المعجم الكبير” va “المعجم الصغير” deb atadi[15]. Shuningdek, Yaqut al-Hamaviyning (vaf. 1229 y.) mashhur “معجم البلدان” (Mamlakatlar haqidagi alifbo tartibli kitob) nomli geografik asarini tilga olish mumkin. Keyinchalik tilning lug‘at boyligini o‘z ichiga olgan kitoblarga nisbatan maxsus atamaga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, “معجم” so‘zining keyinchalik “lug‘at” ma’nosida qo‘llanishi bir necha bosqichda shakllangan ma’no o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan.

Arab tilida lug‘at ma’nosida keng qo‘llanadigan, xususan keyingi davrda “mu’jam” atamasidan ko‘ra ko‘proq ommalashgan yana bir atama (qomus) atamasidir. Qomus so‘zi lug‘atda “dengiz, dengizning eng chuqur joyi” demakdir[16]. Shu bois arablar biror sohada mukammal bilimga ega bo‘lgan kishiga nisbatan, ”هو قاموس في كذا“ (u falon sohada dengizdir) kabi tashbihni qo‘llaganlar. Majduddin Abu Tohir Muhammad ibn Ya’qub al-Feruzobodiy (vaf. 1414 y.) o‘zining mashhur lug‘atini ”القاموس المحيط“ (Ummon) (okean) deb nomlagan. Ushbu lug‘at “al-Qomus” nomi bilan shuhrat qozondi. Hattoki, keyingi davr lug‘atlarida so‘zi

Feruzobodiyning mazkur lug‘atiga atoqli ot bo‘lib qolib qoldi[17]. Ahmad Foris ash-Shidyoyq (vaf. 1887 y.) الجاسوس “على القاموس” asarini yozib, “qomus” so‘zining yanada ommalashuviga hissa qo‘shdi. Sa’id ash-Shartuniy (vaf. 1912 y.) o‘zining القاموس كتاب الفيروز ابادي في اللغة العربية لقبه بالقاموس المحيط وبطشه أهل زماننا على كل كتاب في اللغة وهو so‘ziga shunday ta’rif berdi: “يراد عندهم كلمة معجم وكتاب في اللغة العربية لقبه بالقاموس المحيط وبطشه أهل زماننا على كل كتاب في اللغة وهو al-Qomus Feruzobodiyning arab tiliga oid kitobi bo‘lib, uni “al-Qomus al-muhit” (Ummon) deb atagan. Bizning davrimizdag‘i odamlar bu so‘z (qomus)ni lug‘atga oid har qanday kitobga nisbatan qo‘llaydilar. Bu so‘z ularning nazdida “lug‘at kitobi – so‘zlik”ning bir ma‘nodoshidir[18]. Keyinchalik bu so‘z har qanday lug‘atga nisbatan atama o‘larоq qo‘llanadigan bo‘ldi[19].

Lug‘atning ta’ifi masalasi ham muhim jihatlardan biri sanaladi. Zero, lug‘at tili xususiyatlardan kelib chiqqan holda, uning ta’ifi ham turlicha ifodalangan. Shu nuqtai nazaridan lug‘atning turli tillarga oid ta’iflarini birma-bir ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “lug‘at” so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Biror tildagi so‘zlarni ma’lum tartibda (odatda alifbo tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob”[20].

Arab tilshunoslari “lug‘at” (mu’jam yoki qomus) atamasiga turli ta’riflar bergenlar. Jumladan, Ahmad Abdulg‘afur Attor “mu’jam” (lug‘at) kitobi ta’ifi haqida shunday yozadi: So‘zlarni bir-biridan ajratib, ma’nolarini aniqlashtirib beradigan kitob alifbo tartibida bo‘lgani uchun shunday nomlangan va “mu’jam”ga tilshunoslar nuqtai nazaridan quyidagicha ta’rif berishim mumkin: “Mu’jam til so‘zlarining imkon qadar katta qismini sharhi va ma’nolari izoh bilan birga o‘ziga xos tartibda, xoh alifbo harflariga ko‘ra, xoh mavzularga ko‘ra tizimlangan holda o‘z ichiga olgan kitobdir. Mukammal mu’jam tildagi barcha so‘zlarni ma’nosining izohi, qaysi o‘zakdan yasalgani, talaffuz yo‘llari, ishlatalish o‘rinlarini ko‘rsatib beruvchi dalillar bilan birga qamragan bo‘lishi kerak”[21].

Attorga ko‘ra, mazkur xususiyatlarga ega bo‘lmagan kitobga nisbatan “mu’jam” atamasini qo‘llab bo‘lmaydi. Zotan, cheklangan so‘zlarni sharlab beruvchi kitob mu’jam emasdir.

Zamonaviy ingliz tili Oksford lug‘atida “lug‘at” (dictionary) so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Lug‘at bu tilning alohida so‘zleri (yoki ularning ma’lum bir sinfi) imlosi, talaffuzi, ma’nos va qo‘llanilishi, sinonimlari, klib chiqishi va tarixi yoki hech bo‘lmaganda bu ma’lumotlardan ba’zilari ko‘rsatiladigan kitobdir; Murojaat qilish qulay bo‘lishi uchun so‘zlar ma’lum bir tartibda, hozirga klib aksariyat tillarda alifbo tartibida joylashtiriladi va kattaroq lug‘atlarda ma’lumotlar adabiyotlardan olingan iqtiboslar bilan mustahkamlanadi”[22].

Oksford lug‘atining mazkur ta’ifi Yevropa tillari, xitoy, hind tillari kabi so‘zning transkripsiysi berilishi shart bo‘lgan tillarni ham o‘z ichiga oladi. Zero, hamma tillarda ham lug‘atda talaffuz alohida berilmaydi. O‘zbek, turk (va boshqa turkiy tillar), arab, fors, urdu kabi tillarda so‘zlearning transkripsiysisiga ehtiyoj yo‘q. Ularda so‘zlar qanday yozilsa, shunday o‘qiladi. Ta’rifning yana bir jihatni, unda rus tilidagi kabi so‘zlearning urg‘usini ko‘rsatish zarurati esga olinmagan. Lekin buni talaffuz shartiga umumiyl shaklda kiritib yuborish mumkin.

Rus tilining katta izohli lug‘atida “slovar” so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “(Lug‘at) – muayyan tartibda (odatda alifbo tartibida) joylashtirilgan, ma’nosining izohi yoki boshqa tilga tarjimasini berilgan so‘zlar ro‘yxatidan iborat kitob”[23]. Kezi kelganda shuni ham qayd etish o‘rinlik, yuqorida keltirilgan O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi “lug‘at” so‘zi ta’ifi ham mana shu ta’rifga hamohangdir.

Tadqiqotchi Galip Yavuz lug'atga berilgan quyidagi ta'rifni keltiradi: "Bir dildeki sözcüksel birimlerin tümünü ya da bir bölümünü, genellikle abecesel düzen, kimi durumlarda da konulara ya da kavramsal alanlara göre tanımları, tanıkları, söyleşileri, kökenleri, kullanımları, dilbilgisi ulamları, eşanlımlıları vb. ya da bir başka dildeki karşılıkları ile sunan yapittır" (Lug'at bu – tildagi leksik birliliklarning hammasini yoki ayrımlarını, odatda, alifbo tartibida, ayrim hollarda mavzular yoki tushuncha sohalariga ko'ra, ta'riflari, dalillari, talaffuzlari, kelib chiqishi, qo'llanishlari, grammatic kategoriyalari, sinonimlari va hokazolar yoki ularning boshqa tildagi muqobillari bilan taqdim etadigan asardir)[24].

Tilshunos-lug'atshunoslar tomonidan "lug'at" so'ziga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lishiga qaramay, ko'proq tillarga xos xususiyatalarni o'zida aks ettirgan kengqamrovli ta'riflar ham bor. L.Zgusta bu borada shunday deydi: "Lug'atga berilgan, menga ma'lum ko'plab ta'riflar ichida eng yaxshisi K.K.Berg tomonidan berilgan quyidagi ta'rifdir: "Lug'at bu

ma'lum bir nutq jamoasiga oid odatiy nutq birliklaridan tuzilgan va muallif tomonidan malakali o'quvchi har bir alohida shaklning ma'nosini tushunadigan, uning o'z jamiyatidagi funksiyasi va unga tegishli faktlar haqida xabardor bo'ladigan tarzda sharhlangan ijtimoiylashgan til birliklarining tizimli ro'yxatidir"[25].

Howard Jackson o'zining "Lexicography. An Introduction" kitobida lug'atga ancha ijodiy yondoshadi va badiiy ta'rif beradi. Unga ko'ra, lug'at maslahat kitobidir. Odamlar lug'atlar bilan so'zlar haqida ma'lumot topish uchun mashvarat qildilar[26].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida tildagi leksik birliliklarni o'zida jamlagan va ko'plab boshqa shartlarni o'zida mujassam qilgan maxsus to'plamga nisbatan qo'llanadigan "lug'at" atamasи bir qancha tadrijiy bosqichlarni bosib o'tgan. Ushbu atama o'zbek tilining "qoniyu joniga" singib ketgan arab tili va leksikasining ijobiy ta'sirida vujudga kelgan va rivojlangan.

## ADABIYOTLAR

- إسماعيل بن حماد الجوهري. الصحاح تاج اللغة وصحاح العربية. دار العلم للملايين. الطبعة الرابعة. القاهرة 1974 م. المجلد الأول، ص. 140.
1. N.Ibrohimov, A.Aripov, I.Ikromjonov, A.Zayriev. Al-Qomus: arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 4-jildli. Toshkent, 2022. 156-b.
2. N.Ibrohimov, A.Aripov, I.Ikromjonov, A.Zayriev. Al-Qomus: arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 1-jild. Toshkent, 2017. 4-5-66.
3. حاجي خليفه. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. بيروت، 1941. المجلد الأول، ص. 253.
4. محمد غيث الدين بن شرف الدين الرامبيري. غایاث اللغات. كاتب. 1905 م. ص. 3.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, 2-jild. Toshkent, 2006. 512-6.
6. معلم ناجي عمر على بي اورغلي. لغت ناجي. استانبول: مطبعة عصر. 1322 هـ.
7. حسين رمزي. لغت رمزي. جلد اول. استانبول: مطبعة حسين رمزي. 1305 هـ.
8. حسن نصار. المعجم العربي: نشأته وتطوره. مصر: دار مصر للطباعة. 1988. الطبعة الرابعة، ص. 7؛ ديزيرة سقال. شأة المعجم العربي وتطورها. بيروت: دار الصدقة العربية. ص. 11.
9. عثمان بن جني، أبو الفتح. سر صناعة الإعراب. الطبعة الأولى، في مجلدين. دمشق: دار القلم، 1985. المجلد الأول، ص. 36.
10. شعيب حبيبة ومسودة خلاف. اشتراق مصطلح المعجم: عرض ونقد// مجلة العيار. العدد 52. سنة 2020. ص. 665-648.
11. أكرم ضياء العمري. عصر الخلافة الراشدة. الرياض: مكتبة العبيكان. تاريخ الطبع لا يوجد. ص. 12. 475.
12. ابن سنان الخفاجي. سر الفصاحة. ص. 74-73.
13. محمد بن إسماعيل، أبو عبد الله البخاري. الجامع الصحيح. القاهرة: المكتبة السلفية. 1400 هـ. الجزء الثالث، ص. 96.
14. أميل يعقوب. المعاجم اللغویة العربیة: بذاتها وتطورها. بيروت: دار المعلمین. ص. 12. 1992.
15. N.Ibrohimov, A.Aripov, I.Ikromjonov, A.Zayriev. Al-Qomus: arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 4 jildli. 3-jild. Toshkent, 2019. 887-6.
16. أحمد مختار عمر. معجم اللغة العربية المعاصرة. القاهرة: عالم الكتب. 2008. المجلد الثاني. 1462؛ جبران مسعود. معجم الرائد. بيروت: دار المعلمین. 17. 751.
17. سعيد الشرقي. أقرب الموارد في فصح العربية والشوارد. الجزء الثاني. قم-إيران، 1403 هـ. ص. 1038.
18. Hulusi Kılıç. El-Kâmüslü'l-muhît // TDV İslâm Ansiklopedisi, 24 cilt. İstanbul, 2001. s. 287.
19. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, 2-jild. Toshkent, 2006. 512-6.
20. أحمد عبد الغفور عطار. مقدمة الصحاح. الطبعة الثالثة. بيروت: دار المعلمین. 1984. ص. 42.
21. The Concise Oxford Dictionary of Current English 9th edition. 1998.
22. Большой толковый словарь. <http://gramota.ru/slovari/dic/?word=%D1%81%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%80%D1%8C&call=x>
23. Galip Yavuz. Sözlükbilim ve Arapça sözlük çalışmalarına tarihsel bir yaklaşım // Cumhuriyet Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. 2002, 6 (1) s. 113-122.
24. Zgusta L. Manual of Lexicography. Czechoslovak Academy of Sciences, 1971. p. 197.
25. Jackson H. Lexicography. An Introduction. London and New York. 2002. P.28.



Anorgul ATAJONOVA,

UrDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: anorgulatajonoova005@gmail.com

Nafosat JUMANIYOZOVA,

UrDPI 2-kurs magistranti

E-mail: jumaniyozanovaafosat297@gmail.com

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD D.Xajiyeva taqrizi asosida

## THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS IN “WORKING ON THE WORD AND ITS MEANINGS” IN NATIVE LANGUAGE LESSONS IN THE PRIMARY CLASS

### Annotation

In this article, the topic “Working on a word and its meanings” is explained to primary school students in their native language lessons using various interactive methods and turning it into a skill. Provides information on ways to increase student interest in the lesson, prevent boring lessons, and increase lesson effectiveness. Detailed information about interactive education is also provided.

**Key words:** Primary school, native language, word, method, interactive method, “Find the odd one out” method, “Classical pairs or classic triplets” method, synonym, interactivity.

## ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В «РАБОТЕ НАД СЛОВОМ И ЕГО ЗНАЧЕНИЯМИ» НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

### Аннотация

В данной статье учащимся начальных классов на уроках родного языка разъясняется тема «Работа над словом и его значениями» с использованием различных интерактивных методов и превращением ее в навык. Предоставляется информация о способах повышения интереса учащихся к уроку, предотвращения скучных уроков и повышения эффективности урока. Также дана подробная информация об интерактивном образовании.

**Ключевые слова:** Начальная школа, родной язык, слово, метод, интерактивный метод, метод «Найди лишнее», метод «Классические пары или классические тройки», синоним, интерактивность.

## BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA "SO'Z VA UNING MA'NOLARI USTIDA ISHLASH"DA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

### Annotation

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarga "So'z va uning ma'nolari ustida ishlash" mavzusini turli xil interaktiv metodlar yordamida tushuntirish va uni malakaga aylantirish. O'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, zerkarli darsni oldini olish va dars samaradorligini oshirish usullari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, interaktiv ta'lif haqidagi batafsil ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, ona tili, so'z, metod, interfaol metod, "Ortiqchasini top" metodi "Klassik juftliklar yoki klassik uchliklar" metodi, sinonim, interfaollik.

**Kirish.** Mamlakatimizda ta'limga bo'lgan e'tibor kundan- kunga ortib bormoqda. Hozirgi zamon talabi ona tili o'qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan takomillashtirishni taqozo etadi. Ma'lumki, yangilangan ona tili ta'limining mazmuni o'quvchilarda ijodkorlik, erkin fikrash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon qilish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Ta'lif jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda shu kabi xususiyatlarni shakllantirmasa, berilgan ta'lif natijasi past bo'lishi muqarrardir. Buni oldini olish uchun, albatta, ta'lif tizimini tubdan isloh qilishimiz zarur. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining har bir nutq va ma'ruzalarida xalq ta'lmini yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator vazifalarni ko'rsatib beradi. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lif tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'larning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida 2019-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-

sonli - Xalq ta'lifi tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlash to'g'risidagi farmoni qabul qilindi[1]. Ushbu farmonda O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarini baholash dasturi reytingi bo'yicha jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishishni va talim tizimini tubdan isloh qilish Yangi O'zbekistonni yoshlari uchun barcha imkoniyatlar yaratish aks etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday ta'kidlaydi: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir". Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzlusiz hayotiy ehtiyojiga aylanishi kerak" [2]. Ushbu fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, biz yoshlarni bilimga, kitobga bo'lgan muhabbatini


oshirishimiz va yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulugbeklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Shundagina biz mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadga erishgan bo'lamiz va xalqimizning necha ming yillik asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, tarbiya va tabiiy fanlar darsliklari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rinn tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq "dars" degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun va noan'anaviy darslarni tashkil qilish dolzarb masallallardan biri bo'lib kelmoqda. Buning uchun biz innovatsion ta'lim muhitini yaratishimiz, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga yoshlarmizni muvaffaqiyatlari ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Ushbu vazifaning samaral hal etilishi o'z navbatida ta'lim jarayonini yaxlit tizimi sifatida zamonaviylashtirishni taqozo etadi. Innovatsion ta'limning eng muhim parametrlaridan biri o'quvchilarni ta'lim jarayoni subyekti sifatida o'z faoliyatining ijodkoriga aylanishini ta'minlashdir. Mazkur maqsadga erishish o'z navbatida o'quvchilarni guruhlarda, kichik guruhlarda va juftliklarda hamjihatlikdagi ishlarni tashkil etishni talab etadi. Bunda biz, albatta, ta'lim metodlariga tayangan holda ish ko'ramiz.

Darsga qo'yildigan asosiy talablardan biri -ta'lim metodlari va usullarini bir biri bilan mustahkam bog'lab olib borish samaradorligini oshirishdir. Darsga qo'yildigan asosiy talablardan yana biri - barcha didaktik vazifalar darsning o'zida hal etilishi, ugya beriladigan vazifalar o'quvchilarning darsda oladigan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi kerak. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrashlarini hisobga olishi kerak. O'tilgan har bir darsning o'quvchilar bilan birga tahsil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi. Eng asosiysi o'qituvchi dars o'tishi innovatsion usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi [3].

Dastlab metod o'zi nima? degan savolga javob berishimiz kerak.

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Bior ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi.



(1-rasm)

Interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlasa-da, biroq, ularning har biri ta'lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldarlikni ta'minlash bo'yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o'qituvchilar

Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Biz endi interfaol metodlarga keladigan bo'lsak, bunda interfaol metod tushunchasiga izoh berib o'tishimiz lozim.

Interfaol ta'lim (lot. "internus" - ichki, o'zaro) – o'quvchilarining bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlami o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim Interfaol metodlarning mohiyatidan xabardor bo'lishda, eng avvalo, tayanch tushuncha - "interfaol" atamasining lug'avyi ma'nosi bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. Lug'avyi jihatdan "interfaol" (ing. "interact"; r. "interaktiv"; "inter" – o'zaro, birgalikda, "act" - harakat qilmoq, ish ko'rmuoq) tushunchasi "o'zaro, birgalikda harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.

Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (sub'yeqt-sub'yeqt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi – o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironqa ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlari shakllanadi.

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahsmunozaalar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sind jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlarni bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatiga ega. Har bir interfaol metod ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi va ta'lim oluvchilar, o'quvchi va o'quvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxsiy sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Interfaol ta'lim muayyan belgilarni o'zida namoyon qiladi. Mazkur ta'limning asosiy belgilari quyidagilardir (1-rasm). Izoh: Refleksiya (lot. "reflexio" - ortga qaytish, aks etish): Tdshining o'z xatti-harakatlari, ulaming asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyat; bilihning alohida faoliyat; shaxsiy kechinmalari, histuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash) [4].

inobatga olinsa, uning samaradorligi yanada oshadi. Bu o'qituvchilardan kasbiy mahorat, ko'nikma, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozu etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** So'z va uning ma'nolari ustida ishlashda ham o'quvchilarga yuqorida aytigan interfaol metodlardan foydalansak, o'tilgan mavzu sifati yanada ortadi va o'quvchilarning barchasi darsga qamrab olinadi. Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergen. Keng qo'llaniladigan usullar – "Aqly hujum", "6x6x6", "Babs-munozara", "Savol bering", "Kichik guruhlarda ishslash", "Burchaklar metodi", "Kubiklar", "Pinbord", "Bumerang", "Skarabey", "Roven diagrammalar", "Blits-o'yin", "Klaster", "Loyihalash", "Zanjir", "Insedent", "Muzyorar", "Debat" kabilardan foydalaniib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Men hozir kunda hali yangi kashf qilingan interaktiv metodlardan bir nechtasini "So'z va uning ma'nolari ustida ishslash" mavzusiga moslab qo'llanilish metodikasini izohlab bermoqchiman.

"Ortiqchasini top" metodi. Ortiqchasini top metodini biz asosan biror bir gap yoki motivatsiya jumla ichiga mavzuga oid terminlarni yoki so'zlarni joylashtirib chiqamiz. So'ng, ushbu gapni o'quvchilarga taqdirm qilamiz. Ularga ushbu gapdan yoki jumladan ortiqcha so'zlarni olib gapni to'liq o'qish so'raladi. O'quvchilar ziyraklik va chaqqonliklarini ishga solib bu so'zlarni ajratib olib, o'qituvchiga topgan so'z va gaplarini aytishadi. Birinchilardan

bo'lib topgan o'quvchi rag'batlantirilib, uni sinfda eng bilimdon va chaqqon o'quvchi deb maqtab qo'yiladi. Misol sifatida bitta jumlanı olsak: Harakatlanishma'nodoshdan, rivojshakldoshlanishdan qo'rpidma'noliqmang. Ushbu jumladan bizga ortiqcha so'zlarni ajratib oladigan bo'lsak, bular quyidagilar: Ma'nodosh, shakldosh, va zid ma'noli so'zlar ya'ni so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga turlari kelib chiqadi. Harakatlanishma'nodoshdan, rivojshakldoshlanishdan qo'rpidma'noliq mang. Harakatlanishdan, rivojlanishdan qo'rpidma jumlesi kelib chiqadi.

"Klassik juftliklar yoki klassik uchliklar"metodi. Klassik juftliklar yoki klassik uchliklar metodidan asosan yangi mavzuni mustahkamlash uchun foydalananidan metodlardan biri sanaladi. Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'rildi: unda o'qituvchi o'tilgan mavzuga va yangi mavzuga doir so'zlarni oldindan kartochkalarga yozib tayyorlab keladi. O'quvchilar bu so'zlarni biror bir xususiyatiga ko'ra birlashtirib chiqishi, ya'ni juftlik yoki uchliklarga ajratib chiqishi kerak. So'ngra bu juftliklarni o'qituvchi to'g'ri yoki xato ekanligini tekshirib beradi va natijalarga ko'ra o'quvchilarni rag'batlantiradi. Bu metodni kichik - kichik guruhlarga ajratib bajartirilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki barcha o'quvchilar bevosita darsga qatnashib o'z fikrini ifodalab biladi.

Yuqoridagi metod bo'yicha men 4-sinf ona tili 1-qism darsligidan "Ma'nodosh so'zlar" mavzusidagi 73-mashqni namuna sifatida oldim. Ushbu mashq quyidagicha ko'rinishda:

73-mashq. O'qing. Ikki ustundagi ma'nodosh so'zlarni toping va juftlab ko'chiring.	
Barg	Ravshan
Uchmoq	Jang
Katta	Ko'makchi
Urush	Yaproq
Befarq	Parvoz qilmoq
Yorug'	Ulkan
Yordamchi	Farsiz

(2-rasm)

Topshiriq sharti shundan iboratki: So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan berilgan so'zlarni xususiyatiga ko'ra juftlab yoki uchlik shaklida birlashtirib chiqiladi. Guruhlarga quyidagicha tarqatmalar taqdirm qilinadi:

Klassik juftliklarga

BARG	YAPROQ
YORUG'	RAVSHAN
YORDAMCHI	KO'MAKCHI
URUSH	JANG
KATTA	ULKAN
UCHMOQ	PARVOZ QILMOQ
Klassik uchliklarga:	
OSMON	SAMO
FALAK	

Shu tartibda kartochkalarni birlashtirishadi va ularni izohlab nega birlashtirishganligini aytishadi. Ya'ni, yorug' so'zini ma'nodoshi ravshan so'zi. Shuning uchun bu ikkita so'zlar o'zaro ma'nodosh va biz bularni ikkita ma'nodoshini topganligimiz uchun klassik juftliklarga kiradi. Omon, samo, falak so'zleri - klassik uchliklarga misol hisoblanadi. Chunki bu uchta so'z o'zaro ma'nodosh va bular klassik uchliklarga uchta ma'noli qismidan tashkil topgan. Shu tartibda izohlanib boriladi.

**Tahlil va natijalar.** Biz yuqoridagi topshiriqlardni tahlil qiladigan bo'lsak, bunday topshiriqlarni amalga oshirishga 10 daqiqagacha vaqt talab qilinadi.

Birinchi "Ortiqchasini top" metodidir. Ushbu metoddan o'qituvchilar asosan darsni kirish qismida ya'ni

barg, ko'makchi, ravshan, yaproq, jang, parvoz qilmoq, kata, uchmoq, yorug', falak, urush, samo, yordamchi, osmon.. Ular topshiriq sharti bo'yicha darsda o'rgangan bilimlaridan foydalaniib bularni bir joyga yig'adilar.

yangi mavzuni e'lon qilayotganida foydalansa, barcha o'quvchilarni diqqat e'tiborini darsga tortadi. Ya'ni o'quvchilarga ustozlari tayyorgina yangi mavzuni aytmasdan ularga topshiriq berish orqali ularni o'zlarini harakat qilip topishlariga undaydi. Natijada, o'quvchilar o'zlarini bilmagan holda fanga kirishib ketishadi va bu yangi mavzuni tushuntirilishini osonlashtiradi. Dars boshidan bunday interaktiv metod bilan boshlansa, uning sifati va samaradorligi yanada ortadi.

Ikkinci metoddan olinadigan natijalar quyidagicha:

-Dars jarayonini yanada qizg'in va samarali tashkillashtirilishiga yordam beradi. ---O'quvchilar o'zgacha ishtiyoq bilan topshiriqni bajarishga kirishib ketishadi

-Bir birining fikriga o'zaro hurmat bilan qarashni o'rghanishadi

-Jamoaviy birdamlikda , hamjihatlikda ish olib borishni o'rghanishadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish lozimki, darslarni bunday tashkil etish o'quvchilarning darsga qiziqishini va diqqatini yanada kuchaytirib, ularning faolligini

oshiradi. Darslarda o'rinsiz zerikishlarning oldini oladi va yana ular darsga katta ishtiyoyq bilan kirishishadi. Bu ,albatta, o'z navbatida mavzularni tez va sifatlari o'zlashtirishlariga katta yordam beradi. Men shunday inetraktiv metodlarni har bir pedagog o'z dars mashg'ulotlarida qo'llashlarini va ta'limgafafatini yanada yuqori darajaga oshirishlarni xohlardim.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi —Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
3. Aziza Hatamjon qizi Jonibekova Guliston davlat universiteti magistranti, Saodat Ulug'bek qizi Xaitmamatova Guliston Davlat Universiteti magistranti. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar yordamida og'zaki nutqini o'stirishda interfaol metodlarning ahamiyati". Academic Research in Educational Sciences. May.2022
4. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'ziyeva."Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat "(O'quv qo'Hanma) / - Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019,276 b.
5. Karima Qosimova, Safo Matchonov, X.G'ułomova, "Ona tili o'qitish metodikasi". Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalarini uchun darslik:/Toshkent:Bayoz,2022. -304 bet.
6. Ona tili : Umumiyligi o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darslik, I qism. / M.E.Tirova – Toshkent: " Novda Edutainment" 2023. – 88b.
7. Abdurahmonov F., Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. – T. : O'qituvchi, 1979. – 208 b.



**Madina BATIRXANOVA,**  
Farg'onan davlat universiteti doktoranti, (PhD)  
Email: mbatirxanova@mail.ru

*FarDU dotsenti, p.f.n G.Davlyatova taqrizi asosida*

## PRAGMATIC CONSISTENCY AND CONTRADICTORY TRANSLATION OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN WORKS OF FICTION

### Annotation

In the course of our research the statistical analysis of SPhUs(further is given as a somatic phraseological units) of works of art was determined. Their use by Russian and English translators is given in numerical expression on the basis of the graph and statistics is given. It is shown that SPhUs are expressed not only in Old Turkic language, but also in unrelated languages - Russian and English, as well as, if we consider from the point of view of general linguistics, FPhUs are of great importance also in linguistics, according to their peculiarities, in linguistic, historical, national and cultural forms.

**Key words:** Artistic translation, linguocultural features, somatic phraseologisms, pragmatics, national connotation, equivalence, non-equivalence, cultural, communicative, cultural codes, idioms, pragmatic factor, pragmatic adequacy.

## ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ И ПРОТИВОРЕЧИВОСТЬ ПЕРЕВОДА СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ.

### Аннотация

В ходе нашего исследования был определен статистический анализ соматических фразеологических единиц(далее как СФЕ) произведений искусства. Их использование русскими и английскими переводчиками приведено в числовом выражении на основе графика и приведена статистика. Показано, что СФЕ выражены не только в древнетюркском языке, но и в неродственных языках - русском и английском, а также, если рассматривать с точки зрения общего языкоznания, ФЕ имеют большое значение и в языкоznании, в соответствии со своими особенностями, в языковых, исторических, национальных и культурных формах.

**Ключевые слова:** Художественный перевод, лингвокультурные особенности, соматические фразеологизмы, pragmatika, национальный оттенок, эквивалентность, безэквивалентность, культурный, коммуникативный, культурные коды, идиомы, pragmatic factor, pragmatical adekvatnost.

## BADIY ASARLARDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLER TARJIMASIDA PRAGMATIK MUVOFIQLIK VA NOMUVOFIQLIK

### Annotatsiya

Biz tadqiqotimiz davomida badiiy asarlarning somatik frazeologik birliklarini(SFB) statistik tahlili aniqlandi. SFB faqatgina qadimiy turkiy tildagine emas, balki qardosh bo'lмаган tillar – rus va ingliz tillarida ham ifodalanganligi, shuningdek, agar umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, FBlar ham o'z xususiyatlariga ko'ra lingvistik, tarixiy, milliy va madaniy shaklda tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib berildi.

**Kalit so'zlar:** Badiiy tarjima, lingvomadaniy xususiyatlar, somatik farzeologik birliklar, pragmatika, milliy konnotatsiya, ekvivalentlik, ekvivalentlitsiz, madaniy, kommunikativ, madaniy kodlar, idiomalar, pragmatik omil, pragmatik adekvatlik.

**Kirish.** Badiiy tarjimaning asosiy vazifasi madaniyatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro muloqot aniqligini, uzatilayotgan axborotni tushunishni kuchaytirishdan iborat. Amerikalik professor Rayner Shultening fikricha, "badiiy tarjima madaniyatlar va tillar o'rtasidagi nozik hissiy aloqalarni bog'laydi va insoniyatni milliy chegaralar orqali tushunishga yordam beradi. Badiiy tarjimada boshqa madaniyatning ruhi shaffof bo'ladi va tarjimon yangi tilning lingvistik, musiqiy, ritmik va vizual imkoniyatlari orqali xorijiy mamlakatlar va xalqlarning nozik hissiyotlarini qayta tiklaydi[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tarjima nazariyasi borasida ingliz tarjimashunoslari T.Sevori, J.Ketford olib borgan tadqiqotlar e'tiborga loyiq . Tarjima sifatini baholash jarayonida ko'p hollarda muqobililik darajalarini aniqlash borasida ko'plab olimlar, jumladan, A.Fyodorov, Retsker, Ketford, Gak, Yeger va boshqalarning qarashlari mavjud[1].

Hozirgi kunda zamонавий tarjimashunoslik yo'nalişiga juda ko'plab o'zbek tarjimonlari va lingvistlari o'z hissalarini qo'shmaqda. Bularidan Xurshid Davron,

Muhammad Ali, Ibrohim G'afurov, Qudratxon Musayev, Abduzuhur Abduazizov, Najmiddin Komilov, Muhammadnodira Safarovalarni aytib o'tish mumkin.

S.G'aziyeva va A.Uzbekov tarjimaning lingvomadaniy xususiyatlarini ifodalashda millatning milliy, jug'rofisi, ma'naviy, diniy, axloqiy aspektlari mujassam ifoda etilganligi asosiy va muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydilar[2]. Har qaysi millatning o'ziga xos xususiyatlari boshqa millatda uchramaydi va o'zining yagonaligi bilan ajralib turadi.

**Tahlil va natijalar.** Shuning uchun tarjimada milliy konnotatsiyalarni ko'rsata olish tarjimondan maxsus qobiliyat talab qiladi. Har qaysi millatning badiiy asarlarida milliy fazilatlar namoyon bo'ladi. Ushbu milliy fazilatlarni tarjima qilish jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar, muammolar ham vujudga kelishi ham tabiiy. Aynan ushbu muammolarni aniqlash, tarjimada muvofiq usullarni taklif qilish, muvofiq so'zlarni, idiomalarni berish diqqatga sazovor masaladir. Tarjimon bir millatga xos xususiyatlarni boshqa millat tiliga taqdim etishning o'ziga xos yo'llarini bila olishi kerak. Mazur tadqiqot ishida biz badiiy asarlar tarjimasida SFBlarning o'zga

tilga taqdim etish masalalarini yoritishga, tarjimada ayrim kamchiliklarga, ekvivalentlik va ekvivalentlitsiz holatlarga o‘z e’tiborimizni qaratdik.

SFBlarning tarjima jarayonida, yuqorida eslatib o‘tganimizdek, o‘zbek tilida ko‘p FBlar ingliz va rus tiliga oddiy leksik birliklar orqali uzatiladi. Biz quyidagi misollarni tahlil qilishda M.Abdurahimovning qisqa o‘zbekcha-ruscha FBlar lug‘atidan foydalandik[3]. Masalan, boshga ko‘tarmoq somatik frazeologik birligi rus tilida ekvivalenti va analogi yo‘qligi tufayli leksik birliklar orqali tarjima qilingan.

FBlar tarjimasidagi pragmatik muvofiqliklarning asosiy 3 turi quyidagilar:

1. To‘liq mos kelish: boshini yo‘qtmoq – терять голову – to lose one’s head.

Qisman mos kelish: bir qarich til – длинный язык – long tongue; tovuq miya – куриные мозги – bird brain/sparrow brain.

Butunlay mos kelmaslik: ko‘z(i) yorimoq – родить – give birth.

Asliyat tilidagi matnni tarjima tiliga o‘girishda pragmatik omillarni hisobga olish zarurati xorijiy bilan frazeologizmlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda ko‘zga yaqqol tashlanadi. Masalan, mehmonlarni ziyofatga taklif qilish uchun illokutiv nutqiy harakatni inglizlar “I’d love to/I’d be happy to/I am pleased to/I’ll gladly”, o‘zbeklar esa “Bosh ustiga/Jonim bilan”, ruslar “С большим удовольствием/К вашим услугам/С готовностью” iborasi orqali izhor qiladilar.

Bosh komponentli SFBlarning soni o‘zbek tilida talaygina. Ushbu somatik iboralar turli semantik guruhlarga kiritilishi bilan “madaniy kodlar”da bitta guruh a’zolari ham bo‘lishi mumkin. Mazkur taddiqot ishida biz somatik iboralarning lingvomadaniy xususiyatlariga e’tibor qaratar ekanmiz, asosiy urg‘u ularning “madaniy kodlar” orqali qaysi guruhlarda tasniflanishini, har qaysi tilda “madaniy kodlar”ga taalluqli SFBlar rang-barangligi bilan ta’riflanishini hamda bir tildan ikkinchisiga uzatilganda somatik iboralarda “madaniy kodlar” o‘zgarishi yoki umuman FB emas, leksik birlik sifatida tarjima qilinishini ko‘p uchraydigan holatlardan deyish mumkin.

Asliyat va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asliyatga va tarjimada mutlaqo boshqa-boshqa narsa haqida gapirilayotgandek taassurot uyg‘otadi. Ushbu tarjimaga quyidagi misolni keltirish mumkin:

- Nazarimda, qadam olishi, turqi-tarovati Nazirqulga o‘xshaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Schulte Rainer. Theories of Translation. – Chicago: Chicago University Press, 1992.
2. Gaziyeva S.,Uzbekov A. Tarjimaning lingvokulturologik muammolari // Science and Education. – T., 2020. – №.4. – Б.118.
3. Abduraximov M. Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. – Toshkent:O‘qituvchi, 1980. – 183b.
4. Savory T. The Art of Translation. – London, 1952; Catford J.A. Linguistic Theory of Translation. – London, 1965.
5. Фёдоров А.И. Фразеологический словарь русского литературного языка. Около 13000 фразеологических единиц. 3-е издание, исправленное. 2-е издание, однотомное, стереотипное. – М.: ACT–Астрель, 2001. – С.181
6. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Россия, 1974. – С.115; Гак В.Г. Языковые преобразования. – Москва, 1988. – С. 139
7. Егер Г. Коммуникативная и функциональная эквивалентность // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике / Г.Егер. – М.: Междунар. отношения, 1978. – С.137-156.
8. Gaziyeva S.,Uzbekov A. Tarjimaning lingvokulturologik muammolari // Science and Education. – T., 2020. – №.4. – Б.118.

- Yo‘g‘-e. Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan bola-ya. Yanglishayotgandirsiz. (Said Ahmad, Hukm.)

Iboraning rus tilidagi analogi sifatida он и муҳи не обидит, он и во сне комара не убьёт, ingliz tilidan esa he can’t say do to a goose, he would’t hurt a fly, he can’t say do to a goose iboralarini keltirishimiz mumkin (muallif tarjimasi).

Bu yerda asliyat va tarjima matnlari orasida mazmuniy umumiylilik mavjudligi tufayli ekvivalentlik yuzaga kelgan.

M.Abdurahimovning frazeologik lug‘atidan yana quyidagi misollarni keltiramiz:

... Sen yo kolxozing to‘g‘risida gazetalarda yozishsa, Zaynab o‘qib, boshi ko‘kka yetadi. (Oybek, Oltin vodiydan shabadar.)

А когда о тебе или о твоем колхозе пишут в газетах. Зайнаб чувствует себя на седьмом небе от радости.

O‘zbek tilidagi boshi ko‘kka yetmoq iborasining rus tilidagi analogi бытъ на седьмом небе от счастья iborasidir. Tarjimon matn tarjimasida ushbu analogdan foydalangan. Ikki tilda somatik iboralar “animik-somatik madaniy kod”ga taalluqli bo‘lib, tarjimada ham ma’no mutanosibligiga erishilgan.

Tarjimonlar rus va ingliz tili retseptori ehtiyojini hisobga olgan bo‘lsalar-da, biroq bu tarjima oqibatida kelib chiqadigan matn g‘alizligini hisobga olmaganchalar. Natijada SFB tarjimalarda to‘la ifodalananmay qolgan. Bu jihatlar tarjima amaliyotiga kirishishdan oldin shu xalq tili, tarixi, madaniyatni, urf-odatlaridagi nozikliklarni atroficha o‘rganishni taqozo etadi.

Pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy unsuri hisoblanib, ularning kayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ to‘la-to‘kis mosligini vujudga keltiradi. Natijada tarjima muqobil uslubiy xususiyat kasb etib, uni o‘qigan kitobxon asliyat sohibi asar mutolaasidan oladigan taassurot darajasida ta’sirlanadi, tarjimaning asliyatga pragmatik adekvatligi asliyat va tarjima sohiblarining bir xil axborotga ega bo‘lishlari bilan belgilanadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirgan tahillari-mizga asoslanib, FBlar til birliklari mavjud bo‘limgani uchun ularning o‘ziga xosligi yo‘q, shuning uchun ular leksik birlik bo‘lgani alohida so‘zlar sifatida qaraladi. Biz SFBlarning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborsiz qoldirib, bunday qarashlarga qarshi chiqamiz, frazeologiya sohasidagi ijodiy izlanishlarni ma’qullaymiz.



E'tibor BAXRIDINOVA,  
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail:baxridinovaetibor@gmail.com

O'z DJTU dotsenti v.b. M.Baxtiyarov taqrizi asosida

## THEORETICAL APPROACHES TO THE SCIENCE OF LINGUISTICS AND CULTURE IN WORLD AND UZBEK LINGUISTICS

### Annotation

The article talks about the interdependence of language and culture, theoretical views on the science of linguistics, linguistics and intercultural communication.

**Key words:** Linguistics, culture, language, society, speech, cultural studies.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К НАУКЕ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРОЛОГИИ В МИРОВОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

### Аннотация

В статье рассматривается о взаимозависимости языка и культуры, теоретических взглядах на науку языкознание, лингвистику и межкультурную коммуникацию.

**Ключевые слова:** Языкознание, культура, язык, общество, речь, культурология.

## LINGVOKULTUROLOGIYA FANIGA DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI NAZARIY QARASHLAR

### Annotatsiya

Maqolada til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, lingvokulturologiya faniga oid nazariy qarashlar, lingvo'lkashunoslik va madaniyatlararo muloqot xaqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Lingvokulturologiya, madaniyat, til, jamiyat, nutq, madaniyatshunoslik.

**Kirish.** XXI asrda tilshunoslikning tilni shunchaki aloqa quroli va tafakkur natijasi sifatida emas, millatning madaniy omili sifatida tadqiq etadigan sohalari yuzaga kelmoqda. Til madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u muayyan madaniyat asosida rivojlanadi va uning ifoda vositasi bo'lib xizmat qiladi. Til shunday hodisaki, u til tashuvchilarning madaniyati va fikrash tarziga ta'sir qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** 20-asrning so'nggi o'n yilligida mamlakatlararo tilshunoslik, etnolingvistikä, psixolingvistikä va madaniyatlararo muloqot kabi yangi fanlar chorrahasida yangi ilmiy paradigma yaratildi. Bunga tilshunos Teliya rahbarligidagi Rossiananing frazeologik maktabi (1986) katta hissa qo'shdı. Bugungi kunda Vorobevning ilmiy hissaları (1993), Stepanov (1995), Shakleyin (1997), Artyunova (1998) va Maslova (2001, 2010) fanning kanonlari hisoblanadi.

Shutardza Moskvada to'rtta katta lingvokulturologik muktablar yuzaga keldi, ular quyidagilardir:

1. Stepanovning lingvokulturologik maktabi: bunda madaniyatni diaxronik tavsiflagan. Benvenistlar konseptiga uslubiy yondoshiladi. Yo'naliş turli davrlarda yaratilgan matnlar, tilning faolegasi emas, balki tashqi kuzatuvchi ekanligi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi.

2. N.D. Artyunovaning lingvokulturologik maktabi turli xalqlar va davlatlarga oid matnlardagi umummadaniy tushunchalarni tadqiq qiladi. Mazkur madaniy tushunchalar ham tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi nuqtai nazaridan o'r ganiladi.

3. V.N. Teliya maktabi Rossiyada, hamda xorijda frazeologizmlarni lingvokulturologik tahlil qilish bilan tanilgan. V.N. Teliya va uning izdoshlari lisoniy mohiyatlarni jonli til egasining refleksi nuqtai – nazaridan tadqiq qilishadi. Ya'ni bu madaniyat semantikasini bevosita til va madaniyat subyekti orqali egallashga qaratilgan yo'nalişdir.

4. V.V. Vorobyev, V.M. Shakleinning lingvokulturologik muktabavakillari Rossiyadagi xalqlar do'stligi universitetida Ye.M. Vereshaginva V.G. Kostomarovlarning ta'limotlarini rivojlanirdilar. [1] So'nggi yigirma yil ichida ham lingvokulturologiya fan sifatida o'z mavqeiga ega bo'ldi. Bu sohada ko'plab tadqiqotlar olib borildi va lingvokulturologiya madaniyatni til prizmasi orqali aniqlab, aks ettirish bilan ajralib turadigan yangi filologik yo'nalişiga aylandi.

**Tahlil va natijalar.** Lingvokulturologiya jonli milliy til davlat til jarayonlarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'r ganadigan ijtimoiy fandir. Ushbu fan tilning madaniyatni yaratish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi va namoyon bo'lishidek eng muhim vazifasini belgilab beradi.

Madaniyatshunoslik (kulturologiya) insonning ijtimoiy va madaniy hayotidagi tabiat, jamiyat, tarix, san'at va boshqa sohalarga ko'ra o'zini-o'zi anglashini tadqiq etsa, tilshunoslik tilda olam lisoniy manzarasining mental modellar ko'rinishida aks etadigan va qayd qilinadigan inson dunyoqarashini o'r ganadi. [2]

Jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy qoidalar, avvalambor, aloqa orqali o'r ganiladi. Masalan, oddiygina yo'l so'rash usulimiz ham madaniyatimizdan darak beradi. Til va madaniyat juda ko'p o'xshashliklarga ega, ikkalasi ham (a) ekslyuziv insoniy, (b) ma'nodor va (c) guruhiy birdam belgi tizimlariga ega. Ularning o'zaro bog'liqligi - ko'pincha fikrash bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Lingvokulturologiyaning rus tilshunos va madaniyatshunos olimlar tomonidan shu yo'nalişga xos tarzda shakllantirilgan turli xil ta'riflari mayjud. Ulardan ba'zilarini bu yerda misol tariqasida keltiramiz. V.V. Vorobyov lisoniy madaniyatshunoslikni «tilning o'z faoliyatida madaniyat bilan o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini o'r ganuvchiva bu jarayoni birliklarning yaxlit tizimi sifatida ularning lisoniy va nolisoniy mazmunini tizimli metodlar va hozirgi zamon prioriteltari va madaniy tamoyillari

bilan birlikda aks ettiruvchi sintezlash tipidagi majmuaviy ilmiy mustaqil fan sohasi», deya ta'rifladi. [3] Bundan, tilva madaniyatni yaxlitlikda o'rganish va lisoniy birliklar madaniy belgilarini ajratishda sintezlash usulini qo'llash to'liqroq axborotga ega bo'lish imkonini berishi mumkinligi anglashildi. Agar madaniyatshunoslik insонning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o'z-o'zini anglash xususiyatini o'rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o'zaro ta'sirlashish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi.

Demak aytish mumkinki, lingvokulturologiyaning asosiy maqsadi - madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarining tilda aks etishini o'rganishdir.

Lingvokulturologiya bir necha fanlar chorrahasida paydo bo'lganligi sababli, bu fan birinchi navbatda til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganadi. Bunda til madaniy mazmunning elagi hisoblanadi. Bunda muhim tadqiqot ob'ekti bu jarayon natijalarini til materialining misolda talqin qilishni o'rganishdir.

Lingvokulturologik tadqiqotning markaziy ob'ekti deganda insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniy boyliklarning lisoniy ifodasi tushuniladi.

Bu turli xil ish qurollardan tortib kundalik narsalarga, odamlarning urf-odatlari va turmush tarzidan tortib ilm-fan,san"at,din,axloq va falsafa,qisqacha qilib aytganda, barcha madaniy jabhalarni qamrab oluvchi keng qirrali sohadir.

Ushbu sohaning ko'zga ko'rning namoyondalaridan biri Maslova lingvokulturologiyani o'rganish objektlarini qiyidagi guruhlarga ajratadi:[4]1.Lingvo-o'lkashunoslik tomonidan tadqiq etilgan ekvalentsiz leksika va lakunalarni (qarang Vereshagin/Kostomarov (1987 lingvo-o'lkashunoslik nazariyasi). Bularga, boshqa narsalar qatori, mintaqaviy belgilangan manbalar: tsitata va hikmatli so'zlar, shuningdek siyosiy iboralar va parollar. Bu ekvalentsiz til birliklari-faqat ma'lum bir madaniyatga tegishli belgilari bo'lib, tilning jami funksiyalarining hosilasi sifatida qaraladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotchilar tomonidan har biri alohida lingvokulturologik birlik bo'lgan bir necha predmetlardan bir nechtaşı ajratib ko`rsatilgan:

1) lingvo-o'lkashunoslikning predmeti muqobil siz so'zlar va lakunalardir, shuningdek, lingvokulturologiyaning ham predmetidir; 2) mifiklashgan til birliklari: arxetiplar, mifologemlar, marosimlar , rasm-rusum hamda odatlар, ular til birliklari tarkibiga yaxlitlangan bo'ladi; 3) tilning paremiologik fondi; 4) tilning frazeologik fondi; 5) etalonlar, stereotiplar, ramzlar; 6) tildagi metaforalar va timsollar; 7) tilning uslubiy imkoniyatlari; 8) nutq madaniyati 9) nutq odobi sohasi.

2) Mifologik kontekstdagi lingvistik birliklar. Bular arxetiplar va mifologiyalar, marosimlar va urf-odatlار, shuningdek, tilda mustahkam o'rın olgan xalq e'tiqodlari.

3) Paremiologik lingvistik fond. Bularga, birinchi navbatda, etnik kelib chiqadigan avtostereotiplaridan kelib chiqadigan maqollar kiradi.Biroq barcha maqollar ham lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilinmaydi. Bunda ularning muayyan madaniy jamoaga, ma'lum bir millatga mansubligi, ularning tarixi bilan chambarchas bog'liqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

4) Haqli ravishda muayyan etnik guruhning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli ma'lumotlar manbai hisoblangan frazeologik til zaxirasi.

Bu ularning afsonalar, an'analar, marosimlar, urf - odatlار, hulqi haqidagi tasavvurlarini o'z ichiga oladi.

5) Prototiplar, stereotiplar, ramzlar. Ular lingvokulturologik jihatdan faqatgina dunyoqarashni emas,

balki boshqa xalqlarni idrok etishni tasvirlaydi,chunki ular milliy qarashlardan kelib chiqadi va boshqa etnik ko'rinishlarni aks ettiradi.

6) Metafora va boshqa til tasvirlari. Metafora va boshqa tasvir vositalari lingvokulturologiyaning muhim ob'ektlaridan biridir,chunki u til birliklarini ko'rsatish orqali etnik guruhning madaniy tasavvuridan foydalanadi.

7) Nutqning stilistik shakkllari. Nutqning stilistik shakkllari lingvokulturologiyaning o'rganish objekti bo'lish bilan birga katta ahamiyatgaham ega. Bu jarayonda tilning mavjud shakkllari o'rganiladi. Ba'zi tillarda haddan tashqari dialekt tabaqlanishi kuzatiladi, boshqalarida esa hududiy til navlari o'rtasida deyarli hech qanday farq yo'q. Adabiy til va tilning adabiy bo'lmagan shakkllari o'rtasidagi bog'liqlik jamiyatning madaniy tarixining rivojlanishi bilan belgilanadi: yozuv tarixi, maktablar, adabiyot, dunyoqarash, mafkura va boshqalar.

8) Nutqiy muomala. Lingvokulturologiyaning maxsus tadqiqot predmeti sifatida nominativ, grammatik va stilistik ifodalanganbirliklarda mustahkamlanadigan katta qiziqish uyg'otadigan nutqiy muomaladir.

9) Nutq odobi sohasi. Nutq odobi-bu lingvistik qoidalar tizimi bo'lib, muayyan jamiyat odamlari tomonidan yaratilgan va jamiyatdagi rollariga ko'ra ijtimoiy va madaniy vaziyatlarga mos tarzda yuzaga keladigan hodisa. Bu madaniy nutq odobiga tegishli hodisa bo'lgani uchun lingvokulturologiyaning o'rganish predmetidir.

Shunday qilib, lingvokulturologiya nafaqat matnlarni, balki jonli tildagi muloqot jarayonlari va ularning xalq madaniyati va mentaliteti bilan aloqasini tadqiq etadi. Biroq, bular til va madaniyat o'zaro ta'sir qiladigan asosiy faol yo'nalishlardir.

Ushbu tadqiqot ob'ektlariga mos ravishda, lingvokulturologiya sohasida ba'zi tadqiqot yo'nalishlari rivojlandi:

Ma'lum bir madaniy davrda muayyan ijtimoiy guruhning, xalqning lingvokulturologiyasi, bu degani aniq lingvokulturologik vaziyatda tadqiqot olib borish.

Ma'lum bir davrda biron xalq lingvokulturologikholtaining rivojlanishi va o'zgarishiga qaratilgan diaxronik lingvokulturologiya.

Qarindosh bo'lgan, ma'lum millatga mansub bo'lsada biroq turli xil lingvokulturologik ko'rinishlarga ega bo'lgan qiyosiy lingvokulturologiya .

Va ilmiy rivojlanishini endigina boshlagan kontrastli lingvokulturologiya. U madaniyat/mentalitetni idrok etishni mutlaqo begona nuqtai nazardan o'rganadi.

Lingvo-o'lkashunoslik lug'atlaridan shug'ullanadigan lingvokulturologik leksikografiya. Bugungi kunda lingvokulturologiyaning yana bir yo'nalishi bo'lgan leksikografiya boshqa yo'nalishlarga nisbatan ancha tez rivojlanib bormoqda. Hozirda bu sohada ko'plab lingvo-o'lkashunoslik lugatlari yaratilmoqda. D.G.Maltsevaning olmon realiyalari asosida tuzilgan va 25 bobdan iborat lingvo-o'lkashunoslik lugati bunga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu lugatda hozirgi zamonaliv nemis tilining leksika va frazeologiyasi lingvo-o'lkashunoslik yo'nalishida yoritib berilgan. Bundan tashqari lugatning asosiy tarkibi maxsus milliy realiyalardan iborat. Lugatda til birliklari orqali ushbu o'lka tarixi va madaniyati, tabiatni va iqlimi, nemis xalqining turmush tarzi, matbuot va adabiyotga fan, texnika va boshqa sohalarga oid realiyalar til o'rganuvchilar uchun batafsil yetkazilgan[5].

Madaniyatni chuqur o'rganish orqali, uning inson fikrlashi bilan naqadar bog'liqligini sezish mumkin. Chunki, inson o'z madaniyati orqali ko'z o'ngida aks etgan voqe-hodisalarini ongiga singdirishga harakat qiladi. Zero insonlar muayyan milliy ma'naviyat va madaniyatga ega bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yashaydilar, u yoki bu milliy tilda so'zlashadilar va ular milliy ma'naviyat,

uniro'yobga chiqishida muhim o'rin tutadigan til madaniyati va nutq ma'naviyatining o'ziga xos xususiyatlari insonlarning lisoniy kognitiv faoliyatida o'z aksini topadi.

Inson hayotida kerakli predmetlar hamda yuzaga keladigan voqe-a-hodisalarni madaniyat vositasi deb fikrash ham mumkin. Masalan, quyoshni yoki oyni madaniyatga kiritish bir jihatdan mumkin emasdek ko'rindi. Biroq bizga ma'lumki, barcha xalqlar madaniyatida ushbu tushunchalar mavjud. Lekin ba'zi salqin ob-havo sharoitida yashovchi Yevropa xalqlari (slavyanlar va germanlar) quyoshni issiqlik, ardoqlash va iltifot belgilari sifatida ijobjiy baholaydi. Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida ularni qiyin ahvolga soluvchi jazirama haroratga tenglashtirib, salbiy baholanadi. Demak, quyoshni faqat tabiat hodisasi emas, balki madaniyat mahsuli sifatida tushunsa bo'ladi.

Til va madaniyatda juda ko'p o'xshashliklarni ko'rish mumkin, ya'ni, ikkalasi ham faqat insonga xos bo'lib, ma'lum ma'noga va guruhiy yaxlit belgi tizimlariga egadir. Ularning o'zaro bog'liqligi – ko'pincha fikrash bilan birgalikda – nuqtai - nazar, baxolashlar, tadqiqot qiziqishlari va tahli usullari jihatidan turli xil tadqiqot kontekstlarida aks ettirish ob'ekti xisoblanadi.[6]

XXI asrning dastlabki yillaridan o'zbek tilshunosligida xam antroposentrik taxlil ko'rinishlarini namoyon etuvchi tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ilmiy ishlar, asosan, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika va psixolingvistika sohalari bo'yicha bajarildi. Mazkur tadqiqotlar, garchi ularda antroposentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo'lsa-da, o'zida ushbu paradigmaga tamoyillarini aks ettirgan dastlabki tadqiqot ishlari xisoblanadi. Shuningdek, ularda tilimizning milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va an'analarimiz bilan bogliq jihatlari xaqida xam ayrim fikrlar bildirliganki, ularni lingvokulturologiya nazariyasiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baxolash mumkin.

Lingvokulturologiya yo'naliishida o'zbek tilshunosligida ham bir qator izlanishlar olib borilayotganini e'tirof etishimiz darkor. Bu ishlarni o'zbek tilshunosligining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlarning tadqiqotlarini fikrimizning dalili sifatida aytib o'tishimiz mumkin. Hozirgi kunda bu sohadagi izlanishlar soni yanada ortib bormoqda desak mubologna bo'lmaydi. XXI asr boshlaridanoq o'zbek tilshunosligida antroposentrik yo'naliishda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Asosan kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika va lingvistik pragmatika sohalari bo'yicha olib borilgan ishlarda tilimizning o'ziga xos miliy xarakteri, qadriyat va urf – odatlarimiz haqida ba'zi fikrlar aytib o'tilgan. Shu boisdan ularni lingvokulturologiyaga doir dastlabki nazariy qarashlar deb baxolashimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligi ravnaqiga salmoqli hissa qo'shgan Professor A. Nurmonov ham lingvomadaniyatshunoslik yo'naliishini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Olim bu fanga lingvistik nisbiylik va lingvistik determinizm nazariyasi jihatdan yondoshib, E.Sepir va B.Uorf kabi olimlarning qarashlariga o'z fikrlarini bildirish orqali madaniyat va tilning o'zaro bogliqligiga munosabatini bildiradi.

O'zbek tilshunosligiga "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiyasini yaratishi bilan antroposentrik yo'naliishiga o'z hissasini qo'shgan tadqiqotchilardan yana biri tilshunos olma, filologiya fanlari doktori D.Xudoyberganova dir. Olma o'zining monografiyasida ushbu

soha bo'yicha umumiylar ma'lumotlar bergen. Monografiyada o'zbek tilidagi matnlarni lingvokulturologik tomondan tadqiq etiishga qaratilgan. Shu jumladan bunda matn yaratilishida presedent va lingvomadaniy birliliklarning, metaforalarning ro'li, o'xshatish mazmunli matnlar va jonlanadirish asosida matnlarning lingvokulturologik jihatlariga alohida ahamiyat berildi. [7]

S.M. Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi tilshunosligimizda tilni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etishga qaratilgan navbatdagi ishlardan biri bo'ldi. Ushbu tadqiqotda muallif o'zbek xalqining muloqot paytida o'ziga mos xulqiga ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan yondoshgan.

Shu jumladan dissertatsiyada tadqiqotchining til tizimiga antropotsentrik yondashuv deb baxolash joiz bo'lgan qarashlari mavjud bo'lib, ular muloqot xulqining milliy xarakter bilan bogliqligi xaqidadir.

S.M. Mo'minovning yozishicha "Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat axolisining oziga xos an'analarini va urf-odatlari, qadriyatlarini xisobga olmay turib mutlaqo o'rganib bo'lmaydi. Muloqot xulqi millat xarakterining ajralmas bir qismi bo'lganligi bois, ular bir-biri bilan uzviy bog'langandir". [8] Taniqli o'zbek olimlaridan yana biri Prof. Sh.Safarovning 2006 yilda nashr etilgan "Kognitiv tilshunoslik" nomli monografiyasini kognitiv tilshunoslikning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim o'rinn oldi. Monografiyada ushbu yo'naliishga oid nazariy qarashlar mujassamlangan. Unda til va tafakkur munosabati milliy mentallik va milliy madaniyat tushunchalari bilan bogliqligiga aloxida urg'u berilganligi e'tiborga molikdir. Bu borada tilshunos til va tafakkur aloqasini teng darajada ko'rmoqlik kerak deb ta'kidlaydi[9]. Aytish mumkinki, madaniyatning tilga ham, tafakkurga ham ta'siri kattadir. Sh.Safarov lingvokulturologiya, shu jumladan, lingvomadaniy konseptga oid nazariy qarashlarga ega bo'lib, ular "Semantika" nomli monografiyasida atroficha yoritildi. Ushbu monografiyaning 8 – bobu konsept va ma'no xaqida bo'lib, olim bunda 55 ta turli qarashlarni tahlil etgan holda konseptga o'z fikrini bildirgan. Uning "Konsept mundarijasida til sohiblarining dunyoqarashi va boshqa turli milliy-madaniy belgilarning aks topishi muqarrar" degan xulosasi bugungi kun lingvokonseptshunosligida ustuvor bo'lgan qarashlar bilan hamohangdir.

Bundan tashqari o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy qarashlarni M.X.Xakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" nomli doktorlik dissertatsiyasida ko'rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umummazariy masalalari va tilshunoslikning boshqa yo'naliishlari bilan munosabati xaqida bahs yuritilgan. Dissertatsitada matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o'zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan. Tadqiqotda muallif lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib berishdagi muxim roli haqida alohida fikr bildirgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytish mumkinki, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganilishi tarixi ancha uzoq davrni egallaydi. Bu davr davomida olib borilgan ishlarni e'tirof etish muhimdir va aytish mumkinki, lingvomadaniyatshunoslik asrlar davomida tilshunoslikning sohalaridan biri bo'lib rivojlanib kelgan. Hozirgi kunda u turli madaniy konseptlarni tadqiq etish orqali namoyon bo'lmoxda.

## ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. М.: Академия, 2010.
2. Sh.Usmanova Lingvokulturologiya.Toshkent 2019,16 s.
3. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi. –М., 1997.36.b.
4. Maslova, V.: Lingvokulturologiya. Ucheb. pos. dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy. Moskva: 2010. Akademiya 37-47 betlar.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. М.: Академия, 2010, ст.28 -29.

6. Csaba Földes. Prof. Dr. Dr.University of Erfurt (Germany), ordinary member of the Academia Europaea (London) Universität Erfurt /UE. Das Beziehungsgeflecht zwischen Sprache und Kultur:Forschungsrückblick, Zugänge und Beschreibungstendenzen.Article in Glottotheory. International Journal of Theoretical Linguistics · March 2021 DOI: 10.1515/glot-2020-2014.
7. Xudoyberganova.D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent. Fan.2013.
8. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol.fanlari d-ri.diss. – T.,2000.
9. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006.



Мафтуна БОБОРАИМОВА,

Докторант в НуУз

E-mail: xadicha14@gmail.com

Рецензент профессор, д.ф.н С.Хашимова

## INGLIZ VA XITOY TILLARIDA HURMAT KATEGORIYASINI IFODALOVCHI LEKSIK VOSITALAR

Annotatsiya

Hurmat kategoriyasi – (tilda), so'zlovchi, tinglovchi va odamlar o'ttasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashning turli xil lingvistik vositalarini belgilash uchun ishlataladigan atama; biz gaplashayotgan narsa haqida. So'zning til vositalari tizimidagi yetakchi roli uning til stilistikasidagi o'mini belgilaydi: so'z asosiy stilistik birlilikdir.

**Kalit so'zlar:** Hurmat kategorosi, Xitoy, ingliz tili, leksik birliliklar.

## LEXICAL MEANS OF EXPRESSING POLitenESS IN ENGLISH AND CHINESE LANGUAGES

Annotation

Politeness – (in language), a term traditionally used to designate a variety of linguistic means of expressing social relations between the speaker, listener and people, about which we are talking. The leading role of a word in the system of linguistic means determines its place in the stylistics of a language: the word is the main stylistic unit.

**Key words:** Politeness, China, English, lexical means

## ЛЕКСИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И КИТАЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Вежливость – (в языке), термин, традиционно используемый для обозначения разнообразных средств языкового выражения социальных отношений между говорящим, слушающим, и людьми, о которых идет речь. Ведущая роль слова в системе языковых средств определяет его место в стилистике языка: слово является основной стилистической единицей.

**Ключевые слова:** Вежливость, Китай, английский язык, лексические средства

Как следует из определения вежливости, каждый из языковых уровней характеризуется наличием маркеров вежливости. Ведущая роль слова в системе языковых средств определяет его место в стилистике языка: слово является основной стилистической единицей. Лексическая стилистика изучает соотносительные лексические средства языка, давая оценку использованию слова в конкретной речевой ситуации и вырабатывая рекомендации нормативного словоупотребления в различных функциональных стилях. По мнению С.А. Быковской, лексические средства речевого контакта представляют собой функциональный класс языковых единиц, объединенных общностью коммуникативного назначения: служить средством установления, поддержания и завершения контакта в диалоге [7, с.10]. Проблемы лексической стилистики тесно соприкасаются с проблемами культуры речи. Характеризуя использование в речи тех или иных лексических средств языка, стилистика стоит на страже правильного словоупотребления. Нормативно-стилистический подход к изучению лексики предусматривает анализ часто допускаемых речевых ошибок: употребления слова без учета его семантики; нарушения лексической сочетаемости; неправильного выбора синонимов; неверного употребления антонимов, многозначных слов, омонимов; смешения паронимов; немотивированного объединения стилистически несовместимых лексических средств и т.д. На лексическом уровне предпочтение отдаётся нормативной лексике. Универсальными средствами вежливости являются не только клишированные, стандартные фразы, но и такие положительно эмоционально окрашенные слова, как fine, nice, good, please, kind, happy, very well. Такую же

положительно окрашенную лексику мы встречаем и в китайском языке 尊(уважаемый), 老 lao (старый), 您 nin (вы). И в английском, и в китайском языках используются устойчивые выражения в различных ситуациях. Но не всегда положительно окрашенные эмоциональные слова употребляются в устойчивых выражениях для выражения вежливости. Современный английский и китайский язык изобилует такими образованиями варьирующейся степени устойчивости, специализирующимиися на выражении разного рода коммуникативных значений: приветствия, извинения, благодарности, поздравления, отказа, согласия, просьбы и т. д. Кроме этого, они способны также выполнять коммуникативную организующую и текстоорганизующую роль, что также связано с говорящим, исходит от него, обусловлено его конкретным намерением.

Присутствующие в языковом сознании естественных носителей английского и китайского языков, они используются ими в соответствующих речевых ситуациях автоматически.

Представленные лексические средства распределяются по степени формальности высказывания и в нижеследующих таблицах они все анализируются с точки зрения принадлежности частям речи, синтаксиса, но мы представляем только основные, важные, с нашей точки зрения, особенности. Необходимо уточнить, что лексические, грамматические и синтаксические средства выражения вежливости в той или иной степени существуют неразрывно в языке, поэтому например, рассматривая лексику нам приходится частично обращаться к грамматике и т.д.

**Приветствия.** Рассмотрим приветствия. Во всех вышеперечисленных социальных отношениях привет-

ствия имеют место. В равносоциальных ситуациях чаще всего используются: Hello! — Здравствуйте, How are you! — Как дела?, Nice to meet you — Приятно познакомиться В неравносоциальных ситуациях чаще всего используются: I am pleased to meet you — Рад с вами познакомиться, How do you do? — Как дела?, Good morning (evening, afternoon) — Доброе утро (вечер, день), Welcome! Приветствуя (вас) Мы сейчас говорим именно об устойчивых лексических средствах. В китайском же языке мы видим следующие устойчивые выражения. Равносоциальные:

你好 - (n i h a o ) Здравствуйте. 你要去哪里- (niqunar) Куда ты идешь?

好久不见-(haojiuibujian) Давно не виделись!

Неравносоциальные: 认识你很高兴 - (renshi nin wo hen gaoxing) Рад с вами познакомиться.

早上好 - (zaoshanghao) Доброе утро!

欢迎, 我们欢迎你-(huanying) Добро пожаловать, приветствуем вас!

Исходя из вышесказанного устойчивые лексические выражения {你吃过了吗? (Ты поел?), 你要去哪里? (Куда ты идешь?) мы классифицируем как яркую культурозависимую лексику. Так, если китаец при встрече вместо обычного приветствия спросит англичанина "Have you eaten?", - перенося особенности культуры на английский язык - это приведет в тупик процесс коммуникации, либо собеседник учтет, что общение происходит с иностранцем и просто не поймет говорящего. Необходимо учитывать, что мы говорим об определенной ситуации. Выражения {你吃过了吗? (Ты поел?), 你要去哪里? (Куда ты идешь?) также употребляются в своем непосредственном значении, в стандартных для данной лексики ситуациях, но в таком случае они непосредственно не несут контекста вежливости.

Необходимо отметить, что> эти лексические средства употребляются в неформальных иллоктивных речевых актах.

#### Сопоставительный анализ родственных обращений

Английский		Китайский
-	Старший брат	老哥 laoge, 哥哥 gege
-	Младший брат	弟弟 didi
-	Старшая сестра	老姐 laojie, 姐姐 jiejie
-	Младшая сестра	妹妹 meimeい
Mother Mum(my) =Mom(my)	Мама	老妈 laoma, 妈妈 mama, 妈 ma
Father, Dad(dy)	Папа	老爸 laoba, 爸爸 baba, 爸 ba

Отметим, что в китайском языке мы не можем разграничить нижеследующие обращения по степени вежливости, так как они семантически едины, но представляют разные понятия, вносят конкретику.

Uncle + имя	Дядя (родственник)  Дядя по папиной линии  Дядя (брать матери)	叔叔 shushu, 叔父 shufu, 姑父 gufu, 伯父 bofu  舅舅 jiujiu, 舅父 jiujiu, 娘舅 niangjiu.
-------------	--	---

К культуронезависимой же лексике приветствия (мы говорим о вежливой лексике) относятся выражения Hello! — «Здравствуйте», How are you! — «Как дела?», I am pleased to meet you. — «Рад с вами познакомиться», How do you do? — «Как дела?», Nice to meet you. — «Приятно познакомиться». «Как дела?», «Здравствуйте», «Рад с тобой' познакомиться». Данные лексические

средства в обеих культурах вежливы и актуальны в ситуации приветствиями при переносе из одной в другую не нанесут урон контексту коммуникации.

Рассмотрим формальные речевые ситуации. Вообще формальные ситуации обусловлены соблюдением большого количества этикетных вербальных и невербальных норм.

Aunt + имя, aunty	Тетя (родственник)  Тетя (по материнской линии) Тетя (по отцовской линии)	阿姨 ayi  姨母 yimu, 姨娘 yinian 姑母 guma, 姑姑 gugu, 姑母 gumu, 伯母 bomu
Grandmother, Grandma Gran ,Nanny	Бабушка  Бабушка по линии матери Бабушка по линии отца	奶奶 nainai  姥姥 laolao  奶奶 nainai
Grandfather, Grandpa	Дедушка  Дедушка по линии матери Дедушка по линии отца	爷爷 ye ye 老爷 laoye  爷爷 ye ye

Всего около двадцати лет назад в Китае при формальной встрече и прощании помимо речевых проявлений кланялись друг другу. Конечно традиция уходит, но до сих пор сохранился легкий еле заметный наклон торса, который сопровождается такими лексическими средствами как:

你好 - (n i h a o ) Здравствуйте.

认识你很高兴 - (renshi nin wo hen gaoxing) Рад с вами познакомиться.

Обращения по роду деятельности		
<b>Английский</b>		<b>Китайский</b>
Doctor + фамилия	Доктор (врач)	Фамилия + 医生 yisheng
Sir Madam	Учитель	Фамилия + 老师 laoshi 师 傅 shifu (учитель мастер)
Professor + фамилия	Профессор	Фамилия + 教 授 jiaoshou
Waiter/Waitress.	Официант(ка)	服 务 员 fuwuyuan (официант)
Officer, Constable, Inspector, Sir	Полицейский	警 察 jingcha , 警 员 jingyuan (полицейский)
Nurse, Matron, Sister Nurse	медсестра, медбрать	护 士 hushi (медсестра, медбрать)

В китайском языке в формальной ситуации в приветствиях будет меняться обращение. В английском языке мы этого проследить не можем так как в нем, в отличие от китайского, нет формального разграничения между формами «ты» и «вы». Весь спектр значений этих форм, заключен в местоимении you. Местоимение thou, которое по идеи соответствовало бы китайскому ifo ты, вышло из употребления в XVII веке, сохранившись лишь в поэзии и в Библии. Все регистры контактов, от подчеркнуто официальных, до грубо-фамильярных, передаются другими средствами языка — интонацией, выбором соответствующих слов и конструкций. Поэтому мы, опять, видим те же выражения приветствия с местоимением you:

Nice to meet you ! How do you do! В китайском же языке есть разница между местоимением ^ (ты) и (вы). При подчеркнутом уважительном обращении, конечно, используется (вы). Рассмотрим разговор посетителя и официанта в неравносоциальной ситуации:

fu wu yuan: xian sheng, nin hao, nin xu yao dian shen me? официант: Здравствуйте господин, что вы желаете?

gu kë: wo yao yi fen niu rai. посетитель: Мне бы стейк.

fu wu yuan: hao de, qing shao deng. официант: Хорошо, пожалуйста, немного подождите. В разговоре официанта и посетителя мы видим местоимение Ш nin. В

английском же языке в подобном разговоре мы видим местоимение you: официант: Good morning. This is ABC pizza. How may I help you? клиент: I want to order a pizza.

официант: What topping would you like to order today?

клиент: Can you give me some advice?

Вежливая лексика может быть поделена на формальную, нефор

Данное деление приведено на основе изученных речевых ситуаций. Из таблицы 1 видим, что приветствия-

это в основном устойчивые лексические единицы. В китайском языке неформальные средства выражения приветствия; встречаются чаще. И именно их мы выделяем как культурозависимую лексику.

На китайском языке мы также видим обращение 先生 xiansheng (господин). Вообще, обращения играют огромную роль в презентации вежливого речевого акта.

**Обращение.** имеет непосредственное отношение к нормам речевого этикета, поскольку неотъемлемым свойством речи выступает ее обращенность, ее адресный характер. Играя важную роль в межличностном общении; обращения способствуют взаимодействию говорящего и адресата и помогают создать особое коммуникативное пространство.

Обращение обладает такими характеристиками речевого стереотипа, как воспроизведимость в фиксированной форме, высокая частотность функционирования в речи; направленность на четкую организацию и максимальную успешность коммуникативного контакта;

**Заключение.** Из анализа следует, что проблемы лексической стилистики тесно соприкасаются с проблемами культуры речи. Даже в устойчивых лексических единицах приветствия мы находим различия в английском и китайском языках. Таким образом, возникает возможность выделения культурозависимой и культуронезависимой лексики. Также, рассмотрев вежливые обращения, мы пришли к выводу, что в китайском языке, четко прописаны иерархические взаимоотношения и обращения происходят по ее принадлежности. В английском же языке не во всех случаях идет обращение по социальной роли. Китайский язык изобилует лексическими средствами выражения вежливости. В меньшей степени присутствуют грамматические и синтаксические средства.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Алпатов, В.М. Япония: язык и общество [Текст] / В. М Алпатов. - М.: Муравей, 2003. - 136 с.
2. Алпатов, В.М. Категории вежливости в современном японском языке [Текст] / В.М. Алпатов. - М.: Просвещение, 1973. - 150 с.
3. Арутюнова, Н.Д. Типы языковых значений [Текст] / Н.Д. Арутюнова. - Л. : 1988.-388 с.
4. Арутюнова, Н.Д. Лингвистическая прагматика [Текст] / Н.Д. Арутюнова, Е.В. Падучева // Новое в зарубежной лингвистике / ред. Е.В. Падучевой. - М.: Дрофа, 1985.-Вып. 1 6 - С. 140-151.
5. Бабаева, Е.В. Лексические значения слова как способ выражения культурно- языкового концепта [Текст] / Е.В. Бабаева // Языковая личность: Культурные концепты. - Волгоград, Архангельск, 2002. - С. 33.
6. Большой китайско-русский словарь по русской графической системе в четырех томах [Текст]: словарь/ред. проф. И.М. Ошанина.- М.: Наука, 1983.
7. Быковская, С. А. Средства установления речевого контакта в современном немецком языке [Текст] / С.А. Быковская



Sarvara G'OFUROVA,  
Andijan State Institute of Foreign Languages  
E-mail: shodyona2020@mail.ru

Based on the review of dots. M.A.Abdulyaliev

## SCOPE OF INTERDISCIPLINARY APPLICATION OF "PURPOSE" AND ITS ROLE IN LINGUISTICS

### Annotation

This article discusses the interdisciplinary scope of "purpose" and its role in linguistics. The origin of purpose in science and its use in language are analyzed by examples.

**Key words:** Purpose, subject, object, linguistics, empirical science, thinking, perception, anomalist.

## СФЕРА МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПРИМЕНЕНИЯ «ЦЕЛЬ» И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВИСТИКЕ

### Аннотация

В данной статье рассматривается междисциплинарный объем понятия «цель» и его роль в лингвистике. На примерах анализируется происхождение цели в науке и ее употребление в языке.

**Ключевые слова:** Цель, субъект, объект, лингвистика, эмпирическая наука, мышление, восприятие, аномалисты.

## "MAQSAD" NING FANLARARO QO'LLASH KO'LAMI VA UNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada "maqsad" ning fanlararo qo'llash ko'lami va uning tilshunoslikda tutgan o'rni muhokama qilinadi. Ilm-fanda maqsadning kelib chiqishi va tilda uning qo'llanilishi misollar orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maqsad, sub'yekt, obyekt, tilshunoslik, empirik fan, tafakkur, idrok qilish, anomalistlar.

Tilshunoslik inson tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy fanlar sirasiga kirib, umuman, tabiatshunoslik, falsala fanlari bilan juda yaqin aloqada bo'ladi. Chunki, inson faoliyatining barcha ko'rinishlarida, jumladan, idrok qilish va o'zaro muloqot jarayonlarida til asosiy vazifani bajaradi. Bundan tashqari, tilshunoslik ham fanlar sistemasida boshqa bir qancha fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Bu aloqalarsiz tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan tilning o'ziga xos tomonlarini oshib berish mumkin emas.

Masalan: Maqsad (falsafada) — inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi. Maqsad insonlarga xos bo'lib, uni kelajakning loyihasi, deb ta'riflash mumkin. Ehtiyoj, manfaat, motiv individ yoki ijtimoiy guruh xulq-atvori, faoliyatining muhim tarkibiy qismlari bo'lsa, maqsad faoliyat yo'nalishini belgilovchi elementdir. Maqsadning shakllanishiga sub'yeqtning ehtiyoj va manfaatlari kuchli ta'sir o'tkazadi. Maqsadning real va noreal, qisqa muddatli va uzoq muddatga mo'ljallangan, asosiy va ikkinchi darajali va boshqa turlari bor. Real Maqsadlar sub'yeqtning imkoniyatlari, atrof muhitning holati va obyektiv qonuniyatlarni hisobga olsa, noreal maqsadlar faqatgina sub'yeqtning orzu-istiklarini ifodalaydi, atrofdagi vaziyatni hisobga olmaydi[4].

Til insonlar o'rtaсидаги aloqa vositasi bo'lishi, jamiyatdagi jarayonlar to'g'risida xabar berishi bilan birga tinglovchiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ham ega.

O'zbek tilshunosligi tarixini o'rganar ekanmiz, maqsad ma'nosи 1940-2000-yillarda oralig'idа nashr etilgan adabiyotlarda, (darslik, o'quv qo'llanma, risolalar va ilmiy maqolalar) qo'llanilgan. Mifologiya va ibtidoi kosmologiya asosan tarixni xudolar maqsadlarining izchil amalga oshishi sifatida tushuntirishga uringan.

Falsafa va tilshunoslik so'nggi asrda motiv va dizaynga alohida e'tibor qaratdi. Insoniy maqsadda erishiladigan natija avval ongda tasvirlanadi, so'ngra mutafakkir o'z oldiga qo'ygan maqsadini ro'yobga chiqarish

uchun bir qator harakatlarni amalga oshiradi. Maqsadning möhiyatini to'liq tushunishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri bu turli fanlar o'rtaсидаги muvofiqlashtirishning yo'qligi.

Biologlar, asosan, o'tgan avlod psixologiyasidan kelib chiqqan holda, inson ixtiyorining talqinini taxmin qilsa, psixologlar hali ham o'rta asr falsafasi bizga meros qilib qoldirgan "iroda erkinligi" va "mas'uliyat" haqidagi ilmiy asoslanmagan tushunchalarga urg'u berishadi.

Bizning fikrimizcha, maqsadni chuqur tahlil qilish bugungi kunda empirik fanning asosiy ehtiyojlaridan biridir. Ilm-fanning har bir sohasi bu tushunchaga aniqlik kiritishni talab qiladi.

Biz bilamizki, til boshqa narsa va hodisalar singari o'zgaruvchandir. Shunday ekan, yillar mobaynida tillarda qanday o'zgarish sodir bo'lganini tasavvur qilish, uni ilmiy, ham amaliy, ham nazariy nuqtayi nazardan o'rganish qiyindir. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo'lishidan avvalgi holati biz uchun qorong'iadir.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizg'in bahs olib borganlar. Bu guruh olimlar anomalistlar deb atalgan.

Umuman tilning kelib chiqishi masalasini tahlil qilar ekanmiz, bundan bir necha yuz ming yil avval paydo bo'lgan tillarning fonetik tizimi, so'z boyligi, grammatikasi va boshqa muayyan xususiyatlaridan qat'i nazar, eng avvalo, tilning kelib chiqishidagi shart – sharoitlarni tadqiq qilish, ya'ni insonlar qanday sharoitda so'zlay boshlaganliklarini o'rganish va bu masalaga xulosa chiqarishimiz lozim.

Ma'lumki, umumiy tilshunoslik fanining asoschisi V. fon Gumboldt (1767-1835) tilshunoslik fanining asosiy masalalarini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashhur olim edi. V. Gumboldt tilshunoslikni inson o'rganadigan tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga qo'shishga harakat qildi.

V. fon Gumboldt ta'kidlashicha, tilning har doim, rivojlanib o'zgarib turishi uning eng asosiy xususiyatidir. Tilshunoslik fanining asosiy masalasi bu tilning ana shu

xususiyatini o'rganishdan iboratdir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan "maqsad"ning ifodalanimish masalasi tilshunoslik fanining predmeti masalasi bilan bevosita aloqadordir.

Garchi V. Gumboldtning nazariyasi idealistik falsafaga asoslangan bo'lsa ham, uning ilmiy faoliyati, ayniqsa til bilan nutq antinomiyasi xususidagi ta'lomi tilshunoslik fanining taraqqiyoti uchun juda katta hissa bo'ldi. V. Gumboldtning til haqidagi falsafiy nazariyasi, o'zidan keyingi tilshunoslik fanining takomillashuvida, turli ilmiy mifiktablar va oqimlarning shakllanishida asosiy omil bo'lgan.

Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo'ldi. Ongingizda paydo bo'ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so'zlar vositasi orqali voqe bo'ldi. Til faqat kishilarga xos bo'lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo'lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog'liqdirdi. Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o'xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamming kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so'zlar, so'z birikmalari va jumlalar orqali ifolaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammaticanining o'rganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'yektidir [5.15].

O'zbek tilining izohli lug'atida maqsad so'ziga niyat, yuqori tilak, intilish deb izoh berilgan.

Erishtish esa, amalga oshirish uchun ko'zda tutilgan narsa, murod, muddaodir.

Ko'pincha maqsad so'zi maqsad qilib qo'yemoq, maqsadga etmoq, maqsadga erishmoq kabi fe'llar bilan birga ishlatalinadi [3].

Masalan: Xoljonbekaning shaharga tushishidan maqsadi Shernazarboyni bir ko'rish edi. (J. Sharipov, Korazm).

Hasanali Otobek bilan birga choy ichish maqsadida, ertalab Oybodoqning damlagan choyiga bormay, Otabekning uyg'onishimi kutibyurdi (A. Qodiriy, O'tgan kunlar).

Azim Xojiyev maqsad so'ziga niyat, muddao, murod so'zlarini sinonim qilib keltirgan bo'lib, u biror narsaga erishish, etishish istak-ixtiyori ma'nosida qo'llaniladi [1].

Murod so'zi esa asosan "etmoq", "hosil bo'lmoq" fe'llari bilan qo'llanadi.

Masalan: Uning maqsadi Gulnor qutisida qanday narsalar bor, dadasi yashirinchcha qanday qimmatbaho buyumlar keltilganligini bilish edi (Oybek).

Men sizlarning niyatiningizni bilaman sizlar ishni tezroq boshlamoqchisizlar ("Qizil O'zbekiston").

...U bu ish Olaxo'janing fikri bilan bo'lganini anglaydi. Olaxo'ja uning eshidigiga yordam so'rab keladigan bir ahvolga solib qo'yomoqchi ekan. Biroq u muddaosiga etolmaydi. Abdurasul yana qaytib uning qo'liga tushmaydi (P. Tursun).

Botir yorim, bilaman, siz qayg'u daryosiga mendan chuqurroq botgandirsiz. Endi yolg'iz murodim – sizni bir ko'rmoq, siz bilan ikki og'iz so'zlashmoqdur (Oybek).

#### ADABIYOTLAR

1. Azim Xojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi" 1974. 139 bet.
2. Mamaraximov Sirojiddin. O'zbek tilida maqsad ma'nosi so'zlar orqali ifodalaniishi. Journal of Universal Science Research 2023. 20 bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2- jild 2006. 570 bet.
4. «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2001. - 345 bet.
5. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent -2007 -15 bet.



Aziza JABBAROVA,

Buxoro innovatsiyalar universiteti boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi, BuxDU erkin izlanuvchisi

BIU dotsenti, PhD Z.Ahmadova taqrizi asosida

### BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSЛИGIDA TOPISHMOQ VA MAQOLLAR TALQINI

Annotatsiya

Maqlolada boshlang'ich sinf darsliklarida xalq og'zaki ijodiyotiga mansub dars mashg'ulotlarida berilgan topishmoq va maqollar o'quvchining ma'naviy dunyoqarashining shakllanishida, kitobga qiziqishida, mehnatsevarlik ruhida kamol topishida muhim ma'naviy ozuqa bera oladi. Bilamizki, har bir xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-kelib chiqishi, e'tiqodi, olam va odam haqidagi qarashlari o'z ifodasini topganligi bilan boshqa xalqlar madaniyatidan ajralib turadi. Shu sabab o'zbek xalqiga mansub milliy urfatatlarga yog'rilgan, badiiy yaratqilar shu millatning o'zligini namoyon qiladi.

**Kalit so'zlar:** Vatanparvarlik, kitobxonlik, N. A. Korf. V. I. Vodovozov, N. F. Bunakov, D. I. Tixomirov, A. Boboxonov, M. Usmanov, boshlang'ich ta'lif, maqlol, topishmoq, ertak, ona tili, o'qish savodxonligi, xalq og'zaki ijodi, o'quvchi, o'qituvchi, folklor, ta'lif, tarbiya.

### ТОЛКОВАНИЕ СЛОВ И ПОВЕЧНИКОВ В УЧЕБНИКЕ РОЖДНОГО ЯЗЫКА НАЧАЛЬНОГО КЛАССА

Аннотация

В статье загадки и пословицы, приводимые на уроках фольклора в учебниках начальной школы, могут дать важное духовное питание в формировании духовного мировоззрения учащихся, интереса к книгам, взросления в духе трудолюбия. Мы знаем, что каждый народ отличается от культуры других народов своим бытом, социальным происхождением, верованиями, взглядами на мир и человека. По этой причине культурные и художественные традиции узбекского народа отражают самобытность этого народа.

**Ключевые слова:** Патриотизм, чтение, Н. А. Корф. В. И. Водовозов, Н. Ф. Бунаков, Д. И. Тихомиров, А. Бобоханов, М. Усманов, начальное образование, пословица, загадка, сказка, родной язык, грамотность чтения, народное творчество, чтец, учитель-учитель, фольклор, образование, воспитание.

### INTERPRETATION OF WORDS AND PROVERBS IN MOTHER LANGUAGE TEXTBOOK OF PRIMARY CLASS

Annotation

In the article, the riddles and proverbs given in the lessons of folklore in elementary school textbooks can provide important spiritual nourishment in the formation of the student's spiritual outlook, interest in books, and maturity in the spirit of hard work. We know that each nation differs from the culture of other nations by its way of life, social origin, beliefs, views on the world and man. For this reason, the cultural and artistic traditions of the Uzbek people reflect the identity of this nation.

**Key word:** Patriotism, reading, N. A. Korf. V. I. Vodovozov, N. F. Bunakov, D. I. Tikhomirov, A. Bobokhanov, M. Usmanov, primary education, proverb, riddle, fairy tale, mother tongue, reading literacy, folk art, reader, student teacher, folklore, education, upbringing.

**Kirish.** Bolalar kitobxonligining boy manbai xalq og'zaki ijodi asarlari edi. Ular bolalar adabiyotini yaratishda yozuvchilar uchun katta material bo'lib xizmat qilgan.

O'rta Osiyoda bolalarni mustaqil ongli o'qishga o'rgatish masalasi o'gir ahvolda edi. Bolalar faqat otanonalaridangina ertak va topishmoqlar tinglab, ulardan tarbiyaviy ozuqa olar edilar.

Topishmoqda yashiringan predmetni boshqa predmetlarga solishtirmasdan turib, ayrim topishmoqlarning javobini topish mumkin emas. Bunday topishmoqlar

bola uchun noaniq bo'lgan predmetning aniq predmetga aylanishiga yordam beradi. Bu esa bola nutqining ravon bo'lishida katta ahamiyatga egadir.

Maqlollarning mazmuni va tuzilishi tahlil etilar ekan, maqlollarning mazmun jihatidan keng, tuzilish jihatidan qisqa, umuman hikmatli gap ko'rinishida ekanligi suhbat metodida bayon etiladi. Bu bilan o'quvchilarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirilibgina qolmasdan, balki o'quvchilarni tomonidan o'zlashtirilgan maqlol haqidagi mazkur bilimlar asosida o'quvchilarda kommunistik dunoqarash va ma'naviy sifatlar tarkib toptiriladi. Bu esa, o'quvchilarning aqliy kamoloti va qobiliyatini yanada rivojlantirishga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi.

**Tahlil va natijalar.** Xalq og'zaki ijodi qadimdan tarbiya vositalaridan bo'lib kelgan. Yosh avlod o'z bobolari qoldirgan madaniy merosni sevgan, o'rgangan, uni ardoqlab kelgusi avlodga taqdim etgan. Sovet o'quvchilari ham xalq og'zaki ijodini sevadilar. Xalq ertaklari bolalarning sevimli asarlaridir. Ertak yengil o'qilishi, sujetining dinamikligi va fantaziysi bilan bolalar e'tiborini tez jalb qiladi.

Ertaklar kabi maqlol va topishmoqlar ham ta'limgartarbiya ishida katta ahamiyatga egadir.

Topishmoqqa javob topishning eng qimmatli ta'limgartarbiyaviy tomoni uning mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi xizmatidadir.

Mantiqiy tafakkurni o'stirishda topishmoqlarga javob topish matematik masala, misol yechish bilan teng kuchga ega.

Barcha fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish izchilllik bilan berilayotgan fakt va bilimlarning mag'zini tezroq chaqa olgan o'quvchilargagina nasib bo'ladi. Shunday ekan, topishmoqlarga javob topish ermak emas, balki o'rgatilayotgan bilimlar sistemasining taraqqiyoti uchun zarurdir.

Topishmoqlarda berilgan biror jumboq haqida fikr yuritishning yana bir fazilati shundaki, u o'quvchini mavjud

imkoniyatlarni aniqroq chandalash yo'li bilan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Topishmoqqa javob topish o'quvchi ruhini tetiklashtiradi, unga madaniy hordiq beradi, aqlini peshlaydi va xotirasini kuchaytiradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflar "O'zbek tili" va "O'qish kitobi" darsliklariga xalq og'zaki ijodidan ko'plab namunalar kiritilgan.

Topishmoqlar 1-3-sinflarning savod o'rgatish, imlo va nutq o'stirishga doir darslarida o'rganiladi. Topishmoqlardan grammatic mashq va tahsil matnlari sifatida foydalaniladi.

O'quvchilar 1-3- sinflarning o'qish va nutq o'stirish darslarida topishmoqlarni og'zaki aytish bilan o'z nutqlarini boyitadilar, takomillashtiradilar. Topishmoqqa javob topish bilan o'quvchilarining tafakkuri rivojlanadi; ular mantiqiy fikr yuritishga, solishtirish va qiyoslash yo'li bilan to'g'ri xulosaga kelishga ko'nikma hosil etadilar. Topishmoq tekstlarini o'qish natijasida to'g'ri o'qish malakasini egallab boradilar. O'qish darslaridagi topishmoq teksti ustida ishslash jarayonida topishmoq janriga xos nazariy tushuncha ham oladilar. Topishmoqlarda yashirin berilgan belgi, predmet, voqeahodisa kabilarni to'g'ri va oson topish malakalariga ega bo'ladi. Ona tili darslarida topishmoqlarni o'rganishda o'qituvchi o'quvchilar aktivligiga suyanib ish ko'radi. Chunki o'quvchilar topishmoqda yashiringan predmetning nima ekanligini bilishga qiziqadilar. Bu esa ularni har tarafalama, chuqur va to'g'ri fikrlashga majbur etadi. O'quvchilar mustaqil holda topishmoqda berilgan predmetlarning rangiga, shakliga, ta'm-mazasiga qarab ularni bir-biriga taqqoslaysaydilar. Bu hol predmetlar haqidagi tasavvurning bolalar ongida uzoq saqlanishini ta'minlaydi, ularda topishmoqni ongli ravishda o'ylab topish ko'nikmasini shakllantiradi, ularning so'z boyligini o'stiradi. K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek, topishmoqlar vositasida predmetlarning kelib chiqishi, yaratilishi, hujjat inson hayotidagi roli tushuntiriladi.

#### **Adabiyyotlar tahlili.**

I. Lenin V. D. Bonch-Bruevichga Onchukova ertaklari haqida shunday yozadi: "Qarang... Bu xalq ijodining o'zginasи. Bizning kunlarimizda xalq psixologiyasini o'rganish uchun juda zarur, juda ahamiyatlidi"[1.26].

Ular birinchi bo'lib bolalar adabiyoti jamiyat istiqboli uchun kurashuvchi grajdamlarni, revolyusionerlarni tarbiyalashi lozim darajada uqtirgan edilar. Revolyutsion demokratlar chor Rossiysi maktab dasturi va darsliklarda o'quvchilar ongli o'qish ko'nikmasini berishni xisobga olmaganligini keskin tanqid qildilar, ongli o'qishni ta'lum va tarbiyadagi ahamiyatini qo'llab-quvvatladilar.

Mashhur pedagog K. D. Ushinskiy bolalarning mustaqil va ongli o'qishlariga katta ahamiyat berdi. U "Har bir adabiy asar katta ko'zgu, biz shu ko'zgu orqali xalq hayotining u yoki bu tomonini kuzatishga muvaffaq bo'lamiz"[2.304], - degan edi. K. D. Ushinskiy mustaqil o'qish orqali kichik yoshdagagi bolalarni adabiyotni mustaqil O'rganishga tayyorlash kerakligini ko'rsatdi. U bolalarni asar qahramonlarining xatti-harakatlardan to'g'ri ta'sirlanish, ular haqida o'yish, asarda avtor ko'zda tutgan maqsadni tushunishga o'rgatish lozimligini uqtirdi. K. D. Ushinskiyning bu fikrini N. A. Korf. V. I. Vodovozov, N. F. Bunakov, D. I. Tixomirov kabi metodistlar rivojlantirdilar.

Bolalar kitobxonligining boy manbai xalq og'zaki ijodi asarlari edi. Ular bolalar adabiyotini yaratishda yozuvchilar uchun katta material bo'lib xizmat qilgan.

O'rta Osiyoda bolalarni mustaqil ongli o'qishga o'rgatish masalasi o'gir ahvolda edi. Bolalar faqat ottonalaridangina ertak va topishmoqlar tinglab, ulardan tarbiyaviy ozuqa olar edilar.

Buyuk so'z san'atkori A. M. Gorkiy sovet yozuvchilarini xalq og'zaki ijodini o'rganishga, adabiyotning

#### **ADABIYOTLAR**

1. Rus folkloristikasi, antologiyasi. Ensklapediya "Oly maktab", M., 1965, 26-bet.

tarbiyaviy kuchini oshirishga da'vat etishi beziz emas. "Xalq ijodiyotida cheksiz boyliklar yashirinib yotibdi, -degan edi u. - Sof vijdonli yozuvchi ularni egallab olishi kerak. Faqat shundagina ona tilini o'rganish mumkin, tilimiz esa boy va sozdir"[3].

M. Usmonovning "XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek mutafakkirlarining axloqiy qarashlari", A. Boboxonovning "O'zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan" asarlarida pedagog mutafakkirlarning xalq og'zaki ijodiga munosabati va ularning xalq maqollari, matal, hikmatli so'z, topishmoq va ertaklarning ta'lum-tarbiyaviy ahamiyati haqidagi fikrlari keng tahsil qilinadi.

A. Ahmedovning "Notiqlik san'ati", Z. M. Mirtursunovning "Mehnat tarbiyasida xalq og'zaki ijodining ahamiyati" kabi ishlarida ham xalq og'zaki ijodiy asarlarining g'oyaviy-estetik ahamiyati, janr xususiyatilari, ta'lum-tarbiyadagi roliga oid qimmatli materiallar bayon.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan ilmiy ishlar xalq og'zaki ijodini o'rganishda o'qituvchilarga nazariy material bo'lib xizmat qiladi. Ammo nazariy adabiyotlar bilan bir qatorda, xalq og'zaki ijodidan dars jarayonida foydalanish, ularni tahsil qilish, bolalar tarbiyasiga singdirish yuzasidan ilmiy metodik adabiyotlar ham kerak. Bu sohada rus metodistlarining ishlari, qimmatli maslahatatlari ibratlidir. Ayniqsa, Ye. A. Adamovich, N. N. Shepetova, Sherbakova, A. V. Kamenova, A. Arxangelskaya, Ye. G. Karlson, M. A. Nikitina, Ye. A. Siroechkovskaya, M. S. Sheynina kabi metodistlarning tavsiyalari diqqatga sazovordir. Masalan, A. V. Kamenova, N. V. Arxangelskaya va Ye. G. Karlsonning ko'rsatishicha, o'qituvchi savod o'rgatish davridan boshlaboq xalq ertaklarini o'qib berishi yoki og'zaki hikoya qilib berishi lozim. O'quvchilar o'qituvchi nutqini diqqat bilan tinglaydilar. Ertakda gap kim haqida o'zgarishlari, xarakterlarning xulqatvori, o'zaro munosabatlari ertak o'qib bo'lingach yoxud u hikoya qilingandan keyin aniklanadi.

M. A. Nikitina[4.44] 1-sinfdan boshlab ertaklarning chuqur tahlil etilishini talab etadi. Ertaklarning mazmunini yoki g'oyasini ayтиб berish bilan chegaralanish kifoya qilmasligini, ertakni o'qish lozimligini uqtiradi. Ye. A. Adamovich, V. I. Yakovleva[5] esa ertaklarni qayta hikoya qilish haqida fikr yuritib, hikoya qilishda faqat plan tuzdirish bilan chegaralanmay, balki o'quvchilarining ertak mazmunini to'liq gapirib berishlariga erishmoq zarurligini ta'kidlaydi.

E.A. Siroechkovskaya va M.S. Sheinina[6.110] topishmoqlar vositasida yoddan yozdiriladigan diktantlarni o'tkazish zarurligini qayd qiladi va uni o'tkazish usullarini quvvatlantirish, yani "o'qituvchi o'tkazish usullarini topishni yodlatishi, ichda bo'g'inlab o'qitishi, keyin daftarga yoddan yozishi topshirishi" mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi har bir millatning asrlardan asrlarga avlodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tuvchi nodir san'at namunasi hisoblanadi.

Shuni ham aytish lozimki, darslikda berilgan topishmoqlarning javoblari rasm orqali ko'rsatilgan. Bu esa didaktikaning ko'rsatmalilik prinsipini qo'llashni, og'zaki bayon etishni qulaylashtiradi va o'quvchi fikrini, diqqatining barqarorligini oshiradi.

Maqollar – xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko'rsatadigan xalq og'zaki ijodining gavharidir. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda;

Maqollar xalqimizning milliy, madaniy-ma'naviy avloddan-avlodga o'tib kelayotgan merosi hisoblanadi. Bu meros madaniyatimizning ham namunasi sanaladi. Til va madaniyatning o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganish imkonini beradi.

2. K.D. Ushinskiy. "Rus tilini dastlabki o'qitish to'g'risida". To'plam asarlar, 5-jild. Nashr. 1949. 346-bet
3. Karang. O. V. Alekseeva va boshqalar Bolalar adabiyoti. 1957, 9-bet.
4. Nikitina M.A. Maktab o'quvchilarini estetik va axloqiy tarbiyalashda folklor. "Xalq yoritgichi", Minsk, 1960 yil, 44-bet.
5. Adamovich E. A., Yakovleva V. I. Boshlang'ich sinflarda o'qish, "Ma'rifat", M., 1967, 183-bet.
6. E. A., Sheinina M. S. II sinfda rus tilini o'qitish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. M., 1956, 110-bet.



***Ikrom ISLOMOV,***

*Renessans ta'lif universiteti dotsenti, f.f.d*

E-mail: ikrom75islom@gmail.com

*Filologiya fanlari doktori, professor L.Raupova taqrizi asosida*

## THE SEMANTIC STRUCTURE OF SOME UNITS REPRESENTING GEOGRAPHICAL CONCEPTS

### Annotation

This article discusses the questions related to the link between the general lexical unit and the term formed on its basis, as well as the analysis of the general and differential seme, basic sema in the semantic structure of terms and lexemes, that are in the base-derivative relationship, is conducted; the word-formative system of the Uzbek geographic terms are studied. It is proved that the results of a system study of the interaction of a term and a common lexical unit serve to improve their lexical interpretation.

**Key words:** Lexeme, term, sememe, seme, basis of seme, geographical term, semantic structure, lexicographic interpretation, differential seme.

## СЕМАНТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА НЕКОТОРЫХ ЕДИНИЦ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩИХ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПОНЯТИЯ

### Аннотация

Данной статье рассмотрены некоторые вопросы связи общелексической единицы и образованного на его основе термина, а также проведен анализ общей и дифференциальной сем, семы основы в semanticической структуре терминов и лексем, находящихся в отношениях основа-производная; изучены словообразовательная система узбекских географических терминов. Обосновано, что результаты системного изучения взаимодействия термина и общей лексической единицы служат совершенствованию их лексического толкования.

**Ключевые слова:** Лексема, термин, семема, сема, основа сема, географический термин, semanticическая структура, лексикографическая интерпретация, дифференциальная сема.

## GEOGRAFIK TUSHUNCHALARINI IFODALOVCHI BA'ZI BIRLIKLARNING SEMANTIK STRUKTURASI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada terminlarning semantik strukturasiga xos terminologik belgi va xususiyatlar termin hosil bo'lishida asos bo'lgan umumleksik birlik semantikasi orqali yuzaga kelishi masalasi tahlil qilingan. Shuningdek, termin va umumleksik birlik o'rtaqidagi o'zaro munosabat masalasiga doir fikr-mulohazalar bayon qilingan. Asos-hosila munosabatida bo'lgan termin va leksemaning semantik strukturasidagi umumiylig sema, farqlovchi sema, asos sema, umumiylig bitta tushuncha bilan bog'langan termin va leksema munosabatidagi umumiylig va farqli belgilari o'zbek tilidagi ayrim geografik terminlar misolida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Leksema, termin, semema, sema, asos sema, geografik termin, semantik struktura, leksikografik talqin, farqlovchi belgi.

**Kirish.** Har qanday tilning leksik sistemasida terminologik birliklar ham mavjudlik va muhim ahamiyat kasb etadi. Sohaviy tushuncha va hodisalarini ifodalovchi maxsus leksik birliklar, bir tomonidan chegaralangan leksikani, boshqa tomonidan, maxsus leksik tizimni tashkil qilishda faol ishtirok etuvchi o'ziga xos terminologik belgi-xususiyatlarga ega alohida lingvistik hodisadir. Terminlar va ularning paydo bo'lishi, ma'no taraqqiyoti, albatta, terminlar mansub bo'lgan til tarixi, rivoji bilan birga o'zga tillar ta'siri va taraqqiyoti bilan ham uziyi aloqadorlikka ega. Binobarin, termin va unga asos bo'lgan umumleksik birlik o'rtaqidagi leksik-semantik munosabatlar masalasi mazkur birliklar tadqiqi, talqini va tafsifida jiddiy o'rinn egallaydi. Umumleksik birlik va soha termini o'rtaqidagi mavjud leksik-grammatik aloqadorlik, semantik tafovut ularni qiyosiy metod asosida tahlil qilinishini taqozo qiladi.

Borliqning boshqa barcha hodisalariga xos bo'lgan ko'p qirralilik kuzatuvimizdagi geografik terminlarga ham tegishlidir.

Olamning lisoniy manzarasi va ilmiy terminologiya o'rtaqidagi o'zaro munosabat soha tushunchalarini ifodachisi bo'lgan terminlarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Umumleksik birliklarga juda ko'plab qo'llanishlar xos bo'lib, jumladan, terminologik, onomastik, dialektal va badiiy qo'llanishlarning har birida mazkur leksik birliklar o'z

semantik tabiatida mavjud bo'lgan belgilari bilan farqlilik kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Umumleksik birlik bilan terminologik birlik orasidagi munosabat masalasi tilshunoslikda keng ko'lamda, turli daraja va aspektlarda tadqiq qilib kelinmoqda. Bu boradagi barcha tadqiqotlarda termin va leksemaning o'zaro umumiylig, farqlilik belgilari, ma'no va vazifalari muayyan darajada o'z talqini va tavsifini topgan. Soha tushunchasini ifodalovchi terminologik birlik monosemantik xarakter kasb etishi A.A.Reformatskiy, N.A.Baskakov, S.Usmonov tomonidan maqsadga muvofiq deb talqin qilingan bo'lsa, terminning polisemantik yoki omonimlik xarakterda bo'lishi R.N.Infantyeva tomonidan me'yoriy holat deb baholanganligini kuzatish mumkin[2]. Bundan ma'lum bo'ladiki, terminlar umumleksik birliklarda kabi semantik jihatdan umumiylig, qo'llanish jihatidan faol yoki chegaralanmagan, ma'no tarkibi asosan ko'p ma'nolilikka moyil bo'lgan, nutqning turli usulblarida erkin qo'llaniladigan imkoniyat va xususiyatlarga ega bo'limasa-da, umumleksik birliklar kabi birdan ortiq ma'no bildirish, ma'no kengayishi va taraqqiyoti, yasalish, bir necha soha tushunchalarini anglata olish kabi imkoniyatlarga ega alohida lingvistik hodisa hisoblanadi. Bu esa terminlarning talqini va tasnifida, nutqiy faoliyatdagi ishtiroki masalasida murakkablik kasb etishidan dalolat beradi. Umumleksik birlik bilan sohaviy

birlikning xususiyatlari tekshirish va baholashda, albatta, termin bilan unga asos bo'lgan umumleksik birlik orasidagi munosabatning sistemaviy o'rganilishi ham masalaning ilmiy talqinida muhim o'rinn egallaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek tili terminosis temasida geografik tushunchalar bilan bog'liq sohaviy birlikning terminologik va umumiste'mol qirrasini ajratish ularning lisoniy qiymatini belgilashda juda muhim omil hisoblanadi. Tadqiq predmeti bo'lgan o'zbek tili geografik terminlarining semantik strukturasi va uning lingvistik talqinida terminlarga xos bo'lgan bir qancha filologik, sohaviy vosita va omillar yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida geografik terminlarning sohaviy tushunchani ifodalash xususiyatlari, ma'no ko'lami va ilmiy-texnikaviy vazifalari, leksikografik tafsif va talqinlari yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan [1; 2; 3; 4; 7]. Bu boradagi leksikografik talqin va tafsifni umumiste'mol birliklar va ularning xoslangan (atamaviy, dialektal) qo'llanishlari nuqtai nazaridan olib borilsa, terminlarning leksikografik talqin va tafsiflari yanada mukammallik kasb etadi.

**Tahlil va natijalar.** Muayyan fan tarmoqlari, kasb-unar sohalarida ma'lum tushunchalarni aniq ifodalash maqsadida umumleksik birliklarning ma'nosiga ixtisoslashirtilishi natjisada terminlarning shakllanishi ustuvor ahamiyatga molik. Xususan, geografik tushunchalarni ifodalaydigan o'zbek tili terminlari tizimida ham bu holat yetakchilik qiladi. Geografik terminlarning vujudga kelishida salmoqli o'rinn egallaydigan yer sathi ko'rinishlari bilan bog'liq umumleksik birliklar miqdori salmoqli o'rinn egallaydi: tog', tepa, do'ng, cho'qqi, qir, adir, dasht, dara, soy kabilar.

Aytish mumkinki, o'zbek geografik terminlarining ko'p qismi o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida vujudga kelgan. Bundan geografik leksemalar, xususan, terminlar sistemasining taraqqiyoti, boyish manbalari, semantik tarkibi asosan umumiste'moldagi leksik birliklar bilan chambarchas bog'liqligini ham ayon bo'ladi.

Xalq tilida uzoq davrlardan beri iste'molda bo'lgan yer yuzasi ko'rinishlarini ifodalovchi so'zlar geografik tushunchani anglatishga ixtisoslashib, terminologik mohiyat kasb etganda umumleksik birlik va termin o'rtasida sodir bo'lgan shakliy-mazmuniy o'zgarishni ularning leksikografik izohlari orqali ham anglash mumkin. Xususan, tepe leksemasining umumiste'mol va atamaviy mavqedagi ikki sistema birliklari orasidagi munosabat qanday ko'rinishlarga ega bo'lishini kuzatamiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da tepe leksemasiga quyidagicha izoh berilgan: "TEPA 1 Yer sathidan baland, do'ng joy; tepalik, balandlik" [5]. Leksemaning terminologik ma'nosiga esa quyidagicha talqin qilingan: "Tepa - usti gumbaz shaklidagi, yonbag'irlari qiya bo'lgan do'ng, baland joy. Nisbiy balandligi 200 m dan oshmaydi" [7].

Kyteltirilgan izohlar, albatta, farqli va bunday bo'lishi tabiiy. Chunki umumfilologik lug'atda so'zlar umumiste'mol nuqtai nazaridan turib izohlangan bo'lsa, uning sohaviy tushunchani ifodalovchi leksema sifatidagi ma'nosiga esa soha nuqtai nazaridan talqin etilgan va unga (tafsifga) ilmiy muayyanlik kiritilgan. Zero, tafsiflar o'zaro qiyoslanganda, "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi tepe leksemasining izohida "umuman boshqa joyga nisbatan yuqorida joylashgan balandlik" degan belgisi ahamiyatlari bo'lib, terminologik izohidagi "nisbiy balandligi 200 m dan oshmaslik" semasi bilan o'zaro farqlanishi kuzatiladi. Ikki tizim birliklari xos umumiyligi esa har ikkala leksema tarkibida mavjud bo'lgan "balandlik" semasidir. Alovida sistemalardagi ikki tepe so'zi bitta leksemaning turli mavqedagi ko'rinishi, ularning ma'nolari o'rtasida o'zaro aloqadorlik sezilib turadi, biroq umumxalq tilidagi tepe ma'nosiga maxsuslashtirish yo'li orqali sohaviy vazifaga o'tganda, umuman boshqa tushunchani

emas, balki umumiste'mol birlik ma'nosiga ilmiy tus berilib, soha tushunchasini ifodalashga ixtisoslashishi yuzaga chiqadi.

Tepa geografik termini semantik strukturasidagi "200 m dan oshmaslik" ma'no differensial sema hisoblanadi. Kuzatuvdagagi tepe leksemasining ijtimoiy shartlangan va atamaviy sememalari "balandlik" semasi bilan paradigmatic munosabat hosil qilib, "aniq chegaralanmaganlik" va "200 m dan oshmaslik" semalari asosida o'zaro teng qiymatli ziddiyat hosil qiladi. Umumiste'mol birlik ma'nosiga terminologik xarakter kasb etganda, uning semantik strukturasida "ixtisoslashish" natjisada torayish yuz beradi, bu torayish terminni yuzaga kelishimi ta'minlovchi muhim va hal qiluvchi omildir. Demak, tepe tipidagi umumleksik birlik sememasing ixtisoslashishi va muayyanlashgan hosila ko'rinishi, muayyan sohaning terminlari tizimining shakllanish va boyish manbasi tarkibida qaralishi maqsadga muvofiq.

Bu singari holatni boshqa geografik termin va unga asos bo'lib xizmat qilgan boshqa birliklar o'rtasida ham kuzatish mumkin. Jumladan, tog' "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha talqin etiladi: "TOG' 1 Yer yuzasining tevarak-atrofdagi tekislik, tepalik yoki boshqa balandlikka nisbatan yakka yoki qator holda baland ko'tarilgan, odatda, turli tosh, qattiq jismlardan iborat qismi" [5]. Tog' leksemasi geografik termin sifatida esa shunday izohlangan: "Tog'lar – Yer po'stining yakka-yakka yoki qator tizmalar, palaxsalar shaklida ko'tarilgan joylari. Turli xil balandlikda bo'ladi. Mutlaq balandligi 600 m dan baland joylar odatda tog'lar deyiladi..." [7]. Umumiste'mol birlik tog' so'zi va tog' termini "baland ko'tarilgan qism, joy" semalari asosida o'zaro o'xshashlik hosil qilib, "tekislik yoki tepalikka nisbatan baland" va "600 m dan baland" semalari bilan o'zaro farqlanadi. Bu o'xshashlik va farqlar mazkur leksemalarning lisoniy sistemadagi o'zaro munosabatlari asosida. Tog' leksemasining umumiste'mol va atamaviy ma'nolari farqlilik kasb etsa-da, borliqda bitta voqelik (ob'yekt) bilan bog'liqligi jihatidan umumiyligi kasb etadi.

Adir leksemasi umumfilologik lug'atda quyidagicha izohlangan: "ADIR Tog'larga yaqin, tog' etaklaridagi alohida tepalik yerlar" [6]. Geografik terminlarning izohli lug'atida esa adir leksemasi "Adirlar – O'rta Osiyo tog'lar etagidagi cho'l va chalacho'l qirlar... Adirlarning mutlaq balandligi 400-500 m dan 1000-1500 m gacha boradi..." tarzida izohlanadi [7].

Adir leksemasining yuqorida keltirilgan ikki xil izohiga tayanib, uning semalarini ham ikki ko'rinishda berish mumkin. Adir umumiste'mol birlik sememasi tarkibi "umumiste'molga oid", "yer yuzasi ko'rinishi", "balandlik" kabi semalardan tashkil topgan. Adir termini sememasi tarkibini esa quyidagicha belgilash mumkin: "geografiyaga oid", "balandlik", "yer yuzasi ko'rinishi", "balandligi 400-500 m dan 1000-1500 m gacha", "cho'l va chalacho'l zonasida uchraydigan" kabi semalardan iborat. Ikki alohida tizim birliklarining o'zaro umumiyligi sememalaridagi "baland yer, balandlik" belgisiga asoslansa, yer sathi ko'rinishini ifodalovchi umumiste'mol atov birlik adirdagi "umumiylig" semasi, termin mavqeidiagi adir leksemasi sememasing "400-500 m dan 1000-1500 m gacha bo'lgan balandlik" semasi ularning o'zaro alohida leksemalar sifatida qaralishiga asos bo'ladi.

O'zbek tili geografik terminlari sirasida birikmali turlari ham kuzatiladi: baland tog'lar, burmali tog'lar, pastlik yer, yassi jar, o'rtacha tog'lar kabi. Birikmali geografik termin asosan sifat+ot tipidagi bitishuv munosabatlari birikuvdan tashkil topgan bo'lib, ularning shakllanish asosi umumleksik birliklardir. Albatta, bunday birikma otli birikma sifatida talqin etilishi barobarida, sifat+ot tipidagi grammatick vositasiz birikkan baland tog'lar, burmali tog'lar, yassi tepe, pastlik yer kabi qo'shma leksemalarning ma'noviy qiymatini yordamchi komponent vazifasida kelgan baland, burmali, yassi, pastlik

leksemalarining sememasiga tayangan holda asoslash lozim bo'ladi. Xususan, baland tog'lar jo'g'rofiy leksemaning sememasi baland va tog' qismlarining sememaviy munosabati asosida quyidagicha belgilanishi mumkin: "balandligi 2000 m dan yuqori bo'lgan tog'lar". Shuningdek, baland tog'lar atamasi "aniq belgilangan", "2000 m dan yuqori bo'lgan" semalari asosida sohaviy leksika tarkibidan joy olib turgan bo'lsa, umumiste'mol mavqeidagi qo'llanishda "umuman, ancha baland" semasi asosida ishtirok etadi.

**Xulosa va takliflar.** O'zbek tili geografik terminlarining umumiste'mol birliklar tizimi bilan munosabati masalasining birliklar semantik tarkibini o'zaro qiyoslash orqali tadqiq qilinishi tadqiqot predmeti mohiyatini to'g'ri va sog'lom mantiqlar asosida belgilashga ko'mak beradi. Soha terminlari va umumiste'mol birliklar o'ttasidagi o'zaro aloqamunosabat, leksik-semantik hodisalar yetarli darajada yoritilmaganligi alohida o'rganishni taqozo qilib turadi.

Soha leksikasidagi terminlar va ularga asos bo'lgan umumiste'mol so'zlari o'ttasidagi o'zaro umumiylilik va farqlar, avvalo, semantik tarkibi, tushuncha anglatishdagi umumiylilik va aniqlik asosida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, umumiste'mol birlik va terminlar orasidagi shakliy-mazmuniy munosabatlar masalasi alohida yondashuv va tahlilni taqozo qildi. O'zbek tilining geografik terminlari semantik strukturasini komponent tahlil qilish, terminning semantik tabiatini tavsiflash, terminologik belgilarni ajratish, leksikografik talqin va tavsiflarni mukammallashtirish ham, avvalo, umumleksik tizim birliklari bilan bo'lgan munosabati asosida ta'minlansagina masala mohiyati yanada yorqinlik kasb etadi.

Terminlar semantik tarkibi, xususiyati, sohaviy qo'llanishidagi o'ziga xosliklarning ilmiy asoslarda tekshirilishi, o'rganilishi terminlar tizimida qayd qilinadigan polisemantiklik va omonimlik hodisalari bilan bog'liq masalalar tadqiqida ham samarali natijalarni ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR

- Хасанов Х.Х. География терминлари лугати. – Тошкент: Фан, 1964. – 112 б.
- Кораев С.Қ. ва бошқ. Географик терминлар ва тушунчалар изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 156 б.
- Мурзаев Э. Словарь народных географических терминов. – М.: Мысл, 1959. – 633 с.
- Мирортиқ Мирабдулла ўғли. Жўтрафий атамалар лугати. – Тошкент: Фан, 1992. – 56 б.
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2007. – 4-жилд. – Б. 66.
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2006. – 1-жилд. – 680 б.
- Ғуломов П. Жўтрафия атамалари ва тушунчалари изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 115 б.
- Мурзаев Э. Словарь народных географических терминов. – М.: Наука, 1984. – 653 с.
- Хуррамов К. Узбекские народные термины, обозначающие рельеф южного Узбекистана: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1980. – 170 с.
- Шоабдураҳманов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 450 б.



Nazokat KAMALOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail:xodjimurodova3191@gmail.com.

O'zMU professori Y.Mamatova taqrizi asosida

## СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ МЕДИЦИНСКОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ

### Аннотация

Статья посвящена типологическому процессу медицинской журналистики и обзору этого процесса в Узбекистане. В статье также рассматривается сложный процесс формирования медицинских публикаций в современном Узбекистане.

**Ключевые слова:** Медицинская журналистика, медицинский журнал, медицинские темы, электронные публикации, научно-популярные публикации, медицинское образование.

## THE ESSENCE AND FUNCTIONS OF MEDICAL JOURNALISM

### Annotation

The article is devoted to the typological process of medical journalism and an overview of this process in Uzbekistan. The article also examines the complex process of forming medical publications in modern Uzbekistan

**Key words:** Medical journalism, medical journal, medical topics, electronic publications, popular science publications, medical education.

## TIBBIY JURNALISTIKANING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

### Annotatsiya

Maqolada tibbiy jurnalistikaning tipologik jarayon va O'zbekistonda bu jarayonga umumiy nuqtai nazarga bag'ishlangan.

Maqolada zamonaviy O'zbekistonda tibbiyotga oid nashrlarning murakkab shakllanish jarayoni ham ko'rib chiqiladi

**Kalit so'zlar:** Tibbiy jurnalista, tibbiy jurnal, tibbiy mavzular, elektron nashrlar, ilmiy-ommabop nashrlar, tibbiy ta'lif.

**Kirish.** Tibbiy jurnalista – bu tibbiyot yangiliklari va xususiyatlari haqida xabar berish (kesimli sharhlarni nashr etishdan farqli o'laroq). Tibbiy jurnalista rang-barang va o'z auditoriyasini aks ettiradi. Asosiy bo'lim keng jamoatchilik uchun tibbiy jurnalista bo'lib, u umumiyligi yangiliklari nashrlari va ixtisoslashtirilgan tibbiy nashrlarda tibbiy reportajni va shifokorlar va boshqa mutaxassislar uchun tibbiy jurnalistikani o'z ichiga oladi, ular ko'pincha ekspertizadan o'tkaziladigan jurnallarda paydo bo'ladi. Tibbiy jurnalista – bu sog'liq va hayot sifati haqidagi jurnalista. Rasmiy ravish bu ilmiy jurnalistikaning biridir. Tegishli ilmiy manbalarga havolalar ham biz uchun muhim, ammo ba'zi o'ziga xosliklar mavjud. Masalan, tibbiyot jurnalisti uchun bitta ilmiy maqola ko'p narsani anglatmaydi. Matnlarimizni yozganimizda, biz kattaroq tadqiqotlarga (tizimli sharhlar, meta-tahlillar) yoki hatto xalqaro tavsiyalarga e'tibor qaratishimiz kerak. Buning sababi shundaki, bizning matnimizni o'qib chiqqandan so'ng, inson salomatligi haqida qandaydir qaror qabul qilishi mumkin va biz xabardor qilish uchun alohida ma'suliyatga egamiz.

Tibbiyot jurnalislari juda puxta. Ular faktlar va manbalarga havolalarni ko'p marta tekshiradilar va ko'pincha manbalarni o'zlarini tekshiradilar, chunki ularning eng yaxshilari ham ba'zan muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Masalan, COVID-19 pandemiyasining boshida biz tahririyatda atrofimizdagi makonni qanday himoya qilish haqida matnlar yozgan edik; Albatta, biz SARS-CoV-2 virusi yuzalarda qancha vaqt yashashi haqidagi ma'lumotlarni tekshirdik. Bir nufuzli manba maqola uchun aniq raqamlarni keltirdi, garchi ular hech qanday ilmiy maqolada bo'limasa ham. Ular shunchaki shisha va yog'ochda koronavirusning yashash muddatini o'rtacha hisoblaganliklarini bilish uchun biroz qazishimiz kerak edi, bu faqat ularning infografikasi ostidagi izohlarga javobdan ma'lum bo'ldi. Biz kuldik, matnlarimizga ma'lumot kiritmadik, balki boshimizni chayqab qo'ydik: axir, dunyodagi ko'plab ommaviy axborot vositalari bunday

tasdiqlanmagan raqamlarni ikki marta tekshirmsandan ishlatsan. Biz bunga qodir emasiz.

Tibbiy jurnalista juda kamdan-kam hollarda mutaxassislar jurnalistikasi, garchi hamma o'z og'zidan chiqqan ma'lumotlarga ishonishga odatlangan. Ha, biz shifokorlar va olimlar bilan ajoyib intervyular qilamiz, lekin ular ham o'z so'zlarini tasdiqlash uchun bizga havolalarini yuborishlari kerak. Bizning dunyomizda siz o'zingizning tajribangiz yoki buyuk hokimiyatingiz balandligidan nimanadir tasdiqlay olmaysiz. Faqat tadqiqot, faqat tasdiqlangan faktlar. Shuning uchun, ba'zida yaxshi mutaxassisni topish qiyin, lekin biz dalillar tamoyillarini bahan ko'radigan va ishimiz tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydigan shifokorlarni boshqaramiz va ular bilan do'stmiz. Hamkorlik va tavakkalchilik aloqasi modellari Bir vaqtlar olimlar va shifokorlar ma'lumot almashishni va nima bo'layotganini tushuntirishni juda yoqtirmasilar va nima uchun ular bu tabletkani emas, balki bu tabletkani ichish kerakligini aytishdi. Siz shunchaki ularga ishonishingiz kerak edi. Ilmiy aloqada ular "fil suyagi minorasida" o'tirganliklarini aytishadi, u yerdan ba'zan mukofot olishlari va murakkabroq so'zlarda murakkab narsa haqida gapirishlari mumkin edi. Ammo vaqt o'tishi bilan demokratik mamlakatlarda soliq to'lovchilar savollar berishni boshladilar. Chunki ular ilm-fan uchun pul beradilar, ammo olimlar bu bilan nima qilishlarini hech kim bilmaydi. Qarang, yana boshqa bomba yig'ilmoqda yoki qora tuyruk yaratilmoqda. Olimlar shunday hisobot berishlari kerak edi, ilmiy aloqa mana shunday paydo bo'ldi va tibbiyotga ochiqlik shunday o'tdi. Asimetrik aloqadan (tadqiqotning o'zi xohlaganida) biz olimlar va jamiyat o'rtafigi muloqot modeliga o'tdik.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yuqoridaqiz nazariy asoslarga asoslanib, alohida o'zbek tibbiyot nashrlarini tafsiflash mumkin. Shunday qilib, ... shahrida "O'zbekiston tibbiyot fanlari" elektron ilmiy-amaliy tibbiyot jurnali ,

"Darmon" jurnali," "Nazariy va klinik", "Pediatriya", "Nevrologiya", "Darmon", "Medical express" jurnali tashkil etildi. Taniqli akademik Nabi Majidovich Majidov tashabbusi bilan 1998-yilda tashkil etilgan "Nevrologiya" ilmiy-amaliy jurnali ilmiy-tadqiqot materiallari, asab va ruhiy kasalliklarni davolash va profilaktika natijalarini chop etuvchi ilmiy-amaliy jurnal hisoblanadi. 1998 yildan 2010 yilgacha N.M. Majidov "Nevrologiya" jurnalining bosh muharriri edi. Jurnal sahifalarida nevrologiya, nevrologiya, kardiovirologiya, neyrochirurgiya, neyroendokrinologiya, fizioterapiya va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan nevrologik kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, klinik ko'rinishi, diagnostikasi va davolashining bir qator dolzarb masalalari aks ettirilgan. jurnal va ularni taqdim etish shakllantirgan jurnalda O'zbekistonning tanqli olimlari faol hamkorlik qilmoqda, shu bois u O'zbekistonda nevrolog va psixiatrlar reytingida yetakchi o'rirlarni egallaydi. So'nggi yillarda jurnal sahifalarida asab va ruhiy patologiyalarni tashxislashning yuqori texnologiyalari va yangi usullarini nevrologik va psixiatrik amaliyatga joriy etish to'grisida nashrlar paydo bo'lди - miya tuzilmalarini intravital tasvirlashdan molekulay genetik yondashuvlar va ularning o'zaro ta'sirini o'rganishgacha, hujayra retseptorlari va neyrokimyoviy jarayonlar darajasida yangi dorilar.

"Godu" – o'zbekistonlik va xorijlik olimlarning kasalliklarga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilg'or usullarini ishlab chiqish hamda innovatsion tibbiy texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlari natijalarini aks ettiruvchi muntazam ravishda ko'rib chiqiladigan elektron nashr. Nashrdan ko'zlangan maqsad o'zbek tibbiyotining ilmiy yutuqlarini Respublikamiz hududida ham, undan tashqarida ham targ'ib qilishdan iborat.

**Tahlil va natijalar.** Nashrdan ko'zlangan maqsad o'zbek tibbiyotining ilmiy yutuqlarini Respublikamiz hududida ham, undan tashqarida ham targ'ib qilishdan iborat. Jurnalda ilmiy va amaliy mazmundagi original maqolalar, sharhlar, ma'ruzalar, klinik kuzatishlar, axborot materiallari, sharhlar, munozaralar, O'zbekiston Respublikasining ilmiy hayoti haqida ma'lumotlar va kun qahramonlarini tabriklash "O'zbekiston tibbiyot fanlari" jurnalida chop etilgan ilmiy ishlarning nomi va mazmuni tibbiyotning barcha yo'naliislari bo'yicha olimlarning mutaxassisliklari guruhiga mos kelishi kerak. . Quyidagi ilmiy yo'naliislari bo'yicha Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston Respublikasi mintaqalarining biogeokimyoviy xususiyatlari bilan bog'liq mintaqalarning ekopatologiyasi masalalarini aks ettiruvchi ilmiy-amaliy xarakterdagi maqolalarga nashr uchun ustuvorlik beriladi. O'zbekiston hududida qadim zamonalarda yashagan xalqlarning tibbiyoti haqida birinchi yozma ma'lumotlarni zardushtiyalar kitobi «Avesto»dan topamiz. Avesto Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjon hududida yashagan xalqlarning aqidalarini haqidagi kitob. Kitob qismlaridan bo'lgan «Vandidat»da yozilishicha, birinchi bo'lib Trita ismli zot tabiblik bilan shug'ullangan va u odamlarni kasallik va o'limdan saqlagan. Tritaga yaxshilik «ilohi» Oxuramazda kasallarni davolash uchun samodan 10 mingta xil dori yuborgan. Trita shuningdek, Xaoma deb ataluvchi mast qiluvchi va narkotik xususiyatga ega bo'lgan ichimlikni kashf etgan, Xaoma esa hayot va salomatlik manbai deb atalgan. Kitobda Trayeton ismli tabib haqida ham ma'lumot keltirilgan va islomgacha uni tabiblik «ilohi» deb atagan. Avestoda tibbiyotning kelib chiqishi haqida yana bir rivoyat bor. Unda aytilishicha, odamlarga tabiblik san'atini Yima ismli zot o'rgatgan. Bu zotni Nuh payg'ambarga nisbat qiladilar. Avestoda odam anatomiyasi va fiziologiyasi haqida ham ba'zi ma'lumotlar mavjud. Unda odam gavdasi quyidagi

8 qismdan iborat, deb ko'rsatilgan: suyaklar, muskullar, yog'lar, miya, tomirlar, qon, jigar va jigar o'ti hamda ikki xil tomir mavjudligi ko'rsatilgan.

Tibbiyot va sog'liqni saqlash ma'lumot olish va materiallар tayyorlash uchun juda keng sohadir. Natijada tibbiy mavzudagi jurnalistik matnlarni quyidagilarga bo'lish mumkin. Jurnalist maqola yozadigan aniq mavzuga bog'liq bo'lgan bir nechta toifalar mavjud:

Birinchidan, bu turli kasalliklar va ularni davolash usullari, profilaktika choralar haqida materiallar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar va boshqalar haqida. Qoida tariqsida, bunday materiallarda, hatto umumiyoq o'quvchi uchun mo'ljallangan nashrlarda ham yetarli miqdordagi atamalar mavjud.

Ikkinchidan, ba'zi materiallар ijtimoiy xarakterdagi tibbiy muammolarni ta'kidlaydi. Qoida tariqsida, bunday maqolalarning markazida kimningdir taqdiri, ma'lum bir odamning muammolari turadi.

Uchinchidan, ba'zi jurnalistik matnlar "Salomatlik" sarlavhasi ostida nashr yetiladi, ammo bir vaqtning o'zida ularni so'zning to'liq ma'nosida tibbiy deb atash mumkin emas. Masalan, tabiiy kosmetika va uning inson salomatligiga foydalı ta'siri, sport zallari tanaga zarar yetkazmasdan vazn yo'qotish usuli sifatida va boshqalar. Bir tomonдан, bu holatlarda ma'lumot manbai ko'pincha shifokorlar yemas, aksincha murabbiylar, vizajistlar, kosmetologlar, ammo sog'liqni saqlash muammolari hali ham kelib chikmoqda.

To'rtinchidan, yangiliklar materiallari. Albatta, ular tibbiy masalalarga yondoshadi, lekin yangiliklar tabiatidagi bir-biridan farq qiladi. Qoida tariqsida, bunday materiallar matbuot anjumanidan keyin chiqariladi yoki tibbiy markaz yoki yangi shifoxona binosining ochilishi.

Shifokorlar va jurnalistlar o'rtasidagi muloqot har doim ham oson emas. Tibbiyot haqida yozish uchun siz o'rganishingiz kerak. Shuningdek shifokorlar, ayniqsa, sog'liqni saqlash tashkilotchilari, u ommaviy axborot vositalari vakillari bilan muloqot qilish uchun qanday o'rganish kerak.

**Xulosa va takliflar.** Ommaviy tibbiy nashrlarga kelsak; mamlakatda ularning taxminan 15 tasi va ularning taxminiy mavzularini sanab o'tish mumkin. Ilmiy-ommabop nashrlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tibbiy nashrlarga obuna hamma joyda to'lanadi, lekin elektron versiyalari ijtimoiy tarmoqlarda taqdim etiladi. Nashrlarning asosiy mavzulari: mahalliy olimlarning kashfiyotlari, ilm-fanni rivojlantirish tendentsiyalari tahlili, tibbiy sohasidagi sovindorlar bilan suhbatlar, shuningdek, sog'lom ovqatlanish, kosmetologiya, fitnes va boshqalar bo'yicha nashrlarni topishingiz mumkin. Qoida tariqsida, ilmiy ommabop nashrlar auditoriyasi yoshi, ijtimoiy, kasbiy doirasi bilan chegaralanmaydi. Tibbiyot muammolari har doim o'quvchilarni tashvishga soladi, munozaralarini keltirib chiqaradi va hech qachon to'xtamaydi. Dunyo bo'ylab turli nashrlarning birinchi sahifalarida paydo bo'ladi - bu tibbiy jurnalistikani yangi davrning asosiy tendentsiyalariga olib keladi. Ushbu mavzu ommalashib borayotgan bir paytda, tibbiy jurnalistikadan unchalik xabardor bo'lmanan jurnalistlar osonlikcha oldini olish mumkin bo'lgan xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Misol uchun, ular tadqiqot haqida gapirganda to'g'ri, mazmunli kontekstni taqdim etishda qiynalishi mumkin. Hikoyani ayтиб berish uchun ma'lumotlarning o'zi etarli deb o'ylamang. Odatta, jurnalistlar ma'lumotlarni o'rganayotganda so'raydigan birinchi savol "Qancha?" Masalan, "Qancha bola zarar ko'rdi?", "Qancha ayol vafot etdi?" yoki "Qancha yangi holatlarni aniqlandi?" yana davom etishni maslahat beradi: "Ma'lumotlar sizga nimani aytolmasa, siz boshqa joyga qarashingiz kerak." Noto'g'rilikka yo'l qo'yomaslik uchun tendentsiyalar va ma'lumotlarni qidirish niyatida tadqiqotizingza kiring. Siz topgan narsa siz topaman deb o'ylaganingizdan butunlay

boshqacha bo'lishi mumkin va bu yaxshi."Siz allaqachon ishlab chiqqan nazariyalaringizni tasdiqlash uchun ma'lumotlardan foydalanishni to'xtatishingiz kerak," deb qo'shimcha qildi "Orniga yo'nalishni topish uchun ma'lumotlardan foydalaning."Biror kishining tibbiy xalat kiyib yurishi uning gaplari haqiqat degani emas. Tadqiqot markazlaridan olingan ma'lumotlar, ma'lumotlar va boshqa ishonchli manbalar yordamida ularni tekshiring. "Tibbiy jurnalistikaga hozir juda muhim va ommabop, jurnalistlar soxta xabarlarni tarqatayotganda qo'lga tushmasliklari kerak", dedi. Suhbatlar o'tkazishdan oldin mutaxassislar haqida ma'lumot to'plashni va buning uchun akademik ma'lumotlar bazalaridan foydalanishni maslahat beradi. "Agar siz hech qanday natija topmasangiz yoki odam hech qachon hech narsa nashr qilmagan bo'lsa, bu shubha uyg'otadi "Hamkorlik va tavakkalchilik aloqasi modellari. Bir vaqtlar olimlar va shifokorlar ma'lumot almashishni va nima bo'layotganini tushuntirishni juda yoqtirmasdilar va nima uchun ular bu dorini emas, balki bu dorini ichish kerakligini aytishdi. Siz shunchaki ularga ishonishingiz kerak edi. Ilmiy aloqada ular

"fil suyagi minorasida" o'tirganliklarini aytishadi, u yerdan ba'zan mukofot olishlari va murakkabroq so'zlarda murakkab narsa haqida gapirishlari mumkin edi. Ammo vaqt o'tishi bilan demokratik mamlakatlarda soliq to'lovchilar savollar berishni boshladilar. Chunki ular ilm-fan uchun pul beradilar, ammo olimlar bu bilan nima qilishlarini hech kim bilmaydi. Qarang, yana boshqa bomba yig'ilmoqda yoki qora tuyunuk yaratilmoqda. Olimlar shunday hisobot berishlari kerak edi, ilmiy aloqa mana shunday paydo bo'ldi va tibbiyotga ochiqlik shunday o'dti. Asimmetrik aloqadan (tadqiqotchining o'zi xohlaganida) biz olimlar va jamiyat o'rtaсидаги muloqot modeliga o'dik. Agar ilgari shifokor oddiy va tushuntirishsiz davolanish va dori-darmonlarni qabul qilish formatini talab qilsa, endi hamma biladi: bemor faqat unga hamma narsa tushunarli bo'lsa, shuningdek, shifokor bilan birgalikda qaror qabul qilgan bo'lsa, tavsiyalarga amal qiladi. Faqat shifokor qaror qilganda, bu paternalizmdir. Shifokor va bemorning birgalikdag'i ishi allaqachon hamkorlikdir bu hamkorlikni yanada mustahkamlashda ma'lumotlarni yetkazishda tibbiy ongni shakllanishida tibbiy jurnalistikaning roli katta.

#### ADABIYOTLAR

1. Tibbiy jurnalistikalar uyushmasi (Buyuk Britaniya) "Tibbiyot jurnali press-relizlarining gazetalarni yoritish sifatiga ta'siri: retrospektiv kohort tadqiqoti". BMJ. 344-jild. 27-yanvar 2012-yil. d8164-bet. doi: 10.1136/bmj.d8164. PMC 3267473. PMID 22286507.
2. "ICMJE qo'lyozmalarning yagona talablari". Tibbiyot jurnali muharrirlari xalqaro qo'mitasi. 11-Noyabr 2012-yilda asl nusxdan arxivlandi.
3. "Biz hikoyalarni qanday baholaymiz". Sog'liqni saqlash yangiliklari sharhi (2008). 10-Yanvar 2009-yilda asl nusxdan arxivlandi. Qaraldi: 2009 yil 26 mart-yil.
4. Dentzer S (2009). "Tibbiyot yangiliklarini etkazish - sog'liqni saqlash jurnalistikasining tuzoqlari." N Engl J Med. 360-jild, No 1. 1-3-bet. doi: 10.1056/NEJMOp0805753. PMID 19118299.
5. Karduchi, Annalaura; Simona Alfani (2011). "Ommaviy axborot vositalarining sog'lig'i haqida ma'lumot: kundalik matbuot yoritilishining miqdoriy va sifatli tahlili va uning jamoatchilik fikri bilan aloqasi" (PDF). Bemorlarga ta'lim va maslahat. 82-jild, No 3. 475-478-bet. doi: 10.1016/j.pec.2010.12.025. PMID 21288683.
6. "Boston universiteti veb-sayti".
7. Jeyms Lind instituti veb-sayti.



Dildora KUVANDIKOVA,

PhD student of National university of Uzbekistan

E-mail: kuvandikovadildora4@gmail.com

Based on the review of UzDJTU associate professor I. Osarov

## STUDY OF THE "SPACE" CATEGORY IN LINGUISTICS

### Annotation

This article provides a comprehensive overview of linguistic research on the category of space, encompassing studies conducted in Russian, English and Uzbek languages. Over the past decades, scholars from various linguistic traditions have delved into the intricate dimensions of spatial semantics, offering insights into both general theoretical frameworks and language-specific manifestations.

**Key words:** Category, the category of space, three-dimensionality, spatial meanings, spatial orientations, lexico-semantic groups, spatial localization, linguocultural aspects.

## ИССЛЕДОВАНИЕ КАТЕГОРИИ "ПРОСТРАНСТВО" В ЛИНГВИСТИКЕ

### Аннотация

Данная статья предоставляет всесторонний обзор лингвистических исследований по категории "пространство", охватываю работы, проведенные на русском, английском и узбекском языках. За последние десятилетия ученые из различных лингвистических традиций погружались в сложные измерения пространственной семантики, предоставляя исследования как по общим теоретическим рамкам, так и по языко-специфическим проявлениям.

**Ключевые слова:** Категория, категория пространства, трехмерность, пространственные значения, пространственные ориентации, лексико-семантические группы, пространственная локализация, лингвокультурные аспекты.

## "MAKON" KATEGORIYASINING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada rus, ingliz va o'zbek tilshunoslari tomonidan "makon" kategoriyasining turli jihatlari tog'risida olib borgan lingvistik tadqiqotlar qamrab olingan. O'tgan o'n yilliklar davomida tilshunos olimlar makoniy semantikaning murakkab o'lchovlarini o'rganib chiqdilar.

**Kalit so'zlar:** Kategoriya, makon kategoriyasi, uch o'lchovlilik, makoniy munosabatlar, makoniy yo'nalishlar, leksik-semantik guruhlar, lokallik, lingvomadaniy jihatlar.

Language categories are important components of relationships in system of linguistic and extralinguistic linguistic education, therefore, they should be tested as cognitive-discursive formations. Purposes of language categories are to highlight the appearance of its special manifestations, report the type and play a role not only in the systematization of information, but also in the presence of the messages and detection. The language categories are certain conceptual organizations, in other words, the type or form of knowledge of the surrounding reality. They are in close interaction with thought processes, that is, all knowledge about world are arranged in our head in the form of categories. It means that space is a broad concept. In this study, we consider the interpretation of the terms of the category of space, as a linguistic concept.

Literature review. The current state of linguistics indicates that the study of the category of space is one of the actively developing areas in modern linguistics. The category of space is the subject of research for many Russian, foreign and Uzbek scholars. A considerable number of linguistic works were dedicated to both general issues and specific aspects of this phenomenon. The scholar E.E. Yakovleva, in her work, investigated the category of space from the perspective of its fundamental characteristic – three-dimensionality[8]. E.E. Yakovleva analyzed the means of expressing the category of space in the Russian language, examining several parts of speech and defining both their individual spatial meanings and the universal indicators of spatial constructions [8]. V.L. Ibragimova investigated the

lexico-semantic groups of verbs related to spatial localization in the Russian language. The linguist notes that "Verbs of locative semantics are one of the most adequate means of linguistic interpretation of existing spatial relations in nature and reflection in the human mind"[4].

**Research methodology.** In this article analytical method is used to determine what aspects of the space category were revealed by different scholars.

The most extensive in terms of lexical resources for expressing the category of space are prepositions in Russian and English, and suffixes in the Uzbek language. Spatial prepositions and postpositions, along with temporal ones, are the most frequent in languages with diverse structures. This is connected to several factors. Primarily, space and time are categories of the objective reality of the world.

While writing the article the method of content analysis is used for analyzing systematically and categorizing the content of literature to identify patterns and themes. According to this method the followings are determined: the semantics of prepositions has been the subject of research by scholars such as E.V. Rakhilina, A.E. Kibrik, V.A. Plungian, D. Payar, N.Yu. Koneva, A.B. Chernyshev, while the systemic description of prepositions in several languages has been undertaken by researchers like T.N. Malyar, O.N. Seliverstova, I.V. Baranova, B.N. Aksenenko, L.A. Cherezova, V.Z. Zlatkin, G. Miller, J. Litchi, and others. Linguists Y.D. Apresyan, G.A. Brutians, T.V. Bulygina, and A.D. Shmelev have studied space as a linguistic worldview. I.V. Voropaeva also analyzed the units of verbal expression in the cognitive

aspect. She studied the expression of the concept of space in English through the relators after, before, for, distinguished absolute spatial direction and relative spatial destination and made a detailed analysis. The category of space has been the subject of study in foreign linguistics by scholars such as L. Talmy, R. Langacker, J. Fauconnier, R. Jackendoff, G. Lakoff, C. Fillmore, and W. Chafe. Leonard Talmy proposed the idea of distinguishing topological types. The idea is that Euclidean geometry (size, length, distance, angle) is not related to the linguistic worldview[5].

In Uzbek linguistics, there are studies of M. Abdullaev, Sh. Iskandarova, S. Muhamedova and S. Ikromova on this problem. [10].

**Analysis and results.** The comprehensive exploration of the category of "space" in linguistics reveals its significance across various languages. Scholars in the Russian, English, and Uzbek languages have conducted extensive research, contributing to a deeper understanding of spatial concepts. The findings are summarized below:

In Russian language scholars and their contributions: E.E. Yakovleva explored the three-dimensionality of the space category in Russian, analyzing expressions in different parts of speech[8]. Ibragimova investigated lexico-semantic groups of verbs related to spatial localization in the Russian language[4]. Anna Zaliznyak conducted a comprehensive study on lexical units in Russian, focusing on the verb "добраться" (to get there). O.V. Myaksheva examined spatial semantics in various communication settings, emphasizing the significance of "personal" space. O.Y. Boguslavskaya analyzed semantic oppositions organizing the field of spatial adjectives in Russian. O.N. Seliverstova and T.N. Malyar investigated spatial-distance prepositions and adverbs, providing a detailed overview of their semantics. V.I. Pekar explored the semantics of prepositions indicating vertical arrangement in Russian and English. I.S. Borozdina studied meanings of spatial prepositions of "removal" in English and Russian. L.N. Fedoseeva analyzed spatial relations in the Russian language, emphasizing their role as a meaning-generating factor. S.Yu. Semyonova characterized physical objects in space expressed through spatial dimensions like height, depth, and distance[5]. E.S. Kubryakova explored the process of forming linguistic units to denote new phenomena, emphasizing cognitive perspectives[3].

A number of linguists revealed spatial Metaphors and Expressions. They are researchers like S.V. Kodzasov, O.P. Ermakova, and others who delved into spatial metaphors, connecting spatial relations to various life aspects. Moreover, various scholars explored expressions related to emotions, perception, and diverse areas of life using spatial metaphors. Comparative studies, including works by T.P. Zhelonkina, E.N. Evtushenko, and N.A. Saburova, provided insights into spatial expressions in Russian and English [5].

Scholars such as M.A. Kunizhev, A.N. Cheremisin, I.V. Skrynnikova, N.G. Stetsenko, and others explored various aspects of spatial concepts and categories in English. Their studies focused on verbalization, spatial orientations, and semantics of prepositions like "across," "over," and "through." [5] M.A. Kunizhev have investigated the category of space in the English language, exploring its status and means of

verbalization in contemporary English. The linguist describes various-level means in the English language on paradigmatic and syntagmatic levels [6]. I.V. Skrynnikova describes the specificity of conceptualizing location in the English language, identifying the parametric features of the studied concept and its components in English linguoculture [7].

Linguists such as L. Talmy, R. Langacker, J. Fauconnier, R. Jackendoff, J. Lakoff, Ch. Fillmore, and W. Chafe provided cognitive perspectives on spatial categories, emphasizing the role of topological types in shaping linguistic space. R. Langacker developed the theory of "spatial grammar" or cognitive grammar, representing a linguistic description based on understandings of processes of cognitive analysis, construction, and organization of linguistic knowledge [5]. Linguist R. Jackendoff studied the theory of "internal semantics," which refers to the knowledge present in a speaker's consciousness. Space and spatial relations are intimately connected with "internal semantics" [1]. J. Lakoff is also a cognitive linguist who focused extensively on metaphor as an essential construct in the conceptual system, disagreeing with an objectivist approach to semantics and understanding [2].

Scholars like I.G. Nikitina, Li Toan Thang, and others conducted comparative-typological studies, exploring the universality and specificity of linguistic means and ways of objectifying spatial concepts in different languages [5].

Uzbek linguists studied the following aspects of space category in their research: interpretation of space and time in Uzbek magical tales [12] (K. Kadirov) [12], locum and localization relations (M. Ergashova)[9], lexical-semantic group and stylistic features of locative nouns (Z. Urakova)[16], locality and its expression in Uzbek (B. Kurbanova) [13], the history of the development of existential and locative constructions in English (Sh. Yusupova) [17], representation of the space category in people's linguistic world picture and its linguocultural aspects (S. Ikromova) [10]. In Sh. Safarov's book "Pragmalinguistics", the space was studied from a pragmatic aspect. It is known that in recent years, new scientific theories have been formed in linguistics that interpret language phenomena in connection with the context, the situation of the speech, and the personality of the speaker. One such theory is deixis, in which attention was paid to the expression of spatial deixis in language. According to the theory of deixis, the deictic means representing space with pronouns such as that, there, this, here [15].

**Conclusions and recommendations.** All in all, it can be stated that the category of space is explored more extensively in the Russian language than in Uzbek and English. The ongoing examination of this category spans across all levels of language, including morphological, syntactic, lexical, phonemic, and so on. Additionally, there are studies dedicated to investigating the two structurally diverse languages – Russian and English – from a comparative perspective. According to our observations, there are few specialized works focused on the study of space category representation from the perspective of linguaculturology and pragmalinguistics in these three structurally diverse languages: Russian, Uzbek, and English.

## REFERENCES

1. Jackendoff R. X-Bar-Syntax: A Study of Phrase Structure. Cambridge, Mass., 2001.-456 p.
2. Lakoff G. Brugman C Argument Forms in Lexical Semantics/ Proceedings of 12th Annual Meeting of Berkeley Linguistic Society, Berkeley, 1986.-P. 32-45
3. Кубрякова Е.С. Язык пространства и пространство языка (к постановке проблемы) // Изв. РАН. Сер. лит. и языка, 1997. Т. 56. - №3.-С. 26
4. Ибрагимова В.Л. Семантика глаголов пространственной локализации в современном русском языке. – Уфа, 1992. – С. 172

5. Канафина А.Р. Репрезентация категории пространства в русском, башкирском и английском языках. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Уфа, 2022-25 с.
6. Кунижев М.А. Категория "пространство", ее статус и средства вербализации: на материале современного английского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. Пятигорск, 2005-18 с.
7. Скрынникова И.В. Вербализация концепта "пространственная локализация" в англоязычной лингвокультуре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Волгоград, 2004.-22 с.
8. Яковлева Е.С. Фрагменты русской языковой картины мира (модели пространства, времени и восприятия). М.: Гнозис, 1994, 343
9. Ergashova M. V. Uzbek tilida lokum va lokalizasiya munosabati: Filol. fan nomz. diss. Toshkent, 2011.-150 b.
10. Ikramova S. A. Olamning lisoniy manzarasida makon kategoriyasi va milliy o'ziga xoslik: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. Toshkent -2018 135 b
11. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. Fanlari d. diss Toshkent, 1999.-266 b.
12. Kodirov Q.N. O'zbek sexrli ertaklarida zamon va makon talkini: Filol. fan. nomz. diss. Toshkent, 2004. 148 b
13. Kurbonova B. Lokallik va uning o'zbek tilida ifodalanishi. Filol. Fan nomz. ... diss. avtoref. Toshkent, 2007-23 b.
14. Muxamedova S. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantic va valentlik xususiyatlari: Filol. Fanlari d-ri diss. Toshkent, 2007. 325 b.
15. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. Toshkent: O'zME, 2008, 320 b.
16. Urakova Z.S. Maskan otlarining lug'aviy-ma'noviy guruxi na uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. Toshkent, 2011.-26 b.
17. Yusupova Sh.B. Ingliz tilidagi ekzistensional va lokativ konstruksiyalarning rivojlanish tarixi: Filol. fan. nomz. avtoref. diss Toshkent, 2011-24 b.



UDK:811.113:512.133+87'1 (575.1)

Gulsara KURBONOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.d

E-mail:gulsara.qurbanova@mail.com

Dilnoza TURSUMMURATOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

O'zMU professori, f.f.d A.Mamatov taqrizi asosida

### FRANSUZ YOZUVCHILARI ASARLARIDA SHARQ MOTIVINING BADIY-FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqola fransuz ma'rifatparvarligi ilk namoyandalaridan biri Sharl Lui Monteskyening "Fors nomalari"da Forsiy nigohi ikki tomonlarma harakatni amalga oshirishga imkon beradi, ya'ni fransuzlarda kechgan real voqelik aksi o'ziga xos tarzda forslerda ham takrorlanishi asar mazmunining chuqur falsafiy mazmuni asosida o'rganiladi. Maqolada Monteskyening Forsiy nigohi insonning yashab turgan siyosiy tuzumiga va, aksincha, jamiyatning insonga munosabatini masofadan kuzatishi masal janri, markazdan uzoqlashgan kuzatish, personaj nigohi, yumorga boy tanqiy qarashlar orqali tahlilga tortildi.

**Kalit so'zlar:** Forsiy nigohi, personaj nigohi, fransuz ma'rifatchiligi, dunyo va inson, ruh va qalb, tarjima tili, asliyat matni, stilistik figura.

### ХУДОЖЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОСТОЧНОГО МОТИВА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ФРАНЦУЗСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье исследуется глубокое философское содержание «Персидских писем» Шарля Луи Монтескье, одного из первых представителей французского просвещения в котором персидский взгляд допускает двусторонний подход, а это означает, что отражение реалий французов своеобразно повторяется в персах. В статье персидский взгляд Монтескье на политический строй, в котором живет человек, и, наоборот, дистанционное наблюдение за отношением общества к человеку анализируется через жанр притчи, децентрализованного наблюдения, характерного взгляда, юмористических критических взглядов.

**Ключевые слова:** Персидский взгляд, характерный взгляд, французское просвещение, мир и человек, дух и душа, язык перевода, оригинальный текст, стилистическая фигура.

### ARTISTIC AND PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE ORIENTAL MOTIF IN THE WORKS OF FRENCH WRITERS

Annotation

This article explores the deep philosophical content of the "Persian Letters" by Charles Louis Montesquieu, one of the first representatives of the French Enlightenment, in which the Persian view allows a two-sided approach, which means that the reflection of the realities of the French is uniquely repeated in the Persians. The article Montesquieu's Persian view of the political system in which a person lives, and vice versa, remote observation of society's attitude towards a person is analyzed through the genre of a parable, decentralized observation, characteristic view, humorous critical views.

**Key words:** Persian view, characteristic view, French enlightenment, world and man, spirit and soul, language of translation, original text, stylistic figure.

**Kirish.** G'arb adabiyotida sharq obrazi atroficha o'rganilgan bo'lsa-da, yevropaliklar nuqtai nazaridan sharq obrazining yangi qirralarini talqin qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz sharqshunosi E.Saidning so'zlariga ko'ra, sharqni sharqliklar nuqtai nazaridan tadqiq etish shu millat madaniyatiga bo'lgan munosabatni ifodalashi bilan diqqatga sazovordir[5].

Fransuz ma'rifatparvarligi ilk namoyandalaridan biri Sharl Lui Monteskyening "Fors nomalari" (1721) asari inson ichki energiyasini, ruhi va qalbini harakatga keltiruvchi "dunyo va inson" haqida hamda unda o'zining ishtiroki xususida beixtiyor mushohada etishga chorlashi bilan o'z zamoni va bugungi jamiyatimiz uchun ham juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jan Jak Russo "Tengsizlikning kelib chiqishi haqidagi mulohazalar nomli nutqida "vahshiyona" jamiyatlar to'g'risida fikr yuritadi"[6]. Bunday mulohazalar faylasuf uchun shu singari jamiyat modeliga taqlidan mushohada yuritish uchun emas, balki ayni damda g'arb jamiyatining axloqiy tanazzuli haqida o'ylab ko'rishga imkon berishini anglatadi. Gegel

falsafasiga ko'ra, insonning o'zini chetdan kuzatishi "o'zligini anglash" demakdir. Hayotning falsafiy qoidalari oqimida yashayotgan inson, ayniqsa, Monteskye "Fors nomalari" asaridagi personajlariga "Qanday qilib o'zligini tushunishiga imkon beradi?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Uning asarini o'qigan o'quvchida "yot" va "men" tushunchalari orqali qarama-qarshilik munosabatlari shakllanishi o'quvchini olis masofadan turib hayot, jamiyat haqida beixtiyor fikrlashga undaydi. Masofadan kuzatish, birinchchi navbatda, Forsiyning qarashlari, O'zbek va Rikaning do'stlariga Yevropaga qilgan sayohatlari xususida gapirib berayotib, jamiyatda kechadigan voqealarga nisbatan munosabatini ifoda etishi bilan bog'liq. Adib o'quvchini asar syujetida voqealarning o'zaro bog'lanishini e'tibordan qochirmaslikka undaydi. Bu bog'liqlik, birinchidan, O'zbekning haramida qolgan xotinlari va ularning qo'zg'aloni bilan, ikkinchidan Fransiya va Yevropa davlatlarida XVIII asrda ro'y bergan real voqealarga tanqidiy munosabat ifodalanishi bilan aloqador. Yozuvchi zamoni avvali jamiyatni mukammallashtirish uchun o'z pozitsiyasi nuqtai nazaridan voqealar syujeti orqali o'quvchini

jamiyatga tanqidiy munosabatini o'ylab ko'rishga yengil humor bilan yo'naltiradi. "Fors nomalari"da Forsiy nigohi ikki tomonlama harakatni amalga oshirishga imkon beradi, ya'ni fransuzlarda kechgan real voqelik aksi o'ziga xos tarzda forslarda ham takrorlanadi. Haqiqatan ham, makon va undagi madaniy farqlarga masofadan nigoh tashlash g'ayritabiyy tuyulsa-da, bu jarayon badiiy adapbiyotda axloqiy va falsafiy maqsadni ko'zlaydi. Monteskye asarining o'ziga xosligi undagi real voqelikni sodda gap tuzilishli stilistik figuralar mubolag'a, epitet, parafrazalar orqali berilishi va so'z birikmalarining yashirin ma'nosi yo'qligi fikrni ochiq-oydin ifodalishida namoyon bo'lsa, asar mazmunining chuqur falsafiy mazmunga ega ekanligi uning murakkab g'oyaviy tuzilishida namoyon bo'ladi. XVIII asr g'arb ma'rifatchiligining rivojlanish davri bo'ldiki, ularning faoliyati jamiyat rivojiga qo'shgan hissalar bilan baholanadi. Monteskye (jadidlar kabi) g'arb va sharq xalqlarining hayotida ro'y berayotgan istibdod, zo'ravonlikni ilm-ma'rifat rivojlanishiga keng yo'l ochib berish orqali yengish mumkinligiga ishonadi. U chetdan begona yurt kishilari nigohi bilan millatni o'z-o'ziga nazar tashlashi, uning o'zidagi illatlarni tushunib yetishlariga imkon beradi, deb ishonadi.

Monteskyening Forsiy nigohida insонning yashab turgan siyosiy tuzumiga va, aksincha, jamiyatning insonga munosabatida, unda ro'y berayotgan voqeа-hodisalarining sabab va oqibatlarini masofadan kuzatishi natijasi quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirildi:

1. Masal janridan foydalanish orqali. Masal janridan badiiy adapbiyotda insонning ahvoli va zamonaviy voqeliklarga tanqidiy qarashdan axloqiy yoki falsafiy maqsadda foydalanish tez-tez uchrab turadi. Axloq-odob falsafasi yoritilgan masallar, jumladan, 11-, 12-, 13, 14-maktublarda sof insoniy vijdon falsafasi Arabistondagi trogloditlar masalida, 67-maktubda otashparastlik sof vijdonlilik ramzi sifatida talqin etilgan "Faridun va Astarta qissasi", 141-maktubda sitamkorlik falsafasi Ibrohim ismili o'ta rashkchi er va uning 12ta xotini haqidagi eronlik ayollarning haramdagи hayotlari aks ettirilgan qissa va qissadan hissa chiqarish usulini asarda qo'llash orqali insonga jamiyatda kechadigan hodisalarini chetdan turib, masofadan kuzatish imkonini beradi.

2. Markazdan uzoqlashgan kuzatish orqali. Asarda Forsiyarning hayrati, tushunarsiz holati, g'azabi yangi ko'rinish orqali namoyon bo'lishiga imkon beradi, chunki ular orasidagi makonda va madaniyatda o'zaro tafovuti kattaligi biz uchun juda oddiy bo'lib tuyuladi, shu bois badiiy obraz pozitsiyasiga tushganimizni buni chuqur his qilmaymiz va uning olamini beixtiyor o'zimiz yashayotgan dunyo bilan solishtiramiz. Boshqacha aytganda, bular bizning urf-odatlar va e'tiqodlar, ijtimoiy meyorlar, hukmronlik tuzumlariga qulligimizni anglab yetishimizga to'sqinlik qiladigan sezgirligimizning ta'sirini yo'qotish haqidadir, shuning uchun biz ularni his qilishimiz qiyinroq kechadi. Demak, nigohni markazdan ajratish ma'nosida uzoqlashtirish jamiyatimizni boshqaradigan qonunlar va sun'iyliklarni ochishga imkon beradi. Ijodkorning 99-maktubda tavsiflangan fransuz modasi haqidagi mashhur misolini olishimiz mumkin. Rikaning maktubi axloqqa oid oddiy satiraning yengil ohangidan boshlanadi: qahramon fransuz modasi, xususan, ayollar modasidagi o'zgarishlarning tezligidan hayratda qoladi. Yozuvchining siyosiy tuzumga xos salbiy qarashlari ham o'zgaruvchan Parij modalariga xos "hukmdorning qalbi qolip misol boshqa barcha qalblarni shakllantirib turadi" jumlasida ifodalangan metaforasi qiroq qiyofasida jamiyatning shakllanishiga ishora qiladi.

3. Personaj nigohi orqali. Forsiyning ko'zgu nigohi kitobxonga zamonaviy voqelikni goh yaqindan, goh uzoqdan kuzatish imkonini beradi, unda fransuz monarxiyanining despotik moyilliklariga ochiq munosabat ifodalanganadi.

Forslar o'zlarini uchun nomalum haqiqatga duch kelishadi va uni Yevropani bilmagan do'stlariga tasvirlashda forslar va musulmon sivilizatsiyasi bilan o'xshashliklarni izlaydilar hamda o'z kuzatuvlari orqali fransuz urfatotlarining ekzotik sabablarini izlashadi. 37-maktubda Fransiya qiroli va Fors sultoniga o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlar aniq parallellikda ko'rsatilgan. Ushbu maktubda sharq va g'arb dialogi o'z davlatini yaxshi ko'rgan forsiy nigohidan tasvirlanadi, shuning uchun ham bu yerda monarxiyaning despotik moyilliklari namoyon bo'ladi. Maktub Fransiya qirolining keksaligi bilan ochilib, hokimiyatning qirol shaxsiy manfaatlari va qiziqishlari asosida qurilganligi, o'zboshimchalik kabi illatlar keksalikning injiqliklari bilan kuchayishi ta'kidlanadi. Despotizm elementlari qirolining ta'sirchan fe'l-atvori "18 yoshli vaziri, 80 yoshli mashuqasi", hokimiyat uchun tahdid "qo'shin boshiga yaxshi general qo'yishdan qo'rishi" kabi satrlar tahlilida ochib beriladi. Kitobxonning forsiylarning uzoq nigohi prizmasidan kelib chiqadigan xulosasi, mutlaq monarxiyaga olib boradigan boshqaruvning mantiqsizligi, qirollikning davlat manfaatlari, jamaot manfaatlariiga bee'tiborligi natijasidir.

4. Yumorga boy tanqidiy qarashlar orqali. Badiiy adapbiyotning epistolalar janri bir necha qarashlarni o'z ichiga birlashtiradi, jumladan, "Fors nomalari" humor nuqtai nazaridan tanqidiy qarashlarga ega. Asardagi nomalar sistemasi ko'pqirralilikka asoslangan, ya'ni sharq va g'arbi solishtirishda yozuvchi ba'zan uzoqdan betaraf nigoh bilan o'zga olamni, ba'zan yaqindan o'z dunyosini keskin tanqid ostiga oladi. Maktubda ikki forslik O'zbek va Rika Fransiyadan turib o'z do'stlari Nosir, Mirza, Rustan, Ibben, Redi, Nargum, haram og'alariga va O'zbekning haramidagi ayollariga xuddi shunday tanqidiy yumorga yo'g'rilgan maktublarining guvohi bo'lamiz. Ba'zi xatda yevropaliklarning sharqliklarga nisbatan nuqtai nazarları ifoda etiladi, xususan, personajlarning yevropa va osiyoliklar haqidagi dialoglari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilganini va ko'plab tanqidiy mulohazalarga ega bo'lgan qator madanini dialog modellari va dunyoqarashlarining guvohi bo'lamiz.

Chuqur mulohaza yuritayotgan O'zbekning haramda qolgan ayollariga nisbatan shafqatsiz yo'l tutishi ularning hurfikrliliga qarama-qarshi qo'yiladi. Bu xususda 21-maktub – qullariga yuborgan nomasida keltirilgan "maktubni ochganham hamon titramog'ing", "larzaga kelmog'ing kerak" degan so'zlar xo'jayinning g'azabini ko'rsatuvchi tahdid singari jaranglaydi. Keyingi abzatsda qo'llanilgan so'zning ma'nosi "Men – xo'jayin", "Sen – qulsan" ma'nosida despot hukumatning ekzotik oshirilishida uning xulq-atvori sharq istibdodiga parallel tasvirlanadi.

Biroq 16-maktubda O'zbekning uch qabr qo'riqchisi Mulla Muxammad Aliga yozgan xatida, aksincha, pozitsiyasi o'zgarib o'zini uning oldida naqadar ojizligini, qalbi o'git-nasihatlarga muhtoj ekanligini tan oladi. U mulla Muhammad oldida xuddi qullari erkidan mahrum bo'lganidek, o'z qalbi va erkinligidan judoligini tan oladi: O'zbek din va uning namoyandalari foydasiga o'z aql-idroki va mulohazalaridan voz kechadi. Zero, uning o'zligidan begona bo'lishi uzoq davom etmaydi, keyingi maktublar mazmunidan hokimiyat va bo'ysunish o'rtasidagi aloqalarning murakkab sistemasi yuzaga kelganligi ma'lum bo'ladi. O'zbekning Yevropaga qilgan sayohati tufayli Yevropadagi illatlarni ko'proq tan oladi va o'z madaniyatining aqida ekanligiga ko'proq shubha bilan qaraydi, biroq o'zini haramida hukmronligi nuqtai nazaridan qaraganda mutlaq xo'jayinligini asoslay olmaydi. Asarni o'qigan kitobxonda shunday tushuncha paydo bo'ladi, muammo qancha yaqin bo'lsa, so'qirlik shuncha kuchli bo'ladi. Bu holatda fransuz va o'zbek kitobxonining haramdagи illatlardan o'zi uchun chiqarib oladigan sabog'i aniq: boshqalardan mammun bo'lmashlik, "o'zligi"ga qaytishga imkon beradi.

Forslarning bema'nilik va nomuvofiqliklarni ta'kidlagan o'zgaruvchan nuqtai nazari, ba'zida jiddiy tanqid va shubhalarni keltirib chiqaradi (ko'pincha, O'zbekning maktublarida), ba'zida Rikaning yevropaliklarning bazmlari ruhi haqida bema'ni va nomuvofiq ekanligini jonli, satirk va istehzoli hikoyalari etimologik nuqtai nazaridan, dissimilatsiya (o'zgarish) va shubhani anglatadi. Agar odam o'ylagan narsasining aksini aytса, bu masxara qilishning bir shakli bo'lib, soxta soddalik va ishonchszlikni ham o'z ichiga olishi mumkin. Badiiy kontekstda istehzo personajga (o'zini ishonuvchan qilib ko'rsatuvchi) va muallifga (qahramon haqiqatan ham ishonuvchan bo'lib, muallif o'zining ishonchliligidan istehzo uchun foydalanadi) tegishli bo'lgan holatlarni farqlash kerak.

Bizning tahvilimiz manbai Monteskye va Amin Maaluf asarlari sharq madaniyatini falsafiy-badiiy ifoda etishi bilan mushtaraklik kasb etadi. Fransiya XVIII asrda ma'rifatchilikning markaziga aylangan. Fransuz ma'rifatchilarini jamiyat illatlarini ilm-ma'rifat orqali bartaraf etish mumkin, degan g'oyani ilgari surganlar. Mazkur ma'rifatparvarlik Fransiyada "Les lumières" termini bilan atalgan. Uning birinchi bosqichida Sh.L.Monteskye (1689–1755) faol ishtirot etgan. U o'zining 1712 yilda yozilgan "Fors nomalari"da ma'rifatchilik g'oyalarini mantiqiy aqlidrok va tabiiylikka yo'naltiradi. Monteskye nomi o'zining hokimiyat, qonunchilik, davlatchilik, madaniyat kabi masalalarga falsafiy qarashlarini ifoda etgan asarlari orqali fransuz akademiyasida ta'sis etilgan ensiklopediyaga kiritiladi. U aniq ifodalangan antiklerikal faoliyat, diniy aqidaparastlik va ikkiyuzlamachilikka, cherkov dogmatizmi va cherkovning davlat hamda jamiyatdan ustunligi bilan ajralib turishiga o'z asarlari orqali qarshi chiqadi.

Sharq atamasi Shimoliy Afrikadan Markaziy Osiyoga qadar cho'zilgan muslimon geomadaniy mintaqasini anglatsa, tarixiy matnlar ifodasiga ko'ra ushbu atama xristian diniga mansub sharqliklar va islam diniga mansub zardushtiyalarni o'z ichiga oladi. Maaluf ijodini o'rganuvchi ba'zi bir g'arb tadqiqotchilar mazkur tushunchani ifodalash uchun Pan-Orient[4] terminini ham ishlataldi.

Amin Maaluf tarixiy asarlari mazmun-mohiyatiga o'ziga xos sharqona xususiyatlarni singdiradi. U asarida sharq tarixini yoritishga yo'naltirilgan voqeikning eng mayda tafsilotlariga xos rang-barang mazmunli jihatlarni tasvirlashdan tashqari sharq adabiyoti uchun an'anaviy bo'lgan motiv va syujetlardan ham ijodiy foydalanadi. O'ziga xos ijodkor sifatida Amin Maaluf tarixiy romanida sharq adabiy an'analarini davom ettiradi va ularni mazmun jihatdan o'ziga xos syujet asosida boyitish barobarida o'z ijodida sharq adabiyotida keng tarqalgan an'anaviy va zamonaliviy hikoyachilik strategiyalariga taqlid qiladi.

Amin Maalufning "Samarqand yoxud zulmatda yo'qolgan ziyoni izlab..." asarida yaratgan Umar Xayyom

obrazi sharq xalqlariga xos umumiy xususiyatlarni o'zida jamlagan umumlashma timsol sifatida gavdalananadi. Amin Maalufning "Samarqand yoxud zulmatda qolgan ziyoni izlab..." asari Abdumurod Ko'chiboyev tomonidan fransuz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga 2018 yilda tarjima qilingan. Ushbu tarjima asarning so'z boshisida "Amin Maalufning muazzam Samarqandga go'zal qasidasi", A.Saidov e'tiroficha, Umar Xayyom ruboiylarining o'zbek tiliga tarjimasni, mashhur sharqshunos olim Shoislom Shomuhamedov nomi bilan bog'liq [1]. U birinchilardan bo'lib Umar Xayyomning fors tilidagi 200 ta ruboiysini yig'ib o'zbek va fors tillarida nashr qildirgan. Shuningdek, bugungi kunda O'zbekistonda Umar Xayyom ruboiylari tarjimalari O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol, adabiyotshunos olim va tarjimon Ergash Ochilov tomonidan ham amalga oshirilgan. Oldingi tarjimalar asliyatdan farqli barmoq vaznida yoki nasriy tarjimalar shaklida yaratilgan bo'lsa, bu tarjimalarning afzalligi asliyatga muvofiq aruz vaznida yaratilganligidadir[1] va 2001-2004 yillarda adib Nabi Jaloliddin uning hayotiga bag'ishlangan roman yozdi [3]. Ushbu asarda Umar Xayyom obrazi sharq xalqlari mentaliteti xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqib yoritilgani bois asar qahramoni ruboiylarining dunyoga kelishi ham asar voqeiklari bilan chambarchas bog'langan va, shubhasiz, ularning tarjimasi ham o'zbek tilida qayta yaratilgan, deb ayta olamiz.

Monteskyening "Fors nomalari"da yozuvchi o'zi yashagan davr illatlarini o'tkir qalam ostiga olgan bo'lsa, Amin Maaluf zamona yozuvchi sifatida uzoq o'tmish – tarixga sayohat qiladi va IX-XI asr voqealarini XIX-XX asr bilan bog'liqlikda mahorat bilan ifodalay oladi. Ushbu yozuvchilarining asarlaridagi o'xshash jihatlar, birinchidan, sharq va g'arb dialogi, sharq madaniyati nuqtai nazaridan ochib berilganligi, ikkinchidan, ikkala asar ham kitobxonni chuqur mushohadaga undovchi "dunyo va inson", "borliq va zamon" falsafiy qarashlarini aks ettirgani bilan ahamiyatlidir. Ularning farqli jihatlari esa sharq madaniyatiga yozuvchi pozitsiyasida ko'zga tashlanadi. Bu Monteskyening Yevropa millatiga tegishli, xristian e'tiqodiga ega inson ekanligi bilan belgilansa, Amin Maaluf frankofon yozuvchi, livanlik, muslimon diniga mansubligi bilan bog'liq. Undan tashqari Amin Maalufning "Samarqand yoxud zulmatda yo'qolgan ziyoni izlab..." asari voqealarini, asosan, Samarqand va Eronda, qisman g'arba sodir bo'ladi. Monteskyening "Fors nomalari"dagi voqealar Yevropa davlatlari, xususan, Fransiya sayohatga borgan Forsiy nigohida talqin etiladi.

Ushbu asarlarda ifoda etilgan sharq va g'arb madaniy-falsafiy dialogida ifoda etilgan sharq obrazi tadqiqotimizning keyingi paragraflarida "johillik va insoniylik", "adolat va sitamkorlik", "hokimiyat va davlat", "ezgulik va yovuzlik", "mazlumlik va hurlik", "ma'rifatparvarlik va jaholat" kabi qarama-qarshi fikrlar sabab va oqibat falsafiy kategoriyalari orqali tahlil etiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Умар Хайём. Рубоийлар: форс, ўзбек ва рус тилларида/форс тилидан Ш.Шомухамедов, рус тилидан Н.Стиржков таржималари. – Т: Радуга, 1985.
2. Умар Хайём. Тириклик тилсими/Таржимон, сўз боши ва изохлар муаллифи Эргаш Очилов. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 191 б.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 9-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б.87.
4. Dakroub F. L'Orient d'Amin Maalouf. Berlin6 2011. -P. 6.
5. Said E.W. Orientalism. Paris:1978. - P.55.
6. <https://philosophie.cegeptr.qc.ca/wp-content/documents/Discours-sur-lin%C3%A9galit%C3%A9-A9-1754.pdf>.



Nigina MAVLYANOVA,  
Buxoro davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

BuxDU dotsenti, PhD M.Axmedova taqrizi asosida

## O'ZBEK DRAMATURGIYASI TADRIJI VA UNING TURLI JANRLARIDA BOLALAR OBRAZI TASVIRI

Annotatsiya

O'zbek dramaturgiyasining tadriji rivoji XX asrning boshlariga bog'liq bo'lib, XXI asrda ham davom etdi. Garchi, o'zbek dramaturgiysi cho'qqi nuqtasiga chiqmagan bo'lsa-da, o'zbek dramalari mavzu va qahramonlar ko'lami jihatdan boydir. O'zbek dramaturgiyasida drama, musiqali drama, komediya, fojia (tragediya) janriga mansub sahna asarlari yaratilib, tomoshabinlarga badiiy-estetik zavq berish hamda ularni mehnatsevarlik, qahramonlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. O'zbek bolalar dramalarida bolalarni ilm olishga, o'zaro do'stona yashash, birodarlik, zamonaga munosib ma'rifatli bo'lishiga da'vat etildi.

**Kalit so'zlar:** Drama, bolalar obrazi, tragediya, komediya, hikoya, o'zbek dramaturgiysi.

## РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ И ИЗОБРАЖЕНИЕ ДЕТЕЙ В РАЗЛИЧНЫХ ЕЕ ЖАНРЫХ

Аннотация

Постепенное развитие узбекской драматургии началось в начале 20 века и продолжилось в 21 веке. Хотя узбекская драматургия еще не достигла своего расцвета, узбекские драмы богаты темами и персонажами. В узбекской драматургии созданы сценические произведения, относящиеся к жанрам драмы, музыкальной драмы, комедии, трагедии (трагедии), служащие доставке зрителю художественного и эстетического удовольствия, воспитании в духе трудолюбия, героизма, гуманности, патриотизма и дружбы народов. В узбекских детских драмах детей призывают учиться, жить в дружбе, братстве, становиться просвещенными, достойными временем.

**Ключевые слова:** Драма, детский персонаж, трагедия, комедия, повесть, узбекская драматургия.

## THE DEVELOPMENT OF UZBEK DRAMATURGY AND THE PORTRAYAL OF CHILDREN IN ITS VARIOUS GENRES

Annotation

The gradual development of Uzbek dramaturgy began at the beginning of the 20th century and continued into the 21st century. Although Uzbek dramaturgy has not reached its peak, Uzbek dramas are rich in themes and characters. In the Uzbek dramaturgy, stage works belonging to the genres of drama, musical drama, comedy, tragedy (tragedy) were created, which served to give the audience artistic and aesthetic pleasure and educate them in the spirit of hard work, heroism, humanity, patriotism, and friendship of peoples. In Uzbek children's dramas, children were encouraged to learn, live in friendship, brotherhood, and become enlightened worthy of the times.

**Key words:** Drama, children's character, tragedy, comedy, story, Uzbek dramaturgy

**Kirish.** O'zbek adabiyotida dramaturgiya janrinining paydo bo'lishi jadidchilik harakati bilan bog'langan bo'lib, milliy dramaturgiya XX asrning 10-yillarda paydo bo'ldi va 20-yillardayoq ancha rivojlandi. Hamza Hakimzodaning "Boy ila xizmatchi", "Maysaraning ishi", "Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi" singari sahna asarlari o'zbek dramaturgiysi rivojiga katta hissa qo'shdi. Fitrat "Chin sevish", "Hind ixtilochilar", "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyon'i", "Arslon" kabi dramatik asarlari orqali mamlakat hayotiga taalluqli bo'lgan rang-barang mavzularini yoritgan iste'dodli dramaturlardan biri edi. XX asrning 20-yillarda Komil Yashin ("Kar quloq", "Teng tengi bilan", "Lolaxon" dramalari), Ziyo Said, Xurshid, G'ulom Zafariy kabi yoshilar ham dramaturgiya sohasiga o'z hissalarini qo'shdilar va ular dramalarining asosiy mavzusi eski urf-odatlar va o'sha davrning muhim g'oyalarini ifodalash edi. G'ulom Zafariyning "Halima" musiqali dramasida badavlat oila farzandi bo'lgan Halima va kambag'al kosib yigit Ne'matning sevgisi ijtimoiy tengsizlik va eski urf-odatlarning to'sqinligi tufayli ikki yoshning taqdirlari fojiali yakun topganini ta'sirli tarzda namoyish etadi. "Halima" XX asr 20-yillarining mashhur dramalaridan biri bo'lib, u musiqali drama janrinining o'zbek adabiyotidagi dastlabki namunalardan hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** 30-yillar dramaturgiysi o'zbek adabiyotining jiddiy yutug'i bo'lib, bu davrda yaratilgan ko'pgina asarlar tomoshabinlarga badiiy-estetik zavq berish hamda ularni mehnatsevarlik, qahramonlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalashga xizmat qildi, garchi ijtimoiy hayotda haqsizlik va adolatsizliklar, jabr-zulmlar bo'lib turgan bo'lsa-da, 30-yillarda o'zbek adabiyoti o'z tarixining yangi bosqichiga, ya'ni zamonaviy mavzular va zamondoshlar obrazini yaratish davriga ko'tarildi.

XX asr 70-80 yillarda zamonaviy axloqiy muammo-lardan kelib chiqadigan va bolalarning jamiyatdagi o'rni, ular ishtirokida sodir bo'ladigan muammoviy vaziyatlarni tasvirlovchi ko'plab asarlar yaratildi. Uyg'unning "Parvoz", O'.Umarbekovning "Qiyomat qarz", "O'z xohishiga ko'ra", M.Karimovning "Intilganga tole yor", "Insonlikka nomzod", M.Boboyevning "O'ttiz Yoshililar", "Gurung", Sharof Boshbekovning "Toshkentlik mehmon", "Tikansiz tipratikanlar", "Taqdir eshigi" kabi dramalarida mualliflar hayot ziddiyatlari va zamonaviy odamlar xarakterining yangi qirralarini ochib berishdi.

XX asr oxiri o'zbek bolalar dramaturgiyasining shakllana boshlagani bilan alohida ajralib turadi. G'ulom Zafariyning 20-yillarda ijod etgan bir pardali yoki bir ko'rinishli kichik p'yesalari bolalar dramaturgiyasining dastlabki namunalari sifatida qayd etiladi. Bu haqda

M.Olimova, B.Imomov kabi adabiyotshunos olimlar quyidagicha fikr bildirishadi: “U 20-yillarning dastlabki kunlaridan boshlab, bolalar uchun kichik-kichik sahna asarlari yaratishga kirishdi. Adib ularda xalqchil kuy-qo'shiqlardan, bolalar olamida tarqalgan o'yin usullaridan mo'l-ko'l foydalandi. Bolalarning farahli tabiat quchog'ida shod-xurram yashashlarini sahnayiv usullar yordamida jonlantirdi”[1]. G'ulom Zafariy “Tilak” p'yesasida bolalarni ilm olishga, o'zaro do'stona yashash, birodarlik, zamonaga munosib ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi. Muallif asar qahramoni Murodning o'y-fikrlarini ochishda, uni individuallashtirishda sirli-romantik usullarni qo'llab, sahnayivlikka, ta'sirchanlikka erishgan va o'zbek bolalar dramaturgiyasining 1920-80-yillardagi namunalari va xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi. G'Zafariyning 1915-1926-yillarda yozgan “Bahor”, “Binafsha”, “Quyon”, “Rahimli shogird”, “Mozorlikda”, “Erk bolalari”, “Tatimboy ota” singari bir pardali operettalari bolalar va yoshlar hayotidan olingen bo'lib, ular o'zbek adabiyoti tarixida bolalar musiqali dramasining dastlabki namunalari ekanligini professor N.Karimov alohida ta'kidlaydi[7].

O'zbek dramaturgiyasining yorqin namoyondalaridan biri A.Obidjon ham dramaturgiya rivojiga folklor orqali murojaat qilib, “Pahlavonning o'g'irlanishi”, “Qo'ng'iroqli aldoqchi”, “Qorinbotir” singari zamonaviy bolalar ertak-yesalari yaratdi. Bu jihatdan u Po'lat Mo'minning “Qovoqvoy bilan Chanoqboy”, “Sugatoy va Konfetboy”, “Ona bolam deydi, bola onam deydi”, G'ani Jahongirovning “Ajoyib urug”, O.Tolibov va I.Ahmedovlarning “G'ayrat va g'aflat”, Ergash Raimovning “Qorboboning yangi yil sarguzashtlari” va Rahim Farhodiyning “O'tkir shoxli buqacha” singari ertak p'yesalarida ko'ringan salbiy xarakterdagi stilizatsiyalash usulini yanada chuqurlashtirdi va bu an'anuning hayotiyligini ta'minladi. Bu ertak-p'yesalarda nafaqat sujet qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatlarda, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviriy vositalar yetakchi taomilga aylangan[11].

Shukur Sa'dulla folklor materiallaridan ijodiy foydalanib, bir nechta dramatik asarlar ham yozdi. Uning “Yoriltosh” musiqali ertak-dramasi (1937) va opera librettosi (1967), “Chol bilan bo'ri” kichik she'riy p'yesasi (1967), “Zubayda” (1969) ertak-dramasi o'zbek bolalar dramaturgiyasining yuksalishida hissa qo'sha oldi. “Yoriltosh” – Shukur Sa'dullaning o'smirlar hayotini tasvirlagan va shu yoshdagagi tomoshabinlarga mo'ljallangan musiqali ertak-dramadir. Drama “Yoriltosh” ertagi syujetini stilizatsiya qilish bilangina cheklanmasdan, shu ertakda tasvirlangan o'gaylik motivlari ta'sirida yozilgan. Dramaturg uni uch marta qayta ishlab, o'zbek bolalar dramaturgiyasining yorqin namunasiga aylantira oldi. Dramaturg xalq ertagini badiiy jihatdan to'liq qayta ishlab, ertakning nasriy qismini dramatik syujet bilan boyitdi. Faqat Gulnoraning toshga, Oymomaning opasiga yolvorib aytgan so'zları she'riy ifodalangan bo'lsa, ertak-drama esa ko'proq she'rlar asosida tuzilgan. U to'rt parda, olti ko'rinishli bo'lib, ham nasr, ham nazmdan tashkil topgan, unda qahramonlarning ichki kechinmalari, orzu-havaslari, tuyg'ulari she'r orqali beriladi. Sahna Gulnoraning bog' etagida, boshida gulchambar, ashula ayтиб yurgan ko'rinishi bilan boshlanadi:

Erkin-erkin yursam men,  
Davri-davron sursam men,  
Baxtli kunlar ko'rsam men,  
Qandi-navvot so'rsam men.  
Bo'lsa chambar boshimda,  
Xuddi guldek yoshimda,  
Bulbul bo'lsa qoshimda,  
Shakar bo'lsa oshimda...

Shukur Sa'dulla bu asarni musiqiy ertak-dramaga moslab yozgani sababli, unda shunga o'xhash shе'riy matnlar

ko'p uchraydi. O'gay ona va Gulnora o'rtasidagi ziddiyatlar barcha o'gaylik motividagi ertaklarga o'xshab ketadi: sho'rlik qizga zulm qilinadi, uyning barcha yumushi uning bo'ynida bo'ladi va xo'rlanadi, Gulnora shu zulmlarini kuylarida, qo'shiqlarida aks ettiradi.

Shukur Sa'dullaning xalq og`zaki ijodining boy merosidan unumli foydalana olgan, u xalq ijodiga xos motivlarni ham ertak-dramada o'rinni ifodalagan. Xullas, Shukur Sa'dulla ham shoir, ham yozuvchi, ham dramaturg, ham tarjimon, ham folklorshunos sifatida bolalarga qirqdan ortiq kitob hadya etib, o'zbek bolalar adabiyoti xazinasini boyitgan professional ijodkordir[11].

Dramalarda bola qahramonlarni asosiy yoki ikkinchi darajali qahramon sifatida keltirishda dramaturg bolaning yoshi, uning psixologik holati va qiziqishlariga e'tibor berishi zarur. Adabiyotda turli yosh davrlari ruhiyatining bir-biridan sezilarli farqini asoslab berish uchun psixologiyaga murojaat qilish kerak. Chaqaloqlik, ilk bolalik, matabgacha ta'lim yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, sifatlarga ega bo'lib, ular bir-biridan odamning xronologik yosh ko'rsatkichlariga ko'ra emas, balki shu davrda inson ruhiyatida kechadigan hodisalar, ro'y beradigan o'zgarishlar uning ruhiyatidagi umumiy qonuniyatlarga binoan ham farqlanishi ta'kidlangan. Bolalar qalbini badiiy taddiq etish, bolalikni badiiyat ko'zgusida butun borlig'icha aks ettirish, bola dunyoqarashi, botiniy va zohiriy takomillashuvi hamda ijtimoiy-axloqiy jihatdan shakllanish jihatlarini ko'rsatish uchun dramaturg qahramonning yosh xususiyatlari, ruhiyati, saviyasi va qiziqishlarini nazarda tutishni talab etadi. Adabiyotda bola qahramonlar quyidagicha bo'linadi:

- 1) 0 yoshdan 2 yoshgacha – chaqaloqlik davri
- 2) 2 yoshdan 6-7-yoshgacha – matabgacha tarbiya yoshdagagi bolalar;
- 3) 7-yoshdan 11-12 yoshgacha – kichik maktab yoshdagagi bolalar;
- 4) 12-13 yoshdan 16-17 yoshgacha – o'smirlar;
- 5) 18 yoshdan katta, lekin bolalarcha tabiatni saqlanib qolgan yoshi kattalarni tashkil qiladi.

O'zbek dramalarining asosiy yutug'i dramaturglar bir necha yoshdagagi bola, o'smir obrazlarini asarda tasvirlab, ularning yosh farqlarini nutqi, munosabatlari, dialog, monologlarida ifodalagan.

Masalan, Hoji Muinning “Eski mакtab, yangi mакtab” 3 pardali teatr risolasida Bo'ri (“Chor kitob”) 14 yashar o'spirin bola, Ortuq (“Xo'ja Xofiz”) 16 yashar o'smir, Salim (“Xaftiyak”) 12 yashar bola, Melik (“Axmad”) 10 yasharlik bola obrazlari mavjud. Bundan tashqari, Ahmadjon, Abdulla, Ismoil, Usmon kabi mакtab talabalari ham qatnashgan. Dramaturgning mahorati o'smirlik ham jismoniy, ham ma'naviy-axloqiy balog'atga yetishuv davri ekanligini qahramonlar xatti-harakati orqali ko'rsatishidadir.

Dramatik tur o'zbek adabiyotiga kirib kelganiga bir asr bo'ldi va yuz yillik tarix va tajribaga ega bo'lgan o'zbek dramaturgiysi boshqa adabiy turlardan sustroq rivojlanishini, ayniqsa XX asrning 70-80 yillariga va mustaqillikning dastlabki yillarida sezish mumkin edi. Bunday sustakashlikning muayyan ob'yekti va sub'yekti sabablari ham bor. Shuni ta'kidlash o'rinniki, o'zbek adabiyotida faqat dramaturgiya bilan shug'llanadigan maxsus ijodkorlar juda kam. Borlari ham tezda shuhrat topib kashfiyat darajasidagi sahna asarlari yaratib, teatrlarning doimiy hamkoriga aylanib ketolmaydilar. Shunday talantli drama yaratilib, sahnalashtirilsa ham unga tomoshabinni jaib etish muammosi tug'iladi. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti tufayli dramaturg o'z asari bilan boyib ketayotgani yo'q. Shunga qaramay so'nggi 20 yil ichida drama yaratilmay ham qolmadi, sahna bo'shab ham qolmadi, ozmiko'pmi tomoshabin teatrga ham kirib turdi. Bu davrda zamonaviy mavzularda ham ko'plab dramalar dunyoga keldi,

Erkin Xushvaqtov, Salohiddin Sirojiddinov, Usmon Azim, Sanjarali Imomov, Xoliq Xursandov, Nasrullo Qobil, Komil Avaz Toir Yunusovlar samarali ijod qildilar. E.Xushvaqtovning O'zbekiston milliy teatrida birin-ketin sahnalashtirilgan "Chimildiq", "Qalliq o'yin", "Qirmizi olma", "Andishali kelinchak" kabi dramalariga iloji boricha o'zbek xalqining azaldan yashab kelgan an'analari ruhini, mohiyatini singdirishga, ularni yangicha an'analalar bilan boyitishga, yosh avlodning munosabatini oshirishga urinadi[12].

**Xulosa.** O'zbek dramalarining asosiy yutug'i dramaturglar bir necha yoshdag'i bola, o'smir obratzalarini

asarda tasvirlab, ularning yosh farqlarini nutqi, munosabatlari, dialog, monologlarida ifodalagan.

Adabiyotda bola qahramonlar quyidagicha bo'linadi:

1) 0 yoshdan 2 yoshgacha – chaqaloqlik davri

2) 2 yoshdan 6-7-yoshgacha – maktabgacha tarbiya yoshdag'i bolalar;

3) 7-yoshdan 11-12 yoshgacha – kichik maktab yoshdag'i bolalar;

4) 12-13 yoshdan 16-17 yoshgacha – o'smirlar;

5) 18 yoshdan katta, lekin bolalarcha tabiatli saqlanib qolgan yoshi kattalarni tashkil qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. B.Imomov, Q.Jo'rayev, H.Hakimova. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995. –B. 205.
2. Bahodirovna, A. M. THE CONCEPT OF ALTERNATIVE IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 169.
3. Bakhodirovna, A. M. (2015). Effectiveness of teaching vocabulary through short stories. World science, (1 (1)), 55-57.
4. Bowlby R. A Child of One's Own: Parental Stories, 2013.
5. Carol G.Lynch-Brown Carl M.Tomlinson. Essentials of Children's Literature. –
6. Edinburgh Gate. Pearson Education Limited, 2014. – P.17.
7. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.Toshkent, "O'zbekiston", 2008. –B.167.
8. Kolve V. A. The Play Called Corpus Christi, 1966.
9. Konesko P. M. Representing Childhood: the Social, Historical, and Theatrical Significance of the Child on Stage, 2013
10. M.Y.Kaxarova. Ingliz va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar ruhiyati tasviri. f.f.f.d.ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. Buxoro, 2023.
11. O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilova. Bolalar adabiyoti. Darslik,Buxoro. – 2018.
12. Ulug'ova N.B. O'zbek adabiyotida dramaturgiya. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 5 ISSN 2181-1784, 2022. –P.1087-1092.



Feruzabonu MANNONOVA,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi  
E-mail: feruzamannonova@gmail.com

PhD, dotsent, R.Karimov taqrizi asosida

## TASAVVUF ILMI VA MAHMUD SHABISTARIYNING SO'FIY ADABIYOTIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqola tasavvuf adabiyoti va so'fiylik she'riyati haqida to'laqonli ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada tasavvuf ilming kelib chiqishi, falsafiy asoslari, diniy ildizlari va tarqalish ko'lamenti ham bahs etadi. Tasavvuf ta'limotining ilk arab va ajam namoyondalar Hasan basriy, Robiya Adaviya, G'azzoliydan tortib, forsiy Jaloliddin Rumiy Mahmud Shabistariy gacha g'oyaviy va badiiy o'xshashlik va farqli tomonlari bahs etilgan. Jumladan, tasavvufning ham adabiyot ham adabiyot ham teologiyaga bog'liq va bir birdan ozuqa oluvchi ilm ekanligi maqola atroficha yoritilgan. Hususan, muallif Shayx Mahmud Shabistariyning asarlari va masnaviylariga alohida to'xtab o'tib, "Saodatnama" va "Gulshani Roz" asarlarini qisqacha adabiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf ta'limoti, islom falsafasi, kamol ilmi, she'riyat, Gulshani Roz, masnaviy.

## СУФИЙСКАЯ НАУКА И МЕСТО МАХМУДА ШАБИСТАРИ В СУФИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В этой статье представлена полная информация о суфийской литературе и суфийской поэзии. Также в статье рассматриваются происхождение, философские основы, религиозные корни и сфера применения науки суфизма. Обсуждаются идеально-художественные сходства и различия ранних арабских и начинающих представителей суфизма - от Хасана Басри, Рабии Адавии, Газали до перса Джалауддина Руми Махмуда Шабистари. В частности, в статье подробно рассказывается о том, что суфизм, литература и литература зависят от теологии и учатся друг у друга. В частности, отдельно анализируются произведения и маснависы автора шейха Махмуда Шабистари, а также кратко анализируются произведения «Саодатнаме» и «Гульшани Роз».

**Ключевые слова:** Учение суфизма, исламская философия, познание совершенства, поэзия, Гульшани Раз, Маснави.

## SUFISM AND THE PLACE OF MAHMUD SHABISTARI IN SUFI LITERATURE

Annotation

This article provides complete information about Sufi literature and Sufi poetry. Also, the article discusses the origin, philosophical foundations, religious roots and scope of the science of Sufism. The ideological and artistic similarities and differences of the early Arab and novice representatives of Sufism, from Hasan Basri, Rabiya Adaviya, Ghazali to the Persian Jalaluddin Rumi Mahmud Shabistari, are discussed. In particular, the article details the fact that Sufism, literature, and literature depend on theology and learn from each other. In particular, the works and masnavis of the author Sheikh Mahmud Shabistari are analyzed separately, and the works of "Saodatnama" and "Gulshani Raz" are briefly analyzed.

**Key words:** Sufism teaching, Islamic philosophy, knowledge of perfection, poetry, Gulshani Raz, Masnavi.

**Kirish.** Tarixdan malumki, islom dinining yuqori tamaddun darajasiga ega bo`lgan mintaqalarga yoyilishi bu yerlarda ustuvor bo`lgan mistik-falsafiy qarashlarning islom mafkurasi bilan to `qnashuvini keltirib chiqqargan. Bunday tashqi ta'sir dastlab, umaviylar hukmron bo`lgan Suriya hududida yashovchi mistik xristianlar tomonidan ko'rsatildi. Abbosiylar davrida poytaxtning Damashqdan Bag'dodga ko'chirilishi va Ma'mun akademiyasining shakllanishi tashqi ta'sirni yanada oshirdi. Buning ustiga, bu yerda Hind, Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining ko'pmingyillik diniy-mistik qarashlariga duch kelindi. Arab bo`Imagan (ajam) xalqlarning islomni qabul qilishi va natijada bu mintaqalarda mavjud mistik tasawurlarning islomlashuvi ham islom dunyosida yangicha tafakkur, yangicha qarashlarni paydo qildi.[2]

Ularning yoyilishi islomiy falsafaning ilk ko'rinishi bo`lgan Kalom ilmining shakllanishi bilan bog'liq. Kalom ilmi — ilohiyotga taalluqli ilm. Unda faylasuflarga xos aqly-mantiqiy tafakkur va tajriba usuli, shuningdek, shariat asoslanadigan dalil-hujjatlar, ya'ni Qur'oni karim va hadisi shariflar uyg'un holda keladi. Har bir mulohaza din asoslari ustiga quriladi. Kalom bahs yuritish vositasida olib boriladi. Kalom ilmi sharofati bilan jamiyatda turli qarashlar va bidadatlarga qarshi kurash keng rivojlana boshladi [8]. Biroq

Moturudiylar G'azzoliylar davriga kelib Kalom ilmi qamrovi o`z ornini tasavvufga bera boshladı. Tasavvuf uzini ham falsafiy ham islomiy g'oyalarini mujassamlashtirganligi va universalligi barcha mafkuraviy nizolarga chek qo`ydi. Demak, shundan ma'lumki, tasavvuf ikki yo`nalishda falsafiy va diniy ya`ni kalom ilmi yo`nalishi rivojlandi. Tasavvuf eng keng tarqalgan hududlar Markaziy Osiya, Eron va Hindiston hisoblanadi.[3]

Ilk sufiylar, asosan, din olimlari va mulkdorlar tabaqasi vakillari orasidan chiqqan. Ibrohim Adham qissasi bunga dalildir. Sufiylikning poydevorini qurgan mashhur zohidlarning bir nechalari tarixiy kitoblarda qayd etilgandir. Jumladan, VII-VIII asrlarda yashagan Ja'far Sodiq (vaf.767), Abu Hoshim as-Sufiy (vaf.767), Shaqiq Balxiy (vaf.770), Sufyon Savriy (vaf.777), Abdulloh ibn Muborak (797), Fu zayl ibn Ayoz (vaf.802) kabi din olimlarini keltirish mumkin.[2]

**Nazariy qism.** Tasavvuf dunyodagi turli xalqlarning ijtimoiy, falasafiy, badiiy tafakkuridan keng o`rin egallagan va keng tarmoqli murakkab talimatdir. Bu ta'limotni rivojiga va mustahkan o`rin egallashda Bibi Robiya, Abu Hamid G'azzoliy, Ibn Arabiy, Fariddidun Attor, Jaloloddin Rumiy, Abu Bakir Shibliy, Mansur Halloj, Hoja Ahmad Yassaviy,

Ho'ja Naqshbandiy va Mahmud Shabistariy kabi mutaffakir va shoirlarning xizmati kattadir. Hususan, Sh. Sirojiddinovning fikriga ko'ra, ilk tasavvuf namoyondasi deb Hasan Basriy deb tilgan olingen va ilk zohida esa Robiya Adaviyadir. Biroq Basriy va Adaviyalarni fikrlarni bir biridan ancha farqli bolib, Basriy shariat yordamida komilllikka erishish va poklanish sufiylirkning ilk sharti deb hisoblasa, Robiya Adaviya Ollohga bo'lgan muhabbat baridan ustunligini ta'kidlaydi va bu barcha ilmlardan ustunligi barcha ezgu amallar Allohga muhabbat sababli amalga oshirilish, bunda dozaxdan qo'rquv yohud jannatdan mosuvvolik qorquvi bundan ustun bo'lmaslik zarurligi go'yalarini o'z she'rlari va qo'shiqlarida namoyon etadi. Tasavvuf ilmi dinshunoslik, falsafa va psixologiya kabi sohalarni bilan bir qatorda ilk navbatda adabiyot bilan bog'ligi va adabiyotning tasavvufida o'rni mislsiz bo'lgan. Tasavvuf adabiyoti turli tillardagi tasavvuf g'oyalarini ifodalovchi va targ'ib qiluvchi asarlardan iborat. Tasavvuf o'rta asr adabiyotiga, ayniqsa arab, fors, turkiy va urdu tillarida yozilgan she'riyatga muhim ta'sir ko'rsatdi. So'fiylik ta'limotlari va tashkilotlari adabiyotga o'sha davr saroy she'riyatidan ko'ra ko'proq erkinlik bergen. So'fiyler o'z adabiyotlarida xalq og'zaki ijodi unsurlarini o'zlashtirganlar.[6]

Nizomiy, Navoiy, Hofiz, Sam'oniy, Jomiy ijodi ozmiko'pmi so'fiylik bilan bog'liq edi. Sanoiy (vafotи 1140-yil), Attor (1119-yilda tug'ilgan), Rumiy (1273-yilda vafot etgan) kabi so'fiy shoirlarning baytida ilohiy adolatga urg'u berib, zulmga qarshi norozilik bildirilgan, yovuz hukmdorlar, diniy aqidaparastlik, ochko'zlik va ikkiyuzlamachilik tanqid qilingan. pravoslav musulmon ruhoniylarining. Bu yozuvchilar qo'llagan she'riy shakkalar xalq qo'shig'i, masal va ertakga o'xshash edi.

Tasavvuf and Sufiy she'riyati haqida rus olimi I. M. Petrushevskiy va Bertels ilmiy izlanishlar olib berilgan. Shuningdek. Petrushevskiyning fikriga ko'ra, "Ingliz sharqshunosi R. Nikolson XI asrgacha bo'lgan davrgacha tasavvuf ya'ni so'fizm tushunchasiga yetmish sakkiz ma'nodagi talqini aniqlangan" [4].

Islom dunyosida birinchisi so'fiyler «Basra» va «Kufa» shaharlarida topildilar. Bu shaharlarda musulmonlar bilan birqalikda yahudiylar, masihiyalar va majusiyalar (olovga sig'inuvchilar) ham xilma-xil aqidalar bilan yashardilar. Albatta zamon o'tishi bilan turli fikrlar va nazariyalar bir-biriga ta'sir qilmasdan qolmasdi. [1].

Tasavvuf Sharq ma'naviyati tarixida muhim o'rinni egallab kelgan tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta'lomit bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrati Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon razyallohu anhu zamonlarida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfalar bilan qarindoshurug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'ladi. Ummaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi. Ya'ni diniy mashg'ulotlar, Xudo yo'lidagi toat-ibodat o'rnimi dunyoviy ishlari, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlari, boyliklardan ustun qo'yan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular orasida hadis to'plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo'lib, uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlangan bo'lsalar, ikkinchi qismi esa, qanoat va zuhdni («zuhd» so'zidan «zohid» so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvatdorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanganlar. Kufa, Bag'dod, Basra

shaharlarida tarkidunyo qilgan zohid-lar ko'p edi, aytish kerakki, ularning obro'-e'tibori ham xalq orasida katta bo'lgan. Chunonchi, Uvays Qaraniy (VII asr), Hasan Basriy (642–728) kabi yirik so'fiyler aslida zohid kishilar edilar, shuning uchun bu zotlarning nomi shayxlar va so'fiyler haqidagi tazkiralarda zohid sifatida tilga olinadi, ba'zi mualliflar esa ularni so'fiyler qatoriga qo'shmaganlar ham [3].

**Metodologiya.** Ibn Arabiyning ta'kidlashicha, sufiylar botinan ham, zohiran ham ilohiy ahloqdir. Shuning uchun, bu ta'lomit nafs "manzil"larining sirlariga alohida e'tibor bilan qarashga o'rgatadi. Tasavvuf faqat insoniy, go'zal va hur hayotdagи tiriqlikning yoqlaydi. Shuning uchun uni ahloqning husni deb ta'riflashgan. Tasavvuf ahli – sahovat, futuvvat, qanoat, diyonat, sayohat va ishorat ahli. Bular inson hulqidagi barcha noqislik, jamiki yomonliklar bilan kurashuvchidir. "Borg'il sen ko'ngil uyingni orasta qil. Mashuqaning kirib kelishi uchun joy tuzat, qachon sen chiqsang, ushanda u kiradi. Va u go'zalligini senga sensiz zohir qiladi" – deydi Mahmud Shabistariy. Bu g'oyaviy davattasavvuf bilan bog'langan barcha shoirlarning she'rlarini ichdan nurlantirib turadi. [3]

Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston"ida yozilishicha, Shayx Abusaid " Tasavvuf nima?" deb so'raganlarda "Boshingda ne bo'lsa chiqarib tashlash, qo'lingandan neki bor qo'lidan chiqazish, boshqalaradan senga nima ozor yetsa ranjimaslik" degan ekan. [5]

Bugungi kunda ko'hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy meroсимизга e'tibor kuchayib, ulug' ajodolarimiz hayoti va ijodini o'rganish hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ana shunday buyuklardan biri Shayx Sa'diddin Mahmud bin Aminiddin Abdulkarim bin Yahyo Shabustariy Sharq tasavvuf ta'lomitining mashhur ulamolaridan bo'lib, uning yozib qoldirgan ilmiy-adabiy merozi katta ta'limirbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan qadrlanadi. Shoir va faylasuf, islom ta'lomitining yetuk namoyandasidi Mahmud Shabustariy taxminan 1289-yilda Tabriz yaqinidagi Shabustar qishlog'ida tug'ilgan, shimoli-g'arbdagi kichik Shabistar qishlog'i tug'ilgan. Bu qishloq Hozirgi Eronning shariqiy Ozarbayjonga chegaradosh qismida joylashgan Urumiya ko'lidan bir necha mil ichkarida joylashgan Tabriz shaxrida. Uning hayoti, xotini, bolalari yoki oila ajoddolari haqida deyarli hech narsa ma'lum emas. O'zining e'tirofiga ko'ra, umrining ko'p yillarini bilim olish maqsadida Misr, Turkiya, Arabiston va boshqa mamlakatlarda sayohat qilgan. Biroq, u Tabrizning boshqa shoir va mutasavviflarga tez-tez murojaat qilgan va o'zining "Saodatnoma"sida (Saodat kitobida) ko'rinish turibdiki, umrining ko'p qismi Mo'g'ul Forsidagi fors adabiy madaniyati va tasavvufining asosiy markazlaridan biri bo'lgan Tabrizda o'tgan [6]. U Fors tilida ijod qilgan va o'z qarashlari bilan yaqin va o'rta Sharq hududlarida ijtimoiy-ma'rifiy fikrlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Mahmud Shabustariyning uch ming baytni tashkil etuvchi safarlarini bayoni va muloqotlari tasviridan iborat "Saodatnoma", "Risolai shohid" ("Shohid haqida risola"), "Mir'ot ulmahaqqiqiyin" ("Oriflar ko'zgusi"), "Minhoj ul-obidin" ("Taqvodorlar yo'li"), "Gulshani roz" (Sirlar gulshani) nomli asarlari mavjud [8]. Shabustariy o'z davrining mashhur ilohiyot vakili va so'fiylik ta'lomitining hurmat qozongan shayxi sifatida, o'zining xonaqohida yetarli darajada muridlari, tinglovchilariga ega bo'lgan.

Mashxur yozuvchi va sharqshunos Sodik Xidoyat «Riyozal-orifin» kitobida Paxlavon Maxmud «Kanzul xakoyik»ni taxminan 1319—1320 yillarda yozganligini kayd etgan. Olim masnaviyining Shabustariyga 143 www.kitob.uz saytida elektron kitoblar, audio ertaklar, darsliklar mavjud nisbat berilishiga tuxtalib, «bu masnaviy, albatga Paxlavon Maxmud asaridir. Zeroiki «Gulshani roz»

«Kanzul xakoyik»dan un yetti yil keyin yezilgan» deb maxsus ta'kidlagan [4].

O'rta asr Sharq xalqlari ma'naviy merosi bo'lmish Mahmud Shabustariy Ibn al-Arabiyning izdoshi bo'lib, uning barcha she'riy va nasriy asarlarida mislsiz istedod va metafizik penetratsiya murakkab dilemmalarni sintez qilishda aforistik mahorat bilan birlashtirilgan Islom teologik va teosofik tafakkuri bor. Shabistariy o'z davrining mashhur ilohiyot vakili va so'fiylik ta'limotining hurmat qozongan shayxi bo'lib, uning "Gulshani roz" masnaviysi musulmon madaniyatining qimmatli xazinasi sanaladi. Asar kichik hajmli, mazmunan keng. Unda islom dini va XIII-XIV asrga tegishli so'fiylik ta'limoti qoidalari hamda asoslari belgilangan. Asar didaktik xarakterga ega bo'lib, o'git, pand-nasihatlardan, ya'ni Amir Husayniyning savollariga Mahmud Shabustariyning javobi shaklida qurilgan [1].

U o'rta asrlardagi fors so'fiylari bilan tengsizdir mahsulining qisqaligi va mazmunining chuqurligi bilan shoir. Shabistariy Sirli bog'ida ekan. Ibn al-Arabiyl ta'limotini hech qanday cheksiz qabul qiladi, "Saodatnoma"da esa u ehtiyyotkorroqdir. va asosan al-G'azzoliya (vaf. 1111 yil) tayanib, unga nisbatan muayyan e'tirozlarni bildiradi. Uning diniy orientatsiya (shuningdek, uning zamondoshi Kubroviy ustozlari - Nuriddinning dunyoqarashi) Isfarayniy, Semmoniy va Mag'ribiy (vaf. 810/1408) - Kubroviy so'fiylik ordeni aks ettirilgan. tegishli bo'lgandir. U falsafiy an'anaga sodiq qolgan, unga so'fiylar, ilohiyotchilar va faylasuflar ham; bilinga bir yoki bir kishi tomonidan erishish mumkinligini ta'kidlaydigan an'ana uch vostoning birikmasi: (1) vahiy (vahiy), (2) aql (aql) va (3) kashf (ochish), teologlar, faylasuflar va so'fiylar tomonidan qo'llanilgan usullarga mos keladi. In XIV asrdan XX asrgacha bo'lgan keyingi fors tasavvuf faylasuflarining asarlar; masalan, Sa'iniddin Turkah (Ibn Turka) Isfahoniy (vafot 830/1427), Mulla Sadra (vafot 1050/1640), Abdurazzoq Lohijiy (vaf. 1072 / 1661—2), Mulla Abdulloh Zunuziy (vaf. 1257 / 1841), Hodiy Sabzvoriy. (vaf. 1295/1878), Shabistariyning "Gulshan-i raz" misralari tez-tez zikr qilingan. tushunchalar va ontologiya, etika yoki gnoseologijaning nozik nuqtalari haqidagi fikrlarini qamrab oladi. Shuningdek, Shabistariyning boshqa yagona so'fiy she'riy dostoni "Saodatnoma" ("Saodat kitobi") bo'lib, u asosan asardir. kalom ilmiga tegishli bo'lgan mavzularni ataylab Islom falsafiy teologiyasi she'riylashtirishga bag'ishlangan. U "Haqq al-yaqin" nomli yagona teosofik risola yaratdi. sakkiz bobga bo'lingan (abvob, "darvozalar", jannatning sakkiz eshigiga mos keladi), har biri uzunligi ikki dan besh sahifagacha. Bu "Gates" o'z navbatida baytlarga bo'linadi matn sarlavhali alohida lemmasi bo'lgan paragraflar. Odatta ko'rsatilgan lemmatalarning ba'zilari o'z ichiga oladi Haqiqat (haqiqat) - Tasvir (tamthil) - Nota Bene (tabura) - Xulosa (far') - Xulosa (natija) - Nozik bir sir (sirr-i nazuk) - Tabiiy oqibat (lazima) - Foydali taklif (foyida) - Noziklik (daqiqa). Shunday qilib, kitob kichik qismalgara bo'lingan, ularning ba'zilari faqat qisqa falsafiy fikrni yoki metafizik haqiqatni oolib beruvchi o'lchamdag'i paragraf, keyin Qur'onдан iqtibos keltiriladi. "Saodatnoma" ham, "Haqq al-yaqin" ham Yevropa tiliga tarjima qilinmagan til [6].

Sh. Sirojiddinovning "Kalom ilmi" kitobida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Alloh tajalliyi cheksiz imkonga ega,

#### ADABIYOTLAR

1. Abdulhakim Sha'riy Jo`zjoniy. Tasavvuf va Inson. Adolat. 2001.
2. Bahman Solati. O'rta Asr Fors Adabiyotining Qisqa Talmiqi. 2017.
3. Hamidullo Boltaboyev. Islom Tasavvufi Manbalari. O'qituvchi. 2005
4. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Sharq. 2004.
5. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va She'riyat. G'afur G'ulom. 1991.
6. Leonard Lewisohn. The Biographical Encyclopedia of Islamic Philosophy, 15 July 2006, pp. 260-262.
7. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Movaraunnahr – O'zbekiston. 2009.
8. Sirojiddinov Sh. Islom falsafasiga kirish: Kalom Ilmi. Iqtisod- Moliya. 2008

shuning uchun bu olam turfa xilligi ham cheksiz. Shabistariy 1311-yilda "Gulzori asror degan doston yozib, 18 ta savolga javob berganda, shu masalalarni she'riy bayon qilgan. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida ham bu haqida fikr yuritilgan. Ibn al-Arabiyl olamning ilohiy vujudga o'xshashligini tan olmaydiganlarni jiddiy tanqid qiladi". Ma'lumotlar bir muncha farqli bolishiga qaramasdan, asos birxilligi va mazmun o'zgarmaganligi, farqlanish faqat shaklda ekanligi ko'rishimiz mumkin [8].

Ikkita tasavvufiy she'riyat kitobi va bitta teologik risola muallifi Shabistariy dekabr oyida yaratgan 1000 misrali so'fiylik she'ri "Gulshan-i raz" (Sirlar bog'i) bilan shuhrat qozongan. Asar 1317 qofiyali baytlarda baytlardan iborat. Bu she'riy asar tasavvuf metafizikasining turli nozikliklari haqida so'fiyga berilgan o'n ettita savolga javob shaklida yo'zilgan.

O'z davrining yana bir buyuk so'fiysi Rukniddin Husayniy Xaraviy (vaf. 718 h.) 1318 yil). Juda ramziy tilda tuzilgan va bir necha asrlar leksikasi asosida yaratilgan Fors ramziy she'riyati, "Sirlar bog'i" turli mavzularda so'fiylarning dikta sini bayon qiladi. Ular: "Fikr" (fikr), "Ruh" (nafs), "Ilm" (ma'rifat), ko'pligi va birligi kabilar. Borliq sohalari, borliqning ierarxik darajalari, ruhiy sayohat (sayr) va metodik So'fiy yo'lidagi taraqqiyot (suluk), yaqinlik (qurb) va Xudodan uzoqlik (bu'd) va evolyutsiya ruhning. Bu butun fors so'fiy adabiyotida eng ko'p sharhlangan asarlardan biri edi; XVI asr o'rtalariga kelib unga turli mualliflar tomonidan o'ttizga yaqin sharhlar yozilgan mashhur va noaniq fors mutasavviflari soni, ulardan eng muhimi maftohidir. al-i'joz fi sharh-i Gulshan-i raz Muhammad Lahijiy (vafot 1507 yil). She'rni birinchisi marta G'arb sharqshunoslari e'tiboriga fransuz sayohatchilar Sharden olib kelgan va XVII asrda Forsga tashrif buyurgan va she'rnинг obro'si haqida xabar bergan Bernier u erda "somme théologique" sifatida doiralarni o'rgandi. Keyinchalik she'rnинг qisqacha qismi tarjima qilingan 1821 yilda Toluk o'zining "Sufismus" asarida lotincha, keyinroq 1825 yilda nemis tiliga tarjimasi bilan boshlanadi. "Bluthensammlung aus der Morgenlandischen Mystik" asarida she'rnинг uchdan bir qismi. Gulshan-I Roz Forscha matn nashr etilgandan so'ng, Garbiy islomshunoslikning asosiy oqimiga kirdi. 1838 yil J. von Hammer-Purgstall tomonidan nemis she'riy tarjimasi bilan. 1880 yilda ushbu matn qayta ko'rib chiqilgan va Hammer tomonidan qoldirilgan bir nechta qo'lyozmalar bilan to'plangan va Angliyada qayta nashr etilgan. Ingliz tiliga tarjimasi E.H. Uinfeld. O'shandan beri u bir necha marta ingliz tiliga tarjima qilingan, Garchi bu tarjimalarning hech biri Uinfeldning ijrosiga jiddiy hech narsa qo'shmagan [3].

**Xulosa.** Tasavvuf ya'ni so'fiylik, islom madaniyatining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan talimotdir, uni ifodalash va xalqqa yetkazishda adabiyot o'rni beqiyos bo'lib, o'sha davr so'fiylarning hammasi adabiyotdan va sh'eriyatdan yiroq bo'lmagan ijodkorlar bo'lishgan. Ular ilohiy ishq, shukronalik va komillikkha erishish g'oyalarini o'z asarlarida go'zal tarzda ifoda etishgan va bu adabiyot namunalari jahon adabiyoti miqiyosida keng ko'lamba haligacha o'rganilib kelinmoqda. Shunday sufiy shoirlardan biri Mahmud Shabustariy bo'lib, uning Gulshani Roz- Sirli Bog` masnaviysi o'zining xalqchil mazmundan, ixcham shaklida yozilganligi bilan ajralib turadi.



Muzaffar MEYLIYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail:muzaffarmeyliyev8@gmail.com

O'zMU dotsenti, f.f.n I.K.O'sarov taqrizi ostida

## METHODS OF ACTIVE WORD FORMATION OF POLYMER TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

### Annotation

This article analyzes and summarizes different views on the most effective methods of term generation. The lexicon with a limited scope is studied as a general topic. Linguistic features of polymer chemistry terms, changes in meaning are in general. The scientific terms and their semantic analysis, which are the main subject of study in the article, form the research perspectives of chemical terms, polymer technology terms based on the natural features of terminology and linguistics general.

**Key words:** Term, terminological lexicon, formation of terms, compound terms, active methods of word formation.

## СПОСОБЫ АКТИВНОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ ПОЛИМЕРНЫХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.

### Аннотация

В данной статье анализируются и обобщаются различные взгляды на наиболее эффективные методы генерации терминов. Лексика ограниченного объема изучается как общая тема. Изучены лингвистические особенности терминов химии полимеров, изменение их значений в целом. Научные термины и их семантический анализ, являющиеся основным предметом исследования в статье, формируют перспективы исследования химических терминов, терминов технологии полимеров, основанных на естественных особенностях терминологии и лингвистики в целом.

**Ключевые слова:** Термин, терминологическая лексика, терминообразование, сложные термины, активные способы словообразования.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA POLIMER TERMINLARINING FAOL SO'Z YASALISH USULLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada termin hosil qilishning eng samarali usullari haqida turli xil qarashlar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Qo'llanish doirasi chegaralangan leksika umumiyo mavzu sifatida o'rganiladi. Polimerlar kimiysi terminlarining lingvistik xususiyatlari, ma'noda o'zgarishlar umumlashtirib o'rganiladi. Maqolada asosiy o'rganiladigan predmet qilib olingan ilmiy terminlar va ularning semantik tahlili terminologiya, umuman tilshunoslikning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib kimyoviy atamalar, polimerlar texnologiyasi bo'yicha terminlarning tadqiqot istiqbollarini shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** Termin, terminologik leksika, terminlarning yasalishi, qo'shma terminlar, so'z yasashning faol usullari.

**Kirish.** Davr taraqqiyoti ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tilning barcha sohalarida o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Leksik birlik qo'llanish chastotasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ko'pgina leksemalar keng qo'llanishga, ba'zilari esa tor qo'llanishga ega bo'ladi. Shunga ko'ra til leksikasi ikki qatlamga bo'linadi:

- a)Qo'llanilishi chegaralangan leksika
- b) Qo'llanilishi chegaralanmagan leksika
- Qo'llanilishi chegaralanmagan leksika umumiste'moldagi leksika hisoblanadi .
- Qo'llanilishi chegaralangan leksika esa uchta guruhga bo'linadi:
  - 1) dialektal leksika
  - 2) terminologik leksika
  - 3) noadabiy leksika (argo va jargon) [1]

Fan texnika, qishloq xo'jaligi, sanoat sohalariga xos leksik birlik maxsus leksika sifatida o'rganiladi va tahlil qilinadi. Maxsus leksika deganda ma'lum bir sohaga tegishli lug'aviy birlik va ularga tenglashgan birikma tushuniladi.

Terminlar ko'pincha umumiste'mol leksikadan ma'lum bir ma'nolarining moslashuvidan hosil bo'ladi. Ilmiy terminlar ko'p hollarda tarjimasiz bo'lganligi tufayli dunyo fani ularni bir butunlik sifatida ushlab turadi .Ilmiy termin yaratish jarayoni mutaxassisiga bog'liq bo'lib, termin sifatida olinadigan so'z ona tilidagi so'z bo'ladimi yoki boshqa tildan o'zlashtiriladimi bu ilmiy izlanuvchining o'ziga bog'liq.Biroq har ikkala holatda ham terminolog so'zni umumiste'mol

tildan o'zlashtiradi. Shu o'zlashtirish manbalariga ko'ra til ichidagi o'zlashtirish yoki boshqa tildan o'zlashtirish yuzaga keladi.

Ingliz va o'zbek tillari ham so'z yasashning turli xil faol usullaridan keng ko'lamda foydalananadi va bular polimer terminlarining hosil bo'lishida ham muhimdir.

### Birlashtirish(compounding)

Bu ikki yoki undan ortiq turli so'zlarni qo'shish orqali so'z yaratishni bildiradi. Qo'shma so'zlar yangi ma'noga ega bo'lib, bu boshqa so'zlarning ma'nolari bilan aniq bog'liqdir.**Masalan:** far+ constants= far constants, uzoq doimiylar;dynamic+fatigue=dynamic fatigue,dinamik charchash;

### Derivation(derivatsiya)

Bu usulda so'zlarning o'zagiga sufiks yoki prefix qo'shish orqali yasaladi.

Ion+ic poly+merization,ion+li poli+merlanish;isomer+ization,isomer+lanish **Konversiya**

Konversiya so'z bir so'z turkumidan ikkinchisiga o'tganda sodir bo'ladi.

Varnish,qoplama ;varnish,qoplama yotqizmoq;poison,zahar;poison ,zaharlanish

Terminologiyaning o'ziga xos xususiyati uning tildagi maxsus vazifasi tushunchalarni to'g'ri yetkazish bilan belgilanadi [5]. Til birliklari bo'lgan atamalar mutaxassislarining o'zaro tushunishlari uchun zarurdir. Ushbu

maqolada terminlarning semantik tahlili va ularning nazariyasi atroficha o'rganiladi.

Terminlar semantikasi atamalarning ma'nosini talqin qilish jarayoni bo'lib ularni odamlarga tushunarli qilib izohlashdir.Terminlar semantikasi tildagi ma'no murakkabligi sababli turli xil nazariyalarga asoslanadi:

- 1) Leksik semantika (Lexical semantics)
- 2) Rasmiy semantika (Formal semantics)
- 3) Konseptual semantika (Conceptual semantics)

Terminologiyalarning leksik-semantik tahlili atamalarning ichki mazmuniga ta'sir ko'rsatgan omillarni ochib beradi. Bu esa mutaxassisslarga ham o'rghanuvchilarga ham qulaylik yaratadi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan,asosan nominativ vazifani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi .

A.Reformatiskiy, A.V.Kalinin, R.Doniyorov, X.Dadaboyev, I.X.Sadiqova , O.S.Ahmedov tadqiqotlarda terminologiyaning leksik –semantic hamda so'z yasash usullari tahlili atroficha talqin etiladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi soliq va bojxona terminlarining tarjima qilinishi masalalari hamda ingliz,rus va o'zbek tillarida non mahsulotlari texnologiyasi terminlarini lisoniy xususiyatlari o'zbek tilshunos olimlarining ilmiy ishilardida batafsil yoritib berilgan.

Terminologik jarayonda so'z ma'nosining torayishi va kengayishi, tushunchalarning o'xhashligi uzviyligini rus tilshunosi D.S.Lotte tahlil qilgan.A.A.Reformatiskiy terminologiyada so'zlarining metaforik,metonimik va vazifasi o'xhashligi bo'yicha ko'chishini ko'rsatib bergan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Terminologiya umumiy so'z yoki iboraga ilmiy yoki maxsus ma'no berishni o'z ichiga oladi,ayni paytda umumiyo so'zning asl ma'nosi yo'qolmaydi,balki yangisi bilan bir qatorda foydalilanadi.Terminologiya jarayoni "tabiiy tildagi konseptual ishlov berishning chuqur bosqichidan o'tadigan murakkab jarayon" [2]

Terminologiya jarayoni bir necha bosqichda sodir bo'ladi .Birinchi bosqichda mutaxassis o'z sohasidagi yangi tushunchani nomlash uchun umumiyo adabiy tildagi so'zdan foydalananadi,keyin uning ma'nosi tor va ixtisoslashgan bo'ladi.

S.V.Grinevning so'zlariga ko'ra "yangi material ,vosita ,obyekt yoki tushunchaning paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan har qanday so'z atama bo'lishi mumkin,ammo ilmiy fanlarning rivojanishi bilan terminlar maxsus leksika sifatida nutqda mustahkamlanadi [3]

Terminologiya jarayonini o'rganishda umumiyo adabiy so'zning terminga o'tish jarayonini ko'rib chiqish odatiy holdir.Umumiyo adabiy til so'zlarining terminologiyasi jarayonida umumiyo xususiyatlarga ega bo'lgan,lekin ular tarkibidagi birliliklarning xususiyatlarga ega bo'lgan,lekin ular tarkibidagi birliliklarning xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi bir qancha usullarni ajratib ko'rsatish mumkin.Terminologiyada so'z ma'nosining kengayishi, tushunchalar o'xhashligi va tushunchalarning uzviyligi o'zar bir biri bilan bog'liq [8].Terminologik jarayonda so'zlarining metaforik,metonimik va vazifa o'xhashligi bo'yicha ma'no ko'chishini Reformatskiy o'z ilmiy ishlarida amaliy tadbiq etgan.

Tashqi xususiyatlarning o'xhashligi bilan ma'nosi ko'chgan atamalar metaforalash yo'li bilan hosil bo'lgan atamalardir.Metaforizatsiya jarayonida atama yangi kommunikativ vazifa bajaradi va maxsus leksikaga aylanadi .Metafora "odatdag'i yoki to'g'ridan-to'g'ri ma'nodan farq qildigan bevosita nostonart ma'noni aniqlashga yordam beradigan konteksta" [4] qo'llaniladi. Shu nuqtayi nazardan atamalarni nomlashning bu usuli til rivojanishining dastlabki bosqichlaridanoq keng tarqagan deyish mumkin.

Tushunchalarning uzviyligi va ularning analogiyasi - metanomiyadir. Kimyoviy atamalarning metanomik yo'l bilan hosil bo'lishini quyidagicha asoslash mumkin:

1) Mavjud material nomi undan tayyorlangan mahsulot nomiga ko'chishi; masalan: polythene-polietilin,polimer-polimer,rubber-rezina

2) Joy yoki aholi yashaydigan manzil nomi material yoki modda nomiga ko'chishi; masalan: Congo gum -Kongo saqichi, Congo copal- Kongo kopali

3) Ish-harakatdan shu ish harakatning natijasi namoyon bo'lgan nomning atama sifatida yaxlitlanishi; masalan: oxidize –oksidlamoq, oxide-oksid

4) Muallifning nomi u yaratgan mahsulot yoki yangilikka qo'yilishi bilan atamaga aylanadi; masalan: Avagadro's number-Avogadro soni, Babo's Law-Babo qonuni, Bakilete-Bakelit, Siemens-Martin process- Siemens - Martin jarayoni va boshqalar

Terminlar hosil bo'lishining yana bir usuli metaforik yo'l bilan amalgalashadi. Bu jarayonda so'zlarning narsa-hodisaga o'xhashligi nazarda tutilgan holda ma'nosi ko'chadi. masalan: angle head- burchak boshi ,cat eyes-rezina bo'laklari

**Tahlil va natijalar.** Bilimning barcha sohalarida bir xil semantikaga ega bo'lgan, lekin alohida sohalar terminlari tarkibiga kiruvchi bu semantikani konkretlashtiruvchi umumiyo ilmiy tushunchalarni bildiruvchi umumiyo ilmiy va umumiyo texnik terminlar. Xuddi shu maqomda fanlararo atamalar mavjud bo'lib, ular har safar ularning terminologik tizimlarda ko'rsatilgan bilimlarning bir nechta sohalarida qo'llaniladi. Ko'rib chiqilayotgan terminlar tizimida biz quyidagi leksik birliliklarni ko'rsatib o'tamiz:

**ing.:** Avogadro's Law, Boyle's Law, bond length, amplitude, weight strain, surface tension;

**o'zb.:** Avogadro qonuni, Boyl qonuni, bog' uzunligi, amplituda, og'irlik deformatsiyasi, sirt tarangligi.

Keng semantika terminlari, ko'pgina termin sistemalarida qo'llaniladigan leksik birliliklardi. Lekin har qanday termin tizimida bir xil semantikaga ega bo'lgan, faqat konkretlashtiriladigan umumiyo ilmiy (umumiyo texnik) terminlardan farqli o'laroq, bunday leksik birliliklar o'z semantikasini o'zgartirib, termin tizimlarining har biriga kirib, faqat eng umumiyo, terminologik bo'lмаган ma'noni saqlab qoladi.

**ing.:** dibutyl isosebacate, alternating polymers, air-lock, Mylar, polyvinyl acetate, tactic block polymer; Weight-per-gallon cup;

**o'zb.:** dibutil izosebakat, o'zgaruvchan polimerlar, havo blokirovkasi, Mylar, polivinilatsetat, taktik blokli polimer; bir gallon chashka vazni;

Polimerlar kimyosi, umuman, kimyoviy atamalarni ilmiy kuzatish jarayonida terminlarning so'z turkumlari bo'yicha alohida-alohida strukturada ekanini anglash mumkin. Bular:

N. + N. Ot + Ot	chip board chip taxtasi	charcoal dye ko'mir bo'yoq	reduction chair reduktorli uzatgich	salt bed tuz qatlam
N. + Adj. Ot + Sifat	copper blue mis ko'k	iron blue temir ko'k	chemical property kimyoviy xossa	destructive distillation destruktiv haydash
Adj. + N. Sifat + Ot	cold flow sovutq oqim	cold test sovutq sinov	commercial weight tijoriy vazni	continuous tone doimiy ton
Adj. + Adj. Sifat + Sifat	chinese blue xitoycha ko'k	red-hot qip-qizil cho'g'		

Terminlar semantikasi bilan ishslashda atamaning quyidagi ikki xususiyatiga e'tibor berish lozim.

- 1) Terminning ma'lum bir til doirasigagina xosligi
- 2) Terminning baynalmilalligi

Atamalarning ma'lum bir til doirasigagina xosligi deganda terminning umumiyl tilshunoslik uchun emas, balki bir til doirasiga xosligi tushuniladi. Masalan, gap kengaytiruvchi, gap markazi atamalari faqat o'zbek tilshunosligiga xos.

Terminlarning baynalmilalligida esa atama tarjima qilinmaydi. Dunyo ilm-fanida yagona nom bilan atalaveradi. Masalan: beton, monomer, gas, jelatin va boshqalar.

Terminologiya tilshunoslikning ko'p murojaat qilinadigan, ammo yetarli darajada ko'p o'rganilmagan sohasi. Atamalarning, ayniqsa, kimyoviy terminlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida yana bir qator ilmiy nazariyalar, jiddiy ishlar qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan ushu maqolamiz terminologiya sohasidagi kata izlanishlarimizga dastlabki qadamdir.

**Xulosa va takliflar.** Terminlarning qo'llanilish doirasi chegaralanganligi ularning boshqa soha vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi degani emas. Masalan: "tog'ri chiziq, xlor, tezlik, so'z turkumi" atamalari ko'pchilik uchun tushunarli, soha kishilaridan boshqalar nutqida kam iste'moll. Umumiste'mol tilidan ilmiy terminga o'tgan atamalar ham talaygina. Xo'sh, ularni ko'p semimali leksimaning ma'lum bir ma'nosida qo'llanilishi deyish kerakmi yoki alohida? Agar atamalar alohida leksema deb qaraladigan bo'lsa, ular umumiste'moldagi leksema bilan omonimlik munosabatidami?

Ma'lumki, ko'pgina omonim leksemalar aslida ko'p ma'noli leksema ma'nosidan birining boshqalaridan uzilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday ekan, terminlarga ham asl substansiyadan uzilgan mustaqil leksema sifatida qarash lozim. Bunga terminga qo'yiladigan bir ma'nolilik talabi ham asos bo'ladi. Demak, termin va umumistemol leksima bir narsaning ikki qirrasi, bir leksemaning ikki ma'noda qo'llanilishi emas. Bu masala keyingi ishlarimizda yana teranroq muhokama qilinadi.

### ADABIYOTLAR

1. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili . T-2009.
2. Володина М.Н. Когнитивно-информационная природа термина(на материале терминологии средств массовой информации) M.2000
3. Grinev S.V. Terminology and Nomenclature in Russian Terminology Science [Text] /S.V. Grinev / Terminologie und Nomenclature. –Long, 1996
4. Блек, М Метафора . Теория метафоры.
5. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. T- 2019
6. M.M Shokirova, Sh.P. Nurullayev. Ingлизча-O'zbekcha-Ruscha kimyo terminlari lug'ati. T.; Tafakkur bo'stoni , 2003
7. O'zbek tilining izohli lug'ati T.; "O'zbekiston milliy inseklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2006. 4-jild.
8. Даниленко В.П Русская терминология.Опыт лингвистического описания-М.:Наука ,1977.-246c.
9. Jan W.Gooch. Encyclopedic Dictionary of Polymers. E-dictionary
10. ABBY Lingvo 6 e-dictionary



Aziza MIRZAYEVA,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti, BDTI ingliz tili kafedrasini o'qituvchisi

E-mail: azizamirzayeva539@gmail.com

Buxoro davlat universiteti dotsent, f.f.d F.Hojiyeva taqrizi asosida

**RIK RIORDAN ASARLARI VA ANTIK MIFOLOGIYA ORASIDAGI GIPERTEKSTUAL ALOQADORLIK  
(PASTISH VA SYUJETLARDAGI UNIVERSALLIK)**

Annotatsiya

Ushbu maqolada gipertekstuallik matnlarning boshqa matnlar bilan bog'liqligini anglatuvchi murakkab va ko'p qirrali tushuncha sifatida muhokama qilinadi. Bundan tashqari Amerika o'smirlar yozuvchisi Rik Riordan pentalogiyasida gipertekstuallikning bir ko'rinishi bo'l mish pastishga xos bo'lgan holatlarni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Gipertekst, gipotekst, pastish, remifologizatsiya, mifologizatsiya, demifologizatsiya.

**ГИПЕРТЕКСТОВАЯ СВЯЗЬ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РИКА РИОРДАНА И АНТИЧНОЙ МИФОЛОГИИ (УНИВЕРСАЛЬНОСТЬ В СТИЛИСТИКЕ И СЮЖЕТАХ)**

Аннотация

В этой статье гипертекстуальность рассматривается как сложное и многогранное понятие, которое относится к взаимосвязи текстов с другими текстами. Кроме того, случаи, типичные для пастиш, которая является формой гипертекстуальности, анализируются в пенталогии американского писателя Рика Риордана.

**Ключевые слова:** Гипертекст, гипотекст, пастиш, ремифологизация, мифологизация, демифологизация.

**HYPertextual Relationship Between the Works of Rick Riordan and Ancient Mythology  
(Universality in Pastiche and Plot)**

Annotation

This article discusses hypertextuality as a complex and multifaceted concept that refers to the relationship of texts to other texts. In addition, the cases typical of pastiche, which is a form of hypertextuality, are analyzed in the pentalogy of the American teenage writer Rick Riordan.

**Key words:** Hypertextuality, hypertext, pastiche, remythologization, mythologization, demythologization

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Gipertekstuallik – transtekstuallikning bir ko'rinishi, unda muayyan adabiy matn boshqa bir matn bilan birbutun holda yoki global, ulkan madaniy kontekst bilan bog'lanadi. Gipertekstuallik faqat adabiyotgagina xos hodisa emas, u umuman ilmiy, publisistik, falsafiy va boshqa xil matnlarga ham xosdir. Gipertekstuallik, ayniqsa, internet paydo bo'lgandan so'ng niyoyatda ommalashdi. Gipertekstuallik muammosiga milliy adabiyotshunoslikda birinchilardan bo'lib diqqat qaratgan adabiyotshunos Feruza Xajieva ushu tushunchani shunday izohlaydi: "Gipertekst (yunoncha hyper – ustida, juda degan ma'nolarni anglatadi) termini ostida ikkilamchi matn nazarda tutilgan bo'lib, u birlamchi matn, ya'ni gipotekstdan so'ng yozilgan yoki birlamchi matn ustidan yozilgan bo'lib, unga turli ko'rinishdagi aloqalar yordamida (pastiche, parodiya, transformatsiya, taqlid) bog'langan. Gipertekst gipotekstga izoh, sharh bermaydi. Turli ko'rinishdagi adaptatsiyalar (pastiche, parodiya, transformatsiya, taqlid) natijasida yangi matnni hosil qiladi. Jerard Jenet gipertekstga misol qilib Jeyms Joysning "Uliss" asarini ko'rsatadi. Chunki Joys Gomerning "Odissey" eposiga taqlid qilib, unga o'xshash uslubda o'zining asarini yaratgan".

**Tadqiqot metodologiyasi.** Gipertekstuallik, olimlarning fikricha, bir matnni boshqa matnga havola qilish orqali alohida matnlarni bog'lash natijasi emas, balki o'ziga xos xususiyatlarga ega mustaqil ob'ekt bo'lib, uning alohida qismlarining bir-biriga nisbatli muhim ahamiyatga ega. Gipermatn barcha tarmoq matnlari uchun umumiy xususiyatga ega – bitta matn tuzilmasi chegarasidan tashqariga chiqadi, shuning uchun matn aslida ko'lami, janri va hatto muallifligi bilan cheklangan statik tizim bo'lishni to'xtatadi. Interaktivlik,

nochiziqlik, multimedia kabi matn kategoriyalari gipermatn tashkil qiladi. Bular muallif rolining o'zgarishiga olib keladi. Natijada asarning kompozitsiyasi, boshi va oxiri yo'qolib, muallif mustaqilligi shartli bo'lib qoladi. Ammo gipermatnlilikda matnlararo o'tishlarni, matnga tovush, video, animatsiyani kiritishni ko'rish mumkin. Bularning barchasi o'quvchida g'ayrioddiy hissiy in'ikoslarni keltirib chiqaradi, bu esa fikrash tarzi va dunyonidirok etishning o'zgarishiga olib keladi.

Aytish mumkinki, bizning tadqiqotimizda Rik Riordan pentalogiyasiga kirgan romanlar gipertekst bo'lsa, Rim va yunon mifologiyasi gipotekst hisoblanadi. Gipertekst termini ilk bor amerikalik faylasuf va ijtimoiyatshunos Ted Nelson tomonidan 1965 yilda ishlataligan.

XX asr ikkinchi yarmidan boshlab jahon nasrida qadimiylarga qiziqish kuchaydi. Chunki qadimgi miflar, jumladan, yunon mifologiyasida ikki avlod o'rtasidagi kurash (Kronos va Zevs misolida), ya'ni eskinining o'rniga yangining chiqishi motivi o'z ifodasini topganki, postmodernizm ham o'zidan ilgariga barcha oqimlaru tendensiyalarni inkor etib, butunlay yangi madaniy kontekst yaratishni nazarda tutar edi. Go'zallik, Olimp dunyosidagi qat'iy tartib va uyg'unlik zamonaviy adiblarni o'ziga maftun etadi; zamondosh yozuvchilar qadimiylarga qiziqishini, miflarning butunlay yangi talqinlarini yaratadilar.

Rik Riordan o'zining yosh kitobxon-muxlislari uchun yunon mifologiyasidagi qiziqarlilikni, syujetning tez rivojlanishini asos qilib olarkan, mifologik qahramonlar hayotidagi kurash va g'alaba, insoniylik va do'stlik, xavf-xatar va jasorat kabilarni zamonaviy amerikalik bolalar hayoti bilan uyg'unlashtiradi.

**Tahlil va natijalar.** Ta'kidlash lozimki, asarda g'ayritabiyy mavjudotlar va qahramonlarni shunchaki yo'l-yo'lakay eslatib o'tish miflarni badiiy interpretatsiya qilishning muhim belgisi bo'la olmaydi. Chunki bunda nomlar, tasvirlar juda keng ko'lamli bo'lishi mumkin, ammo u badiiy individual adabiyotdagi mifologizmning asosiy etalonini bo'la olmaydi. Mifologizm qadimiy voqelikni zamonaviy okntekstda qaytdan, ayni vaqtida yangicha, individual idrok etish va tasvirlashdir. Bunda qadimiy miflar xotira, tashqi shakl tarzidagina ishtirot etadi. Mazmun-mohiyat esa zamonaviy inson dunyosiga oid voqeliklar, ijodkor shaxsning borliqni individual idrok etishi bilan to'yintiriladi.

Angliyalik yozuvchi Jeyms Uayt badiiy mifologizmning olti tipini ko'rsatib o'tgan:

Yangi mif yaratish, uni mifologiyaga xos bo'lmagan mazmun va ramzlar bilan to'ldirish.

Asarda qadimiy borliq mohiyatini ochib beradigan, nomlar va makonning g'ayrioddiy tanosubiyati yoki personajlarning ikkilanishi, evrilishi tufayli sabab-oqibat munosabatlарining buzilishi bois ko'pincha idrok etish qiyin bo'lgan, mifologik tafakkurning teranligini aks ettirish.

Zamonaviy hikoya sathiga qadimiy mifologik syujetlarni kiritish.

Syujetga mifologik personajlarni ularni o'zgacha ma'nova ramziylik yuklagan holda kiritish.

Inson ongingin mifologik ko'zqarash hozirgacha yashab kelayotgan qavatlariga murojaat qilish.

Inson hayotining masal elementlari bilan uyg'un uy, yo'l, o'choq, bolalik, keksalik, muhabbat, kasallik singari doimiy unsurlariga murojaat qilish.

Miflarga xos bo'lgan voqelikni yorqin va haqqoniy gavdalantirish xususiyati zamonaviy fentezi janrining yuzaga kelishi uchun zamin bo'lib xizmat qildi. Bugun jahondagi ko'pgina yozuvchilar uydurma voqelik, boshqacha aytganda, o'zlarining ikkinchi dunyolarini yaratishda mifologiyaga tayanadilar. Bu tayanish aniq obrazlar, voqealar, zamon va makon ko'rinishida ochiq ham, yoki motivlar tarzida o'zgartirilgan, matn ostida ham bo'lishi mumkin.

Fentezi janrida samarali ijod qilgan amerikalik adib Rik Riordan ijodida ham syujet ko'pincha antik dunyo mifologik voqeligi bilan qattiq chatishib ketadi. Bunda zamonaviy adabiyotdagi badiiy mifologizmga xos bo'lgan uch holatni ko'rish mumkin: remifologizatsiya va mifologizatsiya hamda (adabiy asar badiiy makonini shakkantirish uchun mifologik syujet va motivlardan foydalanish), demifologizatsiya (diniy asotirlar interpretatsiyasi). Rik Riordan asarlarida badiiy mifologizm ob'ekti sifatida badiiy asar yaratish jarayonida turli o'zgarishlarga uchragan syujetlar yoki qahramonlardan foydalaniladi. Ularni mifologik epizodlar, mifologik qahramonlar, mifologik makonlar va sehrli jismlar tarzida guruhshtirish mumkin. Bularning bari transtekstuallik, gipertekstuallik sifatida voqelanib, pastishni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Pastish – gipertekstuallikning ko'rinishlaridan biri. Pastish – fransuzcha (pastiche) va italyanchadan (pasticcio) olingan so'z bo'lib (aralashma, pashet), aslida opera san'atiga nisbatan ishlatalidi. Ya'ni popurri tarzida bir necha operalarning bo'laklaridan yaxlitlashtirib tarkib toptirilgan mozaikaviy opera asadir. Istiloh keyinchalik badiiy adabiyotga ham tadbiq qilingan. Pastish, ayniqsa, postmodernizmdagi mozaikaviylik xususiga nihoyatga muvofiq keladi. Bunda qahramonlar, epizodlar, motivlar, narsalar, makonlar misflardan olinadiyu, lekin ularning hammasi o'zgarishlarga uchragan holda ishtirot etadi. Obrazli qilib aytganda, o'sha narsa-hodisa bir vaqtning o'zida ham o'sha narsa-hodisa, ham o'sha narsa-hodisa bo'lmay qoladi. Bundan tashqari turli miflarning bo'laklari bir joyda jamlanishi ham mumkin.

Pastish umumiy ta'rif beriladigan bo'lsa, bir yoki bir necha asarlar uslubiga taqlidan yaratilgan asar, stilizatsiyadir. Pastishda yozuvchi biror asarning kompozitsion tuzilishi, strukturasi, syujet yoki qahramonlarini asos qilib oladi. Masalan, Sherlok Xolms yoki unga o'xshagan obrazlar asos qilib olingen asarlar Artur Konan Doyl tirikligidayoq paydo bo'la boshlagan.

Rik Riordan Persi Jekson sarguzashtlariga bag'ishlangan romanlari markaziga Kronos va Olimp xudolari o'rtasidagi ziddiyat haqidagi mifni asos qilib oladi. Boshqacha aytganda, Rik Riordan pentalogiyasi yaxlit holda yunon mifologiyasiga pastish qilingandir.

Pentalogiyaning ilk romani "Chaqmoq o'g'risi"da mifologik qahramonlar bo'lmish Persey va Teseyning jasorati aks etgan. Rik Riordan qahramoni Persiga ham mifologiyadagi Persey singari Meduza Gorgona bilan to'qnashishga to'g'ri keladi. Persi Meduza – Em xolani avvaliga oddiygina kampirsho deb o'ylaydi, unga rahmi keladi. Annabet va Grouver uning kimligini bilib qolib, Em xolaning do'konidan ketmoqchi bo'lsalar ham, Persi ularni to'xtatib qoladi. Ammo Persi alaloqibat Anakluzmos (ruchka) yordamida uning boshini olishga muvaffaq bo'ladi. Shuningdek, Persi va uning do'stlari mifologiyadagi singari Prokrustning changaliga tushadilar. "Krustining alvasti karavotlari" magazini xo'jayini bo'lgan Prokrustni ham o'ldirgach, uning yondaftarchasidan DOA ovoz yozish studiyasining adresini topadi, o'sha yerda O'lklar saltanatiga olib boradigan yo'l ko'rsatilgan edi. Shu tariqa miiflardagi voqe va qahramonlar zamonaviy voqelikka ko'chira boriladi.

Pentalogiyaning bosh qahramoni nomi pastish yo'li bilan mifologik qahramon Perseydan olingan. Persey yunon mifologiyasiga ko'ra Zevs va Danayaning o'g'lidir. U haqda Ovidiyning "Metamorfozalar" asarida batafsil yozib qoldirilgan. Pentalogiyada Persi Jeksonning onasi ham o'z o'g'liga o'sha qahramon sharafiga Persi deb nom beradi. Chunki Persey sarguzashtlari yaxshilik bilan tugaydi. Uzoq davom etgan sarguzashtlardan so'ng u o'z yurtiga qaytib keladi. Ammo Rik Riordan o'z qahramonini Poseydonning o'g'li deb talqin qiladi. Ammo bu yerda ham baribir qadim mifologiya bilan bog'liqlik bor. Chunki mifda hikoya qilinishicha, kohin Argos humkdori Akrisiyning hayoti nevarasi – Danayaning o'g'li qo'lida yakun topishini bashorat qiladi. Shuning uchun Akrisiy qizini yer ostiga bekitib qo'yadi. Ammo Danaya oltin yomg'ir shaklida yotog'iga kirib kelgan Zevsdan farzand ko'radi va yillar o'tib, bola ulg'aygach buni bilib qolgan Akrisiy qizi va nevarasini qutiga solib dengizga otadi. Danaya va Persey tasodif bilan qutulib qoladilar. Rik Riordan Persining Poseydonning bolasi deyish orqali uning o'sha dengizdag'i g'ayriixtiyoriy sayohatini nazarda tutadi. Persi ham Persey singari juda qiziqarli va xavfli sarguzashtlarni boshdan kechiradi.

Pastish Persi bilan bog'liq deyarli barcha voqealaru epizodlarda namoyon bo'ladi. Masalan, pentalogiyaning birinchi romani boshidayoq Nensi Bobofit Persi va uning eng yaqin o'rtog'i Gouverni mazax qila boshlaydi. Nensi Gouverning ustida sendvich bo'laklarini otib, ularning ustidan kuladi. Persi bo'lsa o'rtog'i tufayli Nensi bilan it-mushuk bo'lib urushib ketadi.

Rik Riordanning "Chaqmoq o'g'risi" romanida Persining otasi bir kuni Atlantika dengizi orqali qayqqadir yo'l oladi va shu-shu qaytib kelmaydi. Onasining aytishicha, Persining otasi halok bo'lmagan, balki dengizda g'oyib bo'lgan. Shu tariqa Rik Riordan Persining otasini tayin etishda Zevs syujetidan Poseydon syujetiga o'tadi. Otasi okeanda g'oyib bo'lganligi Persining dengiz xudosi Poseydonning o'g'li ekanligini asoslashga xizmat qiladi. Persining o'zi bilmagan holda Nensini joyiga o'tqazib qo'yish uchun fontanni yordamga chaqirishi ham tasodif emas, bu uning dengizlar hukmdorining o'g'li ekani bilan bog'liq.

**Xulosa va takliflar.** Adib yunon miflaridan pastish sifatida foydalanar ekan, amerikalik bolalar hayotidagi muammolarni kuchli psixolog singari nozik va chuqur idrok etadi. Qonuniylashtirilmagan munosabatlardan dunyoga kelgan Persi o'gay otaning zug'umi ostida yashaydi. Uni maktab-internatga yuboradilar, ammo Persi o'z uyini, onasini, onasining mehrli munosabatini qattiq sog'inadi. Asar magik voqealarga boy, yumoristik ruhda bo'lishiga qaramasdan, unda bolaning ichki iztiroblari ham qalamga olingan. Aslida miflar bilan bog'liq voqealarning boshlanishiga aynan Persining qalbidan kechgan iztiroblar sabab bo'ladi. Masalan, Persi onasidan uzoqda, uyidan uzoqda maktab-internatda yashashdan siqiladi. Onasining yonida, o'z uyida yashash uchun u hatto o'gay otaning zug'umlariga chidashga, u bilan kelishib yashashga ham tayyor: "I wanted to be with my mom in our little apartment on the Upper East Side, even if I had to go to public school and put up with my obnoxious stepfather and his stupid poker parties".

"Jundayam uya ketgim kelmoqda edi. Hatto bepul oddiy o'rta maktabda o'qishga to'g'ri kelsa ham, men Verxniy

Ist-Sayddagi mo'jazgina kvartiramizda onam bilan yashashni xohlar edim. Hatto menga umuman yoqmaydigan o'gay otam bilan kelishib yashashga, uning tun bo'yi qartavozlik qilib, ahmoqlarcha poker o'yiniga berilishiga chidashga ham rozi edim".

Rik Riordanning qahramonlari antik miflar va zamonaviy kitobxonni uzviy bog'lab turuvchi personajlardir. Adibning qahramonlari butunlay yangi zamon kishilar, ularning dunyoqarashi, borliqqa munosabati yunon qahramonlarinikidan keskin farq qiladi. Ammo ular yunon qahramonlari kurashini davom ettiradilar. Bu, birinchidan ezzulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash hech qachon tugamasligi, mohiyati o'zgarmasligidan dalolat. Ikkinci tarafdan esa, kitobxonni o'ziga tanish bo'lgan afsona va rivoyatlarga yangicha nigoh bilan qarashga majbur etadi. Rik Riordan miflarning mohiyati, motivlari, qahramonlari, epizod va detallaridan foydalangan holda butunlay yangi zamon romanlarini yaratdi, qadimiy miflaridan o'quvchini 21-asr muammolaridan ogoh etishda pastish o'laroq foydalandi.

#### ADABIYOTLAR

- Хажиева Ф. Америка постмодерн адабиётида постмодерн роман поэтикаси (Ж.Парини, М.Каннинг ва Л.Лалами асарлари мсиолида) // филол.фанл.доктори (DSc) ... диссертация . – Бухоро, 2022. – 159-160-бетлар.
- Khajieva F. Theoretical aspects of the language learned (Stylistics) Ўқувқўлланма – Бухоро: Дурдана, 2020. 190 р.
- Фрейд З. Санъаткор ва тахайюл // "Тафаккур", 2023 йил, 3-сон.
- Хазагеров Г. Основы теории литературы. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2009. – 317 с.
- Кун Н.Легенды и мифы древней Греции. – Москва, Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1954. – Стр 101-111.
- Rick Riordan. Percy Jackson and the Lightning Thief. PuffinBooks. 2005. P.17



Nodira MUSTAFAYEVA,  
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi  
E-mail: nodira197605@gmail.com

Renessans ta'lif universiteti dotsenti, (PhD) N.Khursanov taqrizi asosida

### GRAMMATICAL SPECIFICITY OF THE LANGUAGE OF SHAROF BOSHBEKOV'S WORKS.

#### Annotation

Sharof Boshbekov's works have their own characteristics. The unique feature of his works is that he used simple sentences effectively. In order for the work to be impressive and understandable, the creator has achieved a natural and effective description of the dialects of the characters of the work in a dialogical manner, by using words appropriately to express the inner experiences of the character in order to interest the reader.

**Key words:** Language, expression, grammatical aspect, writer, simple, sentence, work, creator, method, hero, author, short story.

### ГРАММАТИЧЕСКОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ЯЗЫКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ШАРОФА БОШБЕКОВА

#### Аннотация

Работы Шарофа Башбекова имеют свои особенности. Уникальной особенностью его творчества является то, что он эффективно использовал простые предложения. Для того, чтобы произведение было впечатляющим и понятным, автор добился естественного и эффективного описания диалектов героев произведения в диалогической форме, используя слова, уместно выражающие интимные переживания героя, чтобы заинтересовать читателя.

**Ключевые слова:** Язык, выражение, грамматический, аспект, произведение, писатель, простое, предложение, создатель, метод, герой, автор, рассказ.

### SHAROF BOSHBEKOV ASARLARI TILINING GRAMMATIK JIHATDAN O'ZIGA XOSLIGI

#### Annotatsiya

Til hodisalarini tadqiq yetishning yangi sohalari tobora rivojlanmoqda. Kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi, psixolingvistika, sosiopragmatika kabi sohalar dunyo tilshunosligida ulkan tadqiqot obyekti aylanib ulgurdi. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab olgan nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishiga ega emas. Muallif Sh.Boshbekov asarlari asnosida tilning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan. Eng muhim xorij va o'zbek tilshunoslari ilmiy manbalariga tayanib muallif ilmiy izchillik asosida xulosalarini taqdim etadi. Maqolani chop etish maqsadga muvofiq.

**Kalit so'zlar:** Til, ifoda, grammatik jihat, yozuvchi, sodda gap, asar, ijodkor, usul, qahramon, muallif, kinoqissa.

**Kirish.** Sharof Boshbekov asarlarda o'ziga xos jihatlar bor. Asarlarining o'ziga xos jihat shundaki, sodda gap turlaridan unumli foydalangan. Ijodkor asarning ta'sirchan, tushunarli bo'lishi uchun asar qahramonlarining shevalaridan diolog tarzda, kitobxonni qiziqtirish uchun qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda so'zlarini o'z o'mida maqsadga muvofiq tarzda qo'llay olish orqali tabiiy va ta'sirchan tasvirlab berishga erishgan.

Sharof Boshbekov asarlari tilining grammatic jihatdan o'ziga xosligi shundan iboratki, tilning taraqqiyoti yozuvchiligidan asoslangan. Ijodkorlar va olimlari say-harakatiga bevosita bog'liq. Tadqiqotchilar tilning nazariy asoslari bilan shug'ullanishsa, ijodkorlar undan foydalanish asnosida yangicha ifoda usullari, ta'bir joiz bo'lsa, ayrim vositalarni yaratishga ham muvaffaq bo'ladi. Har bir ijodkor tildan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Xusan, dramaturg Sharof Boshbekovning ham o'ziga xos yondashuvi bor. Buning amalidagi ifodasini "Temir xotin", "Falakning gardishi" asarlari tahlil qilish orqali kuzatishimiz mumkin. "Temir xotin" asarida shunday o'rinnlar bor: "QO'CHQOR. «Sal-pal» mish! Yechilmayotganidan ham biluvdim, sening qo'ling tekkanini! Mol arqonlab o'rganib qolgansan-da, bog'lagan tuguningni matroslar ham yecholmaydi! E, qarashvormay ket! Bo'pti, kechirdim, qo'lni bo'shat.

Qumri «yo'q» deganday bosh chayqaydi.

Bu uyda men kimman o'zi, a? (Baqirib.)  
Qo'chqormanmi yo Qo'chqormasmanmi?! Qo'chqorman!!!

(Birdan past tushib.) Qo'chqor ekan, deb bog'lab tashlayveradimi?.. Sho'ri bor odam ekanman o'zi... (Yana baqirib.) Hech bo'lmasa, suv ber, ichim yonib ketyapti! (Sh. Boshbekov. "Temir xotin" asari)

Avvalo, Sharof Boshbekovning tildan foydalanishdagi o'ziga xos jihat bu – uning sodda gap turlaridan samarali foydalanish mahoratida. Ayrim ijodkorlar badiiy asarda uzundan uzoq bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplarni qo'llaydi, natijada fikr chalg'iydi. Sharof Boshbekov sodda gaplardan unumli va maqsadli foydalana oladi:

U telbanamo kayfiyatda bir nimalarni pichirlar, nogoh to'xtaganicha bir nuqtaga tikilib qolar, ozgina shovqindan ham cho'chib tushardi. U katta ko'chadan ketib borarkan, "Binafsha kafesi" degan yozuvga ko'zi tushdi. "F" qarfi qiyshayib qolgan. Kallasida beixtiyor"Binafsha kafesi", "Binafsha kafesi" degan o'y charx ura boshladi. Chaqaloqning endi rostakam qorniochdi shekilli, yana g'ingshiy boshla(Sh. Boshbekov. "Falakning gardishi" asari).

Matnda asar qahramonlarining asli yashash hududini ko'rsatish maqsadida ularning nutqida ayrim sheva elementlari ham saqlab qolinadi: QO'CHQOR (sevinib). Yaxshi debsiz, Alomatxon! Tarbiya bergan ota-onangizga rahmat! Rakatoping! Yo'q, shu kiyimingiz ham yaxshi-yu, endi, o'zingizdan qolar gap yo'q, bu yog'i qishloqchilik... Yuring, uyga kirib ko'raylik-chi, xotinning ko'yak-po'yagli bormikan. E, anovi ketib qolgan xotinning-da! Qani... (Uyga taklif qiladi. Uning ketidan qarab.) Bay-bay-bay, jannat, jannat! Shu,

jannatdagi huru g'ilmonlar aslida o'zimizning zovudlarda tayyorlanib, keyin o'sha yoqqa jo'natiladimi, deyman-da... (Ichkariga kirib ketadi.) (Sh. Boshbekov. "Temir xotin" asari)

Sharof Boshbekov bir bosh bo'lakli sodda gaplardan ko'p foydalanadi. Bu o'zbek tili nutq tabiatiga mos holatdir. Boshqa flektiv tillarda ega mavjud bo'lmasa, kesimning o'zi gapni tashkil qila olmaydi. O'zbek tilida esa kesimning o'zi gapni tashkil qilaveradi, nutq vaziyatiga ko'ra fikr ifodalay oladi: Yog'och to'sinlar orasidan oynasi darz ketgan romli surat topib oldi.

Unda Shavkat, xotini Surayyo va uch-to'rt yoshlardagi o'g'li—

Botir kulib turishibdi.

Suratni qo'lida ko'taganicha, negadir, u yoqdan-bu yoqqa izillab yugura boshladi. So'ng holdan toyib, umidsizlik bilan o'tirib qoldi.

Hovli burchagida o'g'lining uch g'ildirakli velosipediga ko'zi tushib, fig'oni battar falakka chiqdi.

Aqdan ozadigandarajaga yetdi.(Sh. Boshbekov. "Falakning gardishi" asari).

Matnning o'quvchiga tushunarli va ta'sirchan bo'lishi matnning morfoloyigiga bilan ham bevosita bog'liq. Muallif asar matnida bu vaziyatda nisbatan olmoshlaridan ko'proq foydalangani kuzatildi:

"OLIMJON qutining qopqog'ini ochgan edi, u yerda, qo'g'irchoqqa o'xshab ketadigan, niroyatda go'zal qiz turardi. Badaniga silliq, yaltiroq mato tortilgan.

QO'CHQOR (hayratdan og'zi ochilib). Vo-o!..OLIMJON (faxrlanib). Qalay?

QO'CHQOR (birdan). E-e, odamning boshini qotirasan-a!

Magazinning oynasiga kiyim kiyg'izib qo'yadigan-ku bu

OLIMJON (xafa bo'lib). Yetti yillik mehnatim bu!

«Magazin»mish-a! (Sh.Boshbekov."Temir xotin" asari)

Keltirilgan misoldan ko'rinish turibdiki, ajratib ko'rsatilgan so'zlar olmosh so'z turkumiga mansub bo'lib, o'ziga xos ma'no va vazifa bajarishga xizmat qilgan. So'z turkumlarining qo'llanilish chastotasi, bizningcha, nutq vaziyati va fikr mavzusi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Dilogik nutq aks etgan matnlarda olmoshlarining nisbatan ko'proq ishlatalishi tabiiy, masalan:

QO'CHQOR. Xiz... Xizmat yo'q... (Karavotga ishora qilib.) Qani, buyoqqa o'ting, Alomatxon...Yo'q, yo'q, ko'rpa-chaga...

ALOMAT.(karavotning bir chetiga qimtinibgina o'tirib).

Rahmat, yaxshi o'tiribman.

Qo'chqor haliyam o'ziga kelolmas, lekin og'zi qulog'ida — go'yo yuzida kechagi tabassum qotib qolgandan edi. Kashfiyotining unga shu qadar ta'sir etganidan Olimjon ham xursand.

OLIMJON. Bo'lmasa, Qo'chqor aka, siz bemalol gaplashib o'tiravering, men narsalarimni joylashtiray. O'sha hujra bizni-ka, a?

QO'CHQOR. (beixtiyor «sizlashga o'tib). Iye, so'rab o'tirasizmi, o'zingizning uyingiz-ku, Olimtoy!..

Olimjon yig'ma karavot, sumka va boshqa anjomlarini ko'tarib, ichkariga kirib ketadi.

(Anchadan keyin.) Ha-a... Zap kelibsiz-da... (Dovdirab.) Ichkarida muzday ayron bor, bir kosagina olib chiqaymi? (Sh.Boshbekov."Temir xotin"asari)

So'zlovchining o'z fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari ifodalangan matnlarda olmosh so'zlar deyarli ishtiroy etmaydi: OLIMJON. Kechirasiz-u, Qo'chqor aka, odam degan og'ziga nima kelsa qaytarmay gapiraveradimi! Nima deyatganingizni tushunyapsizmi? O'zbek qayyoqda-yu, qo'y

qayyoqda! E, tavba... (Kuyinib.) (Sh.Boshbekov."Temir xotin" asari)

Kinoqissa janriga mansub asarlar, ayniqsa, Sh.Boshbekov qissalari matnida yuklamalardan modal munosabatlarni ifodalashda ustalik bilan foydalaniildi:

To'satdan Shavkatning g'azabi qaynab, yig'lamsiraganicha baqira ketdi:

Nega tashlab ketarkanman, a, nega tashlab ketarkanman! Axir bu yorug' jahonda shundan boshqa hech kimim yo'q-ku!.. O'ylab gapiryapsizmi, qanday tashlab keta-a-ay?! hamshira uning bunchalik kuyinoshini kutmagan edi — qo'rqiб ketdi. (Sh.Boshbekov. "Falakning Gardishi" asari)

Ajratib ko'rsatilgan til birliklaridan anglashilib turibdiki, demak, suhabat tarzidagi nutqiy vaziyatlarda yuklamalarning faol qo'llanilishi alohida pragmatik mazmunning ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Tavsifiy-tasviriy matnlarda esa sifat so'z turkumiga doir so'zlarning keng va faol ishlatalishi ham o'ziga xos pragmatik maqsadga erishuvning muhim omili sanaladi.

"Dom"ning ikkinchi qavatidagi Shavkatning uyi. Xonodon sohibining unchalik boy bo'lmasa ham o'ziga to'q yashayotgani ko'rinish turibdi: yerda cho'g'day gilamu, shipda billur qandil. Javonda antiqa idish-tovoqlar. To'rda televizor, ustida o'sha oynasi darz ketgan surat. Hatto dahlizga ham qip-qizil gilam poyondoz to'shalgan.

(Sh.Boshbekov. "Falakning Gardishi" asari)

Kuzatilganidek, tavsifiy xarakterdagи matnlarda muallif matn orqali adresatga o'z qahramonining ichki va tashqi sifatlarini belgi bildiruvchi so'zlarni o'z o'mnida maqsadga muvofiq tarzda qo'llay olish orqali tabiiy va ta'sirchan tasvirlab berishga erishgan.

Kinoqissalarning o'ziga xos jihat shundaki, ularda tavsif va tasviriylik ancha ustun bo'ladi. Bu kabi holatlarda yozuvchining aniqlovchi va izohlovchi so'zlarga murojaat qilishi talab qilinadi. Rassom chizmoqchi bo'lgan manzarasiga ranglarni tanlab olgani kabi badiiy matn muallifi ham shu nutqiy vaziyat, nutqiy aktga monand til birliklarni tanlaydi, tafakkurda ularni saralaydi, qaysi so'z qaysi nozik ma'noni anglatla olishini chamalaydi, niyoyat, kommunikativ maqsadga muvofiq jumla tuzadi. Natijada asar muvaffaqiyatlari chiqsa, o'quvchi undan ta'sirlanadi, zarur xulosalarni chiqara oladi, mulohaza qiladi. O'quvchi mulohaza, mushohada qilishi uchun u tasavvur qila olishi kerak. Kinoqissalar adresatga xuddi shu imkoniyatni yaratib beradi. Matnni o'quvchi maktab o'quvchisi bo'lishi, umuman, kitob o'quvchi, rejissyor yoki rolni ijro etuvchi aktyor bo'lishi mumkin, shuning uchun so'zlovchiga, yozuvchiga oson bo'lmaydi, asar muvaffaqiyatlari chiqishi uchun mazkur adresatlarning hammasini nazarda tutishi, ularga tushunarli bo'ladigan til vositalarini qo'llashi, muhim nutqiy aktlarni yarata olishi lozim bo'ladi.

Matnlarda turli turkum so'zlarining faol va o'z o'mnida qo'llanilishi ham alohida kommunikativ va pragmatik maqsadlarning ta'minlanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, aniqlovchi vazifasida deyarli barcha mustaqil so'z turkumlari kela oladi, biroq qaysi biri qaysi holatlarda ta'sirchan ifodani ta'minlashi mavhum. Shu o'rinda quyidagi matnga diqqat qilamiz: Muhtasham xonada Shavkat shifanerdan kiyim-kechak, tortmadan har xil taqinchoqlarni olib kelib, stoldagi choyshabga tashladi. Ora-sira derazadan howliga mo'ralab qo'yishni ham unutmeyapti.

Narigi xonadan katta sumka ko'tarib olgan Jamshid chiqdi.

(Sh.Boshbekov. "Falakning Gardishi" asari)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar, ta'kidlangani kabi, sifat so'z turkumiga mansub bo'lib, biringa o'rinda harakat belgisini ifodalovchi ravish so'z ishtiroy etmoqda. Misoldan ayonki, xususiyat, holat bildiruvchi sifatlar tavsifiy matnlarda ko'proq qatnashishi va uzatilayotgan axborotning ta'sirli bo'lishini ta'minlab berishi tabiiy.

Shu o'rinda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot jarayonida til birliklarining ishtirokini misollar orqali tahlil qilishga harakat qilamiz: QUMRI.«Hukumat ichmanglar, deb qaror chiqarib qo'yibdi, bu ahmoqqa shuyam ta'sir qilmaydi», dedilar.

QO'CHQOR. Hoo, qarorniyam bilarkanlarmi! O'zi sakkizinchi sinfda qolib ketgan! Chalasavod! Rasmi yo'q ekan, deb gazit o'qimaydi!

QUMRI.O'zingiz ham o'qimaysiz-ku?

QO'CHQOR.Men vaqtim yo'qligidan o'qimayman, u savodi yo'qligidan o'qimaydi! Safar-ku, mayli. Sen-chi, sen? Shuncha gapni eshitib, qanaqa qilib chidab turding? Eringni shularga talatib qo'yaverdingmi? E, seni xotin qilib yurgan menga ming rahmat-ye! Xo'p, soldatlar nima deyishdi?

QUMRI.«Ras, duva, vzali» deyishdi.

QO'CHQOR. Nima-li?

QUMRI.«Vzali».

QO'CHQOR.«Vzalyi», o'qimagan! «Raz-dva» mish! Nima, armiyada faqat ikkigacha sanashni o'rgatar ekanmi? Bir munday, yuz-yuz elliikkacha sanamaydimi, men o'zimga kelib olmayman-mi! Sulayib yotgan bokschigayam o'ngacha sanaydi-ku, shunchalik ham bo'lmadikmi? Mayli, bo'lar ish bo'pti, qo'lni yech.

(Sh.f Boshbekov. "Temir xotin" asari)

Muloqot shakli diolog bo'lgani sababli matnda otlardan keyingi faoliyk olmoshlarga, keyingi o'rinn fe'l so'z turkumiga tegishlidir. Demak, mazkur vaziyatda harakat emas, shaxs yoki shaxsiyat muhimroq.

Matnda so'z tartibi masalasini ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Zero gapdagi so'zlar tartibining o'zgarishi ham ko'plab uslubiy-ekspressiv o'zgarishlarga olib keladi. Fikrning muayyan nuqtasi urg'ulansa, matn mazmuni boshqa tarafga o'zgarishi ham mumkin.

Sharof Boshbekov asarlari matnlarida yordamchi so'z turkumlaridan ham samarali foydalilanligan. Quyidagi parcha misoldida muallifning yordamchi so'zlardan foydalananish mahoratiga guvoh bo'lamiz, asarning badiiy qimmatini oshirishda, badiiy niyatning o'quvchiga tushunarli tarzda bo'lishini ta'minlashda yordamchi so'zlearning matn tarkibidagi o'rni va ahamiyati masalasiga to'xtalsak. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qaratamiz:

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 24 maydag'i PQ-2993-sonli Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi. – Toshkent, 2017 yil 25 may.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Boshbekov Sharof "Temir xotin", "Falakning gardishi" asarlari. Toshkent-2016.
4. Jo'rayeva B. Maqollarning lisoniy mavqeい va ma'noviy-uslubiy qo'llanilishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2002. – 24 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildlik. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
6. Xudoyberanova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrlik talqini: Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2015. – 135 b.
7. Xolmurodova M. Xalq maqollari tarixi va ularning sotsiopraktik talqini // Xalqaro turk dunyosi tadqiqotlari Simpoziumi. Ilmiy maqolalar jildi. – Baku, 2019. – B. 273-276.
8. Xolmurodova M. Milliy ma'naviyatning rivojlanishida xalq og'zaki ijodining o'rni (maqollar misoldida) // Markaziy Osyo xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 447-454.
9. G'iyosov S. O'zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. 1986. – № 2. – B. 28-30.
10. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: F.f.d. Diss. – Toshkent, 2011. – B. 94.

OLIMJON . Axir bu odam emas-ku, Qo'chqor aka, temir-ku, negatushunmaysiz?! Ichi to'la sim, plastmassa, yarim o'tkazgichlar! Bu —mashina! E, gapiraveradimi har narsani! Ertaga sinovdan o'tolmasa-yu, buzib tashlasam nima bo'ladi? Bir uyum temir qoladi!

QO'CHQOR.Ha endi, buzmang-da, Olimtoy. Shunday narsani buzsangiz, uvoli tutib, qo'lginangiz akashak bo'p qolmaydimi! E-e, yetganlar bor, yetmaganlar bor... Xo'p de, Olimtoy, dil ketdi-da endi. Senga nima, bu bo'lmasa boshqasini yasab olaverasan, bizga o'xshagan so'qqaboshga qiyin... (Bechorasifat.) yolg'izlik yomon, Olimtoy, buni boshiga tushgan biladi...

(Sh. Boshbekov. "Temir xotin" asari)

E'tibor berilsa, matnda yordamchi so'zlardan faqat yuklamalar qo'llanilgan. Ko'makchi ham bog'lovchi ham qo'llanilmagan. Yuklamalar nutq jarayonida boshqa yordamchi so'zlarga nisbatan faol qo'llaniladi. Ta'kidlash kerakki, ko'pchilik yuklamalar nutq jarayonida Qo'chqor va Alomat tomonidan nisbatan ishlataligan. Pragmatik munosabatlarning aksariyati ham shu yuklamalar orqali yuzaga chiqarilgan, chunki ular taxmin, guman, so'roq, tajjub, ta'kid, tasdiq, ayirish va chegaralash, o'xshatish kabi bir qator modal ma'nolarni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan ham bu o'rinda mazkur yordamchi so'z turi ahamiyatlidir. Bizningcha, matnni birirkiruv bog'lovchilarisiz tasavvur qilish mumkin, ammo nutqning shakllanishi va fikriy ifodalari qo'shimcha ma'no va munosabatlarni ifodalovchi yuklamalarni taqozo qilib turadi.

Qissada grammatick vositalar so'zlashuv uslubiga mos tarzda beriladi:

Qissada asar qahramoni qaysi kasbda faoliyat ko'rsatsa, o'sha sohaga doir atamalar ham faol ishtirok etadi, bu esa bu kabi asar matnlarida ot so'z turkumiga doir so'zlearning ustuvorlik kasb etishini ta'minlaydi. Umuman, qissada nutq vaziyatiga qarab turli o'rinnlarda turli morfologik birliklar faol qo'llanishda bo'lganligi kuzatiladi. Bu holat esa so'z turkumlarining qo'llanilish chastotasiga doir tadqiqotlarning yanada asosli xulosalar uchun xizmat qiladi, ya'ni qaysi so'z turkumlari qaysi nutqiy vaziyatda uyushganroq, faolroq bo'lishi haqida muayyan xulosalarni taqdim qiladi.



**Shahlo MUHAMMADIYEVA,**

O'zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomidagi akademik litseyi bosh o'qituvchisi

E-mail:mshahlo\_87@yahoo.com

Amaliy fanlar universiteti dotsenti, PhD X.Boymonov taqrizi asosida

## THE REPRESENTATION OF THE IMAGE OF A WOMAN AND A MAN IN THE ENGLISH AND UZBEK PICTURE OF THE WORLD

### Annotation

The article outlines the initial image of man and woman in fiction texts in Uzbek and English languages. In this article the texts in Uzbek and English literature are analyzed according to the ideal gender peculiarities of main characters. It compares different styles used in two different language perspectives giving them the exact reasons to be the ideal image throughout the piece of art. The article compares the ways of expressing the worldview of the main characters in the past and contemporary literature and gives social and psychological reasons as an extralinguistic factors effecting to them.

**Key words:** Gender peculiarity, feminism, muscularity, ideal image, social interaction, bravery, national identity.

## РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ МУЖЧИНЫ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА

### Аннотация

В статье обозначены исходные образы мужчины и женщины в художественных текстах на узбекском и английском языках. В данной статье анализируются тексты в узбекской и английской литературе с учетом гендерных особенностей главных героев. Статья сравнивает разные стили, используемые в двух разных языках, с точки зрения того, почему они являются идеальным изображением во всем произведении искусства. В статье сравниваются способы выражения мировоззрение главных героев в литературе прошлого и современной литературы, а также приводятся социальные и психологические причины как экстралингвистические факторы воздействующие на них.

**Ключевые слова:** Гендерные особенности, феминизм, мускулистость, идеальный образ, социальное взаимодействие, храбрость, национальная идентичность.

## INGLIZ VA O'ZBEK DUNYO TASVIRIDA ERKAK VA AYOL OBRAZLARINING IFODASI

### Annotatsiya

Maqlola o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy matnlarda erkak va ayolning dastlabki qiyofasi tasvirlangan. Maqlola ideal o'zbek va ingliz badiiy matnlaridagi bosh qahramonlarning ideal gender xususiyatlari tahlil qilingan. Maqola ikki til imkoniyatlaridan kelib butun asar davomida ideallik sabalarini sanab o'tadi. Maqlola shuningdek o'tmish va zamonaviy adabiyotda bosh qahramonlarning dunyoqarashimi ifodalash usullari taqqoslanadi va ularga ta'sir qiluvchi ekstraliningvistik omillar sifatida ijtimoiy va psixologik sabalar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Genderlik xususiyatlari, feminism, baquvvatlik , ideal obraz, ijtimoiy aloqa, jasorat, milliy o'zlik.

**Kirish.** Ingliz va o'zbek adabiyotining ming asrlik rivojlanish tarixida erkak va ayol obrazlari orqali jamiyat tur mush tarzi, undagi muammolar, tarixiy voqealarning tub negizini asoslab berishda asosiy qurol vazisini bajarib kelgan. Bu ikki , ko'p holatlarda bir biriga zid bo'lgan obrazlar yozuvchining asl maqsadini yaqqol ifodalashda qo'l kelgan. Qadimdan ma'lumki erkak so'zi ingliz tilida "man" so'z umumiyy holda qo'llanilgan.

"What a poor man you are?" ya'ni 'qanchalik senga qiyin' ma'nosida birdek ayol va erkak uchun qo'llanilgan.

O'z asarida I.S. Kon "o'g'il bola" soziga etimologik ta'rif beradi. Shunda 3 jihatni ko'rsatib o'tgan:

Yosh jihatdan – etuk emas

Holati jihatdan- mustaqil bo'limgan

Jinsi jihatdan- qiz emas

Yunon tilida pais so'zi (chaqaloq yoki o'g'il bola, ko'plik shakli paides) faqatgina yoshni naza da tutmasdan, jamiyatdagi o'rnini ham anglatgan. Ingliz tilidagi boy so'zi aslida 1154 yil qayd qilingan bo'lib boie xizmatkor ma'nosida ishlatalgan. I.S. Kon o'zining "Мальчик – отец мужчины" asarida o'g'il bolalarga juda katta bosim ularni jasur, mard, o'ziga ishongan ,ahdi bo'lib shakllanishiga sabab bo'lgan bo'lsa, qizlarga bosiq, itoatkor, g'amxo'r bo'lib voyaga yetgan.

Erkak obrazi adabiyot yaratibdiki u aqilli, doim oilasi, yurti uchun jonini berguvchi ,uzoqni ko'rabiladigan, mehribon ota qiyofasida ko'z oldimizda gavdalananadi

Ayol obraziga keladigan bo'lsak birinchi urunish albatta afsonaviy yunon shoiri Gomerding "Iliada" va "Odessey" poemalarida uchraydi. Shu davrdan olib qaraydigan bo'lsak Gomer ideal ayol obrazini tasvirlaydi. Ya'ni " Iliada" asarida u bosh qahramonni eri uchun qayg'uradigan ideal ayol obrazida tasvirlaydi. Garchi uning taqdiri fojeali bo'lib yakun topsada shoir shu fojea orqali ayolning e'tirofini ochib beradi.

Manbalardan shuni biz aniq aytaolamizki har qanday tilda yozilgan asarda erkak va ayol obrazlari turli qiyofalar , bir biridan farqli dunyoqarashlarda o'z aksini topgan. Misol tariqasida o'zbek xalq ijodi durdonalaridan bo'lmish "Alpomish" dostonida Alpomish jasorat, metin iroda , yurtga sadoqat va mardlik kabi hislatlar bilan boyitilgan bo'lsa, Barchin obrazi avvalo vafo,fidoyilik va mehribon ona kabi yuksak fazilatlarni o'z ichiga olgan.

Ayollarning badiiy tasviri shundan keyingi Yevropada yozilgan ko'plab asarlarga ilk debocha bo'lib xizmat qildi. Ayol obrazini tasvirlashga yondashish keyinchalik diniy tarafdan ko'proq e'tibor qaratilgan. Aligyeri Dante o'zining "Ilohiy Komediysi" bunga misol bo'la oladi. Bu asarning

bosh qahramoni Biatriche shoir tomonidan yuqori e'tirof etiladi. G'oya asta sekinlik bilan ayollarning jamiyatdagi o'rni , ikki jins vakillarining ajralib turadigan vazifalarini olib beruvchi asarlarda rivojlanib boradi.

XVIII asrga kelib fransuz faylasufi, ma'rifatparvari,yozuvchisi va bastakori Jan-Jak Russo o'zining "Yulia ,ya'ni Yangi Eloiza" (1761) va "Emil ,ya'ni Tarbiya haqida " (1762) asarlarida falsafiy qarashlari bilan ikki jins vakillarining bir birdan ajralib turuvchi tomonlari va vazifalarini yoritib o'tgan. Ayniqsa ideal ayolni Russo faqat uy yumushlari uchun tarbiyalangan bo'lishi kerakligini aniq ta'kidlab o'tgan.

XIX asrga kelib ayollar tomonidan feministik ruhdagi asarlar ko'plab yozila boshlandi. Bu ayniqsa fransuz ayol yozuvchisi va jurnalisti Jorj Sand taxallusi ostida tanilgan Amantine Lucile Aurore Dupinning "Indiana", "Valentina", "Leliya" asarlarida feminism tushunchasi paydo bo'ldi. Jorj Sandning "Indiana" romanidagi Indiana ayol obrazi orqali o'sha davrdagi ijtimoiy tengsizlik , ayollarning erkinligi muammosi talqin qilingan.

Shu jumladan aytish kerakki Markaziy Osiyo antik dunyo bilan ko'p asrlar davomida madaniy-adabiy aloqada bo'lib kelganligi tarixiy ilmiy manbalardan ma'lum. Ellinizm madaniyatini yurtimiz madaniyatining rivojlanishiga sezilar ta'sir ko'rsatgan. " Biz hozirgi zamonda yurtimizning ming-ming yillik tarixini , tamomila yo'qolib ketgan ba'zi bir adabiy asarlarimiz ("To'maris", "Shiroq", "Zarina va Strangiya", "Zariadr va Odatida" dostonlari) izlarini antik zamonda o'tgan Yunon – Rim tarixchilariga ( Gerodot, Polien, Diodor, Xares) asarlarida topib olamiz"[1] , -deb yozadi o'zbek adabiyotshunos olimi N.M.Mallayev.

Xuddi o'zbek adabiyotida bo'lganidek ingliz adabiyotida ham obrazlar ikki davr oralig'ida turlicha tasvirlangan. Misol uchun, aynan o'zbek ayoli –mehribon ona , vafoli umr yo'ldosh timsollari vositasida tasvirlangan bo'lsa, zamonaviy adabiyotimizda ayol obrazi erkaklar bilan bir qatorda turib mexnat qilayotgan, oila boquvchi, o'qimishli obraz sifatida gavlanritiriladi. Bu esa ayolning jamiyatdagi o'rnining oshishi va shu bilan birga adabiyotga bo'lgan ta'sirini ham ko'rsatadi.

Manbalarni tahlil qilarkanmiz, ingliz adabiyotida ham ayol obrazlarining tasviri o'zgarib borganligiga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda U. Skotning "Ayvengo" romanidagi bosh qahramon Rovena yozuvchi tomonidan halimlik, bo'ysunuvchanlik hislatlarini o'zida jamlagan holda ideallashtirilgan. Lekin Tekkereyning "Vanity Fair" romanida ayol obrazi ,Rebekka, ayol timsoliga bo'lgan qarashni o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Kun botar tovuqlar chiqar qo'ndoqqa,  
Oqshom pari qizday silkitar ro'mol.  
Bir etak bolasin jamlab quchoqda,  
Qozonga o't yoqar tabarruk ayol  
O'zbek she'riyatida ayol obrazini yetuk darajada tasvirlagan Oydin Hojiyeva.  
Ro'zg'or g'or deydilar.Shu tubsiz g'orda  
Ravshan bir chiroqday yurasan beg'am,  
Shu g'orni butlagil deb biru borda,  
Joningni qirq bitta yaratmish Egam[2]  
Shoiraning "Mustaqil Vatanni baxt nuri chaysin"  
ushbu she'rida ozbek ayoliga har tomonlama mukammal tarzda tasvir berilgan.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotimizning nasr janrida esa Ulug'bek Xamdamning "Ota" romani dunyodagi barcha

otalarning yaqqol namunasi sifatida Po'lat obrazida gavdalaniadi. Romandagi bosh qahramonning ismi ramziy ma'noda Po'lat bo'lib, u jangu jad dallar o'lim og'zidan tirik qaytib kelgan navqiron yigit. Hayotning farzandsizlik kabi ko'p sinovlariga turabilgan umr yo'ldosh, o'z qizining alloviga naqd qaddi bukildi. Asar har qanday ota o'z qizining nomusini har qanday narsadan ustun quyishi asarning tub mohiyatini tashkil etadi. Bu asarda Po'latning seviklisi Yog'du asar boshida ideal ayol obrazi sifatida gavdalaniib keladi. Chunki u Po'latni urushdan qaytishini yillar davomida kutadi. Unga xiyonat qilmaydi. Lekin taqdir ularni diyordi bilan siylasada farzanddan qisdi. Shu damlarda ham ular yengilmadi. Bir birini sira tark etishmadi va Sevinch dunyoga keldi. Asarda bir biriga xarakter jihatdan zid bo'lgan obrazlar bir birlarini to'ldirgan. Masalan, Po'lat bilan Erboy, O'tkir aka Oychechak opa, Sevinch va Yog'du. Erkak va ayolning ideal taraflarini ayan shu zid obrazlar ochib berishga xizmat qiladi aslida. Misol uchun, ingliz adabiyotidan Jeyn Ostinning "G'urur va andisha " asarida Missis Bennet juda o'yalamay gapiradigan obraz sifatida keltirilib aslida Mister Bennetning qanchalik mushoxada bilan aqilli qaror chiqaradigan ideal ota obrazida namoyon bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Garchi adabiyot yaralibdiki erkak obrazi uning barcha shakllarida dominant obraz bo'lib hisoblansada, ayol obrazi ingliz va o'zbek adabiyotining deyarli barcha asarlarining markaziy nuqtasi bo'lib sanaladi. XVIII-XIX asr ingliz adabiyotida Shekspir ijodidan "Gamlet", "Shox Edip", "Qirol Lir" asarlarida ideal erkak va ayol obrazlariga murojaat qilgan bulsa, mavzu Jeyn Eyrning "Andisha va G'urur" va Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" asarlarining o'sha davr muammolari qamrovida qolgan qahramonlariga ko'chadi. O'zbek adabiyotida esa Abdulla Qodiriying " O'tgan kunlar", " Mehrobdan chayon" asarlaridagi bosh obrazlar orqali milliy g'urur , andisha kabi hislatlar ifodalangan bo'lsa , xozirgi davr adabiyotida Ulug'bek Xamdamning " Ota" romanida g'ururli ota, umr yo'ldosh va farzand obrazlari va shoira Oydin Xojiyevaning ayol deb nomlanish sirli hilqat ostida yashiringan ideal ona, umr yo'ldosh kabi siymolarning achchiq va shu o'rinda shirin taqdiri she'rlarida yorqin ochib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** XVIII-XX asr ingliz va o'zbek adabiyotidagi obrazlar hamda xozirgi davr adabiyotidagi bosh qahramonlarning farqli va o'xshash jihatlari ilmiy qiyoslash-tahlil uslubi, adabiy –tadqiqot uslubi, lingvistika va ekstraliningistik tushunchalar uslubi asosida amalga oshirildi.

**Tahlil va natijalar.** Ingliz va o'zbek badiiy matnlarini turli davrlarda ko'zdan kechirar ekanmiz, yozuvchi o'zining asar qahramonlarining nutqi, duch kelayotgan muammolari orqali o'sha davrda jamiyatni qiyab kelayotgan qiyinchiliklarni, ommani qiyab keyayotgan muammolarni ochib berishga urinadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, qahramonlarning nutqi lingvistik tomondan tahlil qilinganda ingliz va o'zbek til madaniyatida erkak va ayol obrazlarining shakllanishiga ekstraliningvisik omillar ta'sir etishi kuzatildi. Shuningdek , bu ikki tilda har ikkala jins vakillarining so'z larni qo'llash jarayoni turlicha ekanligi aniqlandi . Bu kabi farqli tomonlar ingliz va o'zbek tili frazeologiyasini ham sezilarli ravishda emotsional buyoq dorlik jihatdan boyitishga xizmat qildi.

## ADABIYOTLAR

1. H.M.Маллаев . Ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент, 1963, 41- бет
2. Hojiyeva Oydin. Nazokat. She'rlar , doston,qasidalar,badia,o'ylar.- T .. "Sharq" , 2010. 156-bet
3. Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o'zbek qissachiligidagi ayol ruhiyatining badiiy talqini. Fil.fan.nomz...diss.- Toshkent, 2020.- 167 b

4. И. С. Кон. “Мальчик-отец мужчина” Время 2017
5. Christopher Dummitt, M. A., Dalhousie University 1997 “Modern Men : Taking risks and making masculinity in the post war years”
6. Хабибуллина Л. Ф. Женский национальный тип в английской литературе XIX века //Вестник Челябинского государственного педагогического университета, 11-1,2009.- С. 292-299
7. Kodirova G. The comparison of Women image in Russian and English Luterture.2021// International Journal on Orange Technologies, Volume 03, Issue 06, June 2021,p. 97-99. URL: - www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT e-ISSN: 2615-8140/p-ISSN: 2615-7071
8. Конрад Н.И. К вопросу о литературных связах // Запад и восток . – М., 1966. С. 43-52
9. Tanner, T. Jane Austen , Hounds mills , Basingstork , Hampshire and London : Macmillan Press Ltd., 1986 . -291 p.
10. Waldron M. Jane Austen and the fiction of her time Cambridge : Cambridge University Press 1999. – 320 p.
11. Shermurotov T. Mangu onaizor talqini. Yetuklik jozibasi. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.-144 b
12. Sattarova G.Y. Bugungi hikoyalarda ayol obrazı talqini // Scientific work (international scientific journal) . -2020.- No. 08/57.- P. 29-32 DOI: 10.36719/ AEM/2007-2020/57/29-32



Rano NEKBOYEVA,

Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: ranonekboyeva@gmail.com

Qarshi DU dotsent v/b, PhD M.Omonova taqrizi asosida

## O'ZBEK TILIDA FITONIM KOMPONENTLI LEKSEMALAR LARNING RAMZIY VA KO'CHMA MA'NOLARI

Annotatsiya

Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish. Bu birinch usul turli xalqlar frazeologik birliklarining bir-birlariga har jihatdan o'xshashligi, aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urchodatlari va mantiqiy mushohadalardagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yordi va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obratzli asosdan iborat bo'lib qoladi [5]. Masalan, life and death struggle – hayot-mamot jangi, to draw the line – chiziq tortmoq, the seven deadly thins – yetti gunohi kabira.

**Tahsil va natijalar.** Ilmiy-ommabop matnga murojaat qiladigan bo'lsak quyidagi misolga e'tibor qaratishimiz mumkin: "I don't like the way you look," she said [6].

Ruscha tarjimada: «Мне не нравится, как вы выглядите», – сказала она [7].

O'zbekcha tarjimasi: Menga ko'rinishingiz yoqmayapti, - deydi u qaynotasiga [8].

Ushbu kontekstdagi inglizcha "I don't like the way you look" jumlesi "ko'rinishingiz yaxshi emas, xavotirli" degan ma'noni ifodalagan. O'zbek tilida ham, rus tilida ham shubha uyg'otadigan, xavotirli holat, vaziyatga nisbatan "menga yoqmayapti" iborasi ishlatalidi.

Frazeologizmlarning keyingi ikkinchi tarjima usuli muqobil variantlar yordamida tarjima qilishdir. Tarjima tilida asliyatda qo'llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan holatda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliliklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar.

Bunday frazeologik birliliklar o'zaro muqobil munosabatida bo'ladi. Moddiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo'lishi va istifoda etilishi har bir xalq sohibining muayyan fikrni obrazli yoki hissiy-ta'sirchan tarzda ifoda etishda o'z turmush tushunchalari, urchodatlari, milliy-falsafiy qarashlari va o'ziga xos ruhiyatidan kelib chiqishlari bilan izohlanadi. Misollarga e'tibor qarataylik: Before we can effectively build new habits, we need to get a handle on our current ones [6.54].

Ruscha tarjimada: Прежде чем мы сможем эффективно строить новые привычки, необходимо обрести контроль над нашими настоящими привычками [7].

O'zbekcha tarjimasi: Yangi odatlarni samarali yaratishdan oldin eskilarini tizginlab olishimiz zarur [8].

Ushbu misoldagi "to get handle on" iborasi "murakkab vaziyatni yetarli darajada tushunish va nazorat qilish" degan ma'noni bildiradi [9]. Rus tarjimoni tanlagan "обрести контроль" jumlasidan ko'ra o'zbek tilidagi "tizginlab olish" iborasi muqobil tarjimaga misol bo'lgan deb aya olamiz.

Frazeologik birliliklarning navbatdagi uchinchil tarjima qilish usuli kalka usulida tarjima qilishdir. Hech bir til frazeologik birliliklari hayotdag'i barcha jihatlarni qamrab ololmasliklari tufayli bir tilda muayyan tushunchani ifoda etadigan muayyan frazeologizm o'zga tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday holda ko'proq tarjima amaliyotining kalka, ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilinadi. Bu yo'l vositasida tarjima tilida hosil qilingan birikma iboraviy shakl kasb etib, tabiiy jaranglasa, nazarda tutilgan ma'no va uslubiy vazifani aks ettira oladi. Bunday paytda nafaqat adekvatlik ta'minlanadi, balki tarjima tili lug'at tarkibining boyishi uchun ham imkoniyat vujudga keladi [5].

Misollarga murojaat qilaylik: Almost like magic, I began eating a few apples each day simrly besause they were obvious rather than out of sight [6].

Ruscha tarjimada: И волшебным образом я начал есть их каждый день – просто потому, что они были на виду [7.108]. [7].

O'zbekcha tarjimada: Xuddi sehrlangandek, kuniga bir ikkita olma yeya boshladim. Bu sehr emasdi, albatta, shunchaki olmalar qayerdadir esdan chiqib yotish o'mniga doim ko'z oldimda edi [8].

Mazkur misoldagi "Almost like magic" iborasi ruschaga "И волшебным образом" deya tarjima qilingan bo'lsa, o'zbekchaga kalkalash usuli bilan "xuddi sehrlangandek" ko'rinishida tarjima qilingan va kontekstdagi pragmatik ma'no yetkazib berilgan va tarjima adekvatligi ta'minlangan.

Frazeologik birliliklarni tarjima qilishning oxirgi to'rtinchi usuli tasviriy usulda tarjima qilishdir. Chunki ba'zan muayyan frazeologik birlikni ekvivalent, muqobil variant yoki kalkalash usullaridan birontasi vositasida tarjima qilishning ham iloji bo'lmaydi. "Bunday hollarda san'atkorlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojaat qiladilarki, mazkur usul yordamida birliliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib qo'yaqolinadi. Ushbu holatlarda asliyatdag'i frazeologik birliliklar tarkibida mujassamlashgan uslubiy vazifalarning qayta yaratilishi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Ushbu holatlarda bayon etilgan fikrning ta'sir kuchi pasayadi, aniq va siqqligi yo'qoladi. Bu esa o'z navbatida asliyat matni badiiy qiymatining pasayishiga olib keladi." [5.205]. Quyidagi misolga e'tibor qarataylik: The same goes for end caps, which are the units at the end of aisles. End caps are moneymaking machines for retailers because they are obvious locations that encounter a lot of foot traffic. For example, 45 percent of Cosa-Cola sales some specifically from end-of-the-aisle racks [6].

Ruscha tarjimada: Этот же принцип действует и для концевых стоек и прилавков, расположенных в торце: эти прилавки – «машины для зарабатывания денег» во всех розничных сетях, поскольку очевидно, что мимо них проходит больше всего покупателей. Например, 45 % продаж «Кока-колы» осуществляется именно благодаря прилавкам и стойкам в конце рядов[7].

O'zbekcha tarjimada: Qator boshida alohida turadigan tokchalar haqida ham shunday deyish mumkin. Ular chakana savdogarlar uchun haqiqiy "qaynar xumchadir", chunki bu yerdan o'tadigan odamlar soni ko'p bo'ladi. "Coca Cola" mahsulotlarining 45 foizi shunday tokchalarda sotiladi [8].

Ushbu parchadagi "moneymaking mashines" iborasi ingliz tilida pul topish maqsadida ba'zan estetik yoki ma'naviy qadriyatlarini chetga suradigan o'ta katta foyda keltiradigan sxema yoki muassasa ma'nosini beradi. Bu frazeologik birlik rus tiliga shunchaki "машины для зарабатывания денег" tarzida o'girilgan. Lekin o'zbek tiliga tasviriy tarjima qilish usulida "qaynar xumcha" deb tarjima qilingan. O'zbek tilida, odatda, katta foyda keltiradigan ishni yoki vaziyatni "qaynar xumcha" frazeologik birligi bilan tarjima qilinadi. Bu yerda muallif nazarda tutgan pragmatik ma'no to'laqonli oshib berilgan.

Tarjimashunos E. Ochilov o'zining "Tarjima nazariyasi va amaliyoti asarida frazeologik birliklarni tarjima qilishning kompensatsiya (berilgan qurbanlikni o'mini to'ldirish, tovon to'lash) usulini G'aybulla Salomovdan keltirib o'tadi: "Asarning asl nusxasidagi ko'chma ma'noli birikmalarini ularni ekvivalentlari va (muqqobil) variantlari bilan almashtirish uncha qiyin emas. Ammo, ko'p hollarda, shunday maqol, matal va idiomatik birikmalar uchraydiki, ular faqat ayni tilning o'zigagina xos bo'lib, boshqa tilga ko'chirish juda qiyinchilik tug'diradi. Bunday holda o'sha frazeologizm o'rni boshqa birikma keltirib qo'yiladi va bu bilan originalning o'rni to'ldiriladi [10]." Quyidagi misolni ko'rib chiqaylik:

Laszlo believed in this idea so strongly that he wanted to test it with his own children—and he was writing to Klara, because he "needed a wife willing to jump on board [6].

#### ADABIYOTLAR

1. Казым-бек М. А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск П. Казань. 1846. С. 120.
2. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Т. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2002. 38-б.
3. Неплюбин Л. Л. Толковый переводоведческий словарь. З-изд., перераб. Флинта: Наука. 2003. С. 240
4. Бобохонова Л. Т. Инглиз тили стилистикаси. Т. Ўқитувчи, 1995. 140 б.
5. К. Мусаев. Таржима назарияси асослари. Тошкент. Фан. 2005. 185-б.
6. James Clear. Atomic habits. AVERY an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. P. 52.
7. Клир Джеймс. Атомные привычки. СПб.: Питер. 2020. С. 78.
8. Жеймс Клир. Атом одатлар. Тошкент. NIHOL. 2022. 74-б.
9. <https://www.phrases.com/psearch/handle>
10. Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. Тошкент давлат шарқшунослик институти. Тошкент. 2012. 49-бет.
11. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/jump-aboard>

Ruscha tarjimada: Ласло верил в эту идею настолько сильно, что хотел проверить ее на собственных детях, и он написал Кларе, потому что ему «нужна была жена, готовая на проведение такого эксперимента» [7].

O'zbekcha tarjimada: Laslo ushbu g'oyaga shu qadar ishonar ediki, ularni o'z farzandlarida sinab ko'rishga ham tayyor edi. Uning Klaraga xat yozishdan maqsadi ham tajriba uchun ko'ngillini turmush o'rtoq qidirish edi [8].

Ushbu parchadagi "to jump on board" iborasi biror narsaning bir qismi bo'lishga qaror qilish, biron faoliyat yoki boshqa narsa uchun guruhga qo'shilish degan ma'noni bildiradi [11]. Ruscha tarjimasida "нужна была жена, готовая на проведение такого эксперимента" (bunday tajribani o'tkazishga tayyor xotin kerak edi) ko'rinishida tarjima qilingan. Bu holatda ruschada asliyatdag'i ibora ibora bilan berilmagan. O'zbekchada esa tajriba uchun "ko'ngilli" turmush o'rtoq qidirish edi, shaklida berib, asliyatdag'i ma'noni kompensatsiyalagan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ma'no ko'chish turlari, o'xshatish, mubolag'a, so'z o'yinlari, muqsim frazeologik birliklar kabi ilmiy uslubga xos bo'lmagan, badiiy, publisistik va og'zaki uslubga xos stilistik vositalar qo'llanilishi ham ilmiy-ommabop matn uchun xarakterlidir. Ayni paytda chet tillaridan turli kitoblar, ayniqsa, ilmiy-ommabop asarlar ko'plab tarjima qilinmoqda. Ushbu tarjima asarlarni o'qiganda g'o'r, shira-shakarsiz, o'ta g'aliz, pala-partish jummalarga har qadamda duch kelish mumkin. Bu lingvistika, stilistika, sintaksis, uslub qoidalalarini yaxshi o'rganmay turib yeng shimarib tarjimalarga kirishib ketilayotgani, tarjimaga nisbatan oson ish deb mensimay qaralayotganining natijasidir. Yosh tarjimonlar o'ziga xos frazeologizmlar, joy nomlari, ismlar, idoralarning atamalari – realiya deb ataladigan xos milliy hodisalarini aniq qanday o'girish to'g'risida yetarli tasavvur va nazariy bilimga ega bo'lgan holda tarjimaga qo'l urishlari maqsadga muvofig bo'lar edi.



**Kurshida TOSHOVA,**  
NavDPI tayanch doktoranti  
E-mail: xtoshova90@mail.ru

NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.d R. Yusubova taqrizi asosida

## QORA RANG BILAN BOG'LIQ FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqlolada rang bilan bog'liq frazeologik birliliklarning milliy-madaniy xususiyatlari, qora leksemasi aks etgan maqlol, matal, iboralarning konnotativ xususiyatlari, ya'ni til va madaniyat bilan bog'liqligi tahsil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Til, madaniyat, ibora, maqlol, matal, rang, qora, konnotatsiya.

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С ЧЕРНЫМ ЦВЕТОМ

Аннотация

В статье анализируются национально-культурные особенности цветных фразеологизмов, коннотативные характеристики пословиц, поговорок и выражений с черной лексемой, то есть их связь с языком и культурой.

**Ключевые слова:** Язык, культура, выражение, пословица, цвет, черный, коннотация.

## LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGICAL UNITS RELATED TO THE COLOR BLACK

Annotation

The article analyzes the national-cultural characteristics of color-related phraseological units, the connotative characteristics of proverbs, sayings, and expressions with the black lexeme, i.e., their connection with language and culture.

**Key words:** Language, culture, expression, proverb, matal, color, black, connotation.

Olamning lisoniy manzarasi ranglar orqali aks etadi. Ranglar orqali aks etgan maqlollar, matallar, iboralar kabi frazeologik birliklar har bir tilda shu til egasining milliy madaniyatini, milliy dunyoqarashini, milliy urf-odatlarini mujassamlashtiradi. Shu sababli til millat ruhidir. Ana shu milliy ruh bo'lgan tilimiz necha ming yillik tarixga ega. Rang bilan bog'liq frazeologik birliklar haqidagi gapirar ekanmiz Qora rang bu o'rinda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu so'z etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak, qora-ko'mir tusidagi eng to'q rangdir. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni va boshqa bir necha ma'noni anglatgan bu sifat asli qara tarzida talaffuz qilingan[Rahmatullayev, 2000: 566], qora rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to'q; qozon kuya, ko'mir tusidagi: qora soch, qora qozon, qora ko'z, qora siyoh kabilalar

Qora rang borliqda anglatgan leksik ma'nosidan tashqari konnotativ, ya'ni ramziy ma'nolar ham ifodalaydi. Jumladan, qora rang ko'pgina xalqlar madaniyatida o'lim va motam ramzini, qadimgi Misrda esa hayot va qayta tug'ilishni, o'rta asrlarda tantanali va hokimiyat ramzi bo'lgan, shuning uchun sudyalar, bosh hokimiyat vakillari tez-tez qora rangli liboslar kiyib yurishgan[<https://oriftolib.uz>], milliy tariximizga qaraydigan bo'lsak, qora leksemasi "Avesto" da yovuzlik, yomonlik kabi ramziy ma'nolarni anglatadi. Alisher Navoiy davrida esa qora rang buyuklik, ulug'lik ramzi hisoblangan. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Chin xoqoni farzandli bo'lgan kuni mamlakatdagagi hamma devorlarni qora rangli ipak matolar bilan bezash buyrug'ini bergan, demak, bu holat qora rangning buyuklik, ulug'lik kabi konnotativ ma'nolarni ifodalashini ko'rsatadi. Bu tushuncha hozir ham ayrim viloyatlarda saqlangan. O'zbeklarda Qoravoy, Qorajon, Qora botir, Qoraxon degan ismlarning qo'yilishi ham bu fikrni dalillaydi.

Milliy madaniyatimizni o'zida aks ettirgan maqlol, matal, iboralarda ham qora rang o'ziga xos konnotativ ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, baxti qora, dili siyoh bo'ldi, ko'ngli qora, ko'z qorachig'idek, ko'z

qoraydi, qon qora qaqqashatmoq, qora kun, qoraga olib qo'yamoq, qorani oq demoq, qorasini ko'rsatmaslik, qorasi o'chdi, qora terga tushmoq, qora tortib, qora xat, yuragi qora, qora tovuq ham oq tuxum qiladi, qora ko'ngil- yara ko'ngil, qora taxta, yuziga qora surtmoq, qora qilmoq(qoralamoq), qora bo'lib qolmoq, orqa oldinga qora tosh, og'zi burningdan qora qoning kelsin, oqni qora, qorani oq deydig'an, qaro yer bo'lgur kabi frazeologik birliklarda ramziy ma'nolar ifodalaydi.

Yusufbek hoji xatmi Qur'on qilib yurtga osh berdi, O'zbek oyim qora kiyib ta'ziya ochdi(A.Qodiriy "O'tkan kunlar"). Yuqorida keltirilgan ushbu parchalarda qora leksemasi aza, ya'ni ta'ziya libosi ma'nosida qo'llanilib, O'zbek oyimning aza ochganligi ma'nosini ham ifodalagan, bundan tashqari, millat uchun ham aza ochganligini ifodalamoqda.

Axir men zinhor bunday xayollarga bormaganman, o'yimning bir chekkasiga ham keltirmaganman, bunday sovuq va qora xayollarni. Siz esa... qo'rqiб ketdim. Parvardigoring o'zi asrasin bunday kunlardan, mehribonim!(X.Do'stmuhammad

"Men- sensiz, sen -mensiz") Qora xayollar iborasida qora leksemasi ot bilan komponent hosil qilib, yomon xayol ma'nosini ifodalagan.

Ko'ngli qora frazeologik birikmasida "qora" leksemasi yovuzlik, yomonlik kabi ma'nolarda qo'llangan, ya'ni ko'ngli qora -yomon, buzuq niyatli, g'arazgo'y, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan, birovni ko'ra olmaydigan, niyati buzuq, ko'nglida kiri bor kishi xarakteriga nisbatan ishlatalidi. Bu frazeologik birlikning ichi qora, qora ko'ngil,qora yurak, yuragi qora kabi variantlari mavjud. Masalan, Qahqaha zo'ridan devorlar qimirlab, shift boshimga ag'darilgandek bo'ldi.— Voy, qora yurakli hayosiz-e! Qiz boshing bilan mening hujramga tungi ko'yakda kirishga uyalmadingmi? O'sha paytdagi ahvolimni ko'rishni istardim, kim bilsin, qanday rangga kirib, qanday rangdan chiqdim ekan

(R.N.Guntekin "Choliqushi"). Agar u odamingizning gapi rost bo'lsa, ikkita xotinli odam jamiyatga zarar keltirs, uchtami, to'rtta xotin olganlar jamiyatga o't qo'yay ekan-da. Siz to'g'ri fahmlagansiz: ichi qora odamga o'xshaydi. (T.Malik "Murdalar gapirmaydilar")

"Dili(ni) siyoh bo'ldi(qilmoq)"-ushbu iborada qora o'rniда тоjikcha siyoh leksemasi qo'llanilgan. Bu leksema xat yozishda ishlatalidigan rangli suyuqlik[Rahmatullayev, 2000: 214] va qora rang ma'nosini ifodalaydi. Avvallari bu suyuqlikning rangi faqat qora rangda bo'lganligi uchun siyoh leksemasi rang ma'nosini ifodalash uchun ham qo'llanadi. Iborada siyoh ko'chma ma'no ifodalaydi, ya'ni kimnidir xafa qilmoq yoki kimandir xafa bo'lmoq ma'nolarini ifodalaydi. Variantlari: ko'ngli buzildi, ko'nglini buzmoq, ko'ngli qora bo'ldi: To'y aniq bo'lganida, oldiga o'tqazib qo'yib, lo'ndagina qilib tushuntirgan edi. «O'zing xohlab qilyapsan shu ishni, bilib qo'y, to'ydan keyin mayda-chuyda gaplarni ko'tarib keladigan bo'lsang, dilingni siyoh qilib qo'yaman». (O'Hoshimov "Quyosh tarozisi")

Siyoh leksemasi qora rangli yozish vositasi sifatida qo'llanadi, lekin bu leksema konnotativ ma'nolarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, siyoh baxt iborasida siyoh so'zi baxt so'zi bilan birikib, siyahbaxt-baxtsiz, iqboldisiz, hayoti xorlik bilan, azobda o'tadigan kabi ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi:

Yanglish so'zlaysiz, onajon! — dedi Kumush va: — Siz dunyoda turishka loyiq edingiz, lekin sizning dunyo-dan to'yishingizga va qon-qon yig'lashingizga sababchi men bo'ldim. Men siyoh baxt dunyog'a kelmagan bo'lsam edi, sizga munalik kulfatlar munalik an-duhlar ham yo'q edi (A.Qodiriy "O'tkan kunlar").

Men kanizi siyahbaxti laim,  
Ham siyahbaxt-u ham siyoh kalim("Sab'ai sayyor")

Ushbu baytda siyoh kalim birikmasi ham qo'llangan bo'lib, siyoh leksemasi kalim leksemasi bilan birikib hech kimga keraksiz hamsuhbat kabi konnotativ ma'noni ifodalagan. Variantlari: baxti qora, qora baxt: «Orqangga qayt, baxti qora, hali ham kech emas, halok bo'lasan!» — dedi ichki bir ovoz unga.— Yo'q, men oxirigacha ahdimda turaman! — javob qaytardi ovoz chiqarib Nurbek. (Ch.Aytmatov "Baydamtol sohillarida").

Qora kun iborasida qora leksemasi turmushning azob-uqubatl, og'irchilik, vazminlik bilan bog'liq bo'lgan davrni; mashaqqatli, azobli, og'ir ma'nolarini ifodalagan: Adolat esa mehribonlik qilib unga yana uchta qiz tug'ib berdi. Qizlari tug'ilgunicha bir navi edi. Ana undan keyin Nafisaning ham qora kunlari boshlandi. ("T.Malik "Murdalar gapirmaydilar")

Bilgin, Ko'kamanning ko'ngli qabardi,  
Agar bilsang, alplar xabar topadi,  
Ot o'ynatib, bari yig'ilib keladi,  
Qora tunni o'zbeklarga soladi("Alpomish").

Yuzini qora qilmoq iborasida qora leksemasi badnom, sharmanda qilmoq ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan: Dunyoda bundan ham kulgiliroq narsa bo'lmas. Hoji xalfa qizchasinining kitoblarini, daftarlarini zo'rlik bilan tizzasiga qo'yib: — Qani, ko'raylik-chi, xo'jayinim oldida yuzimni qora qilsang, yedirgan nonim, ichirgan namagimni burningdan chiqarib olaman, — dedi.(R.N.Guntekin "Choliqushi"). Varianti: yuziga qora surtmoq: Mash'um tuzum Qodiriyning munosib o'rinosari bo'ladigan va kelajakda o'zbek adabiyotining navqiron avlodni sig'inib yuradigan eng to'g'riso'z, haqgo'y, matonatl insonni ham chohga sudraydi, kelajak oldida yuziga qora surtib qo'yadi.

Yuzi qora bo'lmoq iborasida ham qora leksemasi asosiy komponent hisoblanadi va kimningdir yomon, uyatl ish qilib, obro'sizlangan, gunohkorona holatga tushib qolishi ma'nosini ifodalaydi, yuzini qora qilmoq va yuzi qora bo'lmoq iboralari bir-biridan fe'l leksemalar orqali farqlanadi,

ya'ni qilmoq va bo'lmoq fe'llari frazeologik birliklarning boshqa-boshqa ma'no ifodalashiga xizmat qilgan:

Dardimizga ushbu kunda keldi chora, Bugun bo'ldi zolimlarning yuzi qora (Majid G'afuriy "Shodlik" she'ri)

Qoraga olib qo'ymoq iborasida kim nimani kuzatib turishni lozim deb belgilab qo'ymoq[Rahmatullayev, 1992: 234] ma'nosini ifodalagan. Bu frazeologik birlikda qora leksemasi mo'ljalga olingen yoki olinadigan narsa, nishon; mo'ljal ma'nolarida qo'llanilgan: Mergan bo'lsang, o'shal og'ochni qoraga olib otg'il(Mirkarim Osim "O'tror").

Qora olib iborasida qora leksemasi kim yoki nimani dir mo'ljal qilib, o'sha mo'ljal asosida harakat qilish[Rahmatullayev, 1992: 234] ma'nolarini ifodalayapti: Ular ertalab o'tgan qo'y suruvlarining izini qora olib tepaliklar osha yurishadi (A.Hasanov "Chiroqlar").

Qorani oq demoq iborasida qora va oq leksemasi ziddlik hosil qilib, haqiqatni teskari talqin qilgan holda yolg'oni haqiqat, yomonni yaxshi, noto'g'rimi to'g'ri deb bilih ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanilgan: Ota va akalarining huzurida jilla oshib-toshmasa ham, ular yo'q vaqtida qiz o'zini "uy boshi" hisoblar, har bir ishda o'z ra'yini o'tkazishga astoydil urinar, o'jarlik bilan qorani oq deb isbot qilishga tirishar edi (Oybek "Qutlug' qon")

Qorasini ko'rsatmaslik - Bu iborada qora leksemasi kim kimningdir ko'ziga hech ko'rinnaslik ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan: Ha, bolam qola qol, chirog'im... Obbo, jinni qiz-e! Yuragimni qinidan chiqaza yozding-a! O'zing ham kuzdan beri qorangni ko'rsatmay qo'yding. Kel, o'tga yaqin kelib o'tir, isinib ol(Ch. Aytmatov "Birinch muallim").

Qorasini ko'rindi iborasida qora leksemasi tunda yoki uzoqdan kimningdir ko'ringan ko'lankasi, sharpasi[Madvaliyev, 2006: 336] ma'nolarini ifodalaydi: Uning yopiq derazasi go'yo shu sukunatga xalal bermoqchi emasdek «qirs... s...» etib jur'atsizgina ochildi. Tabaqalar yarim-yorti ochilib ulgurmay... Oshxona muylulishida juvonnning qorasi ko'rindi (X.Do'stmuhammad "Vasiy")

Qorasini o'chdi kimningdir uzoqlashib, ko'rinnaslik ketishiga nisbatan qo'llaniladi. Eng qizig'i, o'sha voqeadan so'ng Mirodilning ham qorasi o'chdi. Hatto ko'cha-kuyda ham ko'rinnaslikdigan bo'ldi(R.Jabborov "O'rinsiz rashk ixtirobi").

Qora terga tushmoq iborasida zo'r berib, qiynalib og'ir mehnat qilish natijasida mo'l-ko'l terlamoq: Otlar jiqla ho'l bo'lib to'xtab qolishdi... Sultanmurod egardon tushdi-da, shishib, ezilib ketgan oyoqlarida bazo'r turib xuddi mast odamday gandiraklab otlarning orasidan o'tdi. Qora terga botib, qaltilayotgan, quloqlaridan tuyog'igacha ho'l bo'lib, sillasi qurib zo'rg'a nafas olayotgan otlarni ko'rib shunday ichi achishib ketdiki, beixiyor ingrab yubordi(Ch.Aytmatov "Erta qaytgan turnalar").

Qora tortib bormoq kishining boshqa biror kishiga ishonib, unga suyanib, yordam so'rab bormoq[Sodiqova, 1974: 93]: Bo'ri polvon! — dedi. — Enangni qozo... Dodingni kimga aytasan, deydi! Yurt so'raydig'an raisi shul bo'lgach, fuqaro dodini kimga aytadi?! Brigadiriga aytadi-da! Bo'ri polvon ko'tarilib-ko'tarilib ketdi: El Bo'ri polvonni qora tortib keldi! (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi").

Qora qilmoq(qoralamoq) iborasi kimnidir aybdor, gunohkor qilmoq ma'nosini ifodalaydi: Salim ham butun aybni Yo'chiga ag'darib, o'zini quruqqa tortdi. Uning "axloqsizligi" to'g'risida birmuncha gaplar to'qidi va dadasi haqorat qilganligi, haqqimni yeb ketdi boy deb ko'cha-ko'yda boyni qoralab yurganligini aytadi(Oybek "Qutlug' qon").

—Ha, yash-sha-a! — dedi u Farhodning tirsagidan tutib, - shuni unutmalar: qora qozon qaynab turganiga shukr deydig'an zamonalr o'tib ketdi, endi qozon mazali qaynasi, jonon masalliqlarga to'lib qaynasi deb yashaydigan payt keldi

(X.Do'stmuhammad "Ko'za"). Ushbu keltirilgan parchada ham qora leksemasi qozon leksemasi bilan birikma hosil qilib, ko'chma ma'noni, ya'ni bunda qozonning rangi emas, kuni o'tib turganligi, har kuni bir marta bo'lsa ham, qozonida ovqat pishirilayotganligi ma'nolari ifodalashga xizmat qilgan.

Qora xat halok bo'lgani ya'ni vafot etganligini oila-a'zolariga xabar qilish uchun jo'natilgan xabarnoma, ya'ni bu birikmada ham qora leksemasi ko'chma ma'no ifodalamoqda: Bir hafta burun Zelihonlarnikiga qoraxat kelib aza ochilgan edi. Olti yoshga to'lgan bola dam onasiga qo'shilib yig'lardi, dam bobosiga qo'shilib qo'lini fotihaga ochardi(T.Malik "Shaytanat")

Chilvir otib, qad ko'targan tokni ko'rdirim,  
Asriy qora xat ko'targan zog'ni ko'rdirim,  
Oymomani dast ko'targan tog'ni ko'rdirim,  
Shavqi baland sog'lar mudom mastmi , Salim,  
Sening darding mening dardimmasmi, Salim? (I Mirzo "Sizni kuylayman")

"Ko'z qorachig'idek" iborasida qora sifati qorachiq so'zi bilan birikib, o'ta darajada avaylamoq, g'amxo'rlik ko'rsatmoq kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bilamizki, ko'z qorachig'i, ya'ni ko'z nurimiz bo'lib, uni shu darajada asrabbavaylaymiz, chunki u bizga olamni ko'rishimiz vazifasini bajaradi. Variant: ko'z qorasidek, ko'zining oq-u qorasi. Moskva pochtasining blankasiga qistanib yozilgan otamming eng oxirgi maktubi hozirgacha saqlanib qolgan. Uning har bir jumlsidan hadik-xavotir sezilib turadi: "Bugun bo'lmasa, ertaga hibsga oladilar". U onamga bolalarni ko'z qorachig'iday avaylab asragin deb qayta-qayta tayinlagan, boz ustiga, mening vijdonim toza, hech qanday aybim yo'q deb qasam ichgan edi (Ch.Aytmatov "Cho'qqida qolgan odam").

Qosh qoraydi iborasida qora sifati qorong'u, zulmat ma'nolarini ifodalagan, ya'ni falakda yorug'lik o'mini qorong'ulik oldi kabi ma'nolar aks etadi. Variantlari: ko'z qoraydi, kun qoraydi, osmon qoraydi. Yo'l bo'yidagi ariqlar afti burishganicha muzlab qolgan, daraxtlar cho'itoq supurgiga o'xshaydi. Havo, kuni bo'yi zo'r berib loaql to'rttagina qor tashlamaganidan xunob bo'lganday, qovog'i soliq. Shuning uchun, hali kun botmagani holda, qosh qoraygan. (A.Qahhor "Karavot")

Qorasi o'chsin, qaro yer bo'lgur, og'zi-burningdan qora qoning kelsin qarg'ish iboralar bo'lib, bunda qora leksemasi ot va fe'l komponent bilan birikma hosil qilib, g'azab, nafrat kabi salbiy ma'no ifodalaydi: Ayollar ko'priq boshida chapak chalib, tizzalarini urib chinqirishdi: "Dod zolimlarning dastidan! Oq podshoning taxti kuysin! Qorasi o'chsin!(Oybek "Qutlug' qon")

"Sen kasofat... sen shumqadam...sen ajinaning urg'ochisi kelib, bolaginamning boshiga yetding! Qanday ulim bor edi-ya, qatorida nor edi-ya! Ha, urug'-aymog'ing bilan qaro yer bo'lgurl!", haydagani-haydagan: "Yo'qol, alvasti! Qirilib ket shaytonning urg'ochisi!" (Bayram Aytmurod "Yurakka yuk tushdi")

- Senga nima balo bo'ldi?! Yog'och bo'lib qolganmi deyman qo'ling? - deb menga xo'mrayib g'ajib tashlamoqdan beri bo'lib o'tirdi. Keyin sabri chidamay qoldi shekilli: - Qora qoning og'zingdan kelgur! Tur o'rnингдан, Sayqal buvining qopini oborib ber, - dedi.(Ch. Aytmatov Birinchi muallim)

Oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoq iborasida oq va qora leksemalari zidlikni yuzaga keltirib, bu ranglar ijobjiy va salbiy, ya'ni haqni va nohaqliidan, yaxshini yomondan farqlash[Sodiqova, 1974: 94] ma'nosini ifodalagan: Tunda uxlamagan bo'lsa-da, uyqusi kelmad... Xayolidagi gaplarni qog'ozga tushurishga darrov kirisha olmad. Chunki bilim yurtida unga oq-u qorani ajratishni o'rgatgan ustozlarning askari bu idoraning hukmi bilan o'ldirilgan bo'lsalar-da, hanuz qora ro'yxatda turadilar (T.Malik "Ozod inson haqida qo'shiq").

Qora leksemasi xalq maqollarida ham o'ziga xos ko'chma ma'no ifodalashga xizmat qilgan. Masalan, qora tovuq ham oq tuxum qiladi maqolida odamlarning tashqi ko'rinishiga qarab xulosa chiqarish, tashqi ko'rinishi bilan muomala qilish kerak emasligini, aksincha, uning aql-zakovati, xayrli ishlari, gap-so'zlariga qarab muomala qilish kerakligi[Shomaqsudov, 1988: 332] kabi ma'no yotadi. Chunki har qaysi xunuk odam yomon bo'lavermaydi, u ham yaxshiliklarga, ezgu ishlarga qodir bir inson bo'lishi mumkin. Variantlari: qora sigir ham oq sut beradi, har yuzi qoraning ko'ngli qora bo'lavermas, qora bulutdan tiniq suv tomar.

Qora ko'ngil-yara ko'ngil maqoli esa ko'ngli qora odamning yuragida hech yaxshilik, ezbilik bo'lmaydi, qora ko'ngil odamga to'g'ri so'z, pand-nasihat kor qilmasligi ma'nosи aks etadi. Variantlari: quduq tubiga quyosh tushmas, yomonning diliga yaxshilik nuri tushmas, ko'ngil kiri yetti daryoda yuvsa ketmas[Shomaqsudov, Shorahmedov, 1990: 496]. Ya'ni ko'ngli qora inson xuddi jarohatlangan, yaralangan kabitidir.

So'raganning bir yuzi qora, bermaganning ikki yuzi qora nasihat mazmunidagi maqol bo'lib, qora leksemasi ko'chma ma'noda qo'llanilib, ushbu maqol kimdir sendan yordam so'raganda imkonning bo'lsa, yordam qilgin, ammo imkonning bo'la turib yordam qilmasang, bu sening ziqlanliging, qizg'anchiqligingdir[Shomaqsudov, 1988: 246] mazmunini ifodalaydi. Qora itning uyati oq itga tegar maqolida ham qora va oq leksemalari zidlikni hosil qilib, ko'chma ma'no ifodalashga xizmat qilgan, ya'ni yomonning yomon ishi yaxshiga ham zarar berar, qilgan yomonligining bir chekkasi yaqinlaringga ham ziyon yetkazadi, uyatli bir holatingdan oiling ham zarar ko'radi ma'nolarini ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ranglarning bu kabi konnotativ ma'nolarni ifodalashida biz tilimizning naqadar boyligini, rang-barangligini ko'rishimiz mumkin. Qora tilga olinishi bilan ongimizda yovuzlik, yomonlik yoki buyuklik kabi ma'nolarning aks etishi ham milliy-madaniy, tarixiy urf-odatlarimiz bilan bog'liqidir.

## ADABIYOTLAR

- Rahmatullayev SH. O'zbek tilining etimologik lug'ati(turkiy so'zlar), -T.: Universitet, 2000. – B 566
- Rahmatullayev SH. Keltirilgan manba. B 214
- Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B
- Internet ma'lumotlari asosida: <https://oriftolib.uz>
- Madvaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. Q harfi. -T.: O'zME, 2006. – B 336.
- Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. -T.: O'zSE, 1990. – B.496
- O'zbek xalq maqollar. -T.: Sharq, 2005. – B 332.
- Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. –T.: Fan, 1974. – B 93
- Sodiqova M. Keltirilgan manba. B 94.
- Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz? O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –T.:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1988. – B 246.
- Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Keltirilgan manba. B 332.



Nigora TO'RAYEVA,  
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi o'qituvchisi

F.f.n. D.Xoliquova taqrizi asosida

### "MEDIAKONTENT" TUSHUNCHASI VA MEDIAKONTENT YARATISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Annotatsiya

Maqolada harbiy kadrlar tayyorlash tizimida media-kontent texnologiyalaridan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi eng so'nggi yutuqlari va innovatsiyalarni o'zlashtira oladigan, kundalik faoliyatda, xulq-atvor va muloqotning axborot madaniyati ko'nikmalariga ega harbiy mutaxassisni shakllantirishning muhim sharti sifatidagi masalalar va "Mediakontent" tushunchasi va mediakontent yaratishdagi mayjud muammolar bayon qilingan. Harbiy-vatanparvarlik hislatlariga ega bo'lgan va kursantlarning individual xususiyatlari muvofiq o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini anglash vositasi bo'lib xizmat qiladigan oliy harbiy ta'lim muassasasining ta'lim muhitining madaniy va bo'sh vaqt tarkibiy qismining salohiyatiga alohida o'rinn beriladi. Xulosalarda ta'lim jarayonini mediakontent texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirish muhimligi aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlari, mediakontent, axborot-ma'rifiy muhit, madaniy va bo'sh vaqt tadbirlari.

### ПОНЯТИЕ «МЕДИАКОНТЕНТ» И ПРОБЛЕМЫ СОЗДАНИЯ МЕДИАКОНТЕНТА

Аннотация

В статье рассмотрены вопросы, основанные на использовании медиа-контентных технологий в системе подготовки военных кадров, вопросы как важное условие формирования военного специалиста, способного владеть новейшими достижениями и инновациями в сфере информационно-коммуникационных технологий, владеть навыками информационной культуры поведения и общения в повседневной деятельности, а также иметь понятие «Медиаконтент» и существующие проблемы в создании медиаконтента. Особое место отведено потенциалу культурно-досуговой составляющей образовательной среды высшего военного учебного заведения, которая обладает военно-патриотической направленностью и служит средством саморазвития и самореализации с учетом индивидуальных особенностей военнослужащего. курсанты. В выводах отражена важность реализации образовательного процесса с использованием технологий медиаконтента.

**Ключевые слова:** Курсанты высшего военного учебного заведения, медиаконтент, информационно-образовательная среда, культурно-досуговая деятельность.

### THE CONCEPT OF "MEDIA CONTENT" AND PROBLEMS IN CREATING MEDIA CONTENT

Annotation

The article describes issues based on the use of media-content technologies in the system of military personnel training, issues as an important condition for the formation of a military specialist who can master the latest achievements and innovations in the field of information and communication technologies, possess the skills of information culture of behavior and communication in daily activities, and the concept of "Media content" and media content existing problems in creation. A special place is given to the potential of the cultural and leisure component of the educational environment of the higher military educational institution, which has military-patriotic feelings and serves as a means of self-development and self-realization according to the individual characteristics of the cadets. The conclusions reflect the importance of implementing the educational process using media content technologies.

**Key words:** Cadets of a higher military educational institution, media content, information-educational environment, cultural and leisure activities.

**Kirish.** Insoniyat jamiyat tarraqiyotida asosiy rivojlantiruvchi mexanizmlaridan biriga aylangan axborot inqiloblari, birinchi navbatda, aloqa jarayonining xususiyatlarini o'zgartirishga yordam berdi, nafaqat axborot uzatish vositalari va kanallarini, balki uni idrok etish va qayta ishslash usullarini ham o'zgartirdi. Axborot muhitining so'nggi global o'zgarishi bizga yangi matn formatlari, xususan, media matn orqali muloqot qilish imkoniyatini berdi, bu jarayon esa nafaqat bizning muloqot uslubimizni, balki hayot tarzimizni ham butunlay o'zgartirdi.

Bugungi kunda zamon bilan hamnafas inson nafaqat o'z hayotini ijtimoiy tarmoqlarda baham ko'radi, balki, fotosuratlar almashish xizmatlari va maxsus platformalar orqali bir necha soniya ichida o'z ijodini kashf etadi. Bu bilan kasbiy faoliyat, bo'sh vaqt va yaqinlar bilan muloqot qilish, shuningdek, ma'lumotlarni taqdim etishning yangi turlarini idrok etish va qayta ishslash qobiliyatlarimiz ham o'zgardi.

Ushbu o'zgarishlar, xususan, zamонавији raqamli texnologiyalar muhiti vakillari media-kontentdan qanday foydalanishlari, ular ma'lumotlarni taqdim etishning qanday formatlarini afzal ko'rishlari, kompaniyalar bilan muloqot jarayonida qanchalik ishtirok etishlari va shaxsning his-tuy'ulari va qadriyatlari bilan bog'liq. Xorijiy va mahalliy ilm-fan dunyosida media-kontentdan foydalanish masalasi yetarli darajada yoritilmagan, bu samarali kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqishda bunday tadqiqot natijalarining ahamiyati bilan bir qatorda, ushbu masalani ham dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakat va jahondagi ijtimoiy-madaniy vaziyatning o'zgarishi natijasida harbiy xizmatchining kasbiga, uning xulq-atvoriga va boshqa xususiyatlari qo'yiladigan talablarning ortib borishi munosabati bilan harbiy xizmatchilarining kasb-hunar ta'limi sohasida qo'llaniladigan mediakontent texnologiyalariga tobora ko'proq e'tibor

qaratilmoqda. Harbiy mutaxassis o'zining shaxsiy o'sishi va rivojlanishi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to'liq foydalanishi, buning uchun tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, zarur ma'lumotlarni tanlash va qayta ishslash bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishi lozim.

Ta'lrim tizimini takomillashtirish asoslarini tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar kursantlar o'rtasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, texnik vositalarni, shu jumladan media-majmualar asosidagi bilim va o'zlashtirishga qaratilgan bir qator asosiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlanirishga qo'yildigan talablarни aks ettiradi. Ushbu vositalardan foydalanish ommaviy axborot vositalariga ham, umuman butun axborot makoniga ham tanqidiy, qadriyatli munosabat bilan birga bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Mediakontent jahon axborot makonida ishslashga tayyor, media-savodxon va media-madaniy shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy oliv harbiy ta'lrim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri ta'lrim muassasasining elektron axborot-ta'lim muhitini vositachilik qilishdir.

Mediakontent texnologiyalari kursantlarning darsdan tashqari vaqtlanri harbiylarning madaniy va dam olish vaqtlarida alohida o'rinn tutadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotning nazariy asosini N.O.Verbitskaya, YE.V.Goleva, L.Manovich, A.Bol, M.Kastels kabi rus va xorijiy mualliflarning (kommunikatsiya va madaniy o'zgarishlar kontekstida raqamli texnologiyalar va Internet muhiti) tadqiqotlari tashkil etadi.

"Kontent" atamasi internetning rivojlanishi tufayli keng tarqalgan umumiyligi tushunchadir. Kontent (inglizcha "content" dan - kontent, tarkib) axborot mahsuloti tarkibini tashkil etuvchi har qanday turdag'i ma'lumotlar deb tushuniladi [6]. Bugungi kunda ushbu atama keng qo'llanila boshlandi va foydalanuvchi o'z xohishiga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan tarmoq resurslarining axborot ahamiyatli mazmunini tafsiflash uchun ishlataladi [4]. Kontentning o'ziga xosligi uning foydalanuvchi uchun mo'ljallangan ahamiyati, uning maqsad va ehtiyojlariga muvofiqligidadir va bu jarvon axborot resurslarining cheklangan tanlovi va dasturlarni ko'rsatishga imkon bermaydigan teledasturdan ajratib turadi.

Tadqim etilgan ma'lumotlarning turiga qarab, matn, grafik, video va audio tarkibli kontentga ajratiladi. XX asrning 80-yillarda boshlangan kompyuter texnologiyalari va Internet sohasidagi barqaror texnik taraqqiyot ma'lumotni taqdim etish shakllarini sezilarli darajada diversifikatsiya qilganligi sababli, bu iste'mol qilinadigan kontent uchun formatlarni tanlash bo'yicha foydalanuvchi imtiyozlariga ta'sir ko'rsatishidir. Agar multimedia ma'lumotlarini faol almashish uchun imkoniyatlari va resurslar paydo bo'lishi va tarqalishidan oldin, axborotni uzatishning asosiy shakli og'zaki matn yoki boshqa turdag'i ma'lumotlarning bir-biridan ajratilgan shakllari bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda yuqori tezlikdagi Internet va trafik hajmining oshishi, kontent foydalanuvchilarining aksariyati media matn deb ataladigan narsani afzal ko'radi.

Mediakontent tushunchasi XX asrda paydo bo'lgan va bu ommaviy axborot vositalarining faol rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. An'anaviy bosma matnlar kino, radio, televide niye, video, internet, mobil telefonlar va boshqalar bilan bog'liq yangi turdag'i matnlarni bilan almashtirildi. Ko'rib chiqilayotgan kontekstdagi media-matn - grafik, audio, matn va boshqalar kabi taqdimot va kodlash shakllaridagi turli xil ma'lumotlarni birlashtirgan har qanday formatdagi va media janrdagi media-xabardir. Y.N.Zasurskiy o'z asarlarida mediamatning eng muhim belgilariidan birini uning turli media tuzilmalari va turli media holatlariga qo'shilishi deb ataydi, shuningdek, mediamatning turli ekstralingvistik jihatlar alohida o'rinn tutadigan integratsiya omili sifatida belgilaydi.

Olimning fikriga ko'ra, "og'zaki, ovozli, vizual va ko'p qatlamli media matnning mayjudligi, ayniqsa ifodali va konvergent murakkabligi tufayli katta tejamkorlik va energiyaga ega bo'lgan tuzilmani yaratadi" [2].

Bugungi kunda ushbu turdag'i ma'lumotlar Internet va raqamli qurilmalar uchun dolzarb hisoblanadi. Bu holda media-kontent yuqorida qayd etilgan ikkita tushunchaning muhim xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, axborot resursi mazmunini ifodalaydi, mediamatn shaklida formatlanadi. Bugungi kunda ilmiy munozarada "media kontent" tushunchasiga kam ta'rif berilgan. Media-kontent uni turli faoliyat sohalarida, ta'lindan marketinggacha qo'llash imkoniyati kontekstida ko'rib chiqilsa-da, shuni aytish kerakki, konsepsiyaning o'zi umumiy tushuncha sifatida ishlataladi va uning zamonaviy aloqa muhitida mavjud bo'lgan o'ziga xos xususiyatlari professional amaliyotda yangilanmagan. L.P.SHesterkina va L.K.Lobodenko tomonidan taklif qilingan ushbu tadqiqotni tayyorlash jarayonida topilgan bir nechta ta'riflardan biri bizga media-kontentni "har qanday ma'lumotlar - matn, tovush, vizual tasvirlar yoki turli xil ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan multimedia ma'lumotlarining qog'oz, magnit yoki optik xotira qurilmalari kombinatsiyasi" sifatida tavsiflash imkonini beradi [9]. Ushbu ta'rif umumlashtirilgan shaklda ma'lumotlarga xos bo'lgan ma'lumotlarni tashkil etish strukturaski oshib beradi, ammo bugungi jamiyatga tegishli xususiyatlarni aks ettirmaydi.

**Tahlil va muhokamalar.** Media-kontent – raqamli resurslarning mazmuni bo'lib, u turli shakldagi taqdimot va kodlash (matn, grafik, audiovizual va boshqalar) ma'lumotlarini birlashtiradi va insonning ijtimoiy, axborot va hissiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Media-kontent axborotni taqdim etish va uzatish formati sifatida bir qator xarakterli xususiyatlarga ega:

1. Media-kontent raqamli texnologiyalar orqali yaratiladi va tarqatiladi va gipermatnlilik, interaktivlik va multimedia xususiyatlari ega integratsiyalashgan media matn hisoblanadi;

2. Foydalanuvchi uchun media-kontentning ahamiyati asosiy omil bo'lib, uning manfaatlari, qadriyatlar va maqsadlariga muvofiqligini nazarda tutadi, shuning uchun media-kontent foydalanuvchiga yuklanmaydi, balki uning qadriyatlariga muvofiq ongli ravishda tanlanadi. Bu fakt axborotning haddan tashqari yuklanishi sharoitida media-kontentning samaradorligini oqlaydi;

3. Media-kontent - ma'lum bir auditoriyaga yo'naltirilgan, uning uchun qimmatga ega bo'lgan va insonning ma'lum ehtiyojlarini (axborot, aloqa, hissiy va boshqalar) qondirish uchun mo'ljallangan axborot mahsuloti va ommaviy axborot vositalariga nisbatan qo'llaniladi.

4. Media-kontent foydalanuvchining emotsiyonal idrokiga yo'naltirilgan va shuning uchun u ko'pincha u yoki bu qiyomat va hissiy mazmunga ega bo'lib, badiiy matn qurish va loyihalash tamoyillariga muvofiq yaratiladi.

5. Media-kontent tashkilotning kommunikatsiya faoliyatining asosiy vositalaridan biri bo'lib, qoida tariqasida, tovar yoki xizmatlarni sotib olishga chaqiruvni o'z ichiga olgan to'g'ridan-to'g'ri taqdimot xabari emas, balki brend, uning mahsulotlari, va korporativ identifikatsiyadir. Shunday qilib, L.K. Lobodenko, internet-ommaviy axborot vositalarining media-kontentining xususiyatlarini hisobga olgan holda, sayt turidan va uning o'ziga xos xususiyatlaridan qat'i nazar, u Internet-media sifatida tasniflanishi mumkinligini ta'kidlaydi, agar u taqdimot, marketing va boshqaruvdan tashqari, axborot va aloqa funksiyalari bo'lsa [4].

Media-kontentning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- taqdimot obyektiga e'tiborni jalb qilish va ushlab turish;
- taqdimot ma'lumotlarining foydalanuvchilar his tuyg'ulariga ta'siri;
- keyinchalik taqdimot obyektiga qiziqishni o'tkazish bilan foydalanuvchilarning kontentga qiziqishini shakllantirish;
- auditoriyada brendga sodiqlik va ijobiy munosabatni shakllantirish.

Media-kontent, birinchi navbatda, auditoriyaga hissiy ta'sir ko'rsatish, uni qiziqarli va foydali ma'lumotlar bilan ta'minlash uchun mo'ljallanganligi sababli, bu eng so'nggi vazifa, ya'ni foydalanuvchining qiziqishi va bog'lanishini shakllantirishdir.

Shunday qilib, mualliflar turli mavzulardagi o'quv konferensiyaning videoyozuvlardan foydalanish imkoniyatini beruvchi TEDTalks ingliz tilidagi ta'lim resursidan foydalanib, talabalar bilan mashg'ulotlar davomida chet tilidagi muloqot muhitini yaratadilar [8].

Ta'lim muassasasida chet tillarnio'qitish jarrayonida kommunikativ faoliyatni rivojlantirishda media-kontentdan foydalanish savdo kompaniyalaridagi kabi deyarli bir xil funksiyalarni bajaradi. Bu ichki va tashqi maqsadli guruhlar bilan axborot va muloqot qilish imkonini beradi, universitetning brendi va imidjini yaratadi, uni o'ziga xos vizual tasvirlar, hissiyotlar va muloqot uslubi bilan bog'laydi. Shunday qilib, bugungi kunda universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi vakili va muntazam nashr faoliyati ta'lim muassasasining ilg'orligi va nufuzining muhim

ko'rsatkichlariga aylanib, korporativ madaniyatni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Raqamli muhit va uning mazmuni abituriyentlar, talabalar, universitet ma'muriyati, professor-o'qituvchilar va boshqa guruhlar o'rtaida bevosita muloqot qilish uchun yangi maydon yaratadi.

**Xulosalar.** Shuni ta'kidlash joizki, media-kontentni aloqa vositasi sifatida tahlil qilish asosida biz uning zamonaliviy jamiyat hayotining barcha sohalarida ahamiyati haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Xususan, bugungi kunda ta'lim jarayoni va ta'lim tashkilotining faoliyati ko'p jihatdan talaba va o'qituvchining raqamli savodxonligi va malakasiga, ularning media-kontent va raqamli qurilmalar bilan ishslash ko'nikmalariga bog'liq. Biroq, ilgari muhokama qilingan texnologiyalarning barcha afzalliklari bilan, ulardan foydalanish butun jamiyatning o'zgarishiga, uning mayjud qadriyatlari va xulq-atvor meyorlariga ta'sir qiluvchi ma'lum xavf va oqibatlar bilan bog'liq, bu ayniqsa yosh avlod vakillari uchun muhimdir.

Shu munosabat bilan mediakontent, multimedia texnologiyalari va virtual muhitning bugungi kun yoshlariga ayniqsa Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari o'quv faoliyatini amalga oshirishda mediakontent texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, bu kursantlarga har tomonlhma pedagogik ta'sir ko'rsatish sifatini oshirishga, ularni harbiy mutaxassis sifatida rivojlanishiga rag'batlanirishga yordam beradi va bo'sh vaqtlarini tashkil etish xususiyatlarini o'rganish zarurati tug'iladi.

### ADABIYOTLAR

1. Афанасиева Э.А. Медиа-контентни яратишда муаллифнинг роли: касбий амалиётни ўзгартриш. 2015.
2. Засурский Я.Н. Медиатекст в контексте конвергенции // Вестник Московского университета. Серия 10: Журналистика. – 2005.
3. Иванова А.М., Малыгина Е.В. Возможности использования современного медиаконтента TED Talks в обучении английскому языку как второму иностранному. 2017
4. Ильмухин В.Н. Социологический анализ практик медиапотребления: виды и методы исследований. 2016
5. Галкин, К. Г. Маданият соҳасидаги ягона ахборот майдони / К. Г. Галкин ва бошқалар. // Ахборот-методик кўйлама. – М.: 2017.
6. Гришкин, Д.К. Ҳарбий университетда медиа-таълимни ташкил этишининг педагогик шартлари. Кострома, 2016.
7. Гришкин, Д. К. Курсантлар учун медиа-таълимни ташкил этишда ҳарбий университет салоҳиятидан фойдаланиш зарурлигини белгиловчи омиллар. Санкт-Петербург, 2016.
8. Гузева, М. В. Та'lim tizimini modernizatsiya kiliishi sharoitiida media-ta'lim masalalari. № 3 (125). – M., 2014
9. Зотова, Э. А. Инсон эҳтиёжларини rӯyboga чиқариш tizimiда media-ta'lim. Э. А. Зотова // Череповец давлат университетининг хабарномаси. - № 2 (55). – Череповец, 2014



Dilafruz TURAKULOVA,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: dilimtakulova1309@gmail.com,

Renessans ta'lif universiteti professori, f.f.d Raupova taqrizi asosida

## LINGVISTIK MADANIY KONSEPTLAR VA MADANIYATLARARO TUSHUNCHALAR TAHЛИLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada lingvistik madaniy konseptlar va madaniyatlararo tushunchalar tahlili mavzusida chuqr o'rganish amalga oshirilgan. Maqola, xususan, "shubha" kabi tushunchalarning semantik noaniqligini va turli madaniyatlarda qanday qo'llanilishini tahlil qildi. O'zbek va ingliz tillarida ushu tushunchaning turli ma'nolar va nuanslar bilan qanday ifodalanishi keltirilgan misollar orqali ko'rsatilgan. Lingvistik madaniy konseptlarning xususiyatlari, ularning madaniyatlararo farqlari va o'xshashliklari muhokama qilingan, shuningdek, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarining uyg'unlashuvi hamda bu sohalarning tushunchalarni qanday qilib har xil madaniyatlar kontekstida tahlil qilishiga urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, konsept, semantic noaniqlik, tushuncha, konsept turlari.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ КУЛЬТУРНЫЕ КОНЦЕПТЫ И АНАЛИЗ МЕЖКУЛЬТУРНЫХ ПОНЯТИЙ

Аннотация

В данной статье проводится глубокий анализ лингвистических культурных концептов и межкультурного анализа понятий. Особое внимание уделено семантической неопределенности таких понятий, как "сомнение", и их использованию в различных культурах. Приводятся примеры, демонстрирующие, как это понятие выражается в узбекском и английском языках, с различными значениями и нюансами. Особенности лингвистических культурных концептов, их межкультурные различия и сходства обсуждаются, а также подчеркивается синтез лингвистики и культурологии и их вклад в анализ понятий в различных культурных контекстах. Статья представляет собой ценный источник для специалистов в области межкультурной коммуникации и перевода, так как она ясно и понятно раскрывает сложные взаимосвязи между лингвистикой и культурологией.

**Ключевые слова:** Концепт, лингвистика, типы концептов, абстрактность, культурные концепты.

## LINGUISTIC CULTURAL CONCEPTS AND CROSS-CULTURAL CONCEPT ANALYSIS

Annotation

This article conducts an in-depth study on the topic of linguistic cultural concepts and intercultural understanding. The article particularly analyzes the semantic ambiguity of concepts such as 'doubt' and their application across different cultures. It illustrates how this concept is expressed in Uzbek and English languages with various meanings and nuances through examples. The characteristics of linguistic cultural concepts, their differences and similarities across cultures are discussed, as well as the integration of linguistics and cultural studies. Furthermore, the article emphasizes how these fields can analyze concepts in different cultural contexts.

**Key words:** Concept, concept types, linguistics, linguaculturology, cultural studies.

F.f.f.d. O.G'aniyeva taqrizi asosida

## ANALYSIS OF THE FORM AND CONTENT OF DYLAN THOMAS' POEM "DO NOT GO GENTLE INTO THAT GOOD NIGHT"

### Annotation

In this article we will look at the form and content analysis of Dylan Thomas's poem "Do Not Go Gentle into That Good Night". The poem "Do Not Go Gentle into That Good Night" was published by Dylan Thomas in 1951. This article examines the meaning of the poem, analysis of its structure and poetic techniques. Its main content is a request from a son to his dying father. The speaker is trying to show his father that although all people have the same goal, they must fight for life. To better understand what each sentence expresses and means, its content is studied by analyzing it stanza by stanza.

**Key words:** Verse, analysis, stanza, meaning, relevance, manifestation, emotional expression, individualism, symbolism.

## АНАЛИЗ ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ СТИХОЯ ДИЛНАН ТОМАСА "DO NOT GO GENTLE INTO THAT GOOD NIGHT"

### Аннотация

В данной статье мы рассмотрим форму и содержательный анализ стихотворения Дилана Томаса «Не уходи нежно в эту спокойную ночь». Стихотворение «Не уходи нежно в эту спокойную ночь» было опубликовано Диланом Томасом в 1951 году. В статье рассматривается смысл стихотворения, анализ его структуры и поэтических приемов. Основное его содержание – просьба сына к умирающему отцу. Оратор пытается показать своему отцу, что, хотя у всех людей одна цель, они должны бороться за жизнь. Чтобы лучше понять, что выражает и означает каждое предложение, его содержание изучается путем анализа строфа за строфой.

**Ключевые слова:** Стих, анализ, строфа, смысл, актуальность, проявление, эмоциональное выражение, индивидуализм, символизм.

## DILAN TOMASNING "DO NOT GO GENTLE INTO THAT GOOD NIGHT" SHE'RINING SHAKLIY VA MAZMUNIY TAHLILI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Dylan Tomasning "Do not go gentle into that good night" she'rining shakily hamda mazmuniy tahlilini ko'rib chiqamiz. "Do not go gentle into that good night" she'ri Dilan Tomas tomonidan 1951 yilda nashr etilgan. Ushbu maqolada she'rning mazmuni, tuzilishi va she'riy vositalarini tahlili keltiriladi. She'rning asosiylarini o'g'ilning o'layotgan otasiga qilgan iltimosidir. Qahramon otasiga hamma odamlar bir xil maqsadda bo'lismiga qaramay, ular hayot uchun kurashishlari kerakligini ko'rsatishga intiladi. Har bir band nima ifodalananayotganini va nimani anglatishini yaxshiroq tushunish uchun uni har bir baytni tahlil qilish orqali mazmunini o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Misra, bayt, ma'no, tegishlilik, namoyon bo'lish, hissiy ifodalar, individualizm, simvolizm.

**Kirish.** Dilan Tomas 1914-yilda Uelsda tug'ilgan, biroq 16 yoshida maktabni tark etib, muhibbirlig qilish bilan shug'ulla boshlagan. Otasining ingliz adabiyotiga bo'lgan qiziqishi uning she'rga bo'lgan muhabbatini yanada oshirdi va 1932 yilga kelib Dilan she'r yozishga bo'lgan ishtiyoqi muhibbirlig faoliyatidan voz kechisiga majbur qildi. U shu yilning o'zida ya'ni 20 yoshida Tomas o'zining mashhur to'plamlarida nashr etilgan she'rlarining yarmidan ko'pini yozdi. 1934 yilda Tomas Londonga borib, o'zining ko'plab ilk she'rlarini o'z ichiga olgan birinchi to'plamini nashr etdi va katta muvaffaqiyatga erishdi. Londonda bo'lganida u Keytin Mak Namaraga uylandi. U bilan birga Uelsga qaytib, farzand ko'rgandan so'ng, Tomas 1940-yillarni qo'shimcha pul topish uchun kitobxonlik sayohatlari va radio chiqishlari bilan o'tkazdi. 1950-yillarda Tomas O'qishni davom ettirish uchun Qo'shma Shtatlarga bordi. 1953 yilda AQShga to'rtinchi safari paytida u Nyu-Yorkda kasal bo'lib, komaga tushib qoldi va

keyin vafot etdi. Uning jasadi Uelsdagagi vatani Lougharn shahriga qaytarilib, u erda 39 yoshida dafn etilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'lim Dilan Tomas she'riyatida, ayniqsa uning she'rlarida tez-tez uchraydigan mavzudir. Tomas o'limning turli tomonlarini namoyish qilish uchun turli xil qiziqarli va g'ayrioddiy tasvirlardan foydalananadi. Jumladan, "Do not go gentle into that good night" she'rida u bu murojaatni oxirgi misrada har bandida takrorlab, o'limga qarshilik ko'rsatishga urg'u beradi. Tasviriylik Tomas tomonidan she'rining mavzusini va nimani anglatishini yaratish uchun ishlatalidi. Garchi o'quvchilar Tomasning otasining o'llimi ortidagi tafsilotlarni bilmasalar ham, muallifning ushbu she'mni yozish sababları juda aniq. Bunda Tomas so'zlarini orqali otasidan uni egallab olgan va uni keyingi hayotga olib boradigan zulmatga qarshi kurashishni so'raydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Do not go gentle into that good night" - uelslik shoir Dilan Tomasning (1914-1953) eng

mashhur asarlaridan biri bo'lgan villanelle she'ri. She'r birinchi marta 1951 yilda Botteghe Oscure jurnalida chop etilgan bo'lsada, 1947 yilda Tomas oilasi bilan Florensiyada bo'lganida yozilgan. Keyinchalik bu she'r Tomasning boshqa asarlari bilan birga "In country sleep" va boshqa she'rlar (New directions, 1952) va "Collected poems", 1934-1952 (1952) kitoblariga kiritilgan.

Bu she'r Tomasning o'layotgan otasi uchun yozilgan, deb taxmin qilingan, garchi u 1952 yil Yangi yildan sal oldin vafot etgan. Uning "Do not go gentle into that good night" degan birinchi misradan boshqa sarlavhasi yo'q, bu misra butun she'r davomida naqorat sifatida namoyon bo'ladi, "Rage, rage against the dying of the light".

**Tahlil va natiyalar.** "Villanel" uch misradan iborat besh baytdan (tersetlardan) iborat bo'lib, undan keyin to'r misrali bir bayt (to'rtlik), jami o'n to'qqiz misradan iborat. Matn ikki takrorlanuvchi olmosh va ikkita nakaratdan iborat: birinchi misraning birinchi misrasi ikkinchi va to'rtingchi misralarning oxirgi qatori, birinchi misraning uchinchi misrasi uchinchi va beshinchi misralarning oxirgi misrasi vazifasini bajaradi. "Do not go gentle into that good night" qofiya va xor sxemasi quyida ko'sratilgandek sxematiklashtirilishi mumkin.

#### 1-band

Do not go gentle into that good night, Old age should burn and rave at close of day; Rage, rage against the dying of the light

O'lim Dilan Tomas she'riyatida, ayniqsa uning she'rlerida tez-tez uchraydigan mavzudir. Tomas o'limning turli tomonlarini namoyish qilish uchun turli xil qiziqarli va g'ayrioddiy tasvirlardan foydalananid. Jumladan: "Do not go gentle into that good night" she'rida u bu murojaatni oxirgi misrada har bandida takrorlab, o'limga qarshilik ko'rsatishga urg'u beradi. Tasviriylik Tomas tomonidan she'rinining mavzusini va nimani anglatishini yaratish uchun ishlatalidi. Garchi o'quvhilar Tomasning otasining o'limi ortidagi tafsilotlarni bilmasalar ham, muallifning ushbu she'rni yozish sabablari juda aniq. Bunda Tomas so'zlarini orqali otasidan uni egallab olgan va uni keyingi hayotga olib boradigan zulmatga qarshi kurashishni so'raydi. Bundan tashqari, Tomas o'layotgan otasiga barcha aqli yoki johil odamlar o'limga qarshi kurashishi kerakligini aytgan. Inson jamiyatga o'zining haqiqiy hissasini qo'shgandagina tinchgina o'lismiga tayyorlanishi mumkin. Bu erda Tomas o'limga bo'lgan munosabatini baham ko'radi, bu Robert Frostning qorli oqshomda Vudsda to'xtashiga juda o'xshaydi:

The Woods are lovely, dark and deep. But I have promises to keep, And miles to go before I sleep, And miles to go before I sleep.

#### 2- band

Though wise men at their end know dark is right, Because their words had forked no lightning they Do not go gentle into that good night.

"Donolar" Tomas ta'riflagan birinchi guruhdir. "Though wise men at their end know dark is right" misrasining birinchi misrasi donishmandlar o'lim hayotning tabiiy bir qismi ekanligini tushunishlari va ular buni qabul qilishlari kerakligini bilish uchun aqli ekanliklarini bildiradi. Biroq keyingi satrda ular o'lim bilan kurashayotganliklarini tushuntiradi, chunki ular hayotda yetarlicha obro'-e'tibor yoki nom qozommag'anliklarini his qilishadi. "Because their words had forked no lightning they", deydi.

#### 3-band

Good men, the last wave by, crying how bright Their frail deeds might have danced in a green bay, Rage, rage against the dying of the light.

Tomas odamlarni oxirat yaqinlashganda o'z hayotlari haqida fikr yuritishlari ko'rsatib berishga harakat qiladi. Ushbu bandni ikki qismga bo'lish mumkin. Birinchidan

Tomas bugungi kunda yaxshi insonlar juda kamligini, otasini yaxshi inson deb bilishini va u bilan dunyo yaxshiroq joy bo'lishini o'yplashini ta'kidlagan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan u odamlar qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, ularning qilmishlari eslanmasligini bilishadi deb afsuslanadi. "Green bay (yashil ko'rfaz)" insoniyat tarixida o'z o'mini belgilovchi abadiy dengizni anglatadi. O'tmish haqida o'ylab, ular faqat o'z nomlarini tarixda qoldirish uchun yashashni xohlashlariga qaror qilishadi.

#### 4-band

Wild men who caught and sang the sun in flight, And learn, too late, they grieved it on its way, Do not go gentle into that good night.

"Wild men (yovvoyi odamlar)" mislaridagi so'z orqali odamlar o'lik ekanliklarini juda kech bilib olganlarini tushuntiradi. Ular hayotlarini harakatda o'tkazishlari va vaqt o'tishi bilan ular bu oxiri ekanligini tushuntiradi. "sang the sun in flight" satrida ularning kechinmalari va tuta olmagan narsaning ortidan kunlarini behuda o'tkazganliklari bo'rttirilgan. Bundan tashqari, "Sang the sun in flight" bu yovvoyi odamlar qanday yashaganligini anglatadi. Bu saodatli jaholat bilan xavfga duch kelgan jasur qalblar edi. Ular hayotlarini sarguzasht va hayajonga sarfladilar. Keyingi satr: "And learn, too late, they grieved it on its way" bu ularning o'lim haqiqatiga ishora qiladi. Ular o'zlarining ahmoqona hayotlari bilan ko'p qayg'uga sabab bo'lganlari uchun qayg'uradilar.

#### 5-band

Grave men, near death, who see with blinding sight Blind eyes could blaze like meteors and be gay, Rage, rage against the dying of the light.

"Grave men" Tomas bu so'z orqali shu guruhga tasvirlagan o: "Grave men, near death, who see with blinding sight". Bu satrda uning "qabr" ya'ni "grave" so'zini ishlatsi ham qayg'uli odamlarga, ham jismonan o'limga yaqin bo'lganlarga nisbatan deyarli ikki xil ma'noga ega. Ularning ko'zlarini tananing qolgan qismi bilan birga so'nadi, lekin ularning mo'rt holatiga qaramay, ko'zlarida mavjudlik ishtiyogi hali ham yonib turadi. "Blind eyes could blaze like meteors and be gay" iborasi insonning yashash uchun kurashini ifodalaydi. Ma'ruzachining ta'kidlashicha, otasi bunday zaif holatda ham uzoq va baxtli yashashi mumkin ekanligini ko'ratishga harakat qilgan.

#### 6- band

And you, my father, there on that sad height, Curse, bless, me now with your fierce tears, I pray. Do not go gentle into that good night. Rage, rage against the dying of the light.

Nihoyat, oxirgi misra so'zlovchining asl niyat, tilaklarini bildiradi. Uning ta'kidlashicha, barcha erkaklar, ularning tajribasi yoki holatlaridan qat'i nazar, ko'proq yashahs uchun kurashadilar. U otasini ham shunday qilishga undagan edi. "Curse, bless, me now with your fierce tears, I pray" misrasida otasidan o'lmasin, deb yolvorganida qanday og'riq va ehtiros borligini tasvirlangan. Tomas otasining g'oyib bo'lishini ya'ni o'lismini kuzatib, taslim bo'lmaslikni iltimos qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Bu she'rning tahlili bizga o'lim haqidagi asosiy tushunchani beradi deb aytish mumkin. Garchi o'lim bu muqarrar bo'lsa ham o'limga qarshi kurashish kerakligi satrlar orqali tasvirlab bergan. Ammo boshqa tomonдан olib qarasak tagidagi tub ma'noni tushunib yetishimiz mumkin. Mayli, o'lim yomon, lekin o'limga qarshi kurashish yaxshi degan tushunchani ilg'ab olishingiz mumkin. She'r haqiqatda o'lim "haqida" emas, balki insonning og'ir ahvoli (qanchalik ulug'vor tuyulishi mumkin) haqidadir. Biz insonlar uchun o'lim muqarrar ekanligi barchamizga ma'lum shunga qaramay yashash uchun kurashish degan tushunchalarni shoir o'z she'rida yaqqol ko'rsatib bergan.

**ADABIYOTLAR**

1. Bakhshilloyevna, Khamdamova Sitora. "Critical review of literature on symbolism in william butler yeats'poetry." Euro-Asia Conferences. Vol. 3. No. 1. 2021.
2. Ionkis G.E. English Poetry of the 20th Century, 1917-1945: Textbook for Pedagogical Institutes. —Moscow: Higher School, 1980.
3. Khamdamova, Sitora Bakhshilloyevna. "Mythological Themes and Motives in William Butler Yeats' Poetry." Spanish Journal of Innovation and Integrity 6 (2022): 147-150.
4. Olimova, Dilorom, and Sitora Khamdamova. "Modernism in english literature." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.10 (2023): 31-34.
5. Olimova Dilorom Odilovna, & Khamdamova Sitora Bakhshilloyevna. (2023). Peculiar features of dylan thomas poetry. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 15, 45–48.
6. Ochilova Dilnoza Sunnatillayevna, & Khamdamova Sitora Bakhshilloyevna. (2023). Free verse in walt whitman's poetry. Miasto Przyszlosci, 36, 110–113.
7. Tolmachev V.M. Foreign literature of the XX century in 2 vols. Vol. 1. The first half of the XX century: a textbook for secondary vocational education / V. M. Tolmachev; edited by V.M. Tolmacheva. - 2nd ed., revised and additional - Moscow: Yurayt Publishing House, 2020. - 430 p.



Malika HASANOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

F.f.b.f.d. (PhD) U.Ametova taqrizi asosida

## BADIY ASARNI ANGLASHGA DOIR "TANQID VA TARG'IB" TAHLILII YONDASHUVI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy asar tahlili haqida ma'lumotlar, uning mazmun-mohiyati, badiiy asar tahlilida aynan nimalarga, qaysi jihatlarga e'tibor berish zarurligi, o'quvchiga asar mutolaasida muayyan yo'nalishlar berish, asar tanlashda yordamlashish borasida fikr-mulohazalar bayon qilingan. Namunalar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** O'quvchi, asar tanlash, badiiy asar tahlili, adabiy tahlil, muallif, kitobxon, g'oya, sarlavha, lingvistik

## ОБ АНАЛИЗЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация

В данной статье изложены сведения об анализе художественного произведения, его содержании, размышлениях о том, на что именно, на какие аспекты необходимо обратить внимание при анализе художественного произведения. Показаны образцы.

**Ключевые слова:** Анализ художественного произведения, литературный анализ, автор, читатель, идея, название, лингвистический.

## ON THE ANALYSIS OF A WORK OF ART

Annotation

This article provides information about the analysis of a work of art, its content, reflections on what exactly, what aspects should be paid attention to when analyzing a work of art. Samples are shown.

**Key words:** Analysis of a work of art, literary analysis, author, reader, idea, title, linguistic

**Kirish.** Badiiy adabiyot, badiiy asarlar insonlarga juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan ilohiy bir kuchdir. U inson histuyg'ularini va ongini tarbiyalashda ulkan rol o'yinaydi. Badiiy asarlarning mualliflari bilan birgalikda kitobxon hayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi hamda o'zida ularga bo'lgan munosabatni shakllantiradi. Insonni o'ylashga, fikrlashga va kechayotgan voqealarni tahlil qilishga chorlaydi. Inson ruhiyati tasvirlaridan ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rinn tutadi.

Badiiy asar haqida gap ketganda, avvalo, uning badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vositasi ekanligiga to'xtalish joiz. Ma'lumki, muloqot paytidagina til hodisasi nutq hodisasiga aylanadi. Adabiy badiiy asar til vositalaridan tarkib topuvchi matn ekan, demak, u ham mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasidir. Zero, adabiy badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya'ni, ijod jarayoni mohiyatani muloqotdir. Ayni shu muloqot – ijodiy jarayon asar matnida muhrlanadi[1]. Xuddi maktubga o'xshash, asarni o'qish jarayonida muloqot qaytadan jonlanadi, endi yozuvchi tasavvurdagi "suhbatdosh" mavqeida tursa, o'quvchi real suhbatdoshga aylanadi[2]. Ko'ramizki, badiiy matn muddati kechiktirilgan badiiy muloqot, badiiy asar esa shu muloqotning amalga oshishini ta'minlovchi vosita ekan. Demak, ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi.

Ma'lumki, ko'pincha yozuvchi va shoirlarimiz asarni farzandga qiyos etadilar. Darhaqiqat, asarning dunyoga kelishini farzand tug'ilishiga qiyos etsa arzigelik. Shunga o'xshash, badiiy asar ham ijodkor ongida yetiladi, payti

kelgach qog'ozga tushiriladi va o'quvchiga yetkaziladi. Ya'ni, endi ijodkor ongida yetilgan asarning yaratilmasligi mumkin emas, ijod psixologiyasi shuni taqozo qiladi. Adabiyot tarixi buni ko'plab faktlar bilan tasdiqlaydi: ko'plab ijodkorlar yaratatak

asari hayotida turli noxushliklar keltirib chiqarishi, hatto hayotiga xavf solishi mumkinligini bilgani holda ham uni yaratish fikridan qaytmaganlar.

Badiiy asar – butunlik, bu butunlikdagi biror bir unsurni asar mazmun- mohiyatiga putur yetkazmagan holda olib tashlash mumkin emas[4]. Sababi, badiiy asarni tashkil qilayotgan unsurlarning barchasi bir-biri bilan mustahкам aloqada, ayni shu aloqalar asosida butunlik yuzaga keladi, ya'ni, badiiy asar – qismlardan tashkil topayotgan butunlik, bir sistemadir.

Badiiy asarlar tahlili odatda turli kishida turlicha taassurot qoldiradi va bu odamlarning turli ijod mahsullarga turlicha baho berishiga ham olib keladi. Badiiy asar tahlilida bizga kerakli ma'lumotlar muallif biografiyasi, asar nomi, asar mavzusi, asar g'oyasi, asar sarlavhasi haqida fikr, ligvistik tahlili, asardagi milliy kalorit, asardagi tugun, kulminatsiya, yechim, natija, asardan olgan taassurot va maqulligi. Misol tariqasida Jorjiy Zaydonning "Farg'ona kelini" asari tahliliga qarashimiz mumkin:

Muallif biografiyasi: Jorjiy Zaydon (1861-1914) arab yozuvchisi, adabiyot sohasidagina emas balki til falsafa, tarix, huquq, geografiya, jurnalistika sohalarida ijod etgan. Mashhur tarixiy romanlari: "G'assonlik qiz", "Horun ar-Rashidning singlisi", "Farg'ona kelini"

Asar nomi: "Farg'ona kelini"; Janr: roman; ijodiy metod: realizm;

Asarning mavzuiy tasviri: tarixiy.

Asar mavzusi: asar qahramonlari Jahon va Zirg'om o'z muhabbatlari yo'lida ko'plab to'siqlarga uchrasada, o'z

muhabbatlari uchun kurashadilar. Zirg'om o'z sevgisi Jahonga yetishish uchun ko'plab sarguzashtlarni boshidan kechiradi.

Asar g'oyasi: Jorjiy Zaydon bu romanda IX asrda arab xalifaligida, xususan Mavarounnahrda o'tgan voqealarga asoslangan holda yozgan.

Asar sarlavhasi haqida fikr: asar sarlavhasi judaham to'g'ri tanlangan, bu yozuvchining yuksak mahoratini ko'rsatib bera oлган.

Asarning lingvistik tahlili: Frazeologizmlar: ko'ngliga qo'l solib ko'rmoqchi, quyub qo'ygandek o'zi, issiqning hovrini ko'taradi; Toponimlar va joy nomlari: Farg'on'a, Qo'qon, Toshkent daryosi, Eron, Bag'dod, Arbadil, Tabariston, Turkiston, cho'llar; Kasb hunarga oid so'zlar: dehqon, hokim, xizmatchi, cho'ponlar, lashkarboshchi, askarlar, kohin.

Asardagi milliy kalorit: hamma Navro'z bayramiga tayyorgarlik ko'riishlar, hovlilarni tozalash, mehmonlar uchun

nozu-ne'matlar, ovqat pishirishlar, odamlar bolalariga sovg'a olishlari.

Asardagi tugun: Hokim Zirg'omning onasiga ishonmay saroyiga chaqiradi va uni sinash uchun amaldorlaridan biriga eriga bermoqchilagini aytadi, Zirg'omning onasi esa buni rad etadb yolg'iz o'g'limni o'zim boqaman deb javob beradi, hokim ularga saroyidan joy beradi, yillar o'tgach Zirg'om va hokimning qizi Jahon bir biriga oshiq bo'lishadi.

Asar kulminatsiyasi; Jahon va Zirg'omning uzoq ayrlilqdan so'ng tasodify uchrashib qolishi. Ko'plab qiyinchilik va ayrılıqlardan so'ng ikki sevishgan birga bo'lishi.

Bunday tahlili yondashuv kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman, asarni nafaqat tanqid yoki tahlil qilish, balki uni targ'ib ham qilish lozim, bunda quyidagilarga alohida e'tibor qilinishi lozim:

T/r	Asarni tahlil va targ'ib qilishning asosiy yo'naliishlari	Natija
1.	Munaqqidlar tomonidan asarlar o'quvchi yoshiga mosligi bo'yicha tavsiyalar berishi;	O'quvchi asar mutolaasidan bezib qilmaydi.
2.	Hamma o'qishi lozim bo'lgan asarlar ro'yxatini ilmiy asosda tuzib chiqish;	Bu o'quvchiga to'g'ri yo'naliш ko'rsatadi.
3.	O'qilgan asarlar asosida jalb qiluvchi jumla va fikrlardan badiy asar targ'ibotida foydalanishni yo'lda qo'yish;	O'quvchini badiiy asar o'qishta qiziqiradi.
4.	Asar muallifining fikri va kitobxon munosabatini qiyosiy o'rganish;	Asar haqida to'g'ri va aniqroq xulosha chiarish imkonini beradi.
5.	Eng ko'p o'qilgan asarlarga bildirilgan eng yaxshi tanqidiy fikrlarni jamlash.	Bu badiiy asarni teranroq tushunish imkonini beradi.

Shuningdek yaqinda nashr etilgan va hamma e'tirof qilayotgan "Jadidlar. Qodiriy hayoti va ijodi" kitobi haqida ham mulohaza qilib ko'rish mumkin. Kitobdag'i eng e'tiborimni o'ziga jalb qilgan va Qodiriyni yana bir bor yaxshiroq anglashga yordam bergan jumla budir: "Bo'yning tilla tumor taqqan qizlarni o'ylamangiz olima deb".

Abdulla Qodiriy ma'rifat kuychisi, adolat va ziyo elchisi edi. Nafaqat Qodiriy balki, barcha jadid adabiyoti namoyondalarining orzu-umidlari, maqsadlari ma'rifat tarqatish, xalqni, o'g'il-qizlarni ilm olishga undash edi. Qodiriy ham o'zbek romanichiligi asoschisi sifatida, ijodining dastlabki namunalarida millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, jadidchilik g'oyalarini ilgari surdi. Umri davomida jaholatni qoraladi, turli maishiy dog'lar sabab kirlangan yuraklarni adabiyot bulog'ining pokiza suvi bilan yuvishga qaror qildi. Millatni uyg'oqlikka, ogohlilikka va fikrashga chorladi.

Hatto, jon taslim qilayotgan vaqtida ham haqiqat uchun, mardonha turib berdi.

Asarni o'qir ekanman, Qodiriy siymosida "O'tgan kunlar" asaridagi Otabel ko'z oldimda gavdalandi. Qodiriy har bir asarini yaratishdan oldin, o'sha hayotda o'sha vaziyatda yashab ko'radi. Asar qahramonlari o'rniga o'zini qo'yib ko'radi. Hatto so'ngida Kumushning o'limi uchun ko'z yosh to'kadi. Uni Qodiriy o'ldirmagandi, asar Qodiriy tomonidan yozilgan lekin keyingi voqealarni taqdir boshqargan, Qodiriy emas. "O'tgan kunlar" ishqiy roman emas, yozuvchi asar orqali o'sha davrdagi siyosatni, xonlikdagi o'zboshimchaliklar va xalqning og'ir ahvolini ochib bergen edi.

Undan tashqari Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", "Juvinboz", "Uloqda" va boshqa bir qator siyosat va ma'rifat haqidagi nodir asarlari mavjud. Ular ichida yana bir ta'sirli asar "Baxtsiz kuyov" dramasidir. "Padarkush" dramasi

ta'sirida yozilgan bu drama, Padarkushdag'i kabi fojeaviy yakun topdi. Dramada ilmsizlik oqibatida ortiqcha sarf-xarajatlari, foydasiz hashamatli to'y ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelgan. Yakunida drama qahramonlari Solih bilan Rahima to'y uchun qarzlarni to'lolmay, o'zlarini pichoqlab o'ldirishadi. Kattalarning isrof garchiligi, shariati islomga amal etmaslik natijasida, shunday oqibatlarga olib keladi. Drama xulosasi sifatida "Bid'at to'yga qiladurgon oqchaga o'g'lingizlarni o'qitinglar yoki jamiyatga iona qilinglar. O'gil o'qutmoq yaxshi ham farzdu, to'yga isrof qilmoq bid'atdu", deya yakunlaydi.

Bularning barchasi millatning taraqqiyotini to'sadi va o'z-o'ziga bolta uradi. Qodiriy jadidchilik adabiyotiga katta hissa qo'shganligi bilan o'zining ma'rifatparvar, millatparvarligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining ulkan merosi va nomi Mustaqillik yillarida oqlanib, hozirga qadar e'tirof etib kelinmoqda.

**Xulosa.** Badiiy adabiyotning inson hayotida ahamiyati juda yuqori. Inson ardoqlab keladigan eng noyob hislar insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi-muhhabat singari o'lmas insoniy tuyg'ular kishi ongida, shuurida, ruhiyatida mujassamlashadi va bu hislar adabiyotga oshno insonlar qalbiga ko'chib o'tadi. Tuyg'ular esa faqat aql orqali emas, balki ko'ngil orqali seziladi, ta'sir o'tkazadi. Shunday ekan, badiiy asarlar badiiy adabiyotning muhim ajralmas tarkibiy qismi bo'lib qolaveradi. Tahlil orqali asar muallifi aytmoqchi bo'lganlarini anglesh eng muhim masaladir. Bunday tahlillar o'quvchiga mutolaa uchun yo'naliш beradi, zarar asarlarni topib o'qish va tushunishga yordam beradi. O'quvchilarga qaysi asarni qanday o'qish bo'yicha tavsiyalar berish, asar tanlash bo'yicha "Asaxiy books" va "Uzum" platformalari faoliyatini ommalashtirish, ularning mazmunini boyitish lozim.

#### ADABIYOTLAR

- Umurov H. Badiiy ijod asoslari. -T.: O'zbekiston, 2001.
- Quronov D., Usmonov H. Ideal va badiiy yaxlitlik//Tafakkur.-1996.-№4.- B.36-41
- Шайхисламов, н. (2021). Замонавий тилшунослик йўналиши: контакт лингвистикаси. Scientific progress, 1(4).
- Jo'rjiy Zaydon Farg'on'a kelini (roman). 2021
- Umurov. H. Adabiyot qoidalari. Toshkent: O'qituvchi. 2002. B. 5-8
- Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004 y. 224-b.
- Qodiriy A. O'tkan kunlar. Roman. -Toshkent, Ma'naviyat. 2018. 89-93 b.



**Mahliyo HUSAYNOVA,**

TATU Farg'onan filiali O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

TATU FF Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti PhD G.Obidova taqrizi asosida

## O'ZBEK LATIFALARI MATNIDA KULGI QO'ZG'ATUVCHI MORFOLOGIK VOSITALARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek latifalari matnida kulgi qo'zg'atuvchi morfoloqik vositalar va ularning pragmatik xususiyatlari haqida so'z boradi. Latifalarning paydo bo'lish tarixiga nazar solinadi. Shuningdek, latifalarning paydo bo'lish tarixiga nazar solinadi. Yevropa ilmida va o'zbek tilshunosligida latifalar matnining o'r ganilishiga oid manbalarga ahamiyat qaratiladi. Latifalar matnining yuzaga kelishiga sabab bo'lувchi morfoloqik usul va vositalar, jumladan, juft va takror so'zlar orqali kulgining yuzaga kelish holatlari tahlil qilinadi. Mazkur misollar latifalarning bosh qahramoni bo'lmish afandi obrazi bilan bog'liq misollar orqali izohlanadi va xulosalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** So'z o'yini, latifa, kalambur, pressupozitsiya, tag ma'no.

## PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF LAUGHTER-INDUCING MORPHOLOGICAL DEVICES IN THE TEXT OF UZBEK ANECDOTES

Annotation

This article talks about morphological devices that cause laughter in the text of Uzbek anecdotes and their pragmatic features. the history of the appearance of anecdotes is reviewed. The history of the appearance of anecdotes is also reviewed. In European science and Uzbek linguistics, importance is attached to sources related to the study of the text of anecdotes. Morphological methods and tools that cause the creation of the text of anecdotes, including the occurrence of laughter through double and repeated words, are analyzed. These examples are explained and conclusions are given through examples related to the character of Effendi, the main character of the anecdotes.

**Key words:** Word game, anecdote, pun, dialectism, agnomania, universal words, neologism, presupposition, subtext.

## ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СМЕХОМИЧЕСКИХ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ В ТЕКСТЕ УЗБЕКСКИХ АНЕКДОТОВ

Аннотация

В данной статье говорится о морфологических приемах, вызывающих смех в тексте узбекских анекдотов и их pragmaticheskikh osobennostyakh. рассмотрена история появления анекдотов. Также рассмотрена история появления анекдотов. В европейской науке и узбекском языкоznании большое значение придается источникам, связанным с изучением текста анекдотов. Анализируются морфологические приемы и средства, обусловливающие создание текста анекдотов, в том числе возникновение смеха посредством двойных и повторяющихся слов. Эти примеры поясняются и делаются выводы на примерах, связанных с персонажем Эффенди, главного героя анекдотов.

**Ключевые слова:** Словесная игра, анекдот, каламбур, диалектизм, агномазия, универсальные слова, неологизм, пресуппозиция, корневое значение.

**Kirish.** Latifalar ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan badiiyan janrlaridan biri sifatida asrlar osha yashab, sayqallanib kelmoqda. Latifa janrining vujudga kelishi va janr xususiyatlari haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Olimlar mazkur janrnning paydo bo'lish jarayonini uzoq o'tmishga bog'lashadi. Suvanqulov esa latifa elementlari hattoki «Avesto»da ham uchrashimi ta'kidlab o'tgan. I.Braginskii esa ayrim qadimgi so'g'd hikoyatlari («Savdogar va marjon teshuvchi xizmatkor hikoyati» kabi) latifa janriga uyg'unligini ta'kidlaydi. B.Privalov o'tgan asrlarda xalq latifalarini bozorlarda turli tabaqa vakillarining munosabatlari asnosida kelib chiqadigan kulguli vaziyatlarga bog'liq holda vujudga kelganini ta'kidlab o'tgan. A.N.Veselovskiy hayvonlar haqidagi epos qo'shiq janridan keyin paydo bo'lgan, epos materialini ertak va masallar tashkil etganligini, satirik maqsadlar esa keyinroq paydo bo'lganini ta'kidlaydi. Y.D.Tursunov ham shunga o'xshash fikrni aytib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, latifalar maishiy ertaklarning bir turi bo'lgan go'l (laqma)lar haqidagi ertaklar zaminida paydo bo'lgan. Yuqorida fikrlardan ko'rinish turibdiki, latifa janrining vujudga kelishi xususida turli xildagi qarashlar mavjud.

Bizningcha, esa bu borada B.Privalov fikri haqiqatga yaqinroq. Zero, latifalarning asosiy qismidagi bosh qahramon dono va topqir, hozirjavob va gapga usta inson sifatida namoyon bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** O'zbek xalq og'zaki ijodagi latifa janri xususida o'zbek folklorshunoslar H.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, O.Sobirov, A.Qahhorov, J.Qobulniyozov, M.Saidov, T.Mirzayev, K.Imomov, M.Murodov, B.Sarimsoqov, T.Ashurov, O.Safarov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev, U.Jumanazarov, Sh.Turdimov, J.Eshonqul va boshqalar o'z qarashlarini turli tadqiqotlarda bayon etishgan. Latifa janri va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida R.Muqimov, H.Razzoqov, O.Sobirov, F.Yo'ldosheva, B.Sarimsoqov, K.Imomov kabi folklorshunoslar olimlarning tadqiqotlarida diqqatga sazovor. Folkloshunoslar latifa janrining beshta xususiyatlarini ko'rsatishadi. Bular: 1) epik turga mansubligi; 2) hajman qisqa bo'lishi; 3) mazmunan hazil va hajvgva asoslanganligi; 4) tugallangan syujetli bo'lishi; 5) kutilmagan yakundan iboratligi.

Xususan, o'zbek xalq latifalari janr xususiyatlarini tadqiq qilgan olim B.Suvanqulov mazkur janr bo'yicha olib borilgan izlanishlarni uch guruhga ajratib, tavsiflaydi:

«Birinchi guruh – janning g‘oyaviyligi, mavzulari va obrazlarini yoritgan ishlar. Bu guruhga R.Mujimov, Yo.Jo‘rayev, H.Razzoqov, F.Yo‘ldoshevalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Ikkinci guruh – latifalarning namunalarini to‘plab va nashr etishga oid ishlar. Mazkur guruhga Sh.Rizo, S.Abdulla, A.Rahmat, H.Razzoqov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, Yo.Jo‘rayev, B.Sarimsoqov, F.Yo‘ldosheva va boshqalarning tadqiqotlari mansub. Uchinchi guruh – xalq latifalarining janr xususiyatlarini aniqlashga oid ishlar. Ushbu guruhga O.Sobirov, B.Sarimsoqov, F.Yo‘ldosheva, K.Imomovlarning ishlari mansub». Ko‘rib o‘tganimizdek, latifa janri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda mazkur janrga oid namunalarning to‘planishi, nashr ettrilishi va janr xususiyatlari keng yoritilgan. Latifa janning xususiyatlari borasida olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi xulosalar chiqarilgan: R.Mujimov mazkur janrga to‘xtalar ekan, uning bayon uslbubini: «Latifa bayon qilishning kichik hikoya formalaridan...» tashkil topishini, shuningdek, «Latifalarning xushchaqchaq, optimizm to‘la mazmuniga muvofiq ularning ixcham, xalqchil formasi ham mavjud. Shu sababdan har bir latifada konflikt, tip yaratish yo‘li, obrazni xarakterlar usuli ham mazmunga yarasha ixcham, chingillama tus» olishimi ta‘kidlab o‘tadi. «Latifalar uchun qahramonlarning chuqur xarakteristikasi xos emas: ularning ko‘pchiligi asosini konkret siusasiya va uning hal etilish usuli tashkil etadi» deya bu boradagi qarashlarini ta‘kidlagan. H.Razzoqov esa «Latifa epik tur janrlarining hammasi, xalqning satirik, humoristik komediyalari, qisman qochirim, so‘z o‘yinlari... Bu bilan birga, u askiya-pavrovlar bilan bir butunlikni tashkil qiladi», – deya latifa janri xususiyatlari ko‘rsatadi.

**Natijalar va muhokama.** Latifa (arab-mutoyiba, hazil) — xalq hajviyoti janrlaridan, tanqidiy mazmundagi qisqa humoristik hikoya. Qadimdan O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Latifalar qahramoni jonli va ta‘sirchan so‘zlaydigan, hazil mutoyibaga boy, haqiqat va adolatni himoya qiluvchi hozirjavob shaxs. Latifa syujetini qochiriq, kesatik, piching to‘la hajviy epizod va holatlar tashkil etadi. Sarguzasht harakteridagi syujet sodda va lo‘nda ifoda etiladi. Latifaning ilk namunalarini Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u biling", Sa‘diyning "Guliston" asarlarida uchraydi. Latifa janri XI asrdan so‘ng keng shakllandi va rivoj topdi.

Tadqiqot ishimiz davomida bir nechta latifalarni tahlil etar ekanmiz, latifalar matnining lingvostalistikasiga oid fonetik, leksik, grammatik, sintaktik vositalardan nutqda qanday foydalanziganligi, ulardan qaysi birini qo‘llash muvofiq ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Latifalar orqali kulgi yuzaga kedishidagi asosiy omillardan yana biri bu morfologik

usul va vositalarnib jumladan juft va takroriy so‘zlarni qo‘llash hisoblanadi. Quyida shu mavzuga oid latifalarni tahlil qilamiz.

Restoranda ikkita o‘zbek ofisiantga buyurtma berishiyapti:

— Bizga choy-poy, non-pon, ovqat-povqat olib kelting.

Nariroqda o‘tirgan rus ayol ularni gapini eshitib:

— Nimaga sizlar har bir so‘zga qo‘shimcha qo‘shib gapirasizlar? Choy, non, ovqat desangiz bo‘lmaydim? Agar gaplaringizga qo‘shimcha qo‘shmasdan gapirsangiz, bir tarelka tilla beraman, - debdi.

Shunda o‘zbeklardan biri:

— Tarelka-parelkasi bilan berasizmi?

Mazkur latifada ikkinchi qismi fonetik o‘zgarishga uchrashi natijasida hosil bo‘lgan takroriy so‘zlar natijasida kulgili holat yuzaga kelgan.

Bir kuni afandi kabobxonani yonidan o‘ta turib, kabobdan chiqayotgan tutunni hidlaganaging uchun pul to‘la! – desa, uddaburon afandi cho‘ntagidan tangalarini chiqaribdi-da, „jaranglatib-jaranglatib“ yana cho‘ntagiga solib yo‘lida ketavergan ekan.

Mazkur latifada jaranglatib-jaranglatib takroriy so‘zidagi yashirin mayno orqali kulgi yuzaga kelgan. Ya’ni siz ham tananining jarang-jurungini eshitdingiz, mana shu ovoz mening to‘lovimdir degan mot qilish shakliga ega kosa tagidagi nimkosha mayno mujassam.

**Xulosa.** Latifalar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining paydo bo‘lish tarixi asrlar qa‘riga borib taqaladigan janrlardan biridir. So‘z o‘yiniga asoslangan mazkur janning xususiyatlari, asosan, quyidagilarda namoyon bo‘ladi: latifalar matni o‘zining hajviy-yumoristik mazmuni bilan tinglochining diqqat-e’tiborini tortadi va undagi yengil hazil-mutoyiba yoki hajviy-zaharxanda kulgi muayyan bir badiyestetik maqsadga qaratiladi. Shu maqsadda har bir latifa matnida kulgi yaratishning turli vosita va usullaridan keng foydalaniladi. Ular yordamida kulgili vaziyatlar vujudga keltiriladi va latifa mazmunidan ko‘zlangan asosiy maqsad ochib beriladi; latifalarda boshqa badiiy uslubdagagi matnlardagi kabi ko‘chma ma’nolilik, shakldoshlik hodisalari asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Ularda leksik va frazeologik birliliklarning o‘z va ko‘chma ma’nosiga asoslangan holda kulgi yaratish hodisasi ko‘p uchrab turadi. Latifalar matnnini leksik-semantik jihatdan har tomonlama chuqur tahlil etish natijasida tilimizning ma’lum bir davrdagi tarixiy shakllanish jarayoni, til hodisalari, lug‘at tarkibi va uning boyish yo‘llari, til birliklaridan foydalanish imkoniyatlari haqida muayyan ma’lumotlar olish manbalaridan biridir.

## ADABIYOTLAR

- Соссюр Ф. де Труды по языкоznанию. - М.: Прогресс, 1977. – 206 с.(Saussure F. de Works on linguistics. - M.: Progress, 1977. - 206 p.)
- Витгенштейн Л. Философские исследования//Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16.– М., 1985. –С. – 34.(Wittgenstein L. Philosophical research//New in foreign linguistics. Issue 16. - M., 1985. -S. – 34)
- Стилистический энциклопедический словарь русского языка. [электронный ресурс] / под ред. М.Н.Кожиной; члены редколлегии: Е.А.Баженова, М.П.Котюрова, А.П.С ковородников. – 2-е изд., стереотип. — М.: Флинта: Наука, 2011. –С. 696.( Stylistic encyclopedic dictionary of the Russian language. [electronic resource] / ed. M.N. Kozhina; members of the editorial board: E.A. Bazhenova, M.P. Kotyurova, A.P. S kovorodnikov. - 2nd ed., stereotype. - M.: Flinta: Nauka, 2011. -S. 696.)
- Ходакова Е.П. Каламбур в русской литературе XVIII в. / Е.П. Ходакова// Русская литературная речь в XVIII в.: Фразеологизмы. Неологизмы. Каламбуры. – М.: Наука, 1968. – С. 201–254; Земская Е.А. Речевые приемы комического в советской литературе // Исследования по языку советских писателей/ Е.А. Земская. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 215–278; (Khodakova E.P. Pun in Russian literature of the XVIII century. / E.P. Khodakov // Russian literary speech in the XVIII century: Phraseologisms. Neologisms. Puns. - M.: Nauka, 1968. - S. 201-254; Zemskaya E.A. Speech techniques of the comic in Soviet literature // Studies in the language of Soviet writers / E.A. Zemskaya. - M.: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR, 1959. - S. 215–278)

5. Голев Н.Д. Русский анекдот как игровой текст: внутренняя форма и содержание/ Н.Д. Голев// Человек–коммуникация – текст. Вып. 4 / под ред. А.А. Чувакина. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2000. – С. 27-33. (Golev N.D. Russian anecdote as a game text: internal form and content / N.D. Golev// Man - communication - text. Issue. 4 / ed. A.A. Dude. - Barnaul: Alt. un-ta, 2000. - S. 27-33.)
6. Сопова Т.Г. Языковая игра в контексте демократизации художественной речи в последние десятилетия XX века: Автореф. дисс... кан. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2007. –С. 22. (Sopova T.G. Language game in the context of the democratization of artistic speech in the last decades of the 20th century: Abstract of the thesis. diss...can. philol. Sciences. - St. Petersburg, 2007. -S. 22)
7. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. –Самарқанд, 2010. –Б. 192; Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. Монография. –Самарқанд, 2017. –Б. 152; (Karimov S. Functional stylistics of the Uzbek language. - Samarkand, 2010. -B. 192; Karimov S. Phonetic stylistics of the Uzbek language. Monograph. -Samarkand, 2017. -B. 152;)
8. Тўланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърияти тилидаги бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол. фан. номз... дисс. автореф. –Тошкент, 2012. –Б. 27.; (Tolanova N. Linguistic and stylistic analysis of artistic arts in the language of Uzbek poetry of the nineties: Filol. science. nomz... diss. autoref. -Tashkent, 2012. -B. 27.;)
9. Мамажонов А., Йўлдошева З. Услубшунослик ва бадий тасвир воситалари. – Фарғона, 2020. –Б.82; (Mamajonov A., Yoldosheva Z. Techniques and tools of artistic representation. – Fergana, 2020. – B.82;)
10. Йўлдошев М. Бадий матнининг лингвопоэтик тадқики: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2009. –Б. 30.;( Yoldoshev M. Lingupoetic study of the literary text: Philol. science. doc. ... diss. autoref. -Tashkent, 2009. -B. 30;)
11. Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик, лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима килинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фан. фалсафа докт. (PhD) ... дисс. –Т., 2017. – Б. 164; (Yoldoshev U. Linguistic, linguocultural characteristics of the translation of humorous texts (in the example of Uzbek folk anecdotes translated into English): Philol. science. doctor of philosophy (PhD) ... diss. -T., 2017. -B. 164;)
12. Суванкулов Б. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти: Филол. фан. номз... дисс. –Тошкент, 2007. –Б. 158;( Suvankulov B. Genre characteristics and artistry of Uzbek folk anecdotes: Filol. science. name ... diss. - Tashkent, 2007. -B. 158;)
13. Мадалиев Я. Туркий халқлар оғзаки ижодида латифа жанри: типологияси, мотивлари, таснифи (ўзбек ва қозоқ латифалари мисолида): Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. –Б. 24. (Madaliev Y. Genre of anecdote in the oral works of Turkic peoples: typology, motives, classification (in the example of Uzbek and Kazakh anecdotes): Philol. science. div. doc. (PhD) ... diss. autoref. - Tashkent, 2021. -B. 24)
14. Рустамов И. Сўз ясаш сатхидаги лисоний ўйин. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. –Жиззах, 2017. –Б. 69-70. (Rustamov I. A language game at the level of word formation. Proceedings of the international scientific and practical conference. -Jizzakh, 2017. -B. 69-70.)
15. Дўсматов Ҳ. Аския матнининг лингвостилистик тадқики: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. –Б. 24.( Dosmatov H. Linguistic study of the Askian text: Philol. science. div. doc. (PhD) ... diss. autoref. - Fergana, 2018. -B. 24.)
16. Абдураҳмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги кўзғатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. –Б. 23.( Abdurakhmanov Sh. Linguistic devices that cause laughter in Uzbek artistic speech: Filol. science. nomz... diss. autoref. - Tashkent, 1997. -B. 23.)
17. Hikmatullo Haitboevich Dusmatov, Mahliyo Husanova. Some stylistic events expressed in Uzbek anecdotes, 2021, 505-b.
18. Neologizmlarning O'zbek Latifalari Matnidagi Ahamiyati. M. Husaynova - Journal of Integrated Education and Research, 2022-y, 56-b.( The significance of neologisms in the text of uzbek Anecdotes. M. Husaynova - Journal of Integrated Education and Research, 2022, p. 56)
19. <https://www.litdic.ru/kalambur/>
20. <https://latifa.uz/>



Gulnoza SHAMSIDDINOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

E-mail:shamsiddinovag93@gmail.com

SamDCHTI, f.f.d. professor, Salohiy Dilorom Isomiddin qizi taqrizi asosida

## INGLIZ VA O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA DETEKTIV JANR TAVSIFI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilida yozilgan detektiv hikoya, qissa, romanlarning boshlanishi, rivojlanib borishi va o'zbek adabiyotiga kirib kelishi yoritiladi. Maqolada ikki tildagi detektiv fantastika tilining pragmatik xususiyatlari tahlil va muhokama qilinadi. Maqolaning asosini detektiv adabiyotning lingvistik elementlarini tahlil qilish va aniq misollar bo'yicha fikrlarni oydinlashtirish tashkil etadi. Detektiv hikoyalarning til xususiyatlarini tahlil qilish va o'rganish, uning pragmatik xususiyatlariga alohida e'tibor berishni talab qiladi. Bunda detektiv asar konteksti pragmatik tahlil ob'ekti sifatida olinadi va tahlil jarayonida badiiy asar matnining muayyan lingvistik xarakterli xususiyatlari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Detektiv janr, pragmatik muhit, detektiv ijod konteksti, sotsiopragmatik tahlil, ingliz detektiv adabiyoti, o'zbek detektiv adabiyoti, lingvistik adabiy komparativistika.

## ОПИСАНИЕ ДЕТЕКТИВНОГО ЖАНРА В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В данной статье описывается зарождение, развитие и вхождение в узбекскую литературу детективов, рассказов, романов, написанных на английском языке. В статье анализируются и рассматриваются pragmaticальные особенности языка двуязычного детектива. В основу статьи положен анализ языковых элементов детективной литературы и выяснение мнений на конкретных примерах. Анализ и изучение языковых особенностей детективных рассказов требует особого внимания к его pragmaticальным особенностям. В данном случае в качестве объекта pragmaticального анализа берется контекст детективного произведения, и в процессе анализа изучаются специфические языковые особенности текста художественного произведения.

**Ключевые слова:** Детективный жанр, pragmaticальная среда, контекст детективного творчества, социопрагматический анализ, английская детективная литература, узбекская детективная литература, лингволитературная компартивистика.

## DESCRIPTION OF THE DETECTIVE GENRE IN ENGLISH AND UZBEK FICTION

Annotation

This article describes the beginning, development and entry of detective stories, short stories, novels written in English into Uzbek literature. The article analyzes and discusses the pragmatic features of the language of bilingual detective fiction. The basis of the article is the analysis of the linguistic elements of detective literature and the clarification of opinions on concrete examples. Analysis and study of language features of detective stories requires special attention to its pragmatic features. In this case, the context of the detective work is taken as the object of pragmatic analysis, and in the process of analysis, specific linguistic features of the text of the artistic work are studied.

**Key words:** Detective genre, pragmatic environment, context of detective work, sociopragmatic analysis, English detective literature, Uzbek detective literature, linguistic and literary comparativistics.

**Kirish.** O'zbek tilshunosligida detektiv asarlar, asosan, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilan bo'lib, lisoniy tadqiqi borasida jiddiy tadqiqotlar olib borilmagan, jumladan, detektiv asarlar tilini sotsiopragmatik va gender aspektlarda o'rganish tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelgan. Detektiv asarlarning til xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish detektiv asar tilining pragmatik xususiyatlariga ham alohida to'xtalishni taqozo etadi. Bunda pragmatik tahlil obyekti sifatida detektiv asar konteksti olinadi va tahlil jarayonida asar matniga xos muayyan lingvistik xususiyatlari o'rganiladi. Bu esa tilning pragmatik xossa va xususiyatlariga to'xtalib o'tish va shu asosida detektiv asarlarning til elementlarini tahlil qilish hamda fikrlarni aniq misollar yordamida ochib berish orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolamda O'zbek va Ingliz adabiyotida detektiv janrga qo'l urgan O'limas Umarbekovning "Yoz yomg'irl" hamda Detetiv asarlar qirolichasi bo'lmish Agata Kristining "Al-Karnaku kemasidagi qotillik asarlarini tavsiflashga urindim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Pragmatika tilshunoslikning yangi amaliy tarmog'i sifatida tilning nutqiy

jarayon, nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador muammolarini o'rganuvchi soha sifatida shakllanmoqda [1]. Til o'z sohibi bilan birgalikda o'rganilar ekan, tabiiyi, uning maqbul tavsifi ham o'zi mansub millat madaniyati va mentaliteti bilan birga olib qaralgandagina beriladi. Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o'ziga xosliklarni namoyon etadi [2]. Pragmatik muhitning tarkibiy elementlari miqdordan rang-barangligi va keng qamroviligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, shaxs, vaziyat, sharoit orasida turli omillar va ularning ta'siri muhim ahamiyatga ega sanaladi. Shaxsning nutqiy holati jinsiy tafovut, fe'l, saviya, ijtimoiy mavqe, yosh, ma'lumoti, mutaxassislik, sog'liq, kayfiyat kabi kabilar, xususan, grammatik shakllarning nutqiy voqelanishiha ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi bilan xarakterlanadi.

Protsessual komponent – detektivlik nutqining bilim sohasi, ya'ni tushuntirish badiiy va lingvistik vositalar yordamida o'quvchiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan matnning bir qismi. Bu yerda detektiv tushunchalar uchun dominant bo'lgan konsepcion ish paydo bo'ladi: sir, hal etish va jinoyat-

jazo [3]. Detektiv nasrning odatiy xilma-xilligi janridagi o'sish uning til komponentiga ta'sir qila olmadi.

Detektivning janr sifatida asosiy xususiyati – bu qandaydir sirli voqealarning mavjudligi, ularning holatlari noma'lum va aniqlanishi kerak. Eng ko'p, tez-tez tasvirlangan voqealarning mavjud bo'lsa ham (masalan, detektivjanriga tegishli bo'lgan Sherlok Xolms haqidagi eslatmalarda, o'n sakkiztadan beshtasida jinoyatlar mavjud emas).

Detektivning muhim xususiyati shundaki, voqealarning haqiqiy holatlari, tergov tugagunga qadar, har qanday holatda ham, o'quvchiga yetkazilmaydi. Buning o'rni, o'quvchi har bir bosqichda o'z versiyalarini yaratish va ma'lum faktlarni baholash imkoniyatiga ega bo'lib, tergov jarayonida muallif e'tiborini jalb qiladi. Agar ish dastlab voqealarning barcha tafsilotlarini tavsiflasa yoki voqeada noaniq, sirli hech narsa bo'lmasa, unda u allaqachon aniq detektiv voqeaga emas, balki tegishli janrlar (aktyorlik filmi, politsiya romantikasi va boshqalar) ga bog'liq bo'lishi kerak.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pragmatikada nafaqat badiiy adabiyot, balki adabiyot, san'at, radio, televidenie va boshqalarining ham pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu vositalarning o'quvchi yoki tomoshabinga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Shu sababli detektiv asarlarning pragmatik tahlil va tadqiq etilishi tilshunoslikning muhim bir qismi sifatida qabul qilinadi. Yozuvchi O'Imas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" romanini kitobxonlar va adabiyot ahli tomonidan iliq kutib olindi. Sababi, asarda qalamga olingan mavzuning dolzarbli, roman g'oyasining har jihatdan mustahkam asosga qurilganligi, qahramonlarning murakkab va fojeali hayot yo'llaridagi kurashlari har bir o'quvchini befarq qoldirmasligi aniq edi. Roman detektiv janrla yaratilgan.

Romandagi personajlar sistemasi tahliliga nazar tashlaganimizda turli xarakterdagi murakkab va oddiy obrazlarga duch kelamiz va har bir obrazning romanda tutgan o'rnii juda ahamiyatli ekaniga guvoh bo'lamic. Ularning ba'zi birlari bir qarashda ahamiyatsizdek tuyulsa-da, vaqt kelganda detektiv roman uchun eng zarur bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni berishi yoxud asosiy voqealarning guvohi yoki ishtirokchisi bo'lib chiqishi mumkin. Quyida O'Imas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" asaridan olingan ba'zi misollar vositasida yuqorida fikrlarni dalillashga harakat qilaman.

Kampir qo'llari bilan olcha tagini kovlab, bir narsa oldi-da, o'rnidan turdi. Qanday borgan bo'lsa, xuddi shunday iziga qaytib rovonga yaqinlashdi. Qo'lidagi narsa loy yopishgan o'zbekcha pichoq edi.

Nima qilib qo'yding, ena! — dedi Olloyorov bo'g'iq ovoz bilan.

Xudo buyurganini!..

Kampir pichoqni rovonga tashladi va hassasini do'qillatganicha o'g'li yonidan o'tdi-da, joyiga borib chordana qurdi. Hayrat ichida qolgan Aliev uning sokin ko'zlarida yosh yaltirab ketganini ko'rди.

Nega o'ldirdingiz? - o'zini tutolmay so'radi Aliev. Olloyorov boshini ko'tardi. Uning rangida rang qolmagan edi.

Erining ixtirosini olib kelishdan bosh tortdi. Keyin... Sizlarga xabar bermoqchi bo'ldi.

Alievning tusmoli to'g'ri chiqdi. Munisxon erining ixtirosi uchun shahid ketgan. Har holda vijdoni bor ekan. Engiltaklik qilibdi-yu, sotqinlik qilmabdi. [4]

"Yoz yomg'iri" va "Al karnaku kemasidagi qotillik" detektiv asarlari taqqoslanganda, O'Imas Umarbekovning syujet bayoni, voqealarni o'zaro bog'lash, asar kompozitsiyasiga daxldor muhim bir xususiyatni alohida ta'kidlash o'rni bo'ladi. Bu jihat muallif roviyning syujet voqealari orasida paydo bo'lish hodisasiidir. Tabiiy ravishda

ingliz tilida ham detektiv matnlari o'ziga xos sotsiopraktik va sotsiolingvistik xususiyat kasb etadi. Asar qahramonlarining xarakterida, nutqida va boshqa diskursiv xususiyatlarda sotsiopraktik va sotsiolingvistik tahlil elementlari ko'rinish turadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi detektiv asarlarning sotsiolingvistik xususiyatlarda umumiyligi farqli jihatlar uchraydi va bu ham tabiiy hodisalardandir. Ya'ni Sharq jamiyatidan farqli ravishda G'arb jamiyatiga yashash tarzi, ijtimoiy masalalarga qarashi, g'ayritabiiy jarayonlarga beradigan bahosi, kundalik foydalananadigan predmetlari va boshqalari bilan ham farqlanadi. Bu tafovutlar detektiv asar qahramonlari kommunikativ holatida ham kuzatiladi. Buni quyidagi misollardan ham anglashimiz mumkin. XX asr ingliz detektiv adabiyotini Agata Kristi asarlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, ayniqsa, Erkyul Puaroni bilmaydigan odamning o'zi yo'q. Adibaning juda ko'p asarlarda jabrulanuvchilarining joniga oro kirgan bu qahramon har doim o'zining tashqi ko'rinishi, niyoyat-da o'tkir aqli va sinchkov kuzatuvchanligi bilan hammani lol qoldirgan Adibaning bir qator kitoblarida ayol izquvar, Miss Marpl, ham qiziqarli hamda kutilmagan natijalarga boy detektiv asarlar paydo bo'lishining sababchisidir.

**Tahlil va natijalar.** Agata Kristining detektiv qissalarida, odatda, to kitob oxirigacha jinoyatchi kimligini biling bo'lmaydi va har bir qahramon kitobxon shubxasida qolaveradi, shuning uchun ham qissalarini tezroq yakunlashga bo'lgan ishtiyoq ortib boraveradi. Men ushbu ilmiy ishimda aynan Agata Kristining "Al karnaku kemasidagi qotillik" asari va O'Imas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" asarini qiyosiy tahlil qilishni istadim. Puarobrazi mashhurlik bobida Sherlok Xolms darajasigacha yetib bordi. Buni kino ixlosmandlari, adabiyotsevarlar ham tasdiqlashi shubhasiz. Agata Kristining ushbu asarini ham hayrat to'la ko'zlarim bilan katta taassurotlar olgan holda mutolaa qildim. Asar davomida maza qilib Misr bo'yab sayohat qildim. Misr piramidalari va ibodatxonalarida yurgandek bo'ldim. Nil daryosida "Al-Karnaku" kemasida sayohatda bo'ldim. Kema palubalaridan turib dengizni tomosha qildim. Bularning barchasi juda ajoyib va g'aroyib. Lekin "Al-Karnaku" kemasidagi bo'lgan qotillikler esa ajoyib sayohatni tugatib dam olayotgan miyani ishslashga majbur qildi.

Aslida sayohat uchun yo'lga otlangan Puarobrazi insonlar taqdирining navbatdagi qarama-qarshiliklari duch keladi. Yosh, sohibjamol va ayni paytda juda katta mol-mulk sohibasi Linnet Rijuey qanchalik aqlli, qanchalik tadbirdor bo'lmasin, hayot sinovlari, hayot imtiyonlari oldida o'zini butkul yo'qotib qo'yadi. Turmushga chiqib baxtni orzu qilgan qiz taqdiri kutilmagan vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Asar syujeti qisacha shundan iborat: Linnet Rijuey go'zal, uddaburon, ishni ko'zini biladigan hamda juda badavlat honim. Otasining vafotidan so'ng juda katta boylik unga meros bo'lib qolgan. Uning dugonasi Jaklina de Belfort esa pulga muhtoj, uning Simon Doyl ismli qallig'i bo'lib uni juda qattiq sevadi. Lekin qallig'i Linnet Rijueyga uylanadi. Yoshlar asal oyini o'tkazish uchun Misrga borishadi. "Al-Karnaku" kemasiga chiqishadi. Ular juda baxtli edi. Lekin Jaklina de Belfort izma-iz ularni ta'qib qilmoqda, rashk o'tida yonmoqda. Linnetni chakkasidan otib tashlashni xohlashini Puaroga aytadi. Bir kuni kemada kechqurun Jaklina mast bo'lguncha ichadi va bir nechta odamlar guvohligida kema barida Simon Doylni oyog'iga jahol ustida pistolet bilan otadi. Tasodifni qarangki, xuddi shu paytda shirin uyquda yotgan go'zal Linnet Rejueyni ham chakkasidan otib, devorga esa "J" harfini yozib ketishadi. Barcha qotil deb Jaklinani taxmin qiladi. Lekin Jaklina bu paytda barda bo'lgan va Simon Doylni otgan. Puarobrazi ustamonalik bilan yechim topgan jinoyat ishi boshqalari kabi hayratlanarli, boshqalari kabi hayajonga boy, boshqalari kabi kutilmagan yechim bilan yakun topadi.

Ya'ni Linnet Rejueyni o'ldirish va uning boyligiga egalik qilish avvaldan rejalashtirilgan vahshiy qotillik edi. Uni turmush o'rtog'i Simon Doyl o'ldirgan va bu qotillikga sevgilisi Jaklinani ham sherik qiladi. Juda chalkash ushbu jinoyatni Erkyul Puaro mohirlilik bilan yechadi. Bundan barcha hayratga tushadi.

Asarni o'qir ekansiz, ishonchli bo'lgan odamlar ham jinoyatga aloqador bo'lishi mumkinligiga yana bir karra amin bo'larkansiz. Asar so'ngida badavlat bo'lish har doim ham baxtli bo'lishga sabab bo'lavermasligiga, qancha badavlat bo'lganizing sari atrofingizda o'zingiz istamagan holatda dushmanlaringiz soni oshib borishiga amin bo'lasiz.

Detektiv ishqibozlariga tavsiya qilaman. Hayolga ham kelmaydigan yakunga ega bo'lgan ajoyib asar.

**Xulosa va takiflar.** Xulosa qilganda, ingliz tilida yozilgan adabiyotlarda detektiv asarlar o'zbek adabiyotidagiga qaraganda ertaroq, XIX asr boshlarida, paydo bo'lgan, tez orada, nafaqt hikoya, balki qissa, romanlar shaklida ham davom etgan, bu kabi asarlarning yozilishiga katta turki bo'lgan asosiy omillardan biri esa tibbiy ekspertizaning rivojlanishi va ommalashishi edi. O'zbek adabiyoti detektiv janr ilk namunalari esa ancha kechroq, 100 yil o'tib, XX asr boshlarida, sobiq Sovet davrida, tuzumning qattiq bosimi,

Sovet adabiyotining kuchli ta'siri ostida shakllangan. O'zbek, umuman, Sharq, adabiyoti prozasi shakllari, mavzulari, g'oyalari bilan uzoq zamonlardan beri G'arb adabiyoti nasridan farq qilib kelganligi, hikoya, qissa, roman kabilar o'zbek adabiyotiga XX asr boshlaridagina jadidlar tomonidan yangi tanishitirilganligi sababli, dastlabki detektiv nasr namunalari ham zamonaviy janr talablariga to'liq javob bermagan. Shunga qaramasdan, keyinchalik, asr o'rtalaridan o'tib, prozaning o'zbek adabiyotiga yangilik bo'lgan shakllari bilan birga detektiv janr ham rivojlanib bordi va durdona asarlar yaratildi. Hozirda har ikki adabiyotda ham janr yangi-yangi mavzular, muammolar muhokamasi bilan davom etmoqda.

Demak, detektiv fantastikani aniqlash hali hanuz ko'plab baxslarga sabab bo'lmoxda. Hatto uning tarixi ham munozarali bo'lib, tanqidchilar detektiv fantastika elementlarini eng qadimgi yunon tragediyalari va ingliz adabiyotining ulkan namoyondasi Chaucer bilan bog'laydi. Muammoning bir qismi shundaki, "detektiv janr" toifasiga jinoyatchilik bilan bog'liq barcha fantastik unsurlar va izquvarlik jarayonlari, jinoyatni oshkor etish bilan bog'liq bo'lgan detektiv ish bilan cheklanishi kerak.

### ADABIYOTLAR

1. Hakimov, M. 2001. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, – B. 14.
2. Mahmudov, N., Yo.Odilov. 2014. So'z ma'no taraqqiyotida ziddiyat. –Toshkent: Akademik nashr, – B.103.
3. Ulug'ov A. Adabiyotshunsolikka kirish. Toshkent: "Universitet" 2005
4. [http://www.krugosvet.ru/enc/kultura\\_i\\_obrazovanie/literatura/DETE\\_KTIV.html](http://www.krugosvet.ru/enc/kultura_i_obrazovanie/literatura/DETE_KTIV.html) (data obramenya: 25.06.2019).
5. O'lmas Umarbekovning "Tanlangan asarlari" II jildidan olindi. "Yoz yomg'iri" qissa.
6. Agata Kristi "Al-Karnaku kemasidagi qotillik".
7. Gulnoz Xalliyeva. Qiyosiy adabiyotshunoslik (Toshkent- Akademnashr 2020).



Sayyora SHODMONOVA,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, (PhD)

E-mail: sayshodmonova71@gmail.com

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.d. Z.Teshboyeva taqrizi asosida

## PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF ENGLISH TRANSLATIONS OF UNITS OF MEASUREMENT LEXEMAS IN "BOBURNOMA"

### Annotation

This article is devoted to the pragmatic features of units of measurement in the text "Boburnoma". Special attention is paid to the transliteration of the translation of units of measurement, as well as to the linguocultural and pragmatic features of the translations. The problems of reflecting the lexemes of units of measurement in the text "Boburnoma" in translations and the issues of restoring their linguistic and cultural characteristics in their translations are analyzed.

**Key words:** Units of measurement, noble, royal, diamond, dinar, linguistic and cultural features, authenticity, mathematical numbers.

## ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДОВ ЛЕКСЕМ ЕДИНИЦ ИЗМЕРЕНИЯ В "БОБУРНОМЕ"

### Аннотация

Данная статья посвящена pragматическим особенностям единиц измерения в тексте «Бобурнома». Особое внимание уделено транслитерации перевода единиц измерения, а также лингвокультурным и pragматическим особенностям переводов. Анализируются проблемы отражения лексем единиц измерения в тексте «Бобурнома» в переводах и вопросы восстановления их лингвокультурных особенностей в их переводах.

**Ключевые слова:** Единицы измерения, благородный, королевский, бриллиант, динар, лингвокультурные особенности, своеобразие, математические числа.

## "BOBURNOMA" DAGI O'LCHOV BIRLIKHLARI LEKSEMAHLARI INGLIZCHA TARJIMALARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqola "Boburnoma" matnidagi o'lchov birliklarining pragmatik xususiyatlariga bag'ishlanadi. O'lchov birliklarining tarjimasini transliteratsiya usulida berilishi hamda tarjimalarning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan. "Boburnoma" matnidagi o'lchov birliklari leksemalarining tarjimalarda aks etishdagi muammolar va ularning tarjimalarda lingvokulturologik xususiyatlarini qayta tiklanish masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'lchov birliklari, ashrafiy, shohruhiy, olmos, dinor, lingvokulturologik xususiyatlar, asliyat, matematik raqamlar.

**Kirish.** Ma'lum bir asar matnida muayyan bir xalq turmush tarzi jarayonida kundalik hayot ehtiyojlari uchun qo'llanadigan o'lchov birliklari leksemalarini boshqa bir xalq o'lchov birliklari so'zları (leksemalari) bilan almashtirish chog'ida, uni asarning umumiyligi ohangiga, undagi tarixiy haqiqatga, milliy ruhga nechog'lik mos kelish-kelmasligini jiddiy o'ylab ko'rish muhimdir. O'lchov birligi haqida zarur ma'lumotga ega bo'lmay turib, e'tiborsizlik bilan o'z tilida ifoda etilayotgan, boshqa xalq turmush tarzi uchun mos kelmaydigan o'lchov birligi bilan tarjima qilinishi asarning badiiy-estetik qimmatiga putur yetkazadi, kitobxonada voqelikka nisbatan ikkilanish, ishonchszizlik uyg'otadi.

Qadimda o'lchov birliklari oltin, kumush yoki misdan yasalgan va anglatgan qiymati shunga muvofiq holda bir-biridan farq qilgan, ya'ni tangalarning qiymati tangaga ishlatalilgan oltin, kumush yoki mis og'irlik darajasi hamda metallning qadri bilan belgilangan. Demak, tanga qanday predmetdan yasalishidan qa'tiy nazar, o'sha davr uchun pul birligi bo'lgan. "Boburnoma" matnida pul qiymatini ifodalovchi: dinor// dinar, dirham// diram, flus// fulus, donge, tanga, ashrafiy, yarmoq, shohruhiy kumush, oltun, rotiba, vajh, shuningdek, olmos pul birliklari uchraydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Boburnoma" matnida: "Chahorshanba kuni Borik ob tushganda Hindustonda qolg'on Nurbekning inilaridin yigirma ming shohruxiyliq oltun va ashrafiy va tangakim, Xoja Husayn

devon Laho'r xolisotidin yiborib edi, kelturdi" (BN.184), deb o'qiyimiz.

Leyden-Erskin tarjimasida: On Wednesday, when we were coming to our ground at Barik-ab, the brothers of Nur Beg, who had remained behind in Hindustan, arrived bringing to the amount of twenty thousand shahrokhis, in gold, in ashrafis and tankis, which Khwajeh Hussain, Diwan of Lahore, had sent by them (L-E, Voll.II; 155) tarzida tarjima qilinadi.

Asliyat matnida: "yigirma ming shohruxiyliq oltun va ashrafiy va tangakim" pul qiymatini bildiruvchi o'lchov birliklari leksemalari, tarjimada: twenty thousand shahrokhis, in gold, in ashrafis and tankis, shaklida qayta tiklanadi. E'tibor qaratsak, pul birligi leksemalari transliteratsiya usulida berilgan oltin so'zinig muqobil varianti borligi uchun tarjimasi berilgan. Tarjimaga aniqlik kiritish maqsadida, Leyden-Erskin tomonidan pul o'lchov birliklari leksemalari tarjimasining satr ostida keltirgan izohini berishni ma'qul topdik: About £1,000 sterling. Nothing can afford a stronger proof of the scarcity of specie in Kabul than this appropriation of so small a sum. The tanki, or tangi, is a small silver coin of the value of about fivepence. The name of ashrafi is applied to the gold mohur, which is worth about a guinea and a half. It is applied, however, to gold coins of various magnitude and value (Taxminan 1,000 funt sterlingdir. Mayda miqdordagi so'm mablag'iqa qaraganda Kobuldag'i qiyomat turlarining

yetishmasligi bunga dalildir. Tanki yoki tangi - kumush tanga bo'lib, qiymati besh pensga teng. Oltin mohur ashrafi nomi bilan ataladi, qimmati grafiya va uning yarmiga tengdir. Ammo u har xil kattalikdagi va qiyatdagi oltin tangalarga nisbatan qo'llaniladi (M.T). Bundan ko'rindiki, tarimon o'zga tilda ifoda etilgan pul qiyatini shu tilda so'zlashuvchi xalq uchun tushunarli ifodalashga harakat qiladi.

A.Beverij tarjimasida: On Wednesday, when we had dismounted at Barik-ab, the younger brethren of Nur Beg – he himself remaining in Hindustan – brought gold, ashrafis and tankas to the value of 20,000 shahrukhis, sent from the Lahor revenues by Khwaja Husain (A.B.446) tarzida qayta yaratiladi. Asliyat matnida: "yigirma ming shohruxiyliq oltun va ashrafiy va tangakim" pul qiyatini bildiruvchi o'lchov birlıkları leksemaları tarjima matnida: gold, ashrafis and tankas to the value of 20,000 shahrukhis (oltin, ashrafiy va tanga yigirma ming shohruhiy qiyatiga ega) deb keltiriladi. A.Beverij ham pul o'lchov birlıkları leksemalarını tarjimalariga izoh keltiradi. Izohda: Discussing the value of coins mentioned by Babur, Erskine says in his History of India (vol. i, Appendix E.) which was published in 1854 AD. that he had come to think his estimates of the value of the coins was set too low in the Memoirs (published 1826 AD.). This sum of 20,000 shahrukhis he put £1,000. Cf. E.Thomas' Pathan Kings of Dihli and Resources of the Mughal Empire" (Bobur tomonidan tangalar qiyatini bildirilgan muhokamasi, 1854 yilda nashr qilingan Erskinning Hindiston tarixi (I-jildining YE apendiksida) esdaliklarda keltirilgan tangalar qiyatini juda kam qiyatiga egaligi ta'kidlangan, degan fikrga kelgan. 20 ming shoxruhiyni 1.000 funt sterlingga teng qo'yadi va E.Tomsning "Dehli podshohi va mo'g'ul imperiyasining resurslari" kitobida (M.T) deb keltiradi.

Har ikkala tarjimonlar tomonidan yozilgan izohlarni keltirib o'tishni joiz deb topdik, chunki bular aynan pul birlıklarini asliyatga nisbatan qayta tiklash jarayonida kelib chiqqan ayrim fikr va mulohazalarini ko'rsatib berish uchun xizmat qiladi.

V.Tekston tarjimasida: On Wednesday, at Barikao, one of Nur Beg's younger brothers brought twenty thousand shahrukhis worth of gold, ashrafis, and tankas, which Khwaja Husayn the divan had forwarded from the Lahore revenues. Most of it was sent for the benefit of Balkh by Mulla Ahmad, one of the lords of Balkh (W.T.311) deb tarjimada keltiradi.

Pul o'lchov birlıkları leksemalarını mutarjim: "twenty thousand shahrukhis worth of gold, ashrafis, and tankas" shaklida qayta yaratadi. V.Tekston ham tarjimada oltin so'zini ekvivalenti bilan almashtiradi, qolganlarini esa transliteratsiya yo'li bilan amalga oshiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarjimalarni amalga oshirishda har bir tarimon o'z nuqtai nazaridan yondashganini ko'ramiz. Uchala tarimon ham o'quvchisiga tushunarli tarzda bo'lishi uchun tarjimanining turli yo'llariga kirib ko'rgan, pragmatik jihatidan o'quvchiga qulay imkoniyat yaratishga harakat qilgan. Leyden-Erskin ham o'quvchilarini uchun tushunarli bo'lishi ilinjida izohlarni aniq keltirishga uringan. Bu ham tarjimonning yuksak mahorat egasi ekanligidan darakdir.

Professor G'aybulla-as-salom ta'biri bilan aytganda: "Mutarjim judayam o'ziga xos layoqat, iqtidor, iste'dod va bilim sohibi bo'lishidan tashqari, uning zakovatida deyarli barcha ijod ahlining faoliyatiga xos: tahlil, tasvir, tiynat yaratish, kayfiyat tug'dirish va hatto maxsus "o'qiy bilish" sifatlari jamuljam" [Саломов 1973, 280]. Darhaqiqat, tarimon bu sohada mohir tarimon bo'lish bilan birga, ijodkor yaratgan asarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunishi hamda uning milliy va madaniy xususiyatlarini anglab yetishi lozim. Shundagina, tarjima asarlari xuddi asliyatdagidek o'z mazmun va shaklini saqlab qoladi, shuningdek, o'quvchiga asliyat

matnidek o'qib, voqealar tasvirini aniq ko'z o'ngida tasvirlantira olishiga katta imkoniyat yaratiladi.

Dinor//Dinar pul qiymat birligi qadimdan g'arbu sharqda qo'llangan pul birligi bo'lib, u tijorat va iqtisodni yurituvchi asosiy muomala vositasi bo'lgan. Dinor aslida "dinnar" so'zidan olingen bo'lib, birinchi "nun", "yo" ga almashtirilgan. Ko'plik holatida "nun" o'z joyiga qaytadi. Eronda chop etilgan mashhur "Lug'atnoma"da qayd etilishicha, Rag'ib Isfaxoniyning "Mufradodi alfozi Qur'on" nomli asarida dinor-forscha ikki mustaqil so'zdan tashkil topganligi ko'rsatib o'tiladi: ya'ni din-ar, u shariat keltirgan narsa (yoki predmet ) ma'nosini anglatadi. Damashqda 72 hijriyda zarb etilgan dastlabki dinorlarda islomiy naqshlar bo'lgan. Tangalarni bunday naqshlar bilan bezash islomiy mamlakatlarda XIV asrgacha davom etib kelgan. Hijriy IV-V asrlarda Xurosonda tillo va kumushdan zarb etilgan dinorlarga Kalimai shahodat va Ixlos surasidan oyatlar yozilgan. Abbosiylar esa to 170 hijriyacha (Xorun al Rashid zamonigacha ) dinorni naqshsiz zarb etganlar. Xorun al Rashid va undan keyingi hukmronlar o'z nomlarini tanga yuziga zarb ettirganlar.

Keyinchalik Iroq va Quvaytda dinor qog'oz pul ko'rinishida ham muomalada bo'lgan. U 1000 fulusga teng kelgan. Qadimda dinorlar har xil bo'lgan. Dinori Urduniy - 1000 fulus, 1 liraga teng; Dinori Ahmadiya – Ahmad ibn Tulun nomi bilan bog'liq bo'lib Misrda zarb etilgan.

**Tahlil va natijalar.** Dinor qadimda (XII asrda) arablarning pul birligi bo'lib, asosan, oltindan yasalgan. V.M.Berkutovning ma'lumot berishicha, dinor rimliklarning "dinariy" kumush tangasining nomidan olingen va lotincha "o'ntalik" ma'nosini anglatgan. Inson Karmlining "Nuqud ul-arabiya" asarida dinor rumiy tildagi dinoryusdan olingen deyilgan. Bu so'z tarixini fransuzcha dinyaga bog'laydiganlar ham bor. Musulmon olamida esa dinor oltindan yasalgan, deb aytildi. O'zbek lug'atlarida dinor "oltin aqcha", "oltin tanga" deb berilgan. "Boburnoma"ning ruscha nashrida bir dinor 7,5 gramm kumushdan iborat deb izohlangan. V asrda 1,25 grammlik, 6 dirhamlik kumushga teng bo'lgan. Dinorning qiyatini XV asr oxiri XVI asr boshlarida ruslar puli bilan solishtirilganda, oltin hisobi bilan 50,75 tiyinlik qiyatiga ega bo'lgan.

V.Xinsning fikricha, dinor og'irlik o'lchovi sifatida 1 misqolga teng bo'lib, oltin hisobida 4,235 grammni tashkil qilgan. 1 misqol arablarda 4,250 gramm, O'rtta Osiyoda esa 4,25 grammga teng bo'lgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, misqol O'rtta Osiyoning o'zida ham har xil qiyatini anglatgan. A.Juvonmardiyev dinor eski oltin aqcha bo'lib, 6 diramga teng ekanligini qayd etgan. Biz V.Xinsning fikriga qo'shilamiz.

Pul qiyatini ifodalovchi o'lchov birlıklaridan yana biri Dirham//Dirham - kumushdan yasalgan bo'lib, uni arablar "dirham" deb nomlashgan. "Lug'atnoma" asarida o'ndan bir (1/10) dinorga tengligi ko'rsatilgan. "Dirham"ning qiyatini "dinor"ga qaraganda kichik bo'lgan, chunki "dirham" kumushdan yasalgan. J.Laparov tuzgan lug'atida dirham 3,12 grammga teng oltin tanga deb bersa, ba'zi tarixiy asarlarda 3,186 grammga teng ekanligi ko'rsatiladi [Ланаков 1994, 64].

O'rtta asr xalq hayotida keng qo'llanilgan o'lchov birlıklarini leksemalarini o'sha davr uchun xos bo'limgan yoki ayni paytdagi xalqaro o'lchov birligi tizimida qabul qilingan termin orqali o'girish to'g'ridan-to'g'ri anaxronizmga olib kelgan bo'lar edi. Mutarjimlar anaxronizmdan saqlangan holda, bu o'lchov birlıklarini leksemalarini qayta tiklash jarayonida tarjimaning boshqa usulidan foydalaniib, qayta tiklasa ham bo'ladi. Shuningdek, "tarimon har bir muayyan holatga ijodiy yondashishi, muallif fikrini to'g'ri aks ettirish uchun qayg'urishi shart" [Файзуллаева 1979, 57].

Xuddi shuningdek, pul va baho o'lchov birligi leksemalarining tarjimasini, mutarjim ro'baro' keladigan

murakkab masalalardan biridir. Chunki baho birliklari har bir xalq tilida nafaqat nomlanishi, balki qimmati jihatidan ham bir-biridan keskin farq qiladi. Hatto muayyan bir xalq hayotida ma'lum bir baho o'lchov birligi turli davrlarda turli qiyatlarga ega bo'lishi ayon. Bu, albatta, o'sha davr hayotining iqtisodiy ahvoli, moddiy shart-sharoitlari bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda kundalik turmush tarzimizda ishlataladigan baho birliliklari hammamizga tanish bo'lishiga qaramay, o'tmishda ota-bobolarimiz tushunchalaridan kelib chiqqan holda nomlangan va belgilangan baho o'lchovlari haqida hamma ham aniq ma'lumotga ega emas, albatta. Bunday baho o'lchov birliliklarini endilikda faqat ilmiy yoki tarixiy badiiy asarlarda uchratamiz. Qadimda O'rta Osiyoda pul, paqir, miri, tanga o'lchov birliliklari bo'lib, kumush va tilla tangalar alohida farqlangan [Mycae 1976, 35].

A.Beverij tarjimasida: The agreement is to give one shahruxhi for each yoke of oxen and seven for headship in a household; there is also service in the army (A.B.379), tarzida tarjima qilingan. Ushbu tarjimada one shahruxhi shaklida Leyden-Erskin bergan transkripsiyan farqli shaklda beriladi, A.Beverij ham izohda Leyden-Erskin tomonidan izoh keltiriladi, deb aytib o'tadi, yetti shohruxiy tarjimasi seven tarzida ifodalab beriladi. Bu ham har uchala tarjima orasida A.Beverijning o'ziga xos uslubidan darak beradi.

V.Tekston tarjimasida: ... that is, one shahruxhi per yoke of oxen and seven shahruxhis per household (W.T.286), deb keltiriladi. V.Tekston ham A.Beverij kabi transliteratsiya qiladi, lekin yetti shohruxiyi seven shahruxhis kabi qayta tiklaydi.

Yuqorida pul qiymat birliklaridan biri shohruxiyning tarjimasini tahlilga tortdik, tahlil natijasidan ko'ryapmizki, har bir tarimon o'z uslub doirasida yondashgan, har uchala tarjimada ham bir xillik ko'zga tashlanmaydi, transliteratsiya asosida tarjima qilgan bo'lsalar-da, turlicha yondashuvni kuzatdik.

Asarda biror buyumming, narsaning qiymatini anglatadigan yoki voqealar rivojiga bog'liq holda muallif bayonida milliy ruhni ifodalab kelgan pul birliklarini tarjimada berishning birdan-bir usuli transliteratsiyadir. Chunki asliyatda qo'llanilgan tarixiy pul birliklari hududiy jihatidan ancha uzoqda joylashgan, tarixan turli rivojlangan, turmushning moddiy va ma'naviy taraqqiyot xususiyatlari jihatidan keskin farq qilgan boshqa bir xalq tilida aynan muqobili yoki o'xhashi bo'lmashligi mumkin. Ammo asardagi davr ruhi, voqealar rivoji o'sha pul birligini talab etadi. Bunda bir xalq pul birligini boshqa bir xalq pul birligi bilan berib bo'lmaydi.

## ADABIYOTLAR

1. Otajonov N. "Jahongashta Boburnoma". – T., 1996. - 271 b.
2. Rahimov G'. Tarjima nazariysi va amaliyoti. – T., 2016. - 132 b.
3. Salye M. Iz uzbekskix klassikov. –Tashkent, 1946. – 178 b.
4. Safarov SH. Pragmalingvistika. –Toshkent, 2008.- 285 b.
5. Xolmanova Z. "Boburnoma" leksikasi. – Toshkent: "Fan", 2007. - 234 b.
6. Babur. Traktat ob aruze / Pod. red. I.Stebleva. – M., 1972.–175 s.
7. Babochkin B.A. Mesyats v Indii. – M.: Iskusstvo, 1959. - 152 s.
8. Bacque - Grammont J.L. Le livre de Babur. – Paris, 1980. - 238 p.
9. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiri'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969. – 25 p. — New Delhi, 1970. – 78 p. Lahore, 1975. – 72 p.
10. Blagova G.F. O xarakteristike grammaticeskogo stroya
11. Diane Lee Smith. Claire Martin in English: Theory and Practice of Literary Translation. The Dissertation of PhD. The University of Alberta. Edmonton. – Alberta, 1976. - 312 p.
12. Eiji Mano. Bābur-nāma (Vaqāyi). Critical Edition Based on Four Chaghatai Texts with Introduction and Notes. – Kyoto, Shōkadō, 1995. - 630 p

Bu hol tarixiy asardagi muayyan xalqlarning tarixiy-milliy pul birliliklari tarjimasi uchun ham xosdir.

Asliyatdagi bir shohruxiy va yetti shohruxiy pul birliliklarini tarjimonlar transliteratsiya usulida o'girib ketganlar.

Transliteratsiya haqiqatan ham tarjimonlar uchun eng quay yo'l. Transliteratsiyada shu so'zning ma'nosini o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun matn ostida izohlab boriladi. Lekin izoh haqida gap ketar ekan, shuni aytish kerakki, izohlash imkoniyatini aslo suiiste'mol qilmasdan, undan juda noiloj bo'lgan paytdagina foydalaniib qolgan paytda iloji boricha masalani matnning o'zida, hech bo'limganda, tasviriy yo'l bilan hal qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki asarni shavq bilan o'qib borayotgan kitobxon izoh talab birlikka to'qnashib, to'xtab qolishi, uning izohi uchun qaydga murojaat qilishi maqsadga muvofiq emas. Bu narsa kitobxonga ta'sir qilib, asar haqidagi haqqoniy tasavvurining qisman bo'lsa-da, so'nishiga sabab bo'ladi.

Pul faqat tushunchalariniga emas, balki aniq miqdordagi baho o'lchovini ham anglatgan. Bir pul – qadrsiz, durustroq narsa xarid qilib bo'lmaydigan qora chaqani ifodalagani uchun ham, ko'chma ma'noda mulzam bo'lgan, uytga qolgan odamga nisbatan obro'si bir pul bo'ldi, degan ibora ishlataligan. Hozirgi vaqtida ham jonli tilda bu iboranı uchratishimiz mumkin. Demak, baho o'lchov birliliklari narxnavodagi muayyan qiymatni ifodalashdan tashqari ko'chma ma'noda ham qo'llanishi mumkin ekan. Shu boisdan tarjiman tarjima qilgan asaridagi baho o'lchov birligining qiymatini, qo'llanilgan o'mini, bajaratoytan vazifasini hisobga olgan holda ish ko'rishi muqobililikka erishida muhim omillardan hisoblanadi.

**Xulosa.** Pul qiymatini ifoda etuvchi o'lchov birliliklari ham izoh va sharhlarga berilish orqali adekvat o'girilmagan. Garchi tarjimonlar bu o'rinda ingliz tili retseptori ehtiyojni hisobga olgan bo'lsalar-da, bu tadbir oqibatida kelib chiqadigan matn g'alizligini ko'zdan qo'chirganlar. Natijada pul qiymatini beruvchi o'lcham tarjimalarda to'la ifodalananmay qolgan. Bu jihatlar tarjima amaliyotiga kirishishdan oldin shu xalq tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlaridagi nozikliklarni to'la o'rganishga undaydi.

Ammo Leyden-Erskin, A.Beverij, V.Tekston tarjimalarining shunday ijobji, pragmatik xususiyatlari ham borki, ularni umumlashtirib nashr ettrish Yevropa inglizzabon o'quvchilariga "Boburnoma" va unda aks etgan o'lchov birliliklariga oid teran tasvirlar mohiyatini anglash imkonini beradi.



Sohiba YUNUSOVA,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi  
E-mail: sohibayunusova007@gmail.com

UO'K: 811.133.1'25:659.1811.512.133'25:659.1

O'zDJTU dotsenti (DSc) A. Mo'minova taqrizi asosida

## GENDER CHARACTERISTICS OF ADVERTISING TEXTS IN FRENCH AND UZBEK

### Annotation

In this article, the concept of advertising and its development stages were analytically described. Emphasis was placed on the close approach of advertising experts and linguists to the concept of advertising. It was argued that advertising research is the reason for the researches being carried out in the field of linguistics today.

**Key words:** Advertising, addressee, information medium, monologic text, professional ambition, tendency, communicative manipulation.

## ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ НА ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

### Аннотация

В данной статье аналитически описано понятие рекламы и этапы ее развития. Акцент был сделан на близком подходе специалистов по рекламе и лингвистов к понятию рекламы. Утверждалось, что рекламные исследования являются причиной исследований, проводимых сегодня в области лингвистики.

**Ключевые слова:** Реклама, адресат, адресат, носитель информации, монологический текст, профессиональные амбиции, тенденции, коммуникативная манипуляция.

## FRANSUZ VA O'ZBEK TILIDAGI REKLAMA MATNLARINING GENDER XUSUSIYATLARI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada reklama tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari tahlili bayon etildi. Unda reklamashunos va tilshunos olimlarning reklama tushunchasiga yaqindan yondashuvlari masalasiga urg'u berildi. Reklama tadqidi bugungi kunda tilshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarga sabab bo'lishi asoslandi.

**Kalit so'zlar:** Reklama, adresat, adresant, axborot vositasi, monologik matn, kasbiy ambitiya, tendensiya, kommunikativ manipulyatsiya.

**Kirish.** Dunyo tilshunoslida inson va til nisbiyligi omili, tillarning o'zaro aloqalarini, lisoniy hodisalarining mohiyati kabi ilmiy-nazariy muammolarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi rivojlangan jamiyatda turli xizmat va mahsulotlar ko'lamni kun sayin ortib borgani bois ularni ommaga taqdim etishda reklama hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Reklamalarni adresatiga yanada tushunarli bo'lishi uchun uni taqdim etilayotgan xizmat va mahsulotlar haqidagi ma'lumotlar bilan boyitish ma'lumot-axborot matnlarini yaratishga turki bo'ldi. Bu jarayon filologlar va reklama bo'yicha mutaxassislarining e'tiborini o'ziga jalb qildi.

Jahon tilshunoslida o'rganilayotgan til taraqqiyoti doirasida reklama matni til birliklarining chog'ishitirma tadqiqi, erkak va ayol reklama nutqining qiyosiy tahlili, undagi gender xususiyatlarni turli tillar kesimida qiyosiy tahlil qilish, qardosh bo'lmagan tillarda lingvistik, milliy va madaniy xususiyatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Zamonaviy tilshunoslida reklama matnlarining gender xususiyatini har tomonlama lingvistikating yangi yutuqlari bilan bog'liq ravishda tadqiq etishning ahamiyati tobora oshib borib, ularga pragmatik, kognitiv, semantik, sintaktik, stilistik nuqtai nazardan yondashish taqozo etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon va rus tilshunoslida reklama matnlarini tadqiq qilishga asoslangan ilmiy ishlar reklamaning o'ziga xos jihatlariga bag'ishlangan. Jumladan, reklama tili va uning qiyosiy-tipologik xususiyatlarga oid muammolarni P. Bruthiaux, J. Noriss, G. Charmesson, G. Kuk, A. Goddard, S. Nikitina, E. Kurchenkova, E. Il'anova, L. Kochetova, E. Lazareva, E. Kurganova[1] va boshqa ko'plab olimlar ilmiy-nazariy

jihatdan tadqiq etishgan. O'zbek tilshunoslida esa reklama muammosiga oid tadqiqotlar, asosan, sotsiologiya, falsafa va psixologiya fanlari sohasida olib borilmoxda. Jumladan, B.X. Abdullayev reklamaning turli shakllarini tahlil qilgan, A.A. Azlarova esa o'z tadqiqotida reklamaning ahamiyati va foydalarini sharhlagan. N.N. Shomurotova tomonidan o'zbek oilalarida reklama qilinayotgan mahsulotni qabul qilishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berilgan. A.A. Muminova tadqiqotida reklama matnida undash kategoriyasining verballahushi izohlangan[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Reklama dunyoningaksariyat mamlakatlarida keng qo'llaniladigan adresant va adresat o'rtasidagi aloqa vositasidir. XXI asrni reklama sanoatisiz tasavvur qilish qiyin. So'nggi yillarda reklama jamiyatda shunchalik ommalashib ravnaq topdiki, u kundalik hayotimizdan mustahkam o'rinn egalladi. Deyarli har inson ommaviy axborot vositalari, internet, radioreklamalar yoxud tashqi reklama orqali berilgan xabar va ma'lumotlар yordamida o'zi uchun kerakli mahsulotlarni sotib oladi yoki ulardan foydalanadi. Uning shu darajada rivojlanib, ommalashishida rangli bosma nashrlarning rivojlanishi, kompyuter texnologiyalari va Internetning paydo bo'lishi va shiddat bilan ommalashushi, sun'iy yo'ldosh aloqasining yanada rivoj topishi kabi omillar ta'siri muhim rol o'ynadi.

S.Yu. Tyurinaning ta'kidlashicha, reklama – nihoyatda ko'p qirrali va ko'p o'lchovli bo'lib, turli kasbiy sohalar o'rtasida chegara pozitsiyasini egallab, turli kasb vakillari e'tiborini tortadigan hodisadir[3]. Bundan anglash mumkinki, reklama lingvistika, psixologiya, iqtisod, lingvokulturologiya, sotsiologiya va shu kabi bir qator sohalar tutashuvidagi

tushunchadir. Shu sababdan, bu tushunchaning turli talqinlari va atamaning o'ziga xos ta'riflari mayjud.

**Tahlil va natijalar.** Reklama – (lot. reklamo – qichqirmoq) – tovarlarning sifati, ularni sotib olishdan ko'rildigan naf haqidagi axborot; bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to'g'risida tarqatiladigan maxsus axborotdir[4]. Ushbu so'z o'zagi bir qator G'arbiy Yevropa tillarida saqlanib qolgan va rus tiliga fransuz tili orqali kirim kelgan bo'lsa, o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan. Dastlab, lug'atlarda paydo bo'lgan, "xaridorga murojaat qillish" ma'nosida fransuzcha "réclame" so'zining qo'llanilishi XVII asrda to'g'ri keladi. Biroq XIX asrda bu so'z o'z ma'nosida eskirgan hisoblanib, uning o'mriga reklama qabul qiluvchining ommaviyiligini ta'kidlab, roman tillaridagi "publicité" so'zini kiritadilar[5].

Ko'plab olimlar reklamani turlicha tushuntirishga uringanlar. Kimdir reklama tushunchasiga lingvistik, boshqa bir olim marketing nuqtai nazaridan yondashgan. Shu sabab reklama terminiga ta'riflar turli soha mezonlari asosida paydo bo'lgan.

Fransuz tilshunosligida reklama tadqiqotlari asosan klassik ritorika nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Tadqiqotchilar Jan Mishel Adam va Mark Bonhom reklama nutqida ishlataladigan ritorik janrlarni aniqlagan[6]. Asosan reklama matni an'anaviy tarzda adresat va adresat o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida o'rganilgan. Keyinchalik 2000-yillarning boshlariga kelib fransuz tilshunosligida reklamaga gender nuqtai nazaridan qiziqishlar uyg'ongan va shu yo'nalishda tadqiqotlar boshlangan[7].

S.I. Ojegoving ta'kidlashicha, reklama so'zi rus tilining izohli lug'atida "iste'molchilar, tomoshabinlar va boshqalarni jab qilish, biron narsa haqida keng xabardor qilish uchun yaratilgan xabar[8]", deya ta'riflandi. Shuningdek, olimning e'tiroficha, "Reklama – keng tarqalgan shon-sharafni yaratish, iste'molchilar va tomoshabinlarni jab qilish uchun turli usullardagi ogohlantirishdir"[9]. Ushbu ta'rifdan anglashiladiki, har qanday ommaviy axborot vositalaridan tortib, og'zaki tarqatiladigan deyarli har qanday mahsulot haqidagi xabar va ma'lumotlarga reclama hisoblanadi.

AQShlik professor Filip Kotler tomonidan ham reklamaga marketing nuqtai nazaridan o'ziga xos ta'rif berilgan: "Reklama – pul mablag'lari manbai aniq ko'rsatilgan pulli axborotni tarqatish vositasi orqali amalga oshiriladigan shaxsiy kommunikatsiya shakli"[10].

"Zamonaviy reklama" kitobida esa quyidagilar e'tirof etiladi: "Ba'zilar reklamani san'at, ba'zilari esa fan deb bilishadi. Aslida, reklama har ikkisining birikmasidir. Haqiqiy reklama matni ustasi monologik matnlarni ham, dramatik sahnalarini ham qiziqarli yozish mahoratiga, boy fikrlash olamiga, kasbiy ambitsiya, ya'ni boshqalarga qaraganda yaxshiroq yozish istagi singari fazilatlarga ega bo'lishi kerak"[11].

Fransiya Marketing assotsiatsiyasi reklamaning maqsadli auditoriya xususiyatlari bog'liqligiga e'tibor qaratib, reklamani "o'z mahsulotlari yoki xizmatlarini sotishni rag'batlantirish uchun o'zini tanishtirish va muloqot qilish uchun amalga oshiradigan harakat"[12], deya izohlaydi.

Mashhur fransuz ensiklopedik Larousse lug'atida esa reklama so'zi "Biron-bir mahsulot yoki xizmatni targ'ib qilish uchun, odatda bosma yoki og'zaki qilingan mahsulot yoki xizmat to'g'risidagi xabardir. Reklama jamiyatning o'ziga xos manzarasini o'zida namoyon etuvchi, undagi insonlarning ma'naviyatiga, tarbiyasiga, dunyoqarashiga, fikrlashiga ta'sir o'tkazuvchi, shu bilan birga mamlakat iqtisodini yuksaltiruvchi, an'ana va urfatlarini o'zida saqlovchi "kuch"dir. Reklama – reklama vositalari yordamida uning xatti-harakatiga ta'sir qilish va uni muayyan harakatlarni bajarishga undash uchun adresat (reklama beruvchi) va adresat (iste'molchi) o'rtasidagi aloqa jarayoniga qaratilgan aloqaning maxsus turi, deyish mumkin (masalan, mahsulotni sotib olish, g'oyalarni qabul qilish, xizmatlardan foydalanish).

O'zbek tilining izohli lug'atida esa reklama so'zi quyidagicha ta'riflangan: "Reklama (fr. reclamer < lot. reklamere – qattiq qichqirmoq) – muayyan tovar yoki xizmat turlari haqida xaridorni xabardor qilish, ularga nisbatan talab ehtiyojni yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida ana shu tovar va xizmatlar to'g'risida berilgan ma'lumot"[14].

Fransiya "Tijorat reklamasi bilan bog'liq umumiy qoidalari"ning 22-moddasida esa "reklama – to'g'ridan-to'g'ri

yoki bilvosita mahsulot yoki xizmatlar, shu jumladan, ko'chmas mulk, huquq va majburiyatlarni sotishni rag'batlantirishga qaratilgan har qanday aloqa vositasiga" [15], deya ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi O'RQ-776-son "Reklama to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida reklama shunday izohlanadi: "Reklama – har qanday reklama vositalaridan foydalangan holda tarqatiladigan, mazmuni O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan reklamadan foydalanuvchilarga qaratilgan va reklama obyektiiga e'tiborni ja'b qilish, unga bo'lgan qiziqishni shakllantirish yoki qo'llab-quvvatlash, shuningdek uni bozorda bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida ilgari surish uchun mo'ljallangan maxsus axborot" [16].

Z.D. Yandiyevaning ta'kidlashicha esa, reklama oddiy so'zlar bilan aytganda, erkak va ayol qanday bo'lishi kerakligi haqidagi eski patriarxal afgonani belgilaydi [17]. Bu tendensiya ayni kunda har ikki davlat reklamalari birday kuzatilmoqda, reklama o'ziga xos "to'xtatuvchi" kuchga ega bo'lib, erkaklar va ayollarning haqiqiy rolini "eslatishga" qodirdir.

V.G. Kostomarovning fikriga ko'ra esa, reklama tili, reklama matnleri tili, milliy tilning boshqa shakllari qaraganda ko'proq darajada, ko'p jihatdan faoliyattdagi funksional tilning o'ziga xos hodisadir, maqsadlari va ekstremal shartlari reklama matnlarini tuzishda imkon qadar to'liq hisobga olinadi [18].

Reklama tarixi kitobida berilishicha, fransuz tadqiqotchilar reklamani "aloqa vositasining bir turi bo'lib, maqsadli auditoriyani ja'b qilish, ular istagan xatti-harakatni – mahsulotni tanlash va sotib olishga rag'batlantirish" [19], deya izohlaydilar.

Ilk reklama alomatlari qadimgi Yunon va Rimda jarchilar tamonidan berilgan ma'lumotlar-siyosiy chaqiriqlar va qoralashlar, mashhur qo'mondonlarni sharaflash, gladiatorlar jangi, qullar va uy hayvonlari savdosi haqidagi e'lonlar shaklida mavjud edi [20]. 1440 yilda Iogan Gutenberg almashtirib bo'ladigan harf-shriftini ixtiro qilib [21], reklama olamini yangilashga ulkan hissa qo'shdı. Keyinchalik, fotografiyaning paydo bo'lishi bilan reklama matni fotosuratlar bilan to'ldirila boshlandi, ular bir tomonidan ma'lumotlarga ishonchlilik va haqiqatni, ikkinchi tomonidan, jozibadorlikni berar edi. 1704 yili "Boston nyusletter" gazetasida dastlabki reklama e'lonlari chop etila boshladi. Ilk reklama agentligi 1842 yilda Filadelfiyada Uolna Palmer tomonidan tuzilgan [22]. 1920 yil Peterburgda radioseshittirishlar, 1955 yil rangli televide niye, XX asrning 70 yillarda internet paydo bo'lishi bilan esa radio, tele hamda internet reklamalar ommalasha boshlaydi. Yangi davr kino va televide niye paydo bo'lishi bilan reklama faoliyatiga tengsiz imkoniyatlar berdi. XX asrda reklama evolyutsiyasi otkritikalar, teatr dasturlari, yorliqlar, qadoqlash materiallari kabi ko'rgazmali reklamaning turli shakllari paydo bo'lishiga olib keldi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, reklama – biron-bir mahsulot yoki xizmatni targ'ib qilish uchun, odamlarning keng auditoriyasiga qaratilgan, odatda bosma yoki og'zaki qilingan mahsulot yoki xizmat to'g'risidagi xabardir. Reklama jamiyatning o'ziga xos manzarasini o'zida namoyon etuvchi, undagi insonlarning ma'naviyatiga, tarbiyasiga, dunyoqarashiga, fikrlashiga ta'sir o'tkazuvchi, shu bilan birga mamlakat iqtisodini yuksaltiruvchi, an'ana va urfatlarini o'zida saqlovchi "kuch"dir. Reklama – reklama vositalari yordamida uning xatti-harakatiga ta'sir qilish va uni muayyan harakatlarni bajarishga undash uchun adresat (reklama beruvchi) va adresat (iste'molchi) o'rtasidagi aloqa jarayoniga qaratilgan aloqaning maxsus turi, deyish mumkin (masalan, mahsulotni sotib olish, g'oyalarni qabul qilish, xizmatlardan foydalanish).

## ADABIYOTLAR

1. Bruthiaux P. The Discourse of Classified Advertising: Exploring the Nature of Linguistic Simplicity – New York: Oxford University Press, 1996. – P. 281-285.; Cook G. The Discourse of Advertising. – London; New York: TJ Press (Padstow), 1992. – 251 p.; Goddard A. The Language of Advertising – L., N.Y., 1998. – 144 p.; Никитина С. Национальная специфика текста промышленной рекламы (на материале русско язычных и англо язычных периодических изданий по вычислительной технике): Дис.канд.филол. наук. – Воронеж, 1998. – 231 с.; Курченкова Е. Культурно-языковые характеристики текстов газетных объявлений (на материале английской и русской прессы): Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 2000. – 188 с.; Ильинова Е. Рекламный дискурс: ценности, образы, ассоциации // Рекламный дискурс и рекламный текст (2-е изд.): – М.: Флинта, 2016. – С. 38-56.; Кочетова, Л. Английский рекламный дискурс в динамическом аспекте: автореф. дис. д-ра. филол. наук. – Волгоград, 2013. – 40 с.; Лазарева, Э. Рекламный дискурс: стратегии и тактики // Лингвистика: Бюллетень Уральского лингвистического общества, 2003. – Т. – С. 82-121.; Курганова Е. Игровой аспект в современном рекламном тексте: учебное пособие. – Воронеж, 2004. – 122 с.
2. Abdullayev B.X. O'zbek reklama lingvistikasi: nazariya va amaliyot. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – Andijon, 2020. Azlarova A.A. Tovarlar reklamasini tashkil qilish va samaradorligi (O'zbekiston korxonalari misolida). Iqtisod. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent 2005. Shomuratova N.N. O'zbek oilalarida reklama qilinayotgan mahsulotlar idrokinining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psix. fan nomzodi avtoref. – Toshkent 2011. Mo'minova A.A. Reklama matnida undash kategoriyasining verballahshuv. Filol. fanl. bo'yicha fals. dokt. diss. avtoref. – Toshkent, 2021.
3. Тюрина С.Ю. О понятиях рекламный дискурс и рекламный текст. // «Вестник ИГЭУ» Вып. 1. 2009. – С. 3.
4. Mass Media and Society. Ed. by James Curran and M. Gurevitch. – London/etc./: Edvard Arnold, 1993. –350 p.; Communications Research at Stanford University Wilbur Schramm. Urbana, 1960.; Jefkins F. Advertising Today. – London: Internacionial Text book Co. –1977. 442 p.; Шигапова Д.К. Реклама как социальный институт: дис. канд. соц. наук. Казань, 1995. –138 с.; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. Парчин – Солиқ. – Toshkent. Давлат илмий нашриёти, 2004. – 704 б.
5. Dictionnaire historique de la langue française. Dictionnaires le Robert. – Paris, 2000.v.3. – 4304 p.
6. Adam J.M., Bonhomme M. L'argumentation publicitaire. Rhétorique de l'éloge et de la persuasion. – Paris: Armand colin, 2007.
7. Иссерс О.С. Речевое воздействие: учеб. пособие. – 6-е изд., стер. – М.: ФЛИнта, 2020. – 240 с.; Морозова И.Г. Морозова И.Г. Слагая слоганы. ... М.: Эксмо, 2011. 543 с.; Медведева Е.В. Рекламная коммуникация. - 3-е изд. – Москва: URSS, 2008. – 277 с.
8. Ожегов С. И. Словарь русского языка / С. И. Ожегов / под ред. Н. Ю. Шведовой. Москва: Русский язык, 1989. – 750 с.
9. Петровский А. В. Электронный ресурс: 6
10. Котлер Ф. Маркетинг. Гостеприимство и туризм: Учеб. для вузов. – Москва: ЮНИТИ, 1998. – 168 с.
11. Бове К.Л., Аренс У.Ф. Современная реклама. Тольятти: Изд. Дом Довгань, 1995.
12. Котлер Ф. Основы маркетинга. – Москва, 2001.
13. Le petit Larousse illustré. Encyclopédie. – Paris, 2005. 877 р.
14. O'TIL, III том. A. Madvaliev. – Toshkent, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2011. 373 b.
15. Les règles générales relatives à la publicité commerciale. Paris, 2015. 7 p.
16. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi O'RQ-776-son “Reklama to'g'risida”gi Qonuni // (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.06.2022-y., 03/22/776/0498-son).
17. Яндиева З.Д. Коммуникативные стратегии в гендерном рекламном тексте: Дис. канд. филол. наук. – Нальчик, 2011. – С. 67.
18. Костомаров В.Г. Культура речи и стиль. – Москва: Просвещение, 1960. – 24 с.
19. Histoire de la publicité. file:///C:/Users/Professional/Downloads/5384ce6b9ea57%20(2).pdf
20. Ivan Radovanović. Publicité: Évolution ou révolution. <https://www.academia.edu/11735591> – 20 p.
21. Ромат Е. Реклама. История - теория - практика. Учебник для вузов. – Москва, 2002. – 25с.
22. Stéphane Pincas, Marc Loiseau. Une histoire de la publicité. Broché. Paris – 2008.